O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI

JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI
Boshlang‘ich ta’lim metodikasi kafedrasi

KUTTIBEKOVA GULJAN TULEPBAYEVNA

TEXNOLOGIYA VA UNI O‘QITISH METODIKASI

nomli o‘quv qo‘llanmasi
Boshlang‘ich ta’lim bakalavriat ta’limiy yo‘nalishlari uchun

O‘quv qo‘llanma

TOSHKENT – 2022
«FAN ZIYOSI» NASHRIYOTI

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI

JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

Boshlang‘ich ta’lim metodikasi kafedrasi

KUTTIBEKOVA GULJAN TULEPBAYEVNA

TEXNOLOGIYA VA UNI O‘QITISH METODIKASI

nomli o‘quv qo‘llanmasi
Boshlang‘ich ta’lim bakalavriat ta`limiy yo`nalishlari uchun

O‘quv qo‘llanma

TOSHKENT – 2022
«FAN ZIYOSI» NASHRIYOTI

UO'S: 414.312
KBK: 41.46

Kuttibekova G.T.
TEXNOLOGIYA VA UNI O'QITISH METODIKASI
o'quv qo'llanma – T.: «Fan ziyosi» nashriyoti. 2022. 236 b.

Ushbu o'quv qo'llanmada boshlang'ch sinflar texnologiya faning asosiy mavzularini o'z tarkibiga olgan uslubiy topshiriqlar berilgan. Bu topshiriqlarni bajarish talabalarga boshlang'ch sinflar texnologiyaning maqsadi, mazmuni va tuzilishini o'zlashtirishlariga yordam beradi, shu bilan birga talabalarni o'qitishning turli uslub, vosita shakllarning qo'llanishiga qaratilgan zaruriy ko'nikmalarga ega bo'ladilar. Mazkur o'quv qo'llanmada oliy o'quv yurtlarining 60110500 – "Boshlang'ich ta'lim" bakalavr ta`lim yo'nalishi talabalari uchun mo'ljallangan bo'lib unda "Texnologiya va uni o'qitish metodikasi" fanidan nazariy va amaliy mashg`ulotlar mazmuni yoritilgan.

Tuzuvchi: Kuttibekova Guljan Tulepbayevna

Taqrizchilar:

Xolvoeva G.A – A.Qodiriy nomidagi JDPU "Boshlang'ich ta'lim metodikasi" kafedrasi mudiri

Jabborova O.M – Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti "Boshlang'ich ta'lim" fakulteti "Boshlng'ich ta'lim metodikasi" kafedrasi mudiri, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent vazifasini bajaruvchi

© G.T. Kuttibekova
ISBN 978-9943-747-78-4
© «Fan ziyosi» nashriyoti, 2022

KIRISH

Mamlakatimiz o‘qituvchilarining oldida ulkan vazifa, shiddat bilan olg‘a borayotgan mustaqil O‘zbekiston uchun har tomonlama yetuk kadrlar tayyorlash vazifasi turibdi.

O‘quvchilar “bilish” faoliyati bilangina emas, balki yaratuvchanlik faoliyati bilan ham shug‘ullanadilar; texnologiya ish qurollari, protseslari oddiy o‘rganish obyektlari sifatida emas, shu bilan birga o‘quvchilarning ishlarini faollashtiradi ko‘rsatuvchanlik vositasi, didaktik material ta’limning texnik vositasi sifatida ham xizmat qiladi.

Mazkur o‘quv qo‘llanmaning maqsadi talabalarni umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 1-4 sinflari uchun texnologiya fanini o‘rgatishdan, sinfdan tashqari mashg‘ulotlarni tashkil qilishdan iboratdir. Uning vazifalari esa ana shu texnologiya fani o‘quvchilariga qay tarzda o‘tkazish, ko‘rgazmali qurollar tayyorlash, dars ishlanma, taqvim-mavzu reja tuzish, doskadan foydalanish, o‘quvchilarda kasblarga qiziqish uyg‘otishdan iboratdir.

Texnologiya va uni o‘qitish metodikasi fani pedagogika, psixologiya, tasviriy san’at, tabiatshunoslik fanlari bilan bog‘lanadi. Talabalarning bilish faoliyatini faollashtirish asosida ularni to‘garak ishlariga, ilg‘or o‘qituvchilarning ish tajribalarini o‘rganish va ommalashtirishga, mustaqil ishlar, ma’ruzalar, kurs ishlari va bitiruv malakaviy ishi yozishga jalb qilish tavsiya etiladi. Texnologiya va uni o‘qitish metodikasi fani ta’lim metodikalari kursi fani hisoblanib, fanning asosiy ilmiy izlanishlari natijalariga tayangan holda, ilg‘or o‘qituvchilarning ish tajribasi bilan boyitilgan materiallar asosida yoritib beriladi. O‘quvchilarni amaliy ishga tayyorlash va ularni texnologiya malaka va ko‘nikmalarini egallashlarini taminlaydi. Texnologiya fanining tarbiyaviy ahamiyati o‘quvchilarda texnologiyasevarlik, mas’uliyat, intizomlilik, burch hissi, jamoatchilik hissini tarbiyalashda, o‘quvchilarning aqliy o‘sishida eng muhim iroda va axloqiy sifatlarning rivojlanishiga yordam beradi. O‘quvchilar o‘rtasida yo‘lga qo‘yilgan o‘zaro yordam esa, ularda do‘stlik, birodarlik, umumlashish, jamoatchilik kabi fazilatlarni tarbiyalaydi. Talabalarning fanni o‘zlashtirish jarayonida darsliklar, o‘quv-uslubiy qo‘llanmalar, ma’ruza matnlari, texnik vositalardan unumli foydalanish, uzatish qurilmalari yordamida slaydlardan va elektron materiallar yoki boshqa texnik vositalardan foydalanishda pedagogik texnologiya yutuqlarini qo‘llash, zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish, interfaol usullarni, ta’limiy vositalarni va ta’limiy o‘yinlarni ta’lim jarayoniga tatbiq etishda muhim ahamiyatga ega.

I-MODUL. TEXNOLOGIYA VA UNI O‘QITISH METODIKASINING UMUMIY MASALALARI

1-MAVZU: TEXNOLOGIYA TA’LIMI VA TARBIYASINING MAQSAD VA VAZIFALARI

Reja:

1. Texnologiya fanini o‘qitish metodikasi fanining mazmuni va fanning oldiga qo‘yilgan maqsad va vazifalar.
2. Texnologiya ta’limi jarayonining o‘sishga ta’siri
3. Texnologiya ko‘nikmasi va malakalari bilan qurollantirish

Tayanch so‘z va iboralar: texnologiya tarbiyasi, texnologiya ta’limi, texnologiya natijalari, texnologiya intizomi, nazariy va amaliy ta’lim, texnologiya jarayoni, aqliy texnologiya, axloqiy texnologiya, jismoniy texnologiya, texnikaga oid texnologiya, texnologiya ko‘nikmasi, texnologiya malakasi.

Texnologiya fanini o‘qitish metodikasi fanining mazmuni va fanning oldiga qo‘yilgan maqsad va vazifalar.

Texnologiya fanini o‘qitish metodikasi fanining mazmuni – umumiy o‘rta ta’lim maktablari uchun texnologiya fani o‘qituvchilarini tayyorlash jarayonida o‘qitiladigan texnologiya fanini o‘qitish metodikasi fani asosiy fanlardan biridir. Mazkur fan umumiy o‘rta ta’lim maktablarida texnologiya fanini o‘qitilishi, texnologik jarayonlar xaqida tushuncha berish, talabalarning pedagogika, psixologiya, umum-kasbiy hamda ixtisoslik fanlaridan olgan bilim va ko‘nikmalarini texnologiya darslarini olib borishda tadbiq etishi, umumiy o‘rta ta’lim maktab o‘quvchilari texnologiya darslarida umumtexnologiya, kasb tanlashga yo‘llash ko‘nikmalarini shakillantirishning tashkiliy shakillari, metodlari, shuningdek ularga oid rejalashtiruvchi hujjatlar mazmuni bilan tanishtirish masalalarini qamrab olgan.

Fanni o‘qitishdan maqsad - talabalarga umumiy o‘rta ta’lim maktablarda o‘qitiladiigan texnologiya fanini metodologiyasini, texnologiya darslarida ta’lim tarbiya ishini tashkil etish va uni amalga oshirish, texnologiya fanining o‘quv meyoriy hujjatlarini tahlil qilish va qayta ishlash; pedagogik va axborot texnologiyalari asosida darslarni tashkil qilish va o‘tkazish ko‘nikmasini hosil qilishdan iborat.

Ushbu maqsadga erishish uchun talabalarni fan bo‘yicha nazariy bilimlar, amaliy ko‘nikmalar, bo‘lajak texnologiya fani o‘qituvchilarini pedagogik-psixologik bilimlarini maktab o‘quvchilarida umumtexnologiya, kasb tanlashga yo‘llash va umumkasbiy ko‘nikma va malakalarni shakllantirish jarayonida tatbiq etish;

Pedagogik – psixologik bilimlar, bevosita tanlangan sohalarga va yangi pedagogik, axborot texnologiyalari asosida metodik muammolarni hal etish; texnologiya fani o‘quv usta xonalarini talab darajasida jihozlash va uni nazorat qilish; maktablarda texnologiya darslarini samarali tashkil etish hamda uni amalga oshirish metodikasini shakillantirsh vazifalarini bajarish lozim.

Fan bo‘yicha talabalarninig bilim, ko‘nikma va malakalariga quyidagi talablar qo‘yiladi.

Talaba:

- texnologiya fanining umumiy o‘rta ta’lim maktablarida o‘qitilishi va fan o‘qituvchisining faoliyati, o‘quv ustaxonalarining moddiy texnik taminoti to‘g‘risida tasavvurga ega bo‘lishi;

- texnologik ta’limning rivojlanishi va istiqbollari texnologiya fanida didaktik tamoyillar, dars shakllari, metodlari, texnologiya fanida tuziladigan o‘quv-meyoriy hujjatlar davlat ta’lim standartlarining ishlab chiqish mezonlari va unga qo‘yiladigan talablarni, metodik ishlarni **bilishi va ulardan foydalana olishi;**

- o‘quvchilarning texnologiya tayyorgarligi bo‘yicha o‘quv rejasi, dasturlar mazmunini; o‘quv jarayonini tashkil etish va texnologiya faniga oid rejalashtiruvchi hujjatlarni ishlab chiqish, texnologiya fani darslarini olib borish **ko‘nikmalariga ega bo‘lishi kerak;**

- talaba amaliy malaka xosil qilishi va amalda qo‘llay olishi; texnologiya fani mashg‘ulotlarini o‘tkazish; o‘quv jarayonini rejalashtirish; o‘quvchilar bilimini baholay olish; mahalliy, tabiiy materiallardan foydalanish; darslarni tahlil qilish; darslarni pedagogik va axborot texnologiyalari asosida tashkil qilish va o‘tkazish **malakalarigi ega bo‘lishi kerak.**

2. Texnologiya fanini o‘qitish metodikasi pedagogika sohasining tarmoqlaridan biri sifatida.

Texnologiya fanini o‘qitish metodikasi pedagogika sohasining tarmog‘i sifatida o‘z obyekti, vazifalari va tadqiqot metodlariga ega.

Texnologik ta‘lim jarayoni, shu jarayonning hamma jihatlari: o‘quv materialining mazmuni, o‘qitish metodlari. O‘quvchilarning bilish faoliyati, o‘qitish natijalari va boshqalar, Texnologiya fanini o‘qitish metodikasi o‘rganish obyekti hisoblanadi. Bu jarayonning hamma tomonini o‘rganish o‘quvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olingan holda amalga oshirilishi kerak.

Pedagogika soxasining tarmog‘i sifatidagi texnologiya fanini o‘qitish metodikasi fani oldiga quyidagi asosiy tadqiqot vazifalari qo‘yilgan:

Texnologik ta’lim vazifalarini asoslash, ularning tarbiyaviy va ta’limiy ahamiyatini ochib berish.

Texnologik ta’lim jarayonida o‘quv materialining mazmuni bilan belgilanadigan o‘ziga xos ta’limiy vazifalar, ya’ni “Texnologiya va dizayn” hamda “Servis xizmati” yo‘nalishlari bo‘limlari bo‘yicha turli asboblardan foydalanish usullarini, ular bilan ishlashdagi xavfsizlik qoidalarini o‘rgatish vazifalari ham dars jarayonida hal qilinadi, texnologik ta’limning ta’limiy va tarbiyaviy ahamiyati dasturga muvofiq uning har bir mavzusiga, o‘quv materialining har bir asosiy masalasiga muvofiq ochib beriladi.

O‘quv materali mazmunini asoslash.

Pedagogika kursidan ma’lumki, o‘quv predmetining mazmunini ishlab chiqish uchun, tegishli fan yoki texnika tarmog‘idagi mavjud malumotlardan o‘quv materialini tanlab olish, bu materialni o‘quvchilarning yosh xususiyatlarini, ularning boshqa fanlarga oid bilimlarini hisobga olgan holda ma’lum tartibda tizimga solish zarur.

Faoliyatning istalgan sohasida insoniyat tomonidan to‘plangan bilimlar hajmi benihoya katta, o‘quv ustaxonalarda o‘tkaziladigan mashg‘ulotlarning asosiy bo‘limlari metall va yog‘ochga ishlov berish texnologiyasi, gazlamaga ishlov berish texnologiyasi va pazandachilik asoslari bo‘yicha zaruriy materiallarni o‘quvchilarning yoshlarini hisobga olgan holda tanlanishi zarur. Har bir tanlangan o‘quv materiali mazmuni hayot bilan bog‘lanmog‘i zarur.

Ta’lim jarayonini tashkil etish:

Ta’lim jarayoni o‘zaro chambarchas bog‘langan o‘qitish va ta‘lim olishdan iboratdir. O‘quv jarayonini tashkil etishning usullarini ishlab chiqishda texnologiya fanini o‘qitish metodikasi boshqa o‘quv fanlarini o‘qitish tajribasidan, didaktik tadqiqotlar ma’lumotlaridan foydalanadi. Shu bilan birga ko‘p masalalarni texnologiya fanini o‘qitish metodikasining o‘zi mustaqil hal qilishiga to‘g‘ri keladi.

Sinfdan va maktabdan tashqari ishlar mazmuni va metodikasini asoslash.

Umumta’lim maktablarining barchasida texnologiya fani bo‘yicha maktabdan va sinfdan tashqari ishlar keng tarqalgan. Deyarli barcha maktablarda texnologiya faniga oid to‘garaklar (yosh duradgor, yosh chilangar, bichish va tikish to‘garagi, mohir pazanda to‘garagi va mohir qo‘llar to‘garagi) tashkil etilgan. Barcha to‘garaklarni o‘tkazishdan maqsad o‘quvchilarning nazariy bilimlarini amaliyotda qo‘llay olishga o‘rgatish. Shu bilan birga to‘garakda bajarilgan ishlar natijasi ilmiy tadqiqotlikka (yangilik yaratishga) yo‘naltirilgan bo‘lishi zarur. Bu esa umumta’lim maktablarida o‘tiladigan texnologiya fani oldiga yuksak vazifalarni qo‘yadi.

3. **O‘rta Osiyoda texnologiya tabiyasining tarkib topishi.**

Insoniylik-insonning qadri, erkinligi, baxt-saodati, teng huquqliligi to‘g‘risida, insoniylikning barcha tamoyillarini yuzaga chiqarish uchun shart-sharoitlar yaratib berish haqida g‘amxo‘rlik qilishni ifodalovchi tushuncha. Unga ko‘ra, dunyoda eng qimmatli narsa insondir, butun mavjudot, borliq insonga, uning baxt-saodatiga xizmat qilishi lozim. Inson taqdiri, halq manfaatlari, mamlakat kishilari haqida g‘amxo‘rlik insonparvarlikning asosiy masalasidir.

Insoniylik g‘oyalari uzoq tarixga ega. Ular baxt-saodat va adolatga erishish orzulari tarzida qadimdan halq og‘zaki ijodida, adabiyotda, diniy va falsafiy ta’limotlarda o‘z aksini topib kelmoqda.

Sharq falsafasi va ijtimoiy tafakkurida insoniylik g‘oyalari azaldan keng tarqalgan bo‘lib, uning ko‘p ming yillik tarixi bilan chambarchas bog‘liq. O‘rta Osiyolik mutafakkirlardan Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Mirzo Ulug‘bek, Alisher Navoiy va b. asarlarida insoniylik, inson erkinligi, uning qadr-qimmati g‘oyalari olg‘a surilgan. Forobiy insonlarning inoq va do‘st yashashi mamlakatda halqlar uchun katta foyda keltirishini isbotlashga intilgan va tinchlikni qat’iy quvvatlab, butun faoliyatini inson xizmatiga qaratgan. Navoiy inson taqdiri, halq manfaati, mamlakat haqida g‘amxo‘rlikni asosiy masala qilib qo‘ygan. Dunyoda eng qimmatli narsa insondir, degan fikrni olg‘a surgan. Uning fikricha, butun mavjudot, borliq insonga, uning baxt-saodatiga xizmat qilishi lozim. Jahon dinlari, jumladan islom dinida ham insonparvarlik g‘oyalari o‘z ifodasini topgan. Unda faqir, kambag‘al, musofir, muhtoj kishilarga yordam berishga, saxovatli va insofli bo‘lishga da’vat qilinadi.

Alisher Navoiy ijodi tubsiz ummonga o‘xshaydi. Zero, ul zotning boy ma’naviy merosi shu qadar keng va salmoqliki, unda qayd etilgan mavzularda hayot hodisotlari, inson turmushi, ichki kechinmalari bilan bog‘liq barcha jihatlar qalamga olingan. Shoir o‘quvchi e’tiborini eng muhim tushunchalarga qaratadi. Ularning har biriga alohida urg‘u beradi: ko‘ngil, iymon, saxovat, adab, qanoat, vafo, ishq, rostlik, ilm kabilar teran sharhlanadi. Asarlarida inson, insoniylik belgilari, **“odamiylar odamiysi”,** ya’ni bugunning tili bilan aytganda, komil shaxs haqida ko‘pgina fikrlar uchraydi. Navoiy insonni ulug‘laydi. Uning ko‘ngli muqaddas ekanligini takror-takror ta’kidlaydi. Ayni paytda har bir kishi ezgu nom qoldirishi, umrini yaxshiliklar qilish bilan bezashi muhimligini uqtiradi. Shuning uchun bo‘lsa kerak, yillar, asrlar o‘tsa-da, bobokalonimizning ijodiga bo‘lgan qiziqish tobora kuchayib bormoqda.

Alisher Navoiy komil inson to‘g‘risida butun bir ta’limot yaratdi. Uning nasriy va nazmiy asarlari, g‘azallari, “Hamsa”ga kirgan dostonlari, “Nasoyim ul-muhabbat”, “Tarixi anbiyo va hukamo”, “Holoti Sayid Hasan Ardasher”, “Mahbub ul-qulub”, “Majolis un-nafois”, “Lison ut-tayr” va boshqalarda komil inson qanday bo‘lishi kerakligi, qaysi fazilatlarni egallashi lozimligi haqidagi fikrlar har tomonlama yoritib berilgan.

Navoiyning komil inson ta’limoti negizini tabiat, inson va Allohga bo‘lgan muhabbat belgilaydi. U payg‘ambarlar, aziz avliyolar, piru komillar, orifu so‘fiylar to‘g‘risida so‘z yuritganda, g‘azal va ruboiylarida tabarruk zotlarning xislatu fazilatlari haqida ishq-muhabbat bilan yozgan. Alisher Navoiy asarlarida har tomonlama rivojlangan barkamol insonning qiyofasi, uning barkamolligi, orifli-gini ifodalovchi mezonlar, o‘lchovlar haqida ham ajoyib fikr-mulohazalar yuritilgan. Uning yozishicha, barkamol insonning eng muhim fazilatlaridan biri - halqparvarlik, vatanparvarlikdir. Yurt tashvishi bilan yashab, halqqa ko‘p foyda yetkazgan kishini chinakam halqparvar odam deb hisoblaydi. Bunday fikr-mulohazalarni A.Navoiyning “Arba’in hadis” asarida yaqqol ko‘rishimiz mumkin.

Halq aro yaxshiroq, deding, kimdur,
Eshitib shubha ayla raf andin.
Yaxshiroq bil ani ulus arokim,
Yetsa ko‘proq uluska naf andin.

Barkamol insonga xos fazilatlarni Alisher Navoiyning mashhur qahramoni - Farhod obrazida ham ko‘rish mumkin. Farhodning fe’l-atvori, yurish-turishida, faoliyatida, fozil insonga xos fazilatlarning barchasi jamuljam edi. Ayniqsa, ilmu-hunar o‘rganishga chanqoqlik, halol texnologiya qilish, axloqiy poklik Farhod shaxsini yanada ulug‘laydi, shuning uchun ham el-yurt Farhodni e’zozlaydi. Shoir Farhodning bunday insoniy fazilatlarini quyidagicha ta’riflaydi:

Demonkim, ko‘ngli pok-u ko‘zi pok,
Tili poku, so‘zi poku o‘zi pok.
Munungdek ziynati pokiga loyiq,
Duosin aylabon poki haloyiq,

O‘rta Osiyoda texnologiya tarbiyasi yuqorida nomlari ko‘rsatib o‘tilgan buyuk mutaffakkirlarimiz asarlarida tarannum etilgan va tarkib toptirilgan. Ular inson solohiyati masalalariga ham alohida e’tibor qaratganlar. Inson salohiyati deganda esa quyidagilar tushuniladi:

• ***jismoniy salomatlik;***

• tabiiy va ishlab chiqarish muhitining noqulay ta’siriga *chidamlilik*, uzoq muddatli kuch va asab zo‘riqishiga ***bardoshlik qobiliyati;***

•ijtimoiy-psixologik xususiyatlar: tasavvurlarning barqarorligi, xotira, nutq, inson xarakteri, uning ijodiy qobiliyati, bilimlari va e’tiqodi, ijtimoiy tajribani egallash darajasi, ijtimoiy faollik;

• ***ishlab chiqarish–iqtisodiy xususiyatlari***: malaka, ijtimoiy ta’lim darajasi, kasb tajribasi, tashabbuskorlik va ishbilarmonlik, bajarilayotgan ish sifati va tejamkorlik, xodimlar bilan o‘zaro munosabat, mas’uliyat, texnologiya intizomi, texnika xavfsizligi qoidalariga rioya etish va hokazolardir.

4. **Buyuk mutafakkirlarning texnologiya tarbiyasiga oid fikrlari.**

Alisher Navoiy asarlarida oilaviy baxt, farzand tarbiyasi va texnologiya ta’limiga oid pedagogik ahamiyatga ega, g‘oyat muhim fikrlarni ko‘plab uchratish mumkin. Shoirning fikricha inson uchun kelajak avlodni tarbiyalab komil insonlar qilib yetishtirishdan hayrli va lazzatli narsa yo‘qdir. Navoiy bolaning rivojlanishida unga beriladigan to‘g‘ri tarbiyaning ahamiyatiga alohida e’tibor qaratadi. Bolani faqat to‘g‘ri tarbiya tufayligina kelajakda foydali va mukammal kishi bo‘lib yetishishiga ishonadi. Sharqning buyuk allomalari bo‘lmish Al-Buxoriy, At-Termiziy, Burxoniddin Marg‘inoniy, Mahmud Qoshg‘ariy, Abu Nosir Farobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino, Sa’diy Sheroziy, Bobur va boshqa ko‘plab mutaffakkirlarimiz texnologiya ta’limi va tarbiyasi to‘g‘risidagi o‘zlarining fikr va mulohazalarini kelajak avlod uchun meros qilib qoldirishgan. Yosh avlodga kasbiy ta’lim-tarbiya berish jarayonini mukammallashtirish uchun kasb-hunar pedagogikasining umum bashariy yutuqlari bilan birgalikda milliy pedagogikamizning yutuqlari, Markaziy Osiyo mutaffakkirlarining pedagogik qarashlaridan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2021-yil 6-yanvardagi Oliy Majlisga murojaatnomasida yoshlar, ularning ta’lim-tarbiyasi va ularga kasb-hunar berishning ahamiyati “... har qanday jamiyat taraqqiyotida uning kelajagini ta’minlaydigan yosh avlodning sog‘lom va barkamol bo‘lib voyaga yetishi hal qiluvchi o‘rin tutishi. Shu sababli islohotlarimiz ko‘lami va samarasini yanada oshirishda har tomonlama yetuk, zamonaviy bilim va hunarlarni puxta egallagan, azmu shijoatli, tashabbuskor yoshlarimizga tayanishimiz.” to‘g‘risidagi fikrlarini davom ettirib “Ushbu maqsad yo‘lida yoshlarimiz o‘z oldiga katta marralarni qo‘yib, ularga erishishlari uchun keng imkoniyatlar yaratish va har tomonlama ko‘mak berish - barchamiz uchun eng ustuvor vazifa bo‘lishi zarur. Shundagina farzandlarimiz halqimizning asriy orzu-umidlarini ro‘yobga chiqaradigan buyuk va qudratli kuchga aylanadi.

Shu maqsadda “Yangi O‘zbekiston - maktab ostonasidan, ta’lim-tarbiya tizimidan boshlanadi”, degan g‘oya asosida keng ko‘lamli islohotlarni amalga oshiramiz.

Birinchidan, yosh avlodga bog‘cha, maktab va oliygohda sifatli ta’lim-tarbiya berishni yo‘lga qo‘yamiz, ular jismoniy va ma’naviy sog‘lom, vatanparvar insonlar bo‘lib ulg‘ayishi uchun barcha kuch va imkoniyatlarni safarbar etamiz.

Ikkinchidan, yoshlarni zamonaviy bilim va tajribalar, milliy va umumbashariy qadriyatlar asosida mustaqil va mantiqiy fikrlaydigan, ezgu fazilatlar egasi bo‘lgan insonlar etib voyaga yetkazamiz.

Uchinchidan, o‘g‘il-qizlarimizni texnologiya bozorida talab yuqori bo‘lgan zamonaviy kasb-hunarlarga o‘rgatish, ularda tadbirkorlik ko‘nikmalari va texnologiyasevarlik fazilatlarini shakllantirish hamda tashabbuslarini ro‘yobga chiqarish, ish va uy-joy bilan ta’minlashga ustuvor ahamiyat qaratamiz.

Bir so‘z bilan aytganda, bola tug‘ilganidan boshlab, 30 yoshgacha bo‘lgan davrda uni har tomonlama qo‘llab-quvvatlaydigan, hayotda munosib o‘rin topishi uchun ko‘mak beradigan, yaxlit va uzluksiz tizim yaratiladi.” degan so‘zlari orqali ta’lim sohasidagi oldimizda turgan asosiy vazifalarimizni ko‘rsatib berdi.

“Bugun bizning oldimizda shunday tarixiy imkoniyatlar paydo bo‘ldiki, - degan edi birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov - biz bosib o‘tgan yo‘limizni tanqidiy baholab, milliy davlatchiligimiz negizlarini aniqlab, buyuk madaniyatimiz tomirlariga, qadimiy merosimiz tomirlariga qaytib, o‘tmishdagi boy an’analarni yangi jamiyat qurilishiga tatbiq etmog‘imiz kerak”, shu ma’noda o‘quvchilarni kasbga yo‘naltirishda, ayniqsa milliy hunarmandchilik hamda zamonaviy industrial kasblardan o‘ziga xos texnologiya mazmuniga e’tibor qaratish talab etiladi.

Buyuk ajdodlarimiz kasb-hunarli kishilarni hunarmand deb atashgan hamda ularning jamiyatdagi ijtimoiy holatini hunarmandchilik bilan bog‘lagan chunki, Markziy Osiyoning qo‘li gul ustalari yaratgan san’at durdonalari kishilarga zavq beradi. Har bir hunarmand o‘z hunarini faqat o‘ziga xos texnologiya mazmunlari bilan boyitib, hunarini rivojlantirib kelgan. Buyuk ajdodlarimiz o‘z asarlarida hunarga xos fikrlarini ifodalagan. Ulardan biri bunday degan edi: “Ey farzand, agar oqil, dono bo‘lay desang, hunarmand bo‘lishni o‘yla, hunarmandchilik sababidan izzat hurmatga erishasan, agar hunardan bebahra bo‘lsang, quruq soyasiz daraxtga o‘xshab qolasan, ey farzand, aqlu farosatli va ilmu hunarli kishilar bilan do‘st bo‘l, hunarsiz kishida xosiyat bo‘lmaydi, texnologiyadan, ilmu hunar o‘rganishdan uzoqlashma”.Axloqshunos olim Majid Havofiy hunarmandchilik to‘g‘risida bunday degan edi: “Hunarmandlarni e’zozla, hunarmandchilikka ruju qo‘ygan halqning hurmat va e’tibori oshadi”. Payg‘ambar Dovut alayhissalom temirchilik, al-Farobiy bog‘bonlik, shoir Sakkokiy pichoqchilik, shoir Zavqiy mahsido‘zlik bilan tirikchilik o‘tkazgan. Bobomiz xo‘ja Bahovuddin Naqshbandiy ham hunarmandchilik bilan shug‘ullanib, Turkistonda birinchilardan bo‘lib odamlarni hunar o‘rganishga va hunarmandchilik bilan shug‘ullanishga chorlagan. Sharq mutaffakkirlaridan Ahmad Donish hunarmandchilik va texnologiya qilish to‘g‘risida shunday degan: “Bilim va hunar egallamay o‘zining nasl nasabi bilan maqtanib yuradigan yoshlar biror ijobiy fazilatga ega emas, ular hosil bermaydigan mevali daraxtga o‘xshaydi, undaylarni jamiyatga foydasi tegmaydi, aksincha zararli ta’sir ko‘rsatadilar”.

Boshqa buyuk Sharq mutaffakkirlari texnologiya va kasb to‘g‘risidagi fiklarini quyidagicha ifodalaydi: A.Navoiy: “Umrni zoye etma texnologiya qil, texnologiya saodatni kalitideb bil”. H.Dehlaviy: “Ba’zi kun yoshlar safida bo‘zla ammo, ish tadbirini keksadan izla”, “O‘ylasang hayotning salohiyatini, o‘ylagin texnologiyaning ham mohiyatini”. Shunga o‘xshash misralarni Sharq mutaffakkirlari asarlarida ko‘plab topish mumkin. Tajribalardan ma’lumki yaxshi

kasb-hunar tarbiyasini olmagan o‘quvchi bilan ishlash ancha muammolarning kelib chiqishiga sabab bo‘ladi. Buning asosiy ildizi oiladagi “ota-kasb” va “ustoz-shogird” kabi ijobiy muhit yaratilishi, ota bilan onaning hamkorligidan kelib chiqadi. Shu o‘rinda A Rudakiyning : “Har kimki hayotdan olmasa ta’lim, unga o‘rgata olmas hech bir muallim”, degan misralarini keltirish mumkin. Shunday ekan, biz har birimiz hayotdan ta’lim olib, kelajagimiz bo‘lgan yosh avlodlarni mustaqil davlatimizning ishonchli a’zolari qilib tarbiyalashda Sharq mutaffakkirlarining pedagogik merosidan foydalanishimiz muhim ahamiyat kasb etadi.

5. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida texnologiya fanining tarixiy taraqqiyoti va istiqbollari. O‘rta Osiyoda yoshlarga texnologiya ta’limini berishning yo‘lga qo‘yilishi sharq mutafakkirlarining pedagogik g‘oyalari uzoq o‘tmishga borib taqaladi. O‘rta Osiyodan o‘tgan qadimiy “Buyuk ipak yo‘li” Xitoy, Vizantiya, Hindiston shaharlari bilan bog‘lanib, madaniyat va san’atni rivojlantirish va ilmga bo‘lgan qiziqishga alohida e’tibor berishni taqazo etgan. Ma’lumki ibtidoiy jamiyatda kishilar o‘zlarining juda oddiy texnologiya faoliyati jarayonida ko‘pgina ehtiyojlarni qondirganlar. O‘g‘il bolalar katta erkaklar bilan yurib ov qilish, qurol yasash ishlarini bajarganlar. Qizlar esa uyda qolib, onalariga yordamlashib, uy texnologiyasining barcha turlarini o‘rgangan. Bu davrda texnologiya tarbiyasi faqat oila doirasida olinar edi. Ota-onalar bolalariga texnologiya qilish asosida axloq va odobdan saboq bera boshlaganlar. Yoshlarimizni tarbiyalash uchun ko‘proq sharq mutafakkirlarining duru javharga teng ma’naviy meroslari misol bo‘la oladi. Abu Nasr Farobiy, Ahmad Yassaviy, Bahovuddin Naqshbandiy, Imom al- Buxoriy, Firdavsiy, Amir Temur singari jahonga taniqli va shular singari boshqa aql-u donish egalarining ijtimoiy siyosiy, falsafiy, ta’limotlariga tayanish lozim. Qadimda hunar o‘rganish muqaddas sanalgan. Har bir kishi kelajak avlodlariga o‘zidan qoldirgan hunarlarini o‘rgatib kelgusida kasbiy faoliyatlari belgilab berilgan. Texnologiya tarbiyasi shu davrning siyosiy tuzulishiga mos bo‘lgan. Texnologiya ta’limi fanining fan sifatida umumiy o‘rta ta’lim maktablariga kirib kelishi sobiq ittifoq yillariga to‘g‘ri keladi. Bu davrlarda texnologiya ta’limi ishlab chiqarish texnologiyasi bilan uyg‘unlashtirilgan. Bir guruh o‘qituvchilar va metodistlar maktabda o‘qitiladigan fanlarni hayot bilan bog‘lash uchun maktabda texnologiya ta’limi fanining mustaqil fan sifatida kiritilishi zarurligini taklif bergan. Ikkinchi guruh pedagoglar birinchi guruh fikrlarini inkor qilib, maktab o‘quv rejasidan o‘rin olgan boshqa fanlarni o‘qitish orqali ham texnologiyaga o‘rgatish mumkinligini maqullangan. 1920-yildan boshlab texnologiya ta’limi maktab o‘quv rejasida fan sifatida emas, balki kompleks tizim, keyinchalik loyiha tizimi asosida o‘qitilgan. 1932-yilda boshlang‘ich va o‘rta ta’lim maktablarining o‘quv dasturlari va rejimi to‘g‘risidagi qarorida maktablarda fan asoslarini predmetli o‘qitish ishlab chiqilgan. O‘quv rejasiga boshqa o‘quv fanlari bilan bir qatorda texnologiya ta’limi ham mustaqil predmet bo‘lib kirgan. Bu davrda texnologiya ta’limi o‘qituvchisi mutaxassislari taminlanmaganligi sababli 1937-yilda maktablarda mustaqil o‘quv fani sifatidagi texnologiya ta’limi tugatildi. 1952-yilda texnologiya ta’limiga jamoatchilik etibori qaratildi va maktabda politexnik ta’lim va texnologiya tarbiyasini rivojlantirish zarurligi ko‘rsatildi. 1954-yilda texnologiya ta’limini o‘rta maktab o‘quv rejasiga o‘sib kelayotgan yosh avlodni kamol toptirish vositalaridan biri sifatida kiritildi. Shu yillardan boshlab

texnologiya ta’limi fanida o‘quvchilarni kasbiy tayyorlash yo‘lga qo‘yildi va 200 turdagi kasblarga tayyorlandi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-sonli farmoni asosida 2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi tasdiqlandi. Uning “Ta’lim va fan sohasini rivojlantirish” deb nomlangan 4.4-bandida:

- uzluksiz ta’lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta’lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, texnologiya bozorining zamonaviy ehtiyojlariga mos yuqori malakali kadrlar tayyorlash siyosatini davom ettirish;

- umumiy o‘rta ta’lim sifatini tubdan oshirish, chet tillar, informatika hamda matematika, fizika, kimyo, biologiya kabi boshqa muhim va talab yuqori bo‘lgan fanlarni chuqurlashtirilgan tarzda o‘rganish;

- kasb-hunar kollejlari o‘quvchilarini bozor iqtisodiyoti va ish beruvchilarning ehtiyojlariga javob beradigan mutaxassisliklar bo‘yicha tayyorlash hamda ishga joylashtirish borasidagi ishlarni takomillashtirish kabi vazifalar qo‘yildi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 24-oktyabrda “Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarining maktab o‘quvchilariga kasbiy ta’lim berishga ixtisoslashgan o‘quv-ishlab chiqarish majmualarini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi 868-sonli qarori o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi, umumiy o‘rta va o‘rta maxsus ta’limni yangi tipdagi ta’lim muassasasi sifatidagi rivoji, pedagog kadrlarni tayyorlash va ularning malakasini oshirish kabi masalalarga alohida e’tibor qaratildi.

Unga asosan umumiy o‘rta ta’lim muassasalarining o‘quvchilari ta’lim olishlari bilan birgalikda ularga kasb-hunar o‘rgatish, o‘quvchilarning qiziqish va qobiliyatlaridan kelib chiqqan holda kelajakda ularning ta’limni davom ettirishlari yoki egallagan kasblari bo‘yicha texnologiya faoliyati bilan shug‘ullanishlariga shart-sharoitlar yaratish maqsadida o‘quv-ishlab chiqarish majmualari tashkil etildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 25-yanvardagi “Umumiy o‘rta, o‘rta maxsus va kasb-hunar ta’limi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi PF-5313-sonli farmoniga asosan 2018-2019 o‘quv yilidan boshlab majburiy umumiy o‘rta va o‘rta maxsus ta’lim umumta’lim maktablarida, shu jumladan, ixtisoslashtirilgan maktablarda, ixtisoslashtirilgan san’at va madaniyat maktab-internatlarida, ixtisoslashtirilgan olimpiya zaxiralari maktab-internatlarida hamda akademik litseylarda uzluksiz va 11 yillik muddatda amalga oshirila boshlandi.

Respublikamizda umumiy o‘rta ta’lim tizimida boshlang‘ich kasb-hunar ta’limi joriy etilgan bo‘lib, 51 turdagi ishchi kasblar bo‘yicha kasb-hunar kollejlari hamda umumta’lim maktablarida 1748 ta o‘quv-ishlab chiqarish majmualari tashkil etilgan. Oxirgi yillarda ta’lim sohasiga alohida e’tibor berilmoqda. To‘rt (2017-2021 yillar) yil ichida 134 ta yangi maktab qurilib, 2 ming 965 ta maktab rekonstruksiya qilindi. Hozirda respublikada 10 mingdan ziyod davlat umumta’lim, 171 ta nodavlat, 18 ta davlat-xususiy sheriklik shaklidagi maktablar faoliyat ko‘rsatmoqda. Jumladan, 56 ta matematika, 28 ta kimyo-biologiya, 14 ta axborot

texnologiyalari fanlariga ixtisoslashtirilgan maktablar tashkil etildi. Fizika va chet tillariga ixtisoslashtirilgan maktablar ochishga alohida e'tibor berilmoqda. 2021 yil sentyabr oyida 14 ta fizika va 207 ta chet tillariga ixtisoslashtirilgan maktab o'z faoliyatini boshladi. Bitiruvchi yoshlarni oliy ta'lim bilan qamrab olish darajasi 2016 yildagi 9 foizdan 2020-yilda 25 foizga yetdi. Mazkur ko'rsatkichni joriy yilda 28 foizga, 2030-yilda 50 foizga yetkazish-asosiy vazifa qilib belgilangan. Mamlakatimizda faoliyat ko'rsatayotgan 137 ta oliy o'quv yurti, 339 ta kasb-hunar maktabi, 193 ta kollej va 196 ta texnikum umumiy o'rta ta'lim bitiruvchilariga maktabdan keyingi ta'limni amalga oshirmoqda. Bitiruvchilar uchun ishlab chiqarishdan ajralmagan holda oliy ma'lumot olish imkoniyati ham yaratilgan. Shu maqsadda 71 ta oliy ta'lim muassasasida sirtqi, 18 ta o oliy ta'lim muassasasida kechki bo'limlar faoliyat ko'rsatmoqda. Iqtisodiyotning turli soha va tarmoqlaridagi ehtiyojdan kelib chiqib, so'nggi 5 yilda bakalavriat bosqichida 134 ta ta'lim yo'nalishi, magistraturada 147 ta mutaxassislik yangidan tashkil etildi. OTM larda 2021−2022 o'quv yilidan boshlab bosqichma-bosqich masofaviy ta'lim shaklida ham kadrlar tayyorlash yo'lga qo'yiladi. Yaratilgan bu sharoitlat Texnologiya ta'limi ta'lim yo'nalishi uchun ham tegishli.

Texnologiya ta'limi fanining taraqqiyoti tahlil qilinganda turli siyosiy davrlarda fanning mazmuni o'zgarib borganligini kuzatishimiz mumkin, jaxondagi rivojlangan davlatlar ta'lim tizimi o'rganilganda texnologiya ta'limiga katta etibor qaratilganligi va o'quvchilar maktab yoshidan mustaqil ijodiy ishlarni bajarishga o'rgatilayotganligini ko'rish mumkin. Shu kungacha texnologiya ta'limi darslarida o'quvchilarga oddiy texnologiya usullari o'rgatib kelinganligi va oddiy qo'l asboblaridan foydalanib maxsulot tayyorlanishi sababli fanning nomi ham "Texnologiya ta'limi" deb yuritilishiga mos bo'lgan. Har qanday mahsulot tayyorlash zamonaviy asboblardan foydalanish bilan birga ma'lum bir ketma-ketlikdagi texnologik jarayonlardan o'tadi, shuning uchun texnologiya ta'limi fanining nomini o'zgartirish, qolaversa, mazmunini tubdan qayta ko'rib chiqish va o'zgartirish orqali erishiladi. Respublikamizda umumiy o'rta ta'lim muassasalarini oldiga qo'yilgan o'quvchilarni halq xo'jaligining turli sohalarida samarali texnologiya qilishga, kasb-hunarlarni ongli ravishda tanlashga tayyorlash bo'yicha ijtimoiy buyurtmasini bajarishda texnologiya ta'limi o'qituvchisining roli katta. Davlat ahamiyatiga molik ushbu vazifani bajarish texnologiya ta'limi o'qituvchisidan o'z kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarini, kasbiy mahoratini takomillashtirishni hamda dinamik ravishda rivojlanib borayotgan pedagogik jarayon talablari darajasida pedagogika, psixologiya, metodika fanlari yutuqlari, zamonaviy texnika va ilg'or texnologiyalar, ishlab chiqarish va bozor iqtisodiyoti munosabatlari bo'yicha mukammal bilimlar, ko'nikmalarini egallashni taqazo etadi. Shu munosabat bilan, texnologiya ta'limi o'qituvchisining bilim, ko'nikma va malakalari ko'lami va sifati, uning ta'lim-tarbiya jarayonini umumiy o'rta ta'lim DTS talablari asosida tashkil etish va o'tkazish bo'yicha erishgan yutuqlari va yo'l qo'ygan kamchiliklari, kasbiy mahorati kabi murakkab va ko'p qirrali faoliyatini takomillashtirish jarayonining didaktik shart-sharoitlarini aniqlash, maqsadga muvofiq ravishda uning shakl, tur va vositalarini optimal tanlash asosida, nazorat o'tkazish metodikasini ishlab chiqish, uning mazmunini boyitish, bu sohada

mamlakatimiz miqyosida amalga oshirilayotgan tashkiliy ishlar tahlili, bu borada amalga oshirilayotgan barcha tadbirlarning ilmiy-uslubiy asosida tashkil etilishini talab qilmoqda.

SAVOLLAR.

1. Texnologiya ta’limining maqsadi qaysilar?
2. Texnologiyaga nisbatan qanday munosabatda bo‘lish lozim?
3. Texnologiyaga oid texnik bilimlar bilan qurollantirish qanday amalga oshiriladi?

Foydalanilgan asosiy adabiyotlar:

1. R.A.Mavlonova va boshqalar. Umumiy pedagogika. Darslik. “Navro‘z” nashriyoti.T.2016.

2. M.T.Satbayeva. Mehnat o‘qitish metodikasi. Ma’ruzalar matni.T. 2015-y.

3. R.Ishmuhamedov, A.Abduqodirov, A.Pardayev. Tarbiyada innavatsion texnologiyalar T. 2010.

4. R.A.Mavlonova, M.T. Satbayeva. Mehnat o‘qitish metodikasi. O‘quv qo‘llanma T. 2012-y.

2-MAVZU: TEXNOLOGIYA VA UNI O‘QITISH METODIKASI FANINING NAZARIY VA AMALIY ASOSLARI

Reja:

1. Dars – o‘quv ishlarining asosiy turi va ularga qo‘yiladigan talablar.
2. Dars tipi va uning tuzilishi.
3. Darsning maqsad va vazifasini belgilash.
4. Boshlang‘ich sinflardagi zamonaviy darslarga qo‘yiladigan talab va ular samaradorligining oshirish shartlari.
5. Texnologiya ta’limi darslarida texnik vositalardan foydalanish.

Tayanch so‘z va iboralar: sinf sharoitidan tashqarida, o‘quv ustaxonasi, tajriba yer maydonchalari, diqqatni, ratsional xotirlash, qiyoslay bilish, fikr yuritish, asosiy narsani ajratish, oddiy chizmalar, rasmlarni o‘qiy bilish.

1. O‘rta asrlarning oxiriga kelib halqlararo aloqalar kuchaydi. Savdo va sanoat jadal sur’atlar bilan o‘sib borishi jarayonida turli fanlar rivojlanadi, dunyoviy bilimlarga ehtiyoj oshadi. Buyuk chex pedagogi Yan Amos Komenskiy slavyan maktab tajribasini o‘rganib sinf dars tizimini asosladi.

Maktablarimizning hozirgi zamon taraqqiyotida ta’lim jarayoni faqat sinf-dars shaklidagini emas, boshqa shakllarda ham olib boriladi. Shunga ko‘ra maktabimizda olib borilayotgan ta’limni tashkil etish shakllari quyidagicha turlarga ajratish mumkin:

1) sinf dars shaklida olib boriladigan mashg‘ulotlar. Bunday mashg‘ulot o‘quvchining kundalik o‘quv materialini izchil bayon qilishni, ko‘nikma va

malakalarini izchillik bilan hisobga olib borishni, o‘quvchilarni mustaqil ishlashga o‘rgatishni va jamoa bo‘lib mehnat qilishga odatlantirishni o‘z ichiga oladi.

2) amaliy va tajriba ishlar shaklida olib boriladigan mashg‘ulotlar. Bunday mashg‘ulotlar sinf sharoitidan tashqarida, o‘quv ustaxonasi, tajriba yer maydonchalari hamda ekskursiyalar o‘tkazish shaklida uyushtiriladigan mashg‘ulot.

Sinf yoshi va bilimi jihatidan bir xil bo‘lgan ma’lum miqdordagi o‘quvchi guruhidir.

Dars - bevosita o‘qituvchi rahbarligida muayyan o‘quvchi guruhi bilan olib boriladigan ta’lim mashg‘ulotini anglatadi. Dars o‘quv ishlarining asosiy tashkiliy shaklidir.

O‘qituvchi darsga kirar ekan, dars talablariga rioya qilgan holda dars boshlaydi:

1) Har bir dars albatta, ma’lum bir maqsadda amalga oshirishga qaratilgan va puxta rejalashtirilgan bo‘lmog‘i lozim.

2) Har bir dars mustahkam g‘oyaviy siyosiy jihatdan tarbiyaviy yo‘nalishga ega bo‘lmog‘i lozim.

3) Har bir dars albatta turmush va amaliyot bilan bog‘langan bo‘lmog‘i lozim.

4) Har bir dars har xil metod, metodik usul va vositalardan keng va unumli foydalangan holda olib borishi lozim.

5) Darsga ajratilgan har bir soatni tejab, undan samarali foydalanish lozim.

6) Har bir dars o‘qituvchi va o‘quvchilarning faoliyati birlashgandagina maqsadga erishish mumkin.

2. Bir soatlik darsga mo‘ljallangan dastur materiallarining mazmunini bayon qilish, didaktik maqsad va talablarga muvofiq tarzda tashkil qilingan mashg‘ulot turi dars tipi deb yuritiladi. Maktablarda eng ko‘p qo‘llaniladigan dars tipi quyidagicha:

1) yangi bilim beruvchi va bilimlarni dastlabki mustahkamlovchi dars.

2) bilimlarni umumlovchi takrorlash dars.

3) ko‘nikma va malakalarni shakllantiruvchi - mustahkamlovchi dars.

4) bilimlarni tekshirish - nazorat darsi.

5) aralash dars.

6) ekskursiya darsi

7) o‘quv ustaxonalari va maktab tajriba yer maydonida olib boriladigan amaliy mashg‘ulot.

<u>Yangi bilim beruvchi dars</u>

1) Darsning boshlanishini tashkil etish 2-5 daqiqa;

2) Darsning maqsad va vazifalarini belgilash va yangi mavzuni tushuntirish 20-25 daqiqa;

3) Yangi mavzuni mustahkamlash 5-6 daqiqa;

4) Darsni yakunlash va uyga vazifa berish 2-3 daqiqa.

Bu dars tipiga quyidagi vazifalar hal etiladi: o‘quv materialining asosiy g‘oyasi,

maqsadini anglash, shu bilimlarning inson faoliyatidagi ahamiyatini fahmlash, yangi o‘quv materialiga oid bilimlarning umumiy qurilishini idrok etishdir.

Bilimlarni umumlovchi - takrorlash darsi

1) dars boshlanishini tashkil etish 2-5 daqiqa;

2) uy vazifasini tekshirish, so‘rash va baholash 15-20 daqiqa;

3) o‘qitish o‘quv materialini takrorlash va umumlashtirish 15-30 daqiqa;

4) darsga yakun yasash va uyga vazifa berish 2-3 daqiqa;

Maktab amaliyotida qo‘llaniladigan takrorlashning 5 xili mavjud:

1) O‘quv yili boshida oldingi o‘quv yilda o‘rgangan bilimlar bo‘yicha tashkil etish.

2) O‘quv yili oxirida yakuniy takrorlash.

3) Oldingi o‘quv soatlarida o‘rgangan bilimlarni esga tushirish uchun takrorlash.

4) Ma’lum bo‘lishi tugagach, tashkil etiladigan takrorlash.

5) Ma’lum o‘quv materiali o‘rganilib mustahkamlagach, o‘tkaziladigan takrorlash.

Ko‘nikma malakalarini shakllantiruvchi va mustahkamlovchi dars:

1) darsning maqsad va vazifalarini bayon qilish.

2) uy vazifasini tekshirish, so‘rash va baholash.

3) o‘tilganlarni mustahkamlash.

4) darsni yakunlash va uyga vazifa berish.

Aralash dars:

1) darsning boshlanishini tashkil etish.

2) uy vazifasini tekshirish so‘rash va baholash.

3) o‘tilganlarni mustahkamlash va yakunlash.

4) darsning maqsad va vazifalarini bayon qilish. Yangi mavzuni tushuntirish.

5) yangi mavzuni mustahkamlash.

6) uyga vazifa berish, darsga yakun yasash.

Ta’limning noan’anaviv shakllari:

1) leksiya darslar.

2) seminar.

3) munozara.

4) didaktik o‘yinli.

5) konsultatsiya.

6) sinov darslari.....

3. darsning maqsad va vazifalarini belgilash.

Darsning konkret vazilarini va ularni amalga oshirish yo‘llarini belgilab olish darsda o‘qituvchi bilan o‘quvchining xatolariga aniqlik va izchillik baxsh etadi. Maqsad va vazifalarni bayon etish odatda ozgina vaqt olsa ham, o‘quv faoliyatining

yo‘nalishini vujudga keltiradi va katta tarbiyaviy ta’sir ko‘rsatadi.

Yangi o‘quv materiali mavzusining mazmunini tushuntirish darsning eng muhim qismidir. O‘quv materialining mazmunini ilmiy tarzda bayon qilish muhim ahamiyatga ega. Darsning ana shunday qismida o‘quvchi o‘zini jiddiy tutishi kerak.

Yangi mavzuni mustahkamlash - mashqlar mustaqil ishlar, maxsus topshiriqlar tariqasida o‘qituvchi tomonidan yangi material tushuntirib bo‘lingandan so‘ng darsning 1 qismi yoki mustaqil dars tipi sifatida o‘tkazilishi mumkin.

O‘tgan mavzuni takrorlash - o‘quv materialining mavzular, bo‘limlar bo‘yicha umumlashtirib, xulosalashidir. Takrorlash tarzida ijodiy topshiriqlarni bajarish, muammoli vaziyatlarni ”Hal” qilish jarayonida o‘qituvchining faoliyati ancha faollashadi.

Darsni yakunlash - bu darsning mustaqil qismi hisoblanadi. O‘qituvchi 1-3 davomida darsning asosiy mazmunini qaytaradi.

Uyga o‘quv vazifasini berish. O‘qituvchi uy vazifasini bayon qiladi, uning asosiy g‘oyalarni va bajarish yo‘llarini tushuntiradi. O‘qituvchi har bir o‘quvchining vazifasini kundalik daftariga yozib olganiga, uni qanday bajarishni bilishiga, kitobdan foydalana olishiga, oilada mustaqil ishlash uchun zarur shart-sharoitlariga egaligini hisobga olib ishonch hosil qilishi kerak.

Boshlang‘ich sinflardagi zamonaviy darslarga qo‘yiladigan talab va ular samaradorligining shartlari.

“Umumta’lim maktablari o‘quvchilarini o‘qitishni va tarbiyalashni va ularni texnologiyaga tayyorlashni yanada takomillashtirish haqida”gi qarorida dars o‘qitishni, o‘quvchilarda yuksak g‘oyaviy ma’naviy sifatlarni tarbiyalash, ularni hayotga, mehnat faoliyatiga tayyorlashni tashkil etishning sinalgan shaklidir, deyiladi.

Maktab oldiga qo‘yilgan bunday buyurtmadan zamonaviy dars oldiga qo‘yiladigan eng muhim talab kelib chiqadi — dars ta’lim, tarbiya va o‘quvchilarni rivojlantirish vazifasini kompleks hal etishi lozim. Mana shuning uchun ham har bir darsga tayyorlanishda dastur hamda metodik qo‘llanmalar ko‘magida o‘quvchilarda qanday asosiy bilim, ko‘nikma va malakalar tarkib toptirilishi, ularning ongiga qanday tarbiyaviy g‘oyalar singdirilishi, dars bilish qiziqishlarini, o‘quv mehnatini muntazam tashkil etish malakalarini rivojlantirishga qanday yordam berishi ustida yaxshilab o‘ylab ko‘rish kerak bo‘ladi.

Har bir dars tarbiyaviy xarakterga egadir. U o‘quvchilarni g‘oyaviy siyosiy, texnologiya, ma’naviy va jismoniy tarbiyalash birligini ta’minlaydi.

Darsda o‘rganilayotgan fan asoslarining rivojlangan qurilish amaliyoti bilan aloqasi amalga oshiriladi.

Dars davomida o‘quvchilarda texnologiyaga munosabat tarbiyalanadi va ularga texnologiya ko‘nikmalari, malakalari singdiriladi. O‘quvchilar moddiy ishlab

chiqarish sohasidagi amaliy faoliyatga, kasbni ongli tanlashga tayyorlanadilar.

Darsda o‘quvchilarning chuqur va mustahkam bilimni egallash, ijodiy qobiliyatlarini o‘stirish masalalari hal etiladi. Har bir darsning o‘quvchilarda diqqatni, ratsional xotirlash, qiyoslay bilish, fikr yuritish, asosiy narsani ajratish, xulosa va umumlashtirishlar qilish, o‘z ishini rejalashtirish, uni kerakli sur’atda amalga oshirish, o‘zini o‘zi nazorat qilish usullarini shakllantirish imkoniyatlarini ko‘ra bilish kerak. Bu o‘rinda mazkur vazifalar hozirgi kunda boshlang‘ich sinflarning o‘quv dasturlarida u yoki bu darajada aks ettirilganligini nazarda tutish lozim.

Darsdagi o‘qitish vazifasi faqat kompleksgina emas, balki mazkur sinfni, umuman har bir o‘quvchining alohida xususiyatlarini nazarda tutuvchi maksimal aniqlilik ham bo‘lishi kerak. Ma’lumki, boshlang‘ich sinflar o‘quvchilari maktabgacha tayyorgarliklari, ish qobiliyatlarining turliligi, esda saqlab qolish xususiyati, tengdoshlari bilan munosabati, qiziqishlarining har xilligi, xatti harakatidagi madaniyat shakllari, tartibintizom bir birlaridan turlichaligi bilan farqlanadilar.

Dars tuzilishi o‘quv materialining maqsadi va mazmuni, o‘quv faoliyatining tashkil etilishiga qarab aniqlanadi.

Zamonaviy dars mazmuni, o‘quv faoliyatini tashkil etish usul va shakllari qanday talablarga javob berishi kerak?

Dars mazmuniga qo‘yiladigan eng muhim talab g‘oyaviylik va aniq maqsadga qaratilgan bo‘lishidir. Bu talab o‘quv jarayonida o‘quvchilarning bilish imkoniyatlarini rivojlantirish, ularda kundalik xatti-harakatning asosi sifatida dialektik, materialistik dunyoqarash va axloq asoslarini shakllantirish uchun eng qulay sharoitlarni ta’minlash zarurligini anglatadi.

Boshqa muhim talab dars mazmunining ilmiy bo‘lishidir.

Zamonaviy boshlang‘ich ta’lim uchun o‘quvchilarni nazariy ma’lumotlar bilan qurollantirish, bunday bilimlardan faqat hodisalar o‘rtasidagi mavjud aloqalarni tushuntirishda doimo foydalanish xarakterli bo‘lib bormoqda.

O‘quvchilar mumkin qadar mustaqillik hissasini borgan sari oshirib, qonuniyat va munosabatlarni aniqlashni, kuchlari yetgancha umumlashtirishlar chiqarishni hamda o‘z fikrlarini yozma va og‘zaki bayon qilishni o‘rganishlari lozim. Boshlang‘ich maktabning o‘qitishdagi nazariy darajasining oshganligi aniq ifodalangan, amaliyot bilan uzviy aloqada bo‘lgan nazariyaning yetakchilik roli aniq sezilib turadigan yangi dasturi xuddi mana shularni maqsad qilib qo‘ygandir,

Shunday qilib, dasturga yangi nazariy materialning kiritilishi boshlang‘ich ta’limning ilmiy darajasini oshirishdagi muhim yo‘nalishlardan biridir. Quyi sinflarda o‘qituvchi aniq hodisalarni ko‘rib chiqish va tahlil qilishga mumkin qadar e’tibor berib, nazariyani keyinchalik ongli egallash uchun zamin hozirlab borishi

kerak.

Dars mazmuniga qo‘yiladigan muhim talablardan biri darsning hayot, o‘quvchilarning shaxsiy tajribasi, texnologiya, qurilish amaliyoti bilan chambarchas aloqador bo‘lmog‘i lozim. Ilg‘or o‘qituvchilar nazariy materialni o‘rganishni o‘quvchilarning shaxsiy tajribasi va kuzatishlari bilan uzviy bog‘laydilar. Yangi ma’lumot va aloqalar boshlang‘ich tasavvurlar mavzusiga mantiqan qo‘shiladi, bu esa pedagogik psixologiya ta’limiga ko‘ra, predmet nazariyasini ongli o‘zlashtirish shartidir.

O‘qitishni hayot bilan bog‘lashda darslarda o‘lkashunoslik materiallaridan foydalanish ancha qo‘l keladi. Amaliyotning ko‘rsatishicha, bu darsning mazmunini o‘quvchilar uchun yanada yaqinroq va tushunarliroq bo‘ladi va bilimlarning ongli hamda mustahkam egallanishiga yordam beradi.

O‘quv materialining o‘quvchilarga tushunarliligi va ularning bunga ko‘nikma hosil qilishi dars mazmunining asosiy yutug‘idir. Aksincha tushunarsizlik o‘quvchilarni mexanik xotirlab qolishga, qiziqishining pasayishiga, ularning umumiy rivojlanishining sustlashuviga olib keladi.Olimlar kishining har qanday qobiliyati, xarakterining xususiyati ana shu qobiliyat va intilishlar talab qilinadigan faoliyatda rivojlanishini ishonarli qilib isbotlaganlar. Agarda o‘quvchining o‘quv faoliyati undan faol fikr yuritib ishlashni talab qiladigan qilib tashkil etilgan bo‘lsa, bunday ta’lim o‘quvchining aqliy qobiliyatlarini har kuni mashq qildiradigan ta’limga aylanadi. Ta’lim ularni mantiqiy fikrlarning xilma xil formalari, xulosalar va isbotlar bilan ta’minlab turadi.

Ular o‘zlari yaratgan “kashfiyot”lardan quvonadilar va faxrlanadilar, o‘zlarining original misollarni topishga, ijodiy tashabbus va ijodiy qobiliyatini namoyon qilishga harakat qiladilar. Bundan zamonaviy darsga qo‘yiladigan muhim talab o‘quvchilarning bilish va ijodiy faoliyatlarini faollashtirishdir degan xulosa kelib chiqadi.

O‘quvchilarni faollashtirish, ayniqsa o‘qitishning zamonaviy bosqichi sharoitlarida anchagina murakkab pedagogik amaliyotdir. Shuning uchun o‘quvchilarning o‘quv faoliyatlarini faollashtirishga yordam beruvchi vosita va usullarni tanlash o‘qituvchining doimo diqqat markazida bo‘lishi shart.

O‘quvchilarning bilish va ijodiy faoliyatlarini bir qator usullar vositasida faollashtirishga erishish mumkin. Bu usullarning ba’zilari bilan tanishtirib o‘tamiz:

Butun sinfga taklif etilgan muayyan ijodiy ishda har bir o‘quvchining iloji boricha mustaqil ishlash hissasini maksimal ta’minlash.

Bu maqsadda o‘qitishning alohida va umumiy shakllarini optimal biriktirish usullari bilan birga maxsus didaktik tarqatma materiallardan foydalanish.

Faoliyat turlarining o‘rganilayotgan material bilan to‘g‘ri munosabatini ta’minlash.

Dastur materiali asosida darsda zehnlilik, diqqat, tasavvur va shu kabilarni tekshirish hamda shakllantirish maqsadida o‘ziga xos tanlovlar o‘tkazish.

Texnologiya darslarining muhim xususiyati shundaki, bolalar texnologiya, bilim, ko‘nikma va malakalarni xilma-xil amaliy ishlarni bajarish, o‘zlariga kerak bo‘lgan va odatda ijtimoiy foydali ahamiyatga ega bo‘lgan buyumlar yasash jarayonida egallaydilar.

O‘qituvchi har qanday, hatto eng oddiy buyumni yasash jarayonida ham o‘quvchilarga qiyin va politexnik bilim hamda ko‘nikmalarning butun bir kompleksni berishni nazarda tutishi lozim.

I. Detallarni razmetka va tayyor mahsulot qilishga kirishishdan oldin bolalarga narsalarni yasash yoki biror ishni bajarish bo‘yicha o‘z texnologiya faoliyatlarini oldindan rejalashtirishni o‘rgatish va singdirish lozim.

Bu:

a) darsda hal etilishi lozim bo‘lgan vazifani va uning ahamiyatini yaxshi tushunish;

b) ishning xarakterini, mahsulot konstruksiyasini-qism yoki detallar sonini, ularni mahsulotga biriktirish usullarini, kerakli materiallar, o‘lchamlar, shakl, mahsulot va detallar proporsiyasini aniq tasavvur qilish;

v) detallarni yasash va ularga ishlov berish usullari; o‘lchash va hisoblash, materialda razmetka qilish tartibi, ishlov berish, detallarni yig‘ish, yakuniy bezak berish va ishni umumiy baholash tartibini aniqlash;

g) texnologiyani qanday tashkil etishni, ish joyini tayyorlashni, ishni kichik jamoa o‘rtasida taqsimlashni aniqlash demakdir.

Oldindan rejalashtirish bosqichi texnologiya jarayonida bolalarning bilish faolliklarini rivojlantirish, ularning aqliy konstruktorlik texnik ko‘nikmalari va qobiliyatlarini rivojlantirish manbaiga aylanishi uchun juda muhimdir. Oldindan rejalashtirish dasturning asosiy talablaridan biri hisoblanadi.

Shunga ko‘ra texnologiya darslari dasturiga bolalar izchil egallab olishlari uchun birinchi sinfdan boshlab texnik chizmachilik elementlari, ya’ni “texnik fikr”ni oldindan albatta grafik usulida tasvirlash, oddiy chizmalarni, rasmlarni o‘qib bilish va ular asosida narsani yasay bilish kiritilgandir.

Ikkinchi sinfda chizmani qo‘llab texnologiya topshiriqlarini bajarish faqat predmetning real namunasi mavjud bo‘lgandagina emas, balki u yo‘qligida, darslikdagi texnik rasm, fotosurat, shuningdek, tayyor chizma, og‘zaki tasvir, berilgan texnik shartlar va o‘lchamlar yoki o‘quvchilarning fikri asosida ham o‘tkaziladi.

II. Texnologiya darslarida bolalar detallarni razmetka bo‘yicha tayyor mahsulot qilish, namuna, chizma, berilgan texnik shart va o‘lchamlar asosida to‘g‘ri hamda aniqligini tekshirishni; detallarni bir biri bilan va mustahkamlash usuli turlicha

bo‘lgan mahsulotda biriktirishni, tayyor mahsulotni bezashni mustaqil bajaradilar.

Texnologiya faoliyatining barcha bosqichlarida ham bolalar oldiga ijodiy, hatto eng oddiy bo‘lsada, xarakterli topshiriqlar qo‘yilishiga alohida e’tibor berish zarur. Ba’zi hollarda bu mavjud tajriba, bilim, ko‘nikmalarni yangi sharoitlarda qo‘llashni talab qiluvchi topshiriq bo‘lishi mumkin. Boshqa hollarda esa, bolalarga ular uchun yangi, ilgarigi tajribalarida uchramagan topshiriq, ya’ni predmet ayrim elementlarining yyechimini topishni talab etuvchi topshiriq beriladi. Bolalarga oddiy konstruksiyaga ega bo‘lgan predmetlarning texnik shartlarini tuzishni. o‘lchashlarini aniqlashni, chizma yoki razmetkasini bajarishni ham topshiriq qilib bersa bo‘ladi.

O‘quvchilar ish joyini to‘g‘ri tayyorlashlari va ish vaqtida uni tartibli saqlashlari; to‘g‘ri o‘tirish qomatini egallab, uni ish davomida saqlashlari; asboblar, detallarni tayyorlash va mustahkamlashda ishlatiladigan materiallardan to‘g‘ri, tartibli, ehtiyotkorlik bilan foydalanish usullarini egallashlari; materiallarni tejamkorlik bilan sarflab, shaxsiy gigiyena hamda xavfsizlik texnikasi qoidalariga qat’iy rioya qilishlari kerak.

III. Texnologiya darslarida bajarilgan har bir ish va buyumdan bolalarning politexnik bilim doiralarini kengaytirishda foydalanish zarur. Bu bolalarni umumta’lim predmetlari darslarida egallagan bilim va ko‘nikmalarini texnologiya jarayonida qo‘llashga o‘rgatish; turli materiallarning xususiyatlari, ularning kelib chiqishi, nimalarga mo‘ljallanganligi hayotda qo‘llanishi haqidagi bilimlarni egallashlariga yordam berish; oddiy asboblarning ish prinsiplari bilan tanishtirish; texnologiyada egallangan bilim, ko‘nikmalarni umumta’lim predmetlari darslarida qo‘llashga o‘rgatish demakdir.

Aytilganlar asosida texnik texnologiya darslarini tashkil etishning quyidagi taxminiy sxemasini taklif etish mumkin.

1. Bolalar oldiga texnologiya topshirig‘ining mavzusi va maqsadini qo‘yish:

a) darslarda bajarish mo‘ljallangan predmet yoki ishlarning bolalar jamoasi hayotining u yoki bu ehtiyojini qondirishdagi ahamiyatini ko‘rsatish;

b) belgilangan ishni yaxshi bajarish uchun qanday yangi bilim, ko‘nikmalarni egallash kerak bo‘lishini aytish.

2. Ish joyi qanday tayyorlanganligini, asbob-uskunalarni, materiallar, namunalar, doskadagi chizmani, “Texnologiya” darsliklarini tekshirish, yaxshi va uyushqoqlik bilan ishlash mumkin bo‘lgan ish joyi qoidalarini eslatish.

3. Bo‘lajak texnologiya harakatlarini oldindan rejalashtirish:

a) namuna analizi, qismlar, detallar soni; kerakli materiallar; berilgan hajmlar;

b) chizmani o‘qishga o‘tish; chizmada tasvirlangan predmet va uning

detallarini tushunish, barcha o‘lchamlar va ishchi chiziqlar (ya’ni predmetni yasash uchun qanday harakatlar qilish, qanday asboblardan foydalanish kerakligi)ni topish va o‘qish, texnologiya harakatlarini birin-ketin bajarish tartibini aniqlash.

4. Materialni namuna va chizma, berilgan va chizmadan topilgan o‘lchamlar bo‘yicha razmetka qilish (bolalar kuzatib borish tartibini bilishlari va uni doskada kuzatayotgan o‘qituvchi bilan bir vaqtda bajarishlari kerak).

5. O‘lcham, chizma bo‘yicha bajarish ishlari. Detallarni tayyor mahsulot qilish va tayyorlashda hamda barcha detallarni yig‘ishga tayyorlashda, detallarni mahsulotga yig‘ishda, tayyor mahsulotga ishlov berish bilim, ko‘nikmalarini egallash.

6. Amalda sinash, xato va kamchiliklarni to‘g‘rilash, ishni baholash.

7. Darsga yakun yasash. Yangi vazifalar berish.

Keltirilgan bu taxminiy sxemadan o‘qituvchi mazkur darsga mo‘ljallangan aniq buyum yoki ishning xususiyatlarini nazarda tutib foydalanishi mumkin. Tayyorlanadigan narsa bir, ikki va uch darsda bajarishga mo‘ljallanganligini hisobga olish ham muhimdir. Tabiiyki, agarda u 2-3 soatga mo‘ljallangan bo‘lsa, dastlabki darslarda oldindan rejalashtirishga aloqador harakatlar ustunlik qiladi. Keyingi darslarda ishlov beruvchi jarayonlar, o‘lcham, chizma, bezash va baholash ishlariga ko‘proq vaqt sarflanadi.

Shuni aytib o‘tish kerakki, ishni aytaylik, ikki-uch darsning birinchisida bolalar faqat chizish, oldindan rejalashtirish, ikkinchi darsda qo‘l bilan ishlash, uchinchi darsda bezash bilan shug‘ullanish tartibida taqsimlash mumkin emas. Ishni shunday taqsimlash kerakki, bolalar o‘lcham, chizma ishlarini bajarib bo‘lishlari bilanoq, to‘g‘ridan-to‘g‘ri “qo‘l bilan ishlashga” o‘tsinlar.

Texnologiya ta’limi darslarida texnik vositalardan foydalanish:

Texnologiya ta’limi darslarida hozirgi kungacha texnik vositalardan ham foydalanib kelinmoqda, ayni bir vaqtda texnik vositalar o‘quvchilarni texnik ishlab chiqarish bilan (ayniqsa qishloq joylarda) kengroq tanishtirishda katta imkoniyatlar beradi. Texnik vositalar ayrim materiallarni tayyorlash texnologiyasi bilan tanishtirishda, politexnik bilimlarni kengaytirish va ularni hayot, amaliyot bilan bog‘lashda, ta’lim jarayonini faollashtirishda juda qulaydir.

Texnologiya darslarida qanday texnik vositalardan foydalanish mumkin?

Diafilmlar. O‘qituvchining hikoyasini va turli materiallar - qog‘oz, gazlama, paralonli sim kabilarni ishlab chiqarish texnologiyasini ko‘rishda. Asboblarning kelib chiqish va materiallar (qog‘oz, chinni va shu kabilar)ning tarixi bilan tanish-tirishda.

Diapozitivlar. Bulardan tayyorlanadigan predmetlarning ayrim detallari ba’zi usullarini ko‘rsatishda foydalanish mumkin.

Kodoskop texnologiya ta’limi darslarida ayniqsa, ko‘proq foyda berishi

mumkin. O‘qituvchi o‘z stoli yonida o‘tirib doskada o‘quvchilarni grafik ma’lumot asoslari bilan tanishtirishda zarur bo‘lgan chizmalarni namoyish qiladi, keyinchalik texnik modellash bo‘limini o‘tishda kerakli chizmalar va detallarni ko‘rsatadi.

O‘qituvchi hikoyasini tushuntirish va illyustratsiya qilishda epifilm keng qo‘llanilishi mumkin. Epifilm uch bosqichda tayyorlanadi:

1. Ssenariyni tayyorlash.
2. Fotosuratlarni tayyorlash yoki rasmlarni tanlash.
3. Epifilmni yig‘ish.

Ssenariyni tayyorlash ishning eng mas’uliyatli qismidir. Bu o‘rinda epifilmning maqsadi aniqlanadi, illyustratsiyalar tanlanib, ularni o‘quv materialining bayoniga muvofiq tarzda namoyish etish izchilligi belgilanadi. Kadr yoki kadrlar seriyasi bilan ishlash yo‘llari aniqlanadi. Epilenta tayyorlangan senariy asosida montaj qilinadi.

Agarda illyustratsiyalarning formati bir xil bo‘lmasa, ularni bir xil ko‘rinish va o‘lchamga keltirish uchun fotolaboratoriyada qayta suratga tushiriladi. Epifilm kadri 10X10 sm dan ortiq bo‘lmasligi kerak. Bu epidiaskopni sinf xonasining o‘rtasiga emas, oxiriga o‘rnatish imkonini beradi.

Yakuniy bosqich lentani to‘plashdir, lenta qalin qog‘ozdan qirqilib, unga chapdan o‘ng tomoniga qilib fotosuratlar yopishtiriladi. Yopishtirishda duradgorlik yelimidan foydalangan ma’qul, chunki unga lampaning issig‘i ta’sir etmaydi.

Kodoskop uchun ko‘rgazmali qurollar tayyorlashda shaffof plyonka, selofan, polietilendan foydalanib, unga kerak bo‘lgan chizma, tasvirlar tushiriladi. Bunda siyoh, qora yoki rangli tush, qalam steklograflardan foydalaniladi. Eni 15 sm, uzunligi 5 sm bo‘lgan plyonka lentadan foydalansa bo‘ladi, plyonka apparatning quyi bobinasiga o‘raladi, boshqa uchi yuqori bobinaga mustahkamlanadi. Bu bobina namoyish etish jarayonida aylantirib turiladi.

Kodoskopdan foydalanilganda dars uchun chizmalar tayyorlash, uni doskaga chizish va yozishga ehtiyoj qolmaydi. Ekran qo‘llanmalarini saqlab qo‘yish maqsadga muvofiqdir. Bunday qo‘llanmalarni tayyorlash oson, ular ko‘p sarf va kuch, vaqt talab qilmaydi, ularni texnologiya darslarida o‘quvchilar bilan hamkorlikda tayyorlash ham mumkin. Zamonaviy texnologiya darslarini tashkil qilishda esa kompyuter texnologiyalaridan keng foydalanish mumkin. Dars turlari uchun slaydlar, o‘quv kinolarini disklarda tayyorlab DVD, multimediya orqali namoyish qilish mumkin. Dars jarayonida masofaviy va hamkorlik darslarini internet orqali ulanib tashkil qilish mumkin. Bunda qog‘oz tarixi bilan tanishish jarayonida yoki kulolchilik, yog‘och o‘ymakorlik hunarlari bilan tanishishda to‘g‘ridan to‘g‘ri hunarmandlar yoki ishlab chiqarish ustalari bilan sayohat uyushtirish imkoniyati mavjud. Bunda o‘quvchilarda ishlab chiqarish va kasbga bo‘lgan qiziqish uyg‘onadi va o‘z yo‘lini to‘g‘ri tanlay oladi.

Savollar:

1. Dars – o‘quv ishlarining asosiy turi va ularga qo‘yiladigan talablar nimalardan iborat?.
2. Dars tipiga ta’rif bering.
3. Darsning maqsad va vazifalari nimalardan iborat.

Topshiriq:

1. Boshlang‘ich sinflardagi zamonaviy darslarga qo‘yiladigan talabni yod olish.
2. Texnologiya ta’limi darslarida texnik vositalarini o‘rganish.

Foydalanilgan asosiy adabiyotlar:

1. R.A.Mavlonova va boshqalar. Umumiy pedagogika. Darslik. “Navro‘z” nashriyoti.T.2016-y
2. M.T.Satbayeva. Mehnat o‘qitish metodikasi. Ma’ruzalar matni.T. 2015-y.
3. R.Ishmuhamedov, A.Abduqodirov, A.Pardayev. Tarbiyada innavatsion texnologiyalar T. 2010
4. R.A.Mavlonova, M.T. Satbayeva. Mehnat o‘qitish metodikasi. O‘quv qo‘llanma T. 2012-y
5. D.Hoshimova, Sh.Maxmudova. Mehnat muhofazasi fanidan ma’ruzalar matni.T.2012-y

3-MAVZU: 1-9-SINFLARDA TEXNOLOGIYA FANI MAZMUNI VA KASBIY TAYYORGARLIK

Rej:

1. Hozirgi ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlar sharoitida texnologiya fanining vazifalari.
2. Texnologiya fanining mazmuni, yo‘nalishlar bo‘yicha o‘qitishga qo‘yiladigan talablar.
3. Texnologiya fanining Milliy o‘quv dastur mazmuni va uning yo‘nalishlari.
4. Estetik madaniyat va ijodkorlik kompetensiyasi

Tayanch so‘z va iboralar: texnik ijodkorlig, qobiliyat, tafakkurini rivojlantirish, dars jarayoni, turli va tabiiy, metall va metallmas, texnologiya, ro‘zg‘orshunoslik, elektrotexnika.

Umumta‘lim maktablarida fanlarni o‘qitish jarayonida fan-texnika taraqqiyoti, injeneriya, matematika va kundalik hayot bilan bog‘lab o‘rganishning STEAM (science, technology, engineering, art and mathematics) yondashuvi ta‘lim-tarbiya jarayonini tashkil etish dolzarb masaladir. STEAM zamon talablari asosida halqaro

miqyosda o‘quvchilarga ta‘lim-tarbiya berishda umumta‘lim fanlari bo‘yicha fanlararo bog‘lanish va amaliy yondashuvni kuchaytirishga qaratilgan umumiy reja. STEAM o‘ziga tabiiy fanlar, texnologiya, injenerlik, san‘at, ijodkorlik, matematika fanlarining amaliy jihatlarini umumlashtirib integratsiyalashni nazarda tutadi.

STEAM-kundalik hayotning ilmiy-tadqiqot, texnika taraqqiyoti konsepsiyalari bilan ta‘limning integrativ yondashuvini taqozo etadi. Bunday yondashuvdan maqsad - ta‘lim berish orqali butun dunyo taraqqiyoti va iqtisodiyotining barqaror rivojlanishini ta‘minlashda maktab, jamoatchilikni jalb qilib, ilmiy savodxonlik, raqobatbardoshlikni targ‘ib qilishga qaratilgan.

Halqaro tajribalar asosida STEAMning joriy etilishi bugungi kunda ta‘lim tizimiga yondashuvni o‘rganish va ta‘limga bo‘lgan munosabatini o‘zgartiradi. O‘quvchilar amaliy ko‘nikmalarga e‘tibor qaratish orqali irodani, ijodkorligini, moslashuvchanligini rivojlantiradi va boshqalar bilan hamkorlik qilishni o‘rganadi.

Texnologiya darslarida o‘quvchilarning texnik ijodkorligini, qobiliyatini, tafakkurini rivojlantirish, dars jarayonida turli va tabiiy hamda metall va metalmas materiallarga texnologiya asosida ishlov berish usullarini o‘rgatish orqali kasb-hunarga yo‘naltirish, halq hunarmandchiligi asoslari, ro‘zg‘orshunoslik, elektrotexnika ishlarini bajarishda kasb-hunarga yo‘llash bo‘yicha bilim, ko‘nikma va malakalarni egallash hamda ularni hayotda qo‘llay olish layoqatini shakllantirish ko‘zda tutilgan.

Texnologiya fanining asosiy maqsadi – o‘quvchilarda texnik-texnologik hamda texnologik jarayon davomida bajariladigan amallar yuzasidan olgan bilim, ko‘nikma va malakalarini mustaqil amaliy faoliyatida qo‘llash, kasb-hunarga yo‘naltirish, milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida ijtimoiy munosabatlarga kirisha olish layoqatlarini shakllantirishdan iborat.

Texnologiya fanining asosiy vazifalari:

- materiallar va ularning xossalari, xususiyatlari hamda texnik obyekt va texnologik jarayonlarga oid ma‘lumotlarni o‘rganish;
- texnik obyekt hamda texnologik jarayonlarda maxsus va umumtexnologiya amallarini bilish;
- texnik va kreativ fikrlashni, intellektual qobiliyatlarini shakllantirish;
- texnologik jarayon va tayyorlangan mahsulotlarni bajarish ketma-ketligi hamda mahsulot sifatini tahlil qila olish;
- jarayonlarning bajarilishiga oid xulosalar chiqarish hamda texnologiya operatsiyalarini, mahsulot sifatini baholay olish;
- kasb tanlashga yo‘naltirishdan iborat.
- Umumiy o‘rta ta‘lim maktablarida texnologiya fani boshlang‘ich ta‘lim yo‘nalishida umumlashgan holda, 5-9-sinflarda “Texnologiya va dizayn”, “Servis xizmati” yo‘nalishlarida o‘qitiladi.

2. Texnologiya fanining mazmuni, yo‘nalishlar bo‘yicha o‘qitishga qo‘yiladigan talablar.

Texnologiya fani o‘qituvchi rahbarligida o‘quvchilar tomonidan bajariladigan aqliy va jismoniy harakatlar, jarayonlaridan iborat bo‘lib, yakuniy natijada ularning texnologiya qurollari, vositalari va jarayonlari haqidagi bilimlarni hamda ma’lum

sohadagi ishlab chiqarish texnologiyaini egallashlariga, ongli ravishda kasb tanlashga hamda jamiyat va shaxs farovonligi yo‘lida texnologiya faoliyatiga qo‘shilishlariga imkon beruvchi shaxsiy sifatlarni va tafakkurlarni rivojlantirishga qaratilgan o‘quv fanidir.O‘rta maktabdagi texnologik ta’limni shartli ravishda o‘quv va unumli texnologiyaga bo‘lish mumkin.

O‘quv texnologiyasi - faol faoliyat bo‘lib, atrofdagi voqelikni va o‘zini bilishga qaratilgan. Masalan, kuch-g‘ayrat va erishilgan natijalar mavjud bo‘lgandagina ta’lim texnologiyaga aylanadi. O‘quv texnologiyasi faol fikrlash, bilimlarni mustaqil egallash, qayta ishlash va ijtimoiy tajribada qo‘llanish asosida quriladi. Shu asosida kishining o‘z qarashlari va e’tiqodi shakllanadi. Kamol topayotgan kishilar faqat fan asoslarinigina emas, balki ularning amaliy, texnologik, mazmuni va tatbiq etilishini ham o‘zlashtirib oladilar. Shu bilan birga shu jarayon amaliyotni nazariyaga singib ketishi sifatida emas, nazariy va amaliy mo‘ljal asoslarining qo‘shilib ketishi singari namoyon bo‘ladi.

Unumli texnologiya - bolalar va kattalarning ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan va olamni o‘zlashtirishga qaratilgan samarali mehnati, shaxsning hozirgi vaqtdagi, kelgusidagi jismoniy va ma’naviy ehtiyojlarini qondirish uchun zarur bo‘lgan moddiy, ma’naviy madaniyatni ishlab chiqarishdir. Haqiqiy foyda keltiradigan unumli texnologiya tarbiyaviy: texnologiyaga aylanadi, bunda sodir bo‘ladigan texnologiya munosabatlarida uning qatnashchilarini shaxsiy va ijtimoiy manfaatlari ongli va uyg‘un: ravishda qo‘shilib ketadi.

Unumli texnologiya iqtisodiy masalalardan tashqari tarbiyaviy, ta’limiy ma’lumot beradigan vazifaga ham egadir. Dars maktabdagi ta’lim ishining asosiy formasi. Ustaxonalardagi dars texnologiya ta’limining asosiy vazifalarini amalga oshirish, yangi materialni bayon qilish, amaliy topshiriq berish va uni hal qilish bilan bog‘lash, o‘quvchilarni faollashtirish, ijtimoiy foydali texnologiyaga jalb etishga imkon beradi.

Texnologiya fanini zamonaviy talablar asosida o‘rganish **maktab bitiruvchilarida:**

- texnologiyalarni o‘zgartirish jarayonida tushunish, qo‘llash, nazorat qilish, mukammalashtirish va baholash;
- loyihalashtirish, izlanish, boshqarish kabi universal faoliyatni o‘zlashtirish;
- qarama-qarshiliklar masalasini yechish mahoratini namoyon qilish orqali samarador va to‘g‘ri texnologiyalarni tanlash;
- nostandart fikrlash va faoliyat yuritish ko‘nikmasini shakllantirish orqali yangi mahsulot, xizmatlar va texnologiyaga ta‘sir o‘tkazishning yangi uslublarini yaratish va h.k.
- ta‘lim jarayonida har xil kasbiy ko‘nikmalarni egallash orqali mustaqil hayotda zarur bo‘ladigan bo‘lajak kasbni to‘g‘ri tanlash;
- texnologiya qilish, yangi bilimlarni egallash, mukammallikka erishish uchun o‘z ustida mustaqil ishlash va amaliy faoliyat yuritish;
- tez o‘zgaradigan iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy sharoitlarga moslashuvchan, noaniq vaziyatlarda mustaqil ta‘lim olishga tayyor o‘quvchi-yoshlarni tarbiyalash.

Texnologiya darslari boshqa darslarga nisbatan o‘ziga xos quyidagi xususiyatlarga ega:

1. Darsda markaziy o‘rinni o‘quvchilarning amaliy ishlari egallaydi, shu sababli ustaxonalardagi dars qo‘shaloq soat tarzida o‘tiladi.

2. Ustaxonalardagi mashg‘ulotlarda o‘quvchilar har xil qirquvchi asboblar yordamida ishlaydilar, shu sababli dars va uni o‘tkazish uchun havfsizlikni ta’minlovchi maxsus tayyorgarlikni talab etadi.

Darsga qator didaktik talablar qo‘yiladi:

1. O‘quvchilarga bilimlar beriladi, ularda ko‘nikma va malakalar shakllantiriladi texnik ijodiy qobiliyati rivojlantiriladi. Mana shunday ta’limiy vazifalar hamma darsda hal qilinadi, bu ko‘p jihatdan darsning mazmuniga bog‘liq.

2. Ta’lim va tarbiya vazifalarining birligi ta’minlanadi.

3. Ta’lim tarbiyalovchi bo‘lishi zarur. O‘qituvchi o‘z oldiga tarbiyalovchi harakterdagi vazifani qo‘ymagan bo‘lsa bu darsni yaxshi dars deb bo‘lmaydi. O‘quv materialini to‘g‘ri tanlash zarur, bunda o‘quvchilar oldingi darslarda olgan bilimlari va malakalari, fan asoslariga oid bilimlari hisobga olinadi.

4. O‘qitish metodlarini maqsadga muvofiq tanlash. Texnologiya darsining asosiy bosqichi o‘quvchilarning mustaqil ishidan iborat. Yangi materialni bayon etishda - texnologiya usullarini ko‘rsatish, tushuntirish, va suhbat metodlaridan foydalanish ma’qulroq. Darsning yakunlovchi qismida suhbat, tushuntirish, bilim, ko‘nikma va malakalarni tekshirish metodlarini qo‘llash harakterlidir.

5. Darsning tashkiliy aniqligi - har qanday dars o‘zining tashkil qilinishi va o‘tkazilinishi nuqtai nazaridan aniq bo‘lishi kerak. Ustaxonada o‘tkaziladigan darslarning muhim xususiyati o‘quvchilarning unumli texnologiyaiga bag‘ishlanganligidadir. Ustaxonani hamma zaruriy materiallar, asbob va uskunalar bilan ta’minlash ham darsning tashkiliy aniqligiga kiradi.

3. Texnologiya fanining Milliy o‘quv dastur mazmuni va uning yo‘nalishlari.

Umumiy o‘rta ta‘lim maktablarida texnologiya fani boshlang‘ich ta‘lim yo‘nalishida umumlashgan holda, 5-9-sinflarda “**Texnologiya va dizayn”, “Servis xizmati”** yo‘nalishlarida o‘qitiladi.

Texnologiya fani quyidagi bo‘limlar asosida o‘qitiladi.

1-4-sinflar uchun

1. Texnologiya va texnologik vositalar
2. Texnik konstruksiyalash va modellashtirish
3. Qog‘oz va karton bilan ishlash
4. Tabiiy va turli materiallar bilan ishlash
5. Robototexnika asoslari
4. Zamonaviy kasblar
5. Milliy hunarmandchilik

5-9-sinflar uchun:

Texnologiya va dizayn yo‘nalishi:

1. Zamonaviy texnika va texnologiyalar
2. Materiallarga ishlov berish texnologiyasi
3. Energiyani ishlab chiqarish va undan foydalanish
4. Mexatronika-Lego education “Oddiy mexanizmlar”
5. Ijtimoiy-iqdisodiy texnologiya asoslari

Servis xizmati yo‘nalishi:

1. Oziq-ovqat mahsulotlariga ishlov berish texnologiyasi
2. Materiallarga ishlov berish texnologiyasi
3. Energiyani ishlab chiqarish va undan foydalanish
4. Mexatronika-Lego education “Oddiy mexanizmlar”
5. Ijtimoiy-iqdisodiy texnologiya asoslari

Malakali o‘qituvchilar yetarli bo‘lgan 5-9-sinflarda “Texnologiya” o‘quv fanidan o‘quvchilar soni 25 nafar va undan ziyod bo‘lgan umumiy o‘rta ta‘lim muassasalarida ikki guruhga bo‘lib o‘qitishga ruxsat etiladi. Har bir dars havfsizlik texnikasi qoidalari va sanitariya-gigiyena talablariga rioya qilgan holda tashkil etiladi.

Shuningdek, o‘quvchilarga texnologiya fanini yo‘nalishlari bo‘yicha kasb turlari haqida axborotlar beriladi. O‘quv dasturida berilgan umumiy soatlar asosida har chorakda bir marta nazorat ishi o‘tkaziladi. Nazorat ishini o‘tkazish tartibi va shakli o‘qituvchi tomonidan tanlanadi hamda nazorat ishi materiallari mavzudan kelib chiqqan holda tayyorlanadi. Texnologiya fanining barcha yo‘nalishlari bo‘yicha 5 va 6 – sinflarda 6 kun (24 soat), 7-sinfda 10 kun (40 soat) 8-sinfda 16 kun (96 soat), jami 160 soat amaliyot o‘tkazish rejalashtirilgan.

Amaliyotning maqsadi - o‘quvchilarga o‘rgatilayotgan bilim, ko‘nikma va malakalarni bevosita unumli ishlab chiqarish texnologiyasi jarayonida qatnashish orqali (sanoat, qishloq xo‘jalik va umumiy ovqatlanish korxonalari, ustaxonalar, tashkilot, muassasa yoki hunarmand ustalar huzurida) mustahkamlashni bozor munosabatlari qoidalari asosida tashkil qilishdan iborat. Amaliyot ta‘lim muassasasi yoki ishlab chiqarish korxonasi imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda, o‘quv yilida ko‘zda tutilgan ta‘til vaqtida o‘tkaziladi.

Loyiha ishini tashkil etishdan oldin o‘qituvchi loyiha ishi bo‘yicha topshiriqlar tizimini ishlab chiqadi. Sinfdagi o‘quvchilar yakka yoki guruhlarga bo‘linib, mavzu bo‘yicha belgilangan vaqt davomida mustaqil ravishda turli manba (darslik, internet tizimi)lardan axborotlar yig‘adi, loyiha qurilmasini shakllantiradi va o‘quv-tadqiqot ishini o‘tkazadilar. Loyiha ishida ta‘lim oluvchilar ishni rejalashtirish, uni bajarish, xulosa chiqarish, ish natijasi yuzasidan taqdimot o‘tkazadilar. Loyiha ishi o‘quvchilarda o‘quv–tadqiqotchilik va ijodkorlik faoliyatining shakllanishiga xizmat qiladi. Mazkur o‘quv dasturda texnologiya fani ixtisoslashtirilgan ta‘lim uchun qo‘shimcha soatlar berilgan. Bunda ajratilgan qo‘shimcha soatlarni taqsimlashda o‘qituvchilar ijodiy yondashgan holda, o‘zlashtirilishi qiyin mavzular hamda amaliy mashg‘ulotlarga e‘tibor qaratishlari tavsiya etiladi. Bunda o‘quvchilarning ijodkorligi va amaliy ko‘nikamalari rivojlantiriladi.

4. 1-4 sinf o‘quvchilarini tayyorgarlik darajasiga qo‘yiladigan zaruriy talablar:

Estetik madaniyat va ijodkorlik kompetensiyasi.

Ish usullarini estetik did bilan bajaradi. Kompozitsiya yaratishga ijodiy yondashadi. Texnologiya darslarida o‘quvchilar amaliy buyumlarni yasashda mustaqil fikirlab, estetik did bilan, chiroyli fantaziyani yatishga harakat qiladi. Buyumni texnik konstruktsiyalash va modellashtirishga kreativ yondashish orqali

bajaradi. Hamkorlikda variativ yechimlarni tanlaydi. Zamonaviy kasblarni to‘g‘ri talqin qiladi.

O‘z-o‘zini rivojlantirish va asrash kompetensiyasi

Grafik tasvirni sxema asosida yasaydi. Asbob-uskuna va moslamalardan to‘g‘ri va unumli foydalanadi. Ish tartibini bajarishda tozalikka rioya qiladi.

Amaliy faoliyatni rivojlantirish kompetensiya. Harakatlanuvchi (yuk mashinasi, avtomobil) modellarni yig‘adi. Buyumlarni yasash va yig‘ishda texnologik haritadan foydalanadi. Buyumni tashqi ko‘rinishiga qarab, eskizini chiza oladi. Kichik hajmdagi robotni yig‘adi.

5-9 sinf o‘quvchilarini tayyorgarlik darajasiga qo‘yiladigan talablar:

Turli materiallardan kompozitsiya yaratishda tadqiqotchilik ko‘nikmalarini egallaydi. Hunarmandchilik mahsulotlarini tayyorlash orqali ijodkorlik qobiliyati shakllanadi. Dizayn komponentlari asosida turli buyumlarning loyihalashda kreativ yondashadi. Men tanlagan kasb ijodiy loyihasini tayyorlaydi. Biznes loyiha tayyorlay oladi. Buyumni texnik konstruksiyalash va modellashtirishga kreativ yondashadi. O‘quv topshiriqlarini bajarishda bilim, ko‘nikma va malakalariga asoslangan holda mustaqil qaror qabul qiladi.

O‘z-o‘zini rivojlantirish va asrash kompetensiyasi. Mahsulotlarni tayyorlashda ishni ketma-ketlikda to‘g‘ri bajaradi. Yangi g‘oyalarni yaratish bo‘yicha loyihalar tuzadi va uni amalga oshiradi. Materiallarga ishlov beruvchi jihozlardan unumli va to‘g‘ri foydalanish. Materiallarga ishlov beruvchi ko‘p funksiyali jihozlardan foylanadi. Material, mahsulotlarga ishlov berishda sanitariya-gigiyena talablari va havfsizlik texnikasi qoidalariga rioya qiladi. Ish o‘rnini toza saqlaydi va yig‘ishtiradi

Amaliy faoliyatni rivojlantirish kompetensiyasi. Hunarmand-ustalar ish usulida buyumlar yasay oladi. Kompozit materiallardan naqsh bilan bezatilgan buyumlar tayyorlaydi. Qiziqishi asosida kasb-hunar tanlaydi. Materiallarga sovuq va issiq ishlov berib, mahsulotlar tayyorlay oladi. Keraksiz buyumlardan esdalik sovg‘alar tayyorlaydi. Mexatronika va robototexnika asosida modellar tayyorlaydi. Maxsus vazifalarni bajaruvchi robotlarni yasaydi

Foydalanilgan asosiy adabiyotlar:

1. R.Ishmuhamedov, A.Abduqodirov, A.Pardayev. Tarbiyada innavatsion texnologiyalar T. 2010

2. R.A.Mavlonova, M.T. Satbayeva. Mehnat o‘qitish metodikasi. O‘quv qo‘llanma T. 2012-y

3. D.Hoshimova, Sh.Maxmudova. Mehnat muhofazasi fanidan ma’ruzalar matni.T.2012

4-MAVZU: BOSHLANG‘ICH SINF TEXNOLOGIYA DARSLARIGA KOMPETENSION YONDASHUV

Reja:

1. Uqtirish xati va uning mazmuni haqida ma’lumot.
2. Yillik taqvim-mavzu relasi haqida ma’lumot.
3. Texnologiya fanidan choraklar bo‘yicha soatlarning taqsimlanishi.

Tayanch so‘z va iboralar: uqtirish xati, taqvim-mavzu rejlasi, texnologiya fani, soatlar taqsimoti, mavzular ro‘yxati, texnologiya ta’limi, uzviylik va uzluksizlik.

Umumta’lim va kasb-hunar ta’limini isloh qilishning asosiy yonalishlari, umumta’lim va davlat ta’lim standartlari o‘quvchilarning texnologiya tarbiyasi, ta’limi, kasbga yo‘nalish tubdan yaxshilashni ko‘zda tutadi.

Boshlang‘ich sinflarda o‘quvchilarning umumiy texnologiya tayyorgarligiga asos solinadi. Kichik yoshdagi o‘quvchilarning to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilgan texnologiya tarbiyasi va ularning ijtimoiy foydali texnologiyada bevosita ishtiroki shu bosqichda ularni aqliy, ahloqiy jihatdan shakllanish, jismoniy rivojlanish, texnologiyaga ongli munosabat va ma’suliyat ruhida tarbiyalash ishida muhim omil hisoblanadi.

Dasturda o‘quvchilarni texnikaga oid texnologiya elementlarini o‘rganish ko‘zda tutiladi. O‘quv materiallari dastur, bolim va mavzulari bo‘yicha turlarga taqsimlanadi.

№	Texnologiya turlari	Soatlar miqdori	Soatlar miqdori	Soatlar miqdori	Soatlar miqdori
		1-sinf	2-sinf	3-sinf	4-sinf
1	Qog‘oz va karton bilan ishlash	10	10	10	10
2	Gazlama bilan ishlash	6	6	6	6
3	Tabiiy va turli materiallar bilan ishlash	9	9	9	9
4	Texnika sohasida modell yasash	9	9	9	9
	JAMI:	34	34	34	34

Demak, bir o‘quv yilida 34 soat texnologiya darsi o‘tilar ekan.

Taqvim – mavzu rejasi – o‘quv rejasi, Davlat ta’lim standarti va o‘quv dasturi

asosida tuziladi. Bunda dasturda ko‘rsatilgan mavzular va belgilangan soatlarga tayangan holda tuziladi.

Taqvim – mavzu rejasi fan o‘qituvchilari tomonidan butun o‘quv yili uchun tuziladi va maktab ilmiy bo‘lim mudiri tomonidan tasdiqlanadi.

Taqvim – mavzu rejasida: tartib raqami, bo‘lim va mavzular nomi ajratilgan soati, muddati, foydalanilgan ko‘rgazmali qurol va uyga vazifa ko‘rsatilgan bo‘ladi hamda mavzular choraklarga ajratilgan bo‘ladi.

Quyida ikkinchi sinf yillik rejasidan namuna keltiramiz

№	Bo‘lim va mavzular nomi	Soati	muddati	Foyd.ko‘rgazmali qurollar	Uyga vazifa
1	Texnika xavfsizligi qoidalari. Qog‘ozdan buklash usullariI	1		Tehnika xavfsizligi qoidalari haqida ko‘rgazma	
2	Rangli qog‘ozdan turli gullar shaklini yasash	1		Tayyor namunalar	
3	Tuxum po‘choqlaridan hajmdor o‘yinchoqlar yasash	1		Tayyor namunalar	

Texnologiya fanidan choraklar bo‘yicha soatlarning taqsimlanishida yil fasllari va turli bayramlarga e’tibor berish lozim.

1- chorakda 2-sentabrdan 4-nayabrgacha 9 hafta,

2- chorakda 10-nayabrdan 28-dekabrgacha 7hafta,

3-chorakda 12-yanvardan 20-martgacha 11hafta,

4-chorakda 1-apreldan 25-maygacha 7hafta o‘qish bo‘ladi.

Demak, boshlang‘ich sinfda yil davomida 34 hafta o‘qish bo‘lar ekan.

Savollar

1. Uqtirish xatida nimalar ko‘rsatilgan?

2. Dasturda qog‘oz va karton bilan ishlash bo‘limiga necha soat ajratilgan?

3. Dasturda tabiiy va turli materiallar bilan ishlash bo‘limiga necha soat ajratilgan?

4.Taqvim-mavzu rejasi kim tomondan tuzuladi?

5. Taqvim-mavzu rejasini tuzishda nimalarga e’tibor berish lozim?

6. Maktabdagi choraklar qanday taqsimlanadi?

Topshirilar:

Boshlahg‘ich sinf texnologiya darslariga taqvim-mavzu reja tuzish.

Foydalanilgan asosiy adabiyotlar:

1. R.A.Mavlonova va boshqalar. Umumiy pedagogika. Darslik. ”Navro‘z”nashriyoti.T.2016.

2. M.T.Satbayeva. Texnologiya o‘qitish metodikasi. Ma’ruzalar matni.T. 2015-y.

3. R.Ishmuhamedov, A.Abduqodirov, A.Pardayev. Tarbiyada innavatsion texnologiyalar T. 2010.

4. R.A.Mavlonova, M.T. Satbayeva. Texnologiya o‘qitish metodikasi. O‘quv qo‘llanma T. 2012-y.

5. HoshimovaD. Maxmudova SH. Texnologiya muhofazasi fanidan ma’ruzalar matni.Toshkent 2012-y.

5-MAVZU: TEXNOLOGIYA TA’LIMINING SHAKL VA METODLARI

Reja:

1. Ta’lim jarayonini tashkil etish shakllari.

2. Ta’lim metodlari.

3. O‘quvchilarni mustaqil ishlashga o‘rgatishning didaktik materiallardan foydalanish metodlari.

Tayanch so‘z va iboralar: qiziqishini orttirish, mustaqil ishlash, fikrlashga o‘rgatish, ta’lim shakli, material yig‘adilar, turli kuzatishlar o‘tkazadilar, axborotlar, bajarilgan ishlar, natural namunalar, rasmlar, fotosuratlar.

Ta’lim muassasalari oldida turgan vazifalarning ijobiy hal etilishi mashg‘ulot (ta’lim jarayoni) mazmuni, ta’lim shakli, metodlari hamda vositalarning samaradorligiga bog‘liq bo‘ladi. Ta’lim shakli, metodlari va vositalari ma’naviy jihatdan tarbiyalash, ularda chuqur bilim va dunyoqarashni hosil qilish ishiga xizmat qiladi.

Ta’lim shakli o‘qituvchi va o‘quvchining belgilangan tartibda, muayyan maqsadga muvofiq ma’lum rejimda tashkil etiladigan faoliyatning tashqi ifodasidir.

Qadim zamonlardanoq jamiyatning yetuk kishilari o‘qitish ishini tashkil qilishning ijtimoiy taraqqiyot ehtiyojlariga javob beradigan shakllarini topishga

uringanlar. Hozirgi vaqtda Respublika ta’lim muassasalarida o‘qitishning quyidagi shakllaridan foydalanilmoqda.

An’anaviy ta’lim o‘zida XVI asrning oxiri va XVII asrning boshlarida yashab ijod etgan buyuk chex pedagogi Yan Amos Komenskiy (1592-1670y) tomonidan asoslangan sinf-dars tizimi mohiyati quyidagilardan iborat.

A) o‘quvchilar yoshi va tayyorgarlik darajalariga ko‘ra sifatlar tarzida guruhlanadilar va umumiy ishni bajaradilar

B) o‘quv predmetining mazmuni bir qator bo‘lim va mavzularga bo‘lim va mavzular esa bir qator baravar va izchil joylashtirilgan qismlarga ajratilib, ular birin-ketin ma’lum jadval bo‘yicha keladilar (darslar) sinf-dars tizimi asosini tashkil etuvchi sinf yoshi va bilimi jihatidan bir xil bo‘lgan muayyan o‘quvchilar guruhini, dars esa bevosita o‘qituvchining rahbarligi hamda nazorati ostida muayyan o‘quvchilar guruhi bilan olib boriladigan ta’lim jarayonini anglatuvchi tushunchalardir.

Dars-o‘quv ishlarining asosiy tashkiliy shakli hisoblanadi. Sinf-dars tizimi quyidagi mazmunga egadir:

* Har qaysi sinf yoshi va bilim darajasiga ko‘ra bir xil bo‘lgan o‘quvchilarning doimiy guruhiga egadir

* Dars jarayoni asosan 40 daqiqa (yoki akademik soat - 80 daqiqa) davom etib, qa’tiy jadval asosida olib boriladi.

* Dars o‘qituvchi va o‘quvchilarning faoliyat birligiga asoslangan bo‘lib, bevosita o‘qituvchi rahbarligida jamoa, guruhli va yakka tartibda olib boriladi.

* Dars mashg‘uloti o‘tilayotgan va o‘zlashtirilayotgan materiallarning mazmuniga qarab turli xil metodlar yordamida olib boriladi hamda umumiy ta’lim tizimining bir qismi sifatida, albatta, tugallangan bilim beradi va navbatdagi bilimlarni o‘zlashtirish uchun zamin yaratishga xizmat qiladi. Darsda o‘qituvchi bilan bir o‘quvchining o‘zaro munosabat jarayoni shaxsiy aloqaga asoslanadi. O‘qituvchi darsda barcha o‘quvchilarni muayyan faoliyatga qo‘yiladi va ular faoliyatini nazorat qiladi, shuningdek, o‘quvchilarning o‘zaro aloqalari va nazoratini qo‘llab-quvvatlab turadi. O‘quvchilarning dars jarayonidagi faoliyat o‘quvchilar tomonidan fan asoslarining o‘zlashtirilishi, ularda zarur ko‘nikma va malakalarning hosil bo‘lishi uchun zamin yaratadi.

Bugungi kunda darslarni tashkil etishga nisbatan quyidagi didaktik talablar qo‘yilmoqda:

*Darsning maqsadi va vazifalarning aniqligi hamda pedagogik jihatdan to‘g‘riligi;

*Darsning ta’limiy, tarbiyaviy va shaxsni rivojlantiruvchanlik vazifalarining birligi va uzviyligi;

*O‘qitishning yaxlit dars va uning ma’lum qismlari vazifalari hamda

mazmuniga muvofiq keladigan, o‘quvchilarning bilish faolliklari va mustaqil faoliyatlarini ta’minlashga xizmat qiluvchi maqbul metodlarni tanlash;

*Mashg‘ulotlarning turli shakllari: jamoa va yakka tartibdagi shakllarini maqbul ravishda qo‘shib olib borish;

*O‘qituvchining rahbarlik roli bilan o‘quvchilar faol bilish faoliyatini birga olib borish;

*Darslarning o‘zaro uzviy va dialitik xususiyatga ega bo‘lishiga erishish;

*O‘quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlarini inobatga olish;

*Darsda o‘quvchilarni o‘qitish va tarbiyalash uchun qulay shart-sharoit yaratish;

*Darslarni demokratik tamoyillar asosida tashkil etish;

*Darsda o‘quvchi erkinligini ta’minlashga erishish;

Bir soatlik darsga mo‘ljallangan dastur o‘quv materiali mazmunini bayon qilish, didaktik maqsad va talablarga muvofiq tashkil etilgan mashg‘ulot turi – dars tipi deb yuritiladi. Boshqacha qilib aytganda, o‘quvchilarni bilim, ko‘nikma va malaka bilan qurollantirish mashg‘ulotning asosiy qismini ishg‘ol qilgan ta’lim shakli u yoki dars tipini tashkil etadi.

Ayni vaqtda ta’lim tizimida eng ko‘p qo‘llaniladigan dars tiplari quyidagilardir:

1. Yangi bilimlarni bayon qilish darsi
2. O’tilgan materialni mustahkamlash darsi
3. O‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va malakalarini tekshirish darsi
4. Takroriy-umumlashtiruvchi va kirish darslari
5. Aralash dars

Muayyan dars tipi asosida olib boriladigan mashg‘ulotlarda ikkinchi, uchinchi bir dars tipining turlari bo‘lishi mumkin. Misol uchun, ta’lim muassasalarida eng ko‘p qo‘llanadigan dars tiplaridan biri – yangi bilimlarni bayon qilish darsida quyidagi holatlar amalga oshirilishi mumkin:

A) yangi bilimlarni bayon qilish;

B) yangi bilimlarni mustahkamlash

C) yangi bilimlar ustida mashq o‘tkazish

D) yangi bilimlarga bog‘liq holda uy vazifalarini topshirish va hokazo

Demak, dars umumiy jarayon davomida bir dars tipi asosida tashkil etilmaydi. Shunga qaramay darsning maqsadi o‘quvchilarga yangi bilim berishga qaratilgan bo‘lsa, butun didaktik usullar ana shunga bo‘ysundiriladi. Shuning uchun bunday dars yangi bilim berish darsi deb ataladi.

Muayyan dars tipi bilan ish ko‘rilayotganda boshqa bir dars tipi unsurlarining asosiy tipidan o‘rin olishi va ayni paytda asosiy dars tipining tuzilishini tashkil qilish mumkin. Darsning tarkibiy tuzilishi u yoki bu dars tipining umumiy holati, uning qismlari mohiyatini anglatadi.

Dars jarayonida qo‘llanilayotgan har qanday didaktik usul dars tuzilishini ifodalashga xizmat qilavermaydi. Didaktik usullar ta’lim metodi bilan baholangandagina dars tuzilishining o‘zgarishiga olib keladi. Dars jarayonining o‘zgarishi dars tuzilishining o‘zgarishiga olib keladi. Dars jarayonining muayyan qismida dars shakli hamda metodlarining o‘zgarishi – darsning yangi bosqichini boshlanganligini anglatadi. Demak, dars tuzilishining biridan ikkinchisiga o‘tishi va shu orqali darsning shakl va metodlarining o‘zgarishi dars bosqichi deb yuritiladi.

Fakultativ mashg‘ulotlarda qo‘yiladigan ma’ruzalar amaliy mashg‘ulotlar bilan uyg‘unlashib ketadi. Bunda o‘quvchilar adabiyotlar bilan ishlash malakasini, mustaqil faoliyat yuritish ko‘nikmasini egallaydilar, murakkab bo‘lmagan tajribalar va tadqiqotlar o‘tkazish metodikasini o‘zlashtiradilar, tajriba qurilmalarini va texnikani ishlatish malakasini hosil qiladilar. Fakultativ mashg‘ulotlar majburiy fanlar yuzasidan bo‘lgan mashg‘ulotlar bilan mustahkam aloqadorlikda tashkil etilishi kerak.

Keyingi yillarda umumiy o‘rta ta’lim maktablarining yuqori sinflarida xususan, ijtimoiy gumanitar predmetlar yuzasidan seminar mashg‘ulotlarini tashkil etish keng qo‘llanilmoqda. Seminarlarni tashkil etishdan ko‘zlangan maqsad o‘quvchilarning mustaqil ishlarini yanada rivojlantirish, ayrim mavzular yuzasidan keng va chuqur ma’lumot bera oladigan manbalar ustida ishlay olishlari hamda shu asosda kelajak faoliyatlarida zarur adabiyotlardan foydalana olish ko‘nikma va malakalariga ega qilishdan iboratdir. Seminar mashg‘uloti o‘quvchilar tomonidan u yoki bu mavzu bo‘yicha ma’ruzalar tayorlash hamda uni sinf o‘quvchilari bilan muhokama qilish yo‘li bilan olib boriladi. Seminarlrga 2-3 hafta tayyorgarlik ko‘riladi. O‘quvchilar adabiyotlarni o‘rganadilar, material yig‘adilar, turli kuzatishlar o‘tkazadilar, o‘z axborotlari yuzasidan tezislar tuzadilar. Seminar mashg‘uloti o‘qituvchi rahbarligida o‘tkaziladi. U o‘qituvchilar ishini yo‘naltirib turadi, mavzuga oid savollari yuzasidan tashkil etilgan muhokamani yakunlaydi. Zarur qo‘shimcha mulohazalar bildiradi, materialni muayyan tizimga soladi.

Ma’ruza qilgan, muhokamada qatnashgan o‘quvchilarga faoliyatini baholab boradi.

Seminar mashg‘uloti o‘quvchlar e’tiborini darsga jalb etish, ularning qiziqishini orttirish, ularni mustaqil ishlashga, fikrlashga o‘rgatish, darsni faollashtirish hamda o‘quvchilar aqliy qobiliyatlarini o‘stirishda mufim o‘rin tutadi.

Yuqorida bildirilgan fikr-mulohazalarga tayanib, quyidagi xulosaga kelish mumkin:

- Ta’lim shakli muayyan maqsadga muvofiq ma’lum rejimda tashkil etiladigan faoliyatning tashqi ifodasi bo‘lib, ta’lim jarayonida yetakchi o‘rin tutadi.

- Ta’lim jarayoni samarasini ta’minlash unda ta’lim metodlaridan o‘rinli va unumli foydalanishga bog‘liq. Ta’lim metodi ta’lim jarayonida o‘qituvchi va

o‘quvchilarning aniq maqsadga erishishga qaratilgan birgalikdagi faoliyatlarining usullari hisoblanadi. Ta’lim vositalari ta’lim metodlarining ta’limiy ta’sirchanligini oshirishga xizmat qiladi. O‘qitishning noan’anaviy shakllari doirasida amaliy tajriba mashg‘ulotlari alohida o‘rin tutadi. Amaliy-tajriba mashg‘ulotlari odatda maxsus jihozlangan yoki alohida ajratilgan tajriba maydonida olib boriladi.

Bunday ta’lim mashg‘ulotlarini tashkil qilish ikki xil yo‘l bilan olib boriladi:

a) amaliy-tajriba mashg‘ulotlari;

b) ekskursiyalar.

Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining V-IX sinflarida olib boriladigan amaliy-tajriba mashg‘ulotlari asosan maktab ustaxonasi, maxsus jihozlangan xonalar va o‘quv tajriba yer maydonida olib boriladi. Noana’naviy dars ishlaridan biri hisoblangan ekskursiyalar sinf-dars tizimi, shuningdek, amaliy mashg‘ulotlardan tubdan farq qiladi. Ushbu farq quyidagilardan iboratdir:

a) o‘qituvchi o‘tkaziladigan barcha ekskursiyalarga rahbarlik qilsa ham, u ekskursiya obyektlarining barcha detallarini yaxshi bilmasligi mumkin, bunday hollarda maxsus tayyorgarlikka ega reja ish olib boradi.

b) Ekskursiya muddati turlicha bo‘lib, doimiy o‘quv jadvali talablariga amal qilish, talabiga bo‘ysunish shart hisoblanmaydi.

c) o‘qituvchi yoki ekskursovodning rahbarlik usuli va o‘quvchilarning faoliyati turlicha bo‘lishi mumkin.

Ilmiy texnik tafakkurning borgan sari o‘suvi va yoshlarning fan texnikaning jo‘shqin rivojlanishida faol ishtirok etishlari faqat ta’lim mazmunini emas, balki o‘qitish jarayonining usuli va tashkil etilishini, o‘qishga qiziqishni, ijodiy qobiliyatni, egallangan bilimlarni amalda ijodiy qo‘llay bilishni rivojlantirish maqsadlarida yanada takomillashtirishni ham talab qiladi. «Bu esa maktab zimmasiga yoshlarda ijodga ehtiyoj uyg‘otish, ijodiy qobiliyatlar, har qanday faoliyatga ijodiy yondashish asoslarini tarkib toptirish, ijodiy masalalarni mustaqil hal etishga o‘rgatish vazifasini yuklaydi»

Texnik texnologiyaga o‘rgatishning ahamiyati texnik texnologiya malakalarini egallash imkoniyatini berish bilan cheklanmaydi. Balki bu malakalar hamma uchun kerakligini e’tirof qilish kerak. Ko‘pgina ilmiy ekspeditsiyalar, agarda unda qatnashgan kishilar turmush ishlarini bajarishni: ovqat pishirish, kiyimni yamash, ozodalikni saqlash va shu kabilarni bilmaganlarida shunchalik muvaffaqiyatli chiqmagan bo‘lar edi.

Ko‘pgina o‘qituvchilar o‘qitishning turli metod va usullarini qo‘llab, shuningdek, sinfdan tashqari ishni qiziqarli tashkil etib, yaxshi o‘zlashtirish natijalariga erishmoqdalar va bilimga muhabbat hamda qiziqishni singdirmoqdalar. Bunday o‘qituvchilar qo‘l texnologiyasini o‘rgatishda o‘quvchilarga turmush texnologiyai sohasidagi bilim va ko‘nikmalarini singdirish bilan birga, ularda ijodiy

qobiliyatlarni va bilishga qiziqishni, mustaqil faollikni o‘stirishga yordam bermoqdalar.

Qo‘l texnologiyasiga o‘rgatishda, boshqa predmetlarni o‘rgatishda bo‘lganidek, o‘qitishning xilma xil metodlari qo‘llanilib, ular yordamida o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va malakalarni egallab olishlariga, shuningdek bilish qobiliyatlarining rivojlanishiga erishiladi.

O‘qitish metodlari — bu o‘qituvchi va o‘quvchilarning ish usullari bo‘lib, bular yordamida o‘qituvchi rahbarligida o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va malakalarni egallashlariga erishiladi. O‘qituvchi o‘z amaliyotida o‘qitishning xilma xil usullaridan foydalanish mumkin. Bitta darsning o‘zida o‘qitishning turli usullari qo‘llanishi mumkin. O‘qituvchining intilishi, xatti harakati darsda o‘quvchilarning diqqat e’tiborlari susaymasligiga, fikrlarining jamlangan bo‘lishiga, ularning charchamasliklari va zerikmasliklariga yo‘llangan bo‘lishi kerak. O‘qituvchi darsning har bir daqiqasini qadrlab, o‘quvchilarni ham shu narsaga o‘rgatishi kerak.

Har bir o‘qituvchiga o‘z uslubi, o‘z usulining o‘ziga xosligiga ega bo‘lish huquqi berilgan, biroq shuni aytish muhimki, bularning barchasiga mustahkam bilim birinchi qarashda hammaga ravshan bo‘lgan haqiqatlarni egallab olganlaridagina erishish mumkin. Nota savodi, gamma va kerakli texnikani egallamay turib Chaykovskiy asarlarini bilib bo‘lmaganidek, darsning tekshirilgan klassik shaklini o‘zlashtirmasdan turib o‘qituvchi o‘z uslubini shakllantira olmaydi. O‘z faoliyatini o‘qituvchilik texnologiyasiga baxsh etmoqchi bo‘lgan yosh o‘qituvchilar mana shu hammaga ma’lum haqiqatni o‘zlashtirishdan boshlashlari kerak. Ular mashhur triadani: darslarda suhbat, gapirib berish, laboratoriya ishlari kabilardan foydalanib o‘zlashtirilganni tekshirish, yangi mavzuni tushuntirish va o‘tilganini mustahkamlashni eng boshidan o‘rganishlari lozim. Faqat barchaga ma’lum haqiqatlar o‘zlashtirilgandan keyingina o‘z imkoniyatlari va sinfning imkoniyatlarini nazarda tutib, yangisini qo‘llash mumkin.

O‘qitish metodlari bilimlarning shunday darajada egallanishiga xizmat qilishi kerakki, unda o‘quvchilar chizmani o‘qituvchi chizgan o‘lchamlar asosida emas, balki o‘tilgan buyumning istalgan o‘lchami bo‘yicha chizib, egallagan bilimlarini amalda qo‘llay olsinlar.

Qo‘l texnologiyasiga o‘rgatishda qo‘llanadigan asosiy metodlar klassifikatsiyasi quyidagichadir:

1. Og‘zaki bayon qilish. 2. Tushuntirish va hikoya qilish. 3. Instruktaj. 4. Suhbat. 5. Mashqlar. 6. Amaliy ishlar. 7. Grafik ishlar. 8. Laboratoriya ishlari. 9. Mustaqil ishlar. 10. Ekskursiya. 11. Kitob bilan ishlash. 12. Kino. Ta’limning texnik vositalari.

Og‘zaki bayon qilish metodi ikki shaklda mavjud bo‘lishi mumkin: 1. Monologik bayon qilish, bunda faqat o‘qituvchi gapiradi, o‘quvchilar esa uning

nutqini idrok etib, anglab oladilar. Qo‘l mehnati darslarida u tushuntirish va hikoya qilish, instruktaj ko‘rinishida bo‘ladi.

2. Dialogik bayon bo‘lib bu o‘qituvchi va o‘quvchilarning o‘zaro suhbatidir.

Hikoya qilish — bu dastur materialini jonli va obrazli bayon qilishdir. Bu holda yangi bilimni o‘qituvchining o‘zi beradi. Ba’zan suhbat davomida o‘quvchilar tushuntirilayotgan narsalarni qanchalik o‘zlashtirayotganliklarini aniqlash maqsadida ularga savollar bilan murojaat etish maqsadga muvofiqdir. Hikoya agarda bajarilgan ishlar, natural namunalar, rasmlar, fotosuratlar va shu kabilarni ko‘rsatib qilinsa, anchagina tushunarliroq bo‘ladi. Bu o‘rinda tushuntirayotaningda ko‘rsat, ko‘rsat va tushuntir degan qoida bajariladi. Yangi materialni bayon qilishda o‘quvchilarning bir xil emasligini nazarda tutish lozim. Tushuntirishda bo‘sh o‘zlashtiruvchilarga alohida e’tibor berish lozim. Hikoya qilish jarayonida ularning idroklarini faollashtirish maqsadida tushuntirilayotgan material yuzasidan ularga bir ikkita savol berish mumkin.

O‘qituvchi hikoyasi quyidagi talablarga javob berishi kerak:

U mazmuniga ko‘ra — dasturda nazarda tutilgan barcha o‘quv materialini aniq va to‘liq qamrab olishi kerak;

bayon etilish shakliga ko‘ra aniq, tushunarli, mantiqiy, iboralari sodda bo‘lishi zarur;

material qiziqarli va o‘quvchilarning fikrini aktivlashtiradigan, diqqatini yangilikning asosiy elementlariga jalb qiladigan bo‘lishi lozim;

Hikoyada o‘qituvchini o‘quvchilar bop fakt va tushunchalarga asoslanishi lozim. Nutq sodda va aniq bo‘lmasa, o‘quvchilarning hikoyaga, keyinchalik predmetga bo‘lgan qiziqish so‘nishi mumkin. O‘qituvchini hikoyasida o‘quvchilarning nutqini yangi axborot va so‘zlar bilan boyitish, yangi so‘z va atamalar bo‘lishi, ularning ma’nosini shu vaqtning o‘zida tushuntirishi shart.

Hikoya jarayonini o‘quvchilar yaxshiroq tushunib olishlari uchun ko‘rgazmali qurollar – tikuvchilik mahsulotlari, natural predmetlar, rasmlar, fotosuratlar vositasida o‘qituvchi voqeani namoyish etib bermog‘i darkor.

Instruktaj — texnologiya ta’limining samarali metodlaridan biridir. Instruktajning maqsadi o‘quvchilarning amaliy faoliyatlarini uyushtirish va yo‘naltirish orqali ularning amaliy bilim, ko‘nikma va malakalarga ega bo‘lishlarini hamda ularda texnologiyaga ongli ijodiy yondashishni tarbiyalashni ta’minlashdir. Instruktaj olgan o‘quvchiga ishning maqsadi va usullari ravshan bo‘lishi kerak. Instruktajning vazifasi o‘quvchilarga texnologik jarayonni ongli va to‘g‘ri rejalashtirishni o‘rgatishdan iboratdir.

Instruktaj olgan o‘quvchilar: ishni ratsional usullarda va to‘g‘ri izchillikda bajara bilishlari, texnologiyani tashkil etishning belgilangan formalari va xavfsizlik texnikasi qoidalarini amalga oshirishlari, yo‘l qo‘yilgan xatolarni ish jarayonida

tuzatishlari va ularning paydo bo‘lish sabablarini bartaraf eta bilishlari kerak.

Instruktaj og‘zaki va yozma, individual, qator yoki guruhga mo‘ljallangan bo‘lishi mumkin.

Og‘zaki instruktaj suhbat yoki hikoya qilish metodi orqali berilishi mumkin. Suhbat va hikoya qilish jarayonida ham predmetlar yoki ish usullari namoyish etilishi mumkin.

So‘z va ko‘rsatishning bir biriga munosabati ishning to‘g‘ri va murakkabligiga ko‘ra hal etiladi. Masalan, ko‘ylak tikish ishini rejalashtirish nazarda tutilganda asosiy ish tushuntirishga, choklarni tikishga o‘rgatishga, ko‘rsatishga taalluqli bo‘ladi. Shuni unutmaslik kerakki, biror chokni qanday tikish kerakligi ko‘rsatilayotganda bu harakatning maqsadi albatta tushuntirilishi lozim.

Instruktajdan so‘ng o‘quvchi egallagan bilimlarini amaliy texnologiya harakatlariga tatbiq etishi darkor. Biroq barcha o‘quvchilar ham instruktajni bir xilda idrok etmaydilar, birlari kerakli harakatni og‘zaki bayondan tasavvur qila olmaydilar, ikkinchilariga ko‘rsatish, tushuntirish kerak bo‘ladi, uchinchilari tushuntirish vaqtida hamma narsani tushunadilar, biroq ishga kirishgan onlariyoq, ularni unutadilar. Bu holat ulardagi bilish tipining xususiyatlariga hamda birinchi va ikkinchi signal mavzulari munosabatlarining xususiyatlariga aloqadordir.

Topshiriqning yaxshiroq anglanishi va bajarilishi uchun instruktaj jarayonida o‘quvchilarni bo‘lajak ishni rejalashtirishga jalb qilish, topshiriqni bajarishga aloqador masalalarni ular bilan muhokama qilish, instruktaj o‘tkazishda o‘quvchilarning diqqatini o‘ta muhim texnologik jarayonlarga jalb qilish: xavfsizlik texnikasi qoidalarini eslatish lozim.

Hamma ko‘rsatilgan harakatlarni o‘quvchilar mustaqil bajarishlari kerak bo‘lganligi uchun, ular bu harakatlarni aniq va puxta idrok etishlari hamda xotirlab qolishlari lozim. Shuning uchun ko‘rsatish hajmi bir karra xotirlashdan ortiqcha bo‘lmasligi kerak

Qo‘l texnologiyasini o‘rgatishda yozma instruktajdan bot bot foydalaniladi va u ko‘pgina hollarda og‘zaki instruktaj bilan qo‘shib olib boriladi. Darsda instruksion kartaning mavjud bo‘lishi og‘zaki instruktaj vaqtini ancha qisqartiradi, savollarni deyarli istisno atib, mustaqil ishlashga o‘rgatadi. Instruksion kartalardan keng foydalanish lozim.

Instruksion karta bilan quyidagi tartibda ishlanadi:

o‘quvchilarni instruksion karta bilan tanishtirish, ularga kartaning tuzilishi va mazmunini tushuntirish, unda qanday ma’lumotlar borligini ko‘rsatish;

ishning izchilligini qisqacha tushuntirish.

O‘quvchilarning karta bilan ishlashlari, kartani o‘qish va unda ko‘rsatilgan harakatlarni bajarish, bajarilayotgan ishni karta bilan solishtirib muvofiqligini tekshirib ko‘rish kerak.

Instruksion kartadagi ko‘rsatmalar soni o‘quvchilarni yanada ko‘proq mustaqillikka undash maqsadida asta sekin qisqarib borishi kerak.

Yozma instruktaj tarkibida ishning borish jarayoni, xavfsizlik texnikasi, ish o‘rnini tashkil etish va shu kabilarning illyustratsiyalari hamda bayoni tasvirlangan ko‘rgazmali plakatlar, jadvallar ko‘rinishida ham amalga oshirilishi mumkin.

Mo‘ljallanilishi va maqsadiga ko‘ra kirish, joriy hamda yakuniy instruktaj bo‘ladi.

Kirish instruktajida topshiriqning maqsad va mazmuni ochib beriladi, ishni bajarish usullari va tartibi, ishda sodir bo‘lishi mumkin bo‘lgan nuqsonlar va ularning oldini olish yo‘llari ko‘rsatiladi. Vaqtni tejash maqsadida kirish instruktaji butun guruh uchun o‘tkaziladi. Ayrim o‘quvchilar kirish instruktajidan so‘ng berilgan ishning hammasini bajarishda qiynaladilar, ana shunday vaqtda o‘qituvchi o‘quvchilarning ishlarini kuzatish va nazorat qilish asosida joriy instruktajni o‘tkazadi.

Joriy instruktaj butun guruh uchun ham, guruhning ayrim qismi yoki bir o‘quvchi uchun ham o‘tkazilishi mumkin. Butun guruh uchun joriy instruktaj o‘qituvchi o‘quvchilarning ko‘pchiligida bir xil xarakterli xatolarni sezganda yoki ish (tikish) ning texnologiyasini eslatish zaruriyati tug‘ilganda yoxud xavfsizlik texnikasining buzilish xavfi tugilgan vaqtlarda o‘tkaziladi. O‘quvchining ishini to‘g‘rilayvermaslik, buning ustiga ishning biror qismini ham o‘quvchi uchun bajarmaslik kerak.

O‘quvchiga yo‘l qo‘ygan xatosini anglashiga yordam beradigan yo‘llovchi savol berish, uning ishiga mustaqillik, tashabbuskorlik, bajarayotgan ishiga ijodiy yondashishni uyg‘otadigan qilib aralashish maqsadga muvofiqdir. Biror buyum tayyorlanayotgan vaqtda doskada o‘quvchilar bajarayotgan ishlarining namunasi sifatida tayyor buyumning osig‘liq turishi juda o‘rinlidir.

Yildan yilga, ya’ni 1-sinfdan 4-sinfga qarab joriy instruktajning hajmini qisqartirib, o‘quvchilarga ko‘proq mustaqillik berib boriladi.

Yakuniy instruktaj ish oxirida o‘tkazilib, unda asosiy e’tibor yo‘l qo‘yilgan xatolarni tahlil qilishga qaratiladi. Yo‘l qo‘yilgan xatolar tahlilini shunday tashkil etish kerakki, o‘quvchilarda o‘z ishlarini analiz qilish malakalari, o‘z xatolarini va ularni bartaraf qilish ko‘nikmasi, psixologik jarayonni takomillashtirish, shuningdek o‘z ishini baholay bilish ko‘nikmalari asta sekin shakllanib borsin.

Suhbat turli o‘quv maqsadlarida, ya’ni yangi dastur materialini bayon qilish, bilimlarni mavzulashtirish va chuqurlashtirish uchun takrorlash jarayonida, o‘quvchilarning bilimini tekshirish uchun qo‘llanishi mumkin.

O‘quvchilarni ulardagi qiziquvchanlikni qo‘zg‘ab, savollar berishga undash foydalidir.

Umumlashtiruvchi suhbat yaxshi samara beradi. Masalan, III-sinfda

“Mashinalar — ko‘makchilar” mavzusi o‘rganilgach, mavzu bo‘yicha bilimlarni mavzuga solish, chuqurlashtirish va mustahkamlash maqsadida umumlashtiruvchi suhbat o‘tkazilishi mumkin. Suhbatni quyidagi savollar bo‘yicha olib borish maqsadga muvofiqdir:

Qanday mashinalarni ko‘makchilar deyiladi?

Qanday ko‘makchi mashinalarni bilasiz?

Ular kishi mehnatini qanday yengillashtiradi?

Bu mehnat oldin qanday bajarilardi?

Ba’zan yangi materialni tushuntirishdan oldin ilgari o‘tilgan materialni xotirada tiklash zarur bo‘lib qoladi. Bunday ehtiyoj ko‘pincha chizmalarni chizishda tug‘iladi. Bunday hollarda chizmaning ma’lum qismi qanday izchillikda bajarilganligi qisqa va aniq shakllantirilgan savollar yordamida eslanadi. Oldingi darsda to‘xtalgan joyga kelgandan so‘ng o‘qituvchi yangi materialni tushuntirishni boshlaydi.

Suhbat xuddi hikoya singari ma’lum talablarga javob berishi, ya’ni:

savollar shunday shakllantirilishi lozimki, ular o‘quvchilar tafakkurini faollashtirsin, ularni aniq va ishonarli javobni izlashga undasin;

mavzuni ochib berishda izchillik bo‘lishi uchun suhbatning rejasi, oldindan tuzib qo‘yilgan savollari albatta bo‘lishi kerak;

o‘quvchilarning diqqati qaysi fakt va xulosalarga qaratilishi oldindan belgilanishi lozim.

Suhbat o‘quv materialining chuqur va ongli egallanishiga yordam berishi: o‘quvchilarda bo‘lajak amaliy ishni ongli rejalashtirish malaka va ko‘nikmalarini shakllantirishda vosita xizmatini o‘tashi; egallangan bilimlarni amalda qo‘llash malakalarini singdirishga yordam berishi kerak.

Mashqlar olingan bilim va ko‘nikmalarni mustahkamlash maqsadida o‘tkaziladi. O‘qituvchi ko‘nikma va malakalarni shakllantirish maqsadida o‘quvchilarga turli mashqlar beradi, bunda u ijodiy xarakterdagi ishlarni tashkil etib ko‘proq mustaqillik talab etuvchi mashqlarni nazarda tutadi.

Bu metodning mohiyati borgan sari murakkablashib boruvchi usul va harakatlarning ongli hamda ko‘p karpa takrorlanishidadir.

Masalan, oddiy choklarni tikish muntazam mashq qilish metodi yordamida mexanik bajarilishgacha yetishi, ya’ni ish tez, tartibli bajarilishi va qaviqlar orasi mutlaq bir xil o‘lchamda bo‘lishi kerak. Boshqa ish turlarida ham (qog‘oz karton bilan ishlash) mana shularga erishish lozim.

Mashqlar guruhli va individual bo‘ladi, ya’ni butun guruh bir xil ishni va barcha o‘quvchilar turli ishlarni bajarishlari mumkin.

Mashqlarning xarakterli xususiyati ayni bir harakatning takrorlanishi

bo‘lganligi uchun o‘quvchilarda bajarilayotgan ishga nisbatan qiziqishni saqlash talab etiladi.

Mashqlar yakunida ishlarni tahlil qilish, eng yaxshi ishlarning tahliliga tayanib, kim qanday natijalarga erishganligini ko‘rsatish lozim. Ayni bir vaqtda kamchiliklar ustida ham to‘xtash va ishning sifatini yaxshilash yoki bajarish tezligini oshirish uchun nimalar qilish kerakligini tushuntirish lozim.

Grafik ishlar texnik texnologiyani o‘rgatishda muhim o‘rinni egallaydi. Biror narsaning chizmasini chizishga butun bir dars, ba’zan ikki dars bag‘ishlanadi. Shuning uchun texnik texnologiya darslarida chizmani chizishga kirishishdan oldin, chizmachilikda o‘quvchilarni dastur asosida chizmalarni bajarish uchun zarur bo‘lgan elementlari bilan tanishtirish lozim.

Chizmani tayyorlashga kirishishdan oldin masshtabning qanday belgilanishini chizg‘ichlar yordamida amalga oshirish zarur.

Chizmalar daftarda emas, balki chizmachilikka mo‘ljallangan albomda bajariladi. Chizmaning butun texnik texnologiya ta’limi darslarida bitta albomda bajarilgani qo‘lay, maqsadga muvofiqdir. O‘quvchilarning chizmalarini muntazam tekshirish va baholab borish kerak. Chizmalarni qoralama qog‘ozlarga chizish tavsiya etilmaydi. Chizmani bevosita albomga toza qilib chizishga odatlantirish kerak.

O‘qituvchi o‘quvchilardan chizma va yozuvlarni aniq, ravshan va tartibli bajarishlarini talab qilishi lozim. Chizmani aniq bajarmay turib, o‘quvchilarga chizmani materialga to‘g‘ri ko‘chirishga, chizmani o‘qishga o‘rgatib bo‘lmaydi; qo‘l mehnati darslarining asosiy vazifasi esa ana shundan iboratdir.

O‘qituvchi ish sifatini o‘quvchilarning albomlarni qanday tutganligi bilan baholashi mumkin. Amaliy ishlar o‘quvchilarga egallagan bilimlarini amalda qo‘llashni o‘rgatishda yordam beradi. Amaliy ishlarni bajarish rejasini o‘quvchilarning o‘zlari mustaqil tuzishlari katta ta’lim tarbiyaviy ahamiyatga egadir

III-sinfda “Sinf xonasini yig‘ishtirish”, “Xona o‘simliklarini parvarish qilish” kabi amaliy ishlarni o‘tkazishdan oldin har bir qator ma’lum topshiriq oladi. Bunda har bir qatorga olgan topshirig‘iga ko‘ra ish rejasini mustaqil tuzishni topshirish maqsadga muvofiqdir.

Ko‘rgazmali qurollarning o‘quvchilar tomonidan bajarilishini ham amaliy ishlarga kiritish mumkin, bu egallangan bilimlarni mustahkamlashga yordam beradi.

Laboratoriya ishlari ta’limning turli bosqichlarida bo‘lishi mumkin. Laboratoriya ishlarining o‘tkazilishi egallangan bilimlarning ishonarlilik kuchini oshiradi, bilimlarni mustahkamlashga yordam beradi, ularni amalda qo‘llashga o‘rgatish uchun xizmat qiladi.

Laboratoriya ishlari yangi bilimlarni berish maqsadlarida ham o‘tkazilishi mumkin.

Navbatdagi “Qog‘ozning xususiyatlari” mavzusida yangi bilimlarni egallash maqsadida o‘tkaziladigan laboratoriya ishlarini batafsil bayon qilamiz. Agarda asbob uskuna imkon bersa, laboratoriya ishini har bir o‘quvchi bilan alohida, ular yetishmagan hollarda esa qatorlar bo‘yicha o‘tkaziladi. Laboratoriya ishlari qatorlar bo‘yicha o‘tkazilganda jarayonlarning majburiy minimumini qatordagi barcha o‘quvchilar navbati bilan bajarishlarini, yozuvlarni, rasm solish kerak bo‘lsa, rasmlarni barcha o‘quvchilar qilishlarini kuzatib borish lozim. Ish oxirida yakun chiqariladi. Bir ikki o‘quvchi ishning qanday borganligi va olingan natijalar haqida axborot beradi. Bulardan so‘ng boshqacharoq fikrga ega bo‘lgan o‘quvchilar gapiradilar. So‘ngra o‘qituvchi har bir qator, har bir o‘quvchining ishini alohida alohida baholaydi.

Laboratoriya ishlari jarayonida o‘quvchilarda mas’uliyatni his etish, kuzatuvchanlik, diqqatlilik rivojlanadi.

Mustaqil ishlar — bu o‘qituvchining bevosita ishtirokisiz, biroq uning topshirig‘i bilan maxsus ajratilgan vaqtda bajariladigan ishlardir. Bu o‘rinda o‘quvchilar o‘zlarining intilishlarini qo‘llab hamda aqliy va jismoniy harakatlarining natijalarini u yoki bu formada ifodalab, topshiriqda qo‘yilgan maqsadga ongli ravishda erishishga harakat qiladilar.

Dastlabki darslardan boshlab ishni shunday tashkil etish kerakki, o‘quvchilar qo‘l texnologiyasini egallash uchun nazariy bilimlar va amaliy malakalar o‘rtasida uzviy aloqa bo‘lishi kerakligini his etsinlar. O‘quvchilarda malakani shakllantirish ongli faoliyatdan ajralgan holda bo‘lmasligi kerak.

Mustaqil ishlarni bajarish jarayonida malakalar shakllanishi bilan birga o‘quvchilar o‘z kuchlari, bilim va qobiliyatlarini sinovdan o‘tkazadilar.

Mustaqil ishlarning keng qo‘llanilishi o‘quvchilarda ishga ijodiy yondashishni, ulardagi bilishga, qiziqishlarni, olingan bilimlarni amalda qo‘llay bilishni rivojlantirishga yordam beradi.

Ekskursiyalar bilishga qiziqishni avj oldirishda, o‘quvchilarga mustaqillik malakalarini singdirish va hayotni bilishda muhim o‘rinni egallaydi. Agarda ekskursiyalarni o‘tkazishda ishlab chiqarish vakillari ham qatnashsa, u yanada samaraliroq bo‘ladi. Ekskursiya jarayonida o‘quvchilar ishlab chiqarish texnologiyasi bilan yaqindan tanishadilar. Ekskursiyani o‘tkazishdan oldin o‘quvchilar oldiga aniq maqsadlar qo‘yish, ekskursiyadan so‘ng savol javoblar o‘tkazish lozim. Masalan, to‘qimachilik kombinatiga ekskursiya uyushtirishdan oldin o‘quvchilarga qatorlar bo‘yicha topshiriqlar berish mumkin. Qatorlardan biri ekskursiyadan so‘ng albomni jihozlaydi, yigiruv sexining eng yaxshi ishchilarini yozib chiqadi, rasmlar chizadi, ikkinchisi to‘qishning texnologik jarayonini yozadi, uchinchisi bu ishni bo‘yash sexi bo‘yicha bajaradi va hokazo. Biroq hamma o‘quvchilarning barcha sexlarda bo‘lishlari shart.

Hozirgi kunda texnologiya ta’limi bo‘yicha I, II, III, IV sinflarga mo‘ljallangan “Texnologiya” darsliklari asosida o‘qituvchidan o‘quvchilarni kitob bilan ishlashga o‘rgatish talab qilinadi. Bu maqsadlarda quyidagi kitoblardan: Kuznesovning “I-III, IV sinflarda qog‘oz va karton bilan ishlash”, “Boshlang‘ich sinflarda texnik modellash”, “I-III sinflarda mehnati bo‘yicha albom”, “Boshlang‘ich sinflarda tabiiy material bilan ishlash” kabilardan ham foydalanish mumkin.

O‘quvchilarni biror kitob bilan tanishtirishdan oldin o‘qituvchining o‘zi bu kitobni puxta o‘rganib chiqishi, undan nimalarni tavsiya etish mumkinligini belgilab chiqishi lozim. O‘quvchilarni kitob bilan mustaqil ishlashga asta sekin o‘rgatib borish kerak.

Kino qo‘l mehnati mashg‘ulotlarida ayrim bo‘limlarni o‘rganish, kasblar, materiallarni tayyorlash texnologiyasi, xavfsizlik texnikasi qoidalarini tanishtirish munosabati bilan qo‘llaniladi.

Filmni namoyish qilishdan oldin uning qaysi joylariga alohida e’tibor berish lozimligi ta’kidlanadi. Shundan so‘ng film o‘rganilayotgan mavzuga muvofiq tarzda qismlarga ajratib namoyish etiladi. Har bir qism ko‘rilgach, qisqa suhbat o‘tkazilib, unda o‘quvchilar nimalarni egallaganliklarini, nimalar tushunarsiz bo‘lganligi aniqlanadi;

Filmni namoyish etishda o‘quvchilarni faqat tomosha qilish, ko‘ra bilishga emas, balki ko‘rilganni anglay bilishga ham o‘rgatish lozim.

Aytib o‘tilgan metodlar texnologiya ta’limi o‘qituvchilari tomonidan muvaffaqiyatli qo‘llanilmoqda. Biroq shunday bo‘lsada, ular oldida ma’lum muammo, ya’ni ta’limning qaysi metodlaridan foydalanib, darsning samaradorligini oshirish mumkin, o‘qitishning rivojlanuvchi kuchini talab darajasidagi yuksaklikka qay yo‘sinda ko‘tarish mumkin degan muammo turadi. O‘qituvchi materialni tushuntirishga birorta yangilik kiritishga, o‘zining ulushini qo‘shishga qanchalik urinmasin va harakat qilmasin, u baribir hikoya qilish, suhbat, laboratoriya ishlari va shu kabi metodlarga albatta murojaat etadi. Shunday ekan, an’anaviy metodlardan voz kechishning hojati yo‘q. O‘quvchilarning ijodiy faoliyatlarini faollashtirish, egallagan bilimlarini amalda qo‘llashga o‘rgatish uchun bu metodlarni takomillashtirishga zo‘r berish lozim. Buning uchun ma’lum shart sharoitlar talab qilinadi. Bu o‘rinda bilimlarni egallash, o‘zlashtirish, amalda qo‘llash va o‘quvchilarni rivojlantirishning faol jarayoniga qaysi sharoitlar yordam berishini aniqlashgina kerak, xolos.

Bilimlarni egallash, o‘zlashtirish, amalda qo‘llash va o‘quvchilarni rivojlantirish faol jarayonining muvaffaqiyati asosan o‘qituvchining bilimi hamda ishga ijodiy yondashishiga bog‘liq. Texnologiya o‘qituvchisi dasturda nazarda tutilgan texnologiyaning barcha turlari (qog‘oz va karton, tabiiy materiallar bilan ishlash) ni bir xilda yaxshi bilishi kerak. Faqat ijodiy fikr yuritib ishlaydigan, o‘z

ishida o‘qitishning klassik metodlari bilan birga, pedagogika keyingi yillarda erishgan yutuqlarni qo‘llaydigan o‘qituvchigina jamiyatning maktab oldiga qo‘ygan vazifalarini muvaffaqiyatli hal etishi mumkin.

Ijodiy ishlaydigan o‘qituvchi o‘z oldiga o‘quvchilarini faqat tikish, qirqish, yelimlash, chizmalar chizishga o‘rgatish vazifasinigina qo‘ymaydi. Bunday o‘qituvchilarning har bir darsi ma’lum bilim yo‘nalishiga ega bo‘ladi.

O‘quvchining har bir darsdagi faoliyati maqsadga yo‘llangan bo‘lishi kerak. Bilish faoliyatidagi eng yaxshi natijaga qo‘yilgan maqsadning o‘zi o‘quvchilarga tushunarli bo‘lganda erishiladi. O‘quvchilar ishni ishtiyoq bilan va ongli bajarsalar, ular oldilarida turgan har qanday qiyinchiliklarni bartaraf eta oladilar.

Agarda dars ma’lum bilish yo‘nalishiga ega bo‘lsa va o‘quvchilar o‘zlarining oldilariga qo‘yilgan vazifann tushunsalar, ular yechimni zo‘r ishtiyoq bilan izlaydilar va o‘zlarining qiziquvchanliklarini qoniqtirishga harakat qiladilar. “Nima uchun qog‘ozning hajmi kartonnikidan katta bo‘lishi kerak?” deb so‘raydigan o‘quvchilar, nima uchun boshqacha emas, shunday qilinish lozimligini bilishga qiziqmaydigan o‘quvchilarga nisbatan tug‘ilgan savolning javobini amaliy izlashga kirishadilar. Agarda dars bilish yo‘nalishiga ega bo‘lsa, o‘quvchining tafakkur faoliyati bilinayotgan narsaning muhim xususiyatlarini aniqlashga yo‘llangan bo‘ladi. Bu o‘quvchi muammoli xarakterdagi ma’lum masalalarni hal etishga majbur bo‘lgan hollarda sodir bo‘ladi. Muammoli vazifalar ma’lum izchillikka ega bo‘lishi kerak.

O‘qituvchi yangi materialni bayon etar ekan, shu bayon jarayonida vaqt-vaqti bilan o‘quvchilar oldiga ularni o‘z fikrlarini aytishga undab, bilish masalalarini mustaqil yechish uchun savollar qo‘yadi. Masalan, o‘qituvchi applikatsiyalarni qanday izchillikda bajarishni talab qiladi. Har qanday vaziyatda ham oldin bitta muammoni hal etish zarur. Birinchisi hal etilib, keyingisini yechish uchun zamin yaratilgach, ikkinchi muammo qo‘yiladi, chunki yangi fikrlar mavjud bilim va tajriba asosidagina tug‘ilishi mumkin. O‘quvchilar ish bajarish tartibi haqidagi o‘z fikrlarini ayta boshlaydilar. Ma’lum miqdordagi aqliy zo‘r berishlardan so‘ng birinchi muammo hal etiladi. Texnologiyaga muhabbati, o‘quvchilardagi bilishga qiziqishni rivojlantirib borish zarur, buning uchun esa muammo elementli darslarni muntazam o‘tkazib turish kerak. Bilish qobiliyatlarini doimo, muntazam, ma’lum izchillikda mashq qildirib borish zarur.

Bilish qobiliyati faqat ijodiy ishlaydigan o‘quvchilardagina rivojlanishi mumkin. O‘quvchi faqat o‘zi yaxshi ko‘radigan, qiziqish va ishtiyoq bilan qatnashadigan darslardagina ijodiy ishlaydi. Shunday ekan, eng avvalo o‘quvchilarda predmetga muhabbatni, texnologiya ta’limi dasturining hamma bo‘limlariga qiziqishni o‘stirish zarur. Buning uchun o‘quvchilarning qiznqish va moyilliklarini bilish kerak. O‘quv materiali qanchalik qiziqarli qilib berilsa,

o‘quvchilar predmetni bilishga shunchalik ko‘proq oshiqadilar. Qiziqish asosida esa predmet va voqelik hodisalarini bilishga ehtiyoj yotadi.

O‘quv materiali mumkin qadar qiziqarli va o‘qimishli qilinganda u yaxshiroq egallanib, o‘quvchining qalbiga singadi va uni amalda qo‘llash osonroq bo‘ladi.

Agarda o‘quvchilarda qo‘l texnologiyasining istalgan turiga qiziqish paydo bo‘lgan bo‘lsa, unda bu qiziqish ilgari yoqmagan mavzu va bo‘limlarni egallashda qiyinchiliklarni bartaraf etishda yordam beradi. Ana shunday vaziyatlarda og‘ir yuk bo‘lib turgan turmush texnologiyai qoniqish baxsh etuvchi texnologiyaga aylanadi.

Materialni qiziqarli qilib berish degan so‘z uni faqat qiziq qilish kerak degan ma’noni anglatmaydi. Predmetga qiziqishni tarbiyalash bilan parallel tarzda bilimga ehtiyojlarni yetishmagan bilimlarni mustaqil egallash ko‘nikmalarini ham tarbiyalash lozim.

O‘quv jarayonini takomillashtirish, o‘qitishning yangi shakl hamda metodlarni tatbiq qilish, qiziqishni oshirishga, darsning samaradorligini kuchaytirishga, demak, bilish faolligini oshirishga yordam beradi. Bilish faolligining rivojlantirilishi o‘z navbatida predmetga, mazkur holatda xizmat ko‘rsatuvchi texnologiyaga qiziqishni rivojlantirishga ko‘maklashadi.

Aytib o‘tilganidek, har bir o‘quvchidagi qiziqish turlichadir, shunday ekan, o‘qitishda individual yondashishni amalga oshirish kerak bo‘ladi. Bundan tashqari bir sinf, bir yoshdagi o‘quvchilarning rivojlanganlik darajasi hamda bilimlarni egallash tezligi turlichadir.

Darsni to‘g‘ri tashkil etishda har xil o‘zlashtiruvchi o‘quvchilar bilan ishlashning oldindan o‘ylab qo‘yilgan mavzusi bo‘lishi muhimdir. Bo‘sh o‘zlashtiradigan o‘quvchilarga ham, yaxshi o‘zlashtiradigan o‘quvchilarga ham oldindan alohida kartochka topshiriqlar tayyorlab qo‘yish kerak.

O‘quvchilarning qiziqish va o‘zlashtirishlari turlichaligini bilgan o‘qituvchi ularning qo‘llaridan keladigan topshiriqlarni oldindan o‘ylab qo‘yadi. Shu orqali u faqat yaxshi o‘zlashtiradiganlarninggina emas, balki bo‘sh o‘zlashtiradigan o‘quvchilarning ham bilish faolligini rivojlantiradi. Topshiriqlar albatta muammo xarakteriga ega bo‘lishi kerak.

Ko‘pgina hollarda o‘quvchilar oldiga ayrim ayrim qilib emas, balki ularni uch-to‘rt qatorga ajratib yoki guruh holida problemani qo‘yish mumkin. Bundan problemali o‘qitishdan alohida qatorlar bo‘yicha va butun sinf bilan ham uyushtirish mumkin degan xulosa kelib chiqadi. Muommali masalalarni hal etish uyda ham davom ettiriladi. Shuni ta’kidlash lozimki, “barcha o‘quvchilarni maksimal tarzda faollashtirgandagina muommoli metodning muvaffaqiyati haqida gapirish mumkin”.

O‘quvchilarda aniq maqsadga qaratilgan rejalashtirish ko‘nikmasini tarkib toptirmay turib, muommali o‘qitishda muvaffaqiyatga erishib bo‘lmaydi. Yangi

bilimlarga ega bo‘lish maqsadida darslarda ham tajribalar o‘tkazish, ekskursiyalar jarayonida ham, kundalik hayotda ham kuzatishlarni amalga oshirish mumkin. O‘quvchilar agarda kuzatish materiallaridan keyingi ishlarda albatta foydalanilishini bilsalar, kuzatishlarni bajondil olib boradilar.

Kuzatishlar jarayonida bolalar materiallarning xususiyatlarini, gazlamaning qog‘ozdan ko‘ra pishiqroqligini, qaysi gazlamaning kamroq g‘ijimlanishini bilib oladilar.

Kuzatishlar o‘quvchilarni predmetga diqqat bilan qarashga, uning xarakterli xususiyatlarini sezishga odatlantiradi. O‘quvchilarga bilimlarni hayotdan olishni ham o‘rgatish kerak. Agarda o‘qituvchi topshiriqqa kuzatilayotgan faktlarni kuzatuvchining qo‘lidan keladigan tahlil va umumlashtirishlarni kiritsa, kuzatishlarning samaradorligi yanada ortadi. Masalan, to‘qimachilik fabrikasiga uyushtirilgan ekskursiyada to‘quvchi va mexanikning ishini kuzatishni topshiriq qilib berish mumkin. Bu o‘rinda o‘quvchilardan bunday mashina yarim avtomatlarni yaratishga qanchalik aqlzakovat sarflanganiga, sex ishchilari taklif etgan ratsionalizatorlik takliflariga e’tibor berish talab qilinadi. Shuningdek, kuzatishlar kishidan xilma xil bilim va ko‘nikmalarni, ijodiy mehat uchun esa ijodiy fikr yurita bilishni talab qiladi.

O‘quvchilar maqsadga muvofiq kuzatishni, kuzatish materiallarini to‘plash va ularga ishlov berishni o‘rganib olganlaridan so‘ng bilimlarni mustaqil egallashning murakkabroq usullariga, ya’ni berilgan mavzu uchun materiallarni turli manbalardan (hayotdan, amaliyotdan, turli adabiyot va qiziqarli kitoblar, bolalar gazeta, jurnallaridan) to‘plab shu materialni umumlashtirishga o‘tish mumkin.

Savollar :

1. Ta’lim jarayonini tashkil etishning necha shakli mavjud?
2. O‘quvchilarga texnik mehnat malakalarini singdirishda nimalarga ahamiyat berish kerak?
3. Qo‘l mehnati o‘rgatishda qanday metodlardan foydalaniladi?
4. Instruktaj metodini mohiyati nimalardan iborat?
5. Texnologiya darslarida ekskursiyalarning qanday ahamiyati bor?

Foydalanilgan asosiy adabiyotlar:

1. R.A.Mavlonova va boshqalar. Umumiy pedagogika. Darslik. “Navro‘z” nashriyoti.T.2016.
2. M.T.Satbayeva. Texnologiya o‘qitish metodikasi. Ma’ruzalar matni.T.2015y.
3. R.Ishmuhamedov, A.Abduqodirov, A.Pardayev. Tarbiyada innavatsion texnologiyalar T. 2010.
4. R.A.Mavlonova, M.T. Satbayeva. Texnologiya o‘qitish metodikasi. O‘quv qo‘llanma T. 2012-y.

5. D.Hoshimova, Sh.Maxmudova Texnologiya muhofazasi fanidan ma’ruzalar matni. T.2012

6-MAVZU: TEXNOLOGIYA FANI DARSLARIGA INTEGRATSION YONDASHUV

Reja:

1. Zamonaviy ta’lim.
2. Yangi pedagogik texnologiyalar shakli.
3. Yangi pedagogik texnologiyalarni maqsad va vazifalari.

Tayanch so‘z va iboralar: ijodiy o‘yinlar, ishbilarmon o‘yini, ekskursiya, integratsiya, sinf texnologiyasi, dars, ta’lim, yozma, mustaqil ish, og‘zaki so‘rov, belgi, so‘z, rasm, chizma, shakl

Hozirda maktalarimizda pedagogikada bayon qilingan xilma-xil dars turlari bilan birga noan’anaviy dais tiplaridan ham foydalanilmoqda.

Noan’anaviy dars bu-qolipga solinmagan dars shakli bo‘lib, oqituvchining ijodkorligi, tashabbuskorligi va o‘quvchilarning faolligi natijasida amalga oshiriladigan mashg‘ulotdir.

Noan’anaviy shakllarni amaliyot jarayonida qo‘llash natijasida xilma-xil qarashlar yuzaga keldi. Bir guruh pedagoglar bu ta’lim shaklini ijobiy baholab, ta’lim samaradorligini oshirishda asosiy omil bo‘lib xizmat qiladi, deb hisobladilar, ikkinchi guruh pedagoglar esa bu ta’lim shaklini qoralab, bu darslarni didaktik tamoyillarning buzilishiga asoslanib tuzilganligi, shuningdek, bu dars turi o‘quvchilarni dangasa, loqayd darsga mas’uliyat bilan qaramaydigan qilib qo‘yadi va darslarni o‘yinga aylantirilganligi deb hisoblaydilar.

Lekin noan’anaviy darslarni amaliyotda qo‘llash natijasida u ijobiy samara berdi. O‘quvchilarni faolligini, darsga qiziqishini oshirdi, mavzularni o‘zlashtirishga zamin yaraldi. Binday darslarning bir necha shakllari mavjud.

1. Ishbilarmon o‘yini.
2. Ilmiy anjuman darslari.
3. Musoboqa darslari.
4. Teatrlashtirilgan darslari.
5. Konsultatsiya darslari.
6. Kompyuter darslari.
7. Ijodkorlik darslari
8. Auksion darslari.
9. O‘quvchilar tomonidan olib boriladigan darslari.
10. Zachot darslari.

11. Ijodiy hisobotlar darslari.
12. Formula darslari.
13 .Tanlov (konkurs) darslar
14. Xayol (fantaziya) darslari
15. O‘yin darslari.
16. Sud darslari.
17. Haqiqat izlab darslari.
18. Konsert darslari.
29. Dialog darslari.
20. Konferensiya darslari.
21. Rolli o‘yinlar darslari.
22. Seminar darslari.
23. Masofaviy darslari.
24. Ekskursiya darslari.

Bu darsni o‘z qobiliyatliga ko‘ra yosh muallim ham, uzoq yillik ish tajribasiga ega bo‘lgan pedagog ham o‘tkazishi mumkin. Noan’anaviy dars uzoq izlanishlar, intilishlar natijasi bo‘lib, u juda yaxshi meva beradi. Noan’anaviy dars bu yangilik, xayolga bog‘liqlik, yangi bir uslub, yangi bir izlanish, o‘qituvchining yutug‘i demakdir. Bunday dars shakli judayam qiziqarli bo‘lib, bir umr o‘quvchilar yodida qoladi, ularni. bilimi muslahkamlanadi.

Hozirda yurtimiz azaliy orzusi mustaqillikka erishib fan texnika, maorif, ta’lim-tarbiya sohasidagi samarali o‘zgarishilarni o‘rganib, pedagog erkin ishlab, ijod qilib, texnologiyalari samarasi sifatida o‘ziga xos yangi dars shakli taklif qilish, unda yaxshi natijalarga erishib, ta’lim-tarbiya sifatiga munosib hissa qo‘shishi mumkin.

Hozirgi zamon ta’lim jarayoniga didaktik o‘yinli darslar dadil qadamlar bilan kirib kelmoqda. Izlanuvchan va tajribali o‘qituvchilar o‘quvchilarni bilish faoliyatini faollashtirishda ta’lim olish jarayonini didaktik o‘yinlar bilan uyg‘unlashtirib, yaxshi natijalarga erishmoqdalar.

O‘qituvchi didaktik o‘yinli darslarni o‘tkazish uchun juda ko‘p adabiyotlar bilan tanishishi, o‘quvchilar iqtidorini hisobga olishi darkor.

Didaktik o‘yinli darslarni bilim olish va o‘yin faoliyalining uyg‘unligiga ko‘ra syujetli ro‘lli o‘yinlar, ijodiy o‘yinlar, ishbilarmon o‘yini, konferensiyalarga bo‘lish mumkin.

Takroriy umumlashtiruvchi dars odatda o‘quv dasturining ma’lum bir qismi, bob, bo‘lim yoki yirik mavzu o‘tib bo‘lgandan keyin o‘tkaziladi.

Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining yuqori sinflarida ba’zi o‘quv materiallarining ma’lum qismi yoki yirik mavzuni boshlashdan avval kirish darslari ham olib boriladi. Bunday darslar odatda gumanitar predmetlar bo‘yicha o‘tkaziladi.

Kirish darslarini o‘tkazishda o‘quvchilarning mustaqil ish olib borishlari nazarda tutiladi.

Bugungi kunda ta’limni tashkil etish tizimida yakka tartibda ta’lim oluvchining qiziqishi, ehtiyoji, xohishiga ko‘ra muayyan fan, predmet yuzasidan chuqur bilim olish, ma’lum fan yoki predmet bo‘yicha yuzaga kelgan o‘zlashtirmovchilik holatini bartaraf etish, shuningdek, uzoq vaqt sog‘liqni saqlash muassasalarida davolangan yoki tibbiyot xodimlari nazoratida bo‘lgan o‘quvchilarning o‘quv dasturi talablarini bajarishlariga ko‘maklashishi maqsadida tashkil etiladi. Yakka tartibda ta’lim olishning asosiy ko‘rinishlardan biri sifatida repititorlik ta’limi keng taraqqiy etib bormoqda. Ma’ruza umumiy o‘rta ta’limi maktablari hamda yangi turdagi o‘quv muassasalarida 40 daqiqalik bir akademik soatdan iborat bo‘ladi. Umumiy qoidaga muvofiq ma’ruza bir dars davomida oxiriga etkazilmay qolgan bo‘lsa, u yangi mashg‘ulotda davom ettiriladi. Har bir mavzu bo‘yicha ma’ruza materiallari tushuntirib bo‘lingach, o‘quvchilar bilan savol-javob o‘tkaziladi. Har bir mavzu yuzasjdan foydalanish lozim bo‘lgan adabiyotlar ro‘yxati taqdim etiladi.

Umumiy o‘rta ta’lim maktablari o‘quv rejasiga VII sinfdan boshlab fakultativ mashg‘ulotlar kiritiladi. Fakultativlar - o‘quvchilarning qiziqish va xohishlariga ko‘ra muayyan fan, predmet yuzasidan beriladigan ilmiy-nazariy bilimlarni chuqurlashtirish, ularda amaliy ko‘nikmalarni hosil qilish maqsadida tashkil etiladigan ta’lim shaklidir.

Maktab ma’muriyati hamda pedagogika jamoa oldiga har bir o‘quvchining fakultativlardan birini tanlash imkoniyatiga ega bo‘lishini ta’minlash vazifasi qo‘yiladi, bu keyinchalik uning uchun majburiy bo‘lib qoladi. Fakultativ mashg‘ulotlar o‘quvchilarning mustaqilligi hamda faolligini oshirishga, ularninig aqliy qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladigan maxsus dastur asosida o‘tkaziladi.

Pedagogik texnologiya - bu o‘qituvchi (tarbiyachi)ning o‘qitish (tarbiya) vositalari yordamida o‘quvchi (talaba)larga muayyan sharoitda ta’sir ko‘rsatishi va aks ta’sir mahsuli sifatida ularda oldindan belgilangan shaxs sifatlarining jadal shakllanishini kafolatlaydigan jarayondir. 1967 yilda Angliyada pedagogik texnologiya Milliy Kengashi (Natsional council for Edikatsional Texnology) taskil etildi va 1970 yildan boshlab “Pedagogik texnologiya” jurnali chiqa boshladi.

Bugun O‘zbekiston demokratik huquqiy davlat va adolatli fuqarolik jamiyati qurish yo‘lidan izchil borayotganligi uchun kadrlar tayyorlash miiliy tizimi tubdan isloh qilindi, davlat ijtimoiy siyosatida shaxs manfaati va ta’lim ustuvorligi qaror topdi. O‘quv tarbiyaviy jarayonni ilg‘or pedagogik texnologiyalar bilan ta’minlash zarurati ham kadrlar tayyorlash milliy dasturini ro‘yobga chiqarish shartlaridan biridir.

Donesk ochiq universitet professori V.F.Shatalov o‘qitishni jadallashtirish

texnologiyasini ishlab chiqdi va amaliyotga tatbiq etib an’anaviy sinf-dars o‘qitish usulining ochilmagan qirralarini ko‘rsatib berdi.

YANGI PEDAGOGIK TEXNOLOGIYA:

Ta’lim maqsadlari:

-bilim ko‘nikma va malakalarni shakllantirish.

-har qanday individual qobiliyatli bolalarning barchasini o‘qitish.

-tezlashgan o‘qitish (umumiy o‘rta ta’lim hajmini 9 yilda o‘qitish)

Prinsiplari:

- ko‘p marta takrorlash, majburiy bosqichli nazorat, yirik bloklar bilan o‘rganish: faoliyatning dinamik yaxlitligi, tayanch signallar, harakatlarning mo‘ljalli asoslari.

- shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv.

- ta’lim va tarbiyaning uzviyligi.

Mazmunning o‘ziga xos jihatlari:

- o‘quv materiali yirik hajmda kiritiladi.

- material bloklar bo‘yicha joylashtiriladi.

- o‘quv materiali tayanch sxema-konspekt ko‘rinishida rasmiylashtiriladi.

Texnologiyaning asosiy g‘oyasi: darsda o‘quvchilarning yalpi faolligini ta’minlaydigan o‘quv faoliyati tizimi yaratildi.

Tayanch - mo‘ljalli harakatlar asosi, bolaning ichki aqliy faoliyatini tashqi ko‘rinishda tashkil etish usuli.

Tayanch signal - belgi, so‘z, rasm, chizma, shakl ma’lum fikriy ma’noni bildiradi.

Tayanch konspekt – qisqacha shartli matn ko‘rinishidagi tayanchli signallar tizimi bo‘lib, yaxlit o‘quv materialining o‘zaro bog‘liq elementlari sifatida tushunchalar, faktlar, g‘oyalar tizimining ko‘rsatmali konstruktsiyasini o‘zida aks ettiradi.

Bu texnologiyada o‘qituvchi mehnati asosiy mavqeni egallaydi va bu texnologiyaga o‘quvchilar ayrim hollardagi (nazorat, maslahat, yordam) jalb etiladi. Tayanch signallari yordamida o‘qitish jarayoni qator bosqichlardan iborat:

1. Sinfda o‘qitish: mavzu o‘qituvchi tomonidan odatdagidek sinf doskasi yonida tushuntiriladi, keyin esa tayanch konspektlar asosida mavzuni tushuntirish takrorlanadi. O‘quvchilarning o‘z konspektlari ustida mustaqil ishlashi ta’minlanadi va frontal tarzda bilimlar mustahkamlanadi.

2. Uyda mustaqil ishlash: tayanch konspektdagi kodlashtirilgan o‘quv materiallarini o‘quvchi darslik yordamida oydinlashtiradi.

3. Nazorat va baholash: mavzu bo‘yicha o‘quvchining bilim, ko‘nikma va malakalari tashqi nazorat va o‘z – o‘zini nazorat qilish yordamida tekshiriladi. Nazorat shakli: tayanch konspekti bo‘yicha yozma, mustaqil ish, og‘zaki so‘rov;

juftli o‘zaro nazorat, guruhli o‘zaro nazorat.

Dars jarayonida “Aqliy hujum”, “Kichik guruhlar bilan ishlash”, “Kichik ijodiy guruhda ishlash”, “Zamonaviy o‘qitish vositalari bilan ishlash”, “Ekskursiya”, “O‘z o‘rningni top” kabi metodlardan foydalanish kata samara beradi.

Mashg‘ulotning borish tartibi:

I. Tashkiliy qism (5daqiqa)

1. Salomlashish;

2. Guruhni 6-8 o‘quvchidan iborat kichik guruhlarga ajratish;

II. Asosiy qism (35 daqiqa)

1. ma’naviyat daqiqasi;

2. klaster (format qog‘ozga fikrni yozish);

3 .tasodifiy voqea;

4. dam olish bekati;

5. aqliy hujum: test savollari ustida ishlash;

6. dam olish bekati: “Chechanlik”;

7. qiyosiy xarita.

III.Yakuniy qism (5 daqiqa)

1. baholash;

2. rag‘batlantirish;

baholash mezoni – ball:

1. har bir guruh ishi uchun – 3 ball (yashil rangli kartochka)

2. oyindagi faollik uchun (har bir ishtirokchi) – 1 ball (qizil rangli kartochka)

3. qo‘shimcha fikrlar uchun – 1 ball (sariq rangli kartochka).

Yangi texnologiyalarni loyihalash va ularni ta’lim – tarbiya jarayonida maqsadga muvofiq holda foydalanish ma’lum qonuniyatlarga asoslanadi. Bu asoslar pedagogik texnologiyaning o‘ziga hos jihatlarini ifoda etadi va metodikadan farqli tomonlarini ko‘rsatib beradi. Boshqacha qilib aytganda ularni pedagogik prinsiplari deb atash mumkin.

Prinsip – lotincha “prinsipium” so‘zidan olingan bo‘lib asos, dastlabki holat, boshqaruvchi g‘oya, umumlashgan talab kabi ma’nolarni anglatadi.

Biz pedagogik texnologiya prinsiplari deganda loyihalangan o‘quv tarbiyavi jarayonni amalga oshirishda yuqori natijalarga erishish uchun rioya qilinadigan umumiy me’yorlar va talablarni tushunamiz.

Ta’lim – tarbiya maqsadi yangilanadi – erkin fikrlaydigan fuqaroni, barkamol inson shaxsini shakllantirish zarur.

Savollar:

1. Ta’lim shakliga qaysilar kiradi?

2. Qanday yangi pedagogik texnologiyalarni bilasiz?

Topshiriq:

Yangi pedagogik texnologiyalarning maqsad va vazifalarini o‘rganib kelish.

Foydalanilgan asosiy adabiyotlar:

1.R.A.Mavlonova va boshqalar. Umumiy pedagogika. Darslik. “Navro‘z” nashriyoti. T.2016.

2. M.T.Satbayeva. Texnologiya o‘qitish metodikasi. Ma’ruzalar matni.T. 2015-y.

3. R.Ishmuhamedov, A.Abduqodirov, A.Pardayev. Tarbiyada innavatsion texnologiyalar T.2010.

4. R.A.Mavlonova, M.T. Satbayeva. Texnologiya o‘qitish metodikasi. O‘quv qo‘llanma T.2012-y.

5. D.Hoshimova, Sh.Maxmudova. Texnologiya muhofazasi fanidan ma’ruzalar matni.T.2012

7-MAVZU: O‘QUVCHILARNING MEHNAT TARBIYASIDA MEHNAT AN’ANALARINING O‘RNI

Reja:

1. Texnologiya metodikasi fanining fanlararo bog‘liqligi.
2. Mehnatni muhofaza qilish fanining fanlararo bog‘liqligi.
3. O‘zbekiston Respublikasining qonuni: mehnatini muhofaza qilish to‘g‘risida.

Tayanch so‘z va iboralar: sanoq son, yig‘indi, ayirma, qizil, qip-qizil, qizg‘ish, katta, kattaroq, kichikroq, barglar, urug‘lar, mevalar, postloq, daraxt shoxlari, parranda patlari, loylardan o‘yinchoqlar, applikatsiya

Texnologiya metodikasi fani pedagogika, psixologiya, tabiat, o‘lkamiz tarixi, o‘quv ustaxonasida amaliy mashg‘ulot metodikasi, ona tili, tasviriy san’at, o‘qish, iqtisod fanlari bilan uzviy bog‘liq.

O‘quvchilar matematika darslarida o‘rgangan son, sanoq son, yig‘indi, ayirma, mavzularini texnologiya darsida ishlatishi mumkin. Masalan: O‘quvchilar bir necha gul yaproqlarini sanab chiqib qirqadilar. Gullarni qirqishda sanoq asosida doira shakllari chizib qirqiladi. Barcha olingan bilimlar texnologiya darsida mustahkamlanadi.

Ona tili darslarida o‘rgangan mavzular texnologiya darslarida ham qo‘llash mumkin. Masalan:

Sifat mavzusi texnologiya darsining ko‘p mavzularida qo‘llanadi. Orttirma, qiyosiy daraja, kamaytirma musbat tushunchalar bo‘ladi. Ranglarni bir-biridan farqi:

Qizil, qip-qizil, qizg‘ish, katta, kattaroq, kichikroq. O‘qish darslarida masal, ertak, sher, hikoya o‘qishadi. O‘rganilganlar asosida texnologiya darsida applikatsiya yasash mavzusi bo‘ladi. Masalan: 1-sinflarda ”Bo‘g‘isoq”, ”Sholg‘om” ertaklari asosida applikatsiya yasaladi. Applikatsiyani bajarishdan oldin o‘quvchi tomondan ertak so‘zlab beriladi.

Tabiatshunoslik fani bilan bog‘liqligi darslarda o‘quvchilar tabiat inom etgan barglar, urug‘lar, mevalar, postloq, daraxt shoxlari, parranda patlari, loylardan o‘yinchoqlar, applikatsiyalar yasashadi.

Tarix fani bilan bog‘liqligi qog‘oz mavzusini o‘tishda uning kelib chiqishi tarixi, kulolchilk, naqqoshlik, kashtachilik, misgarchilik, yog‘ochsozlik tarixi haqida o‘quvchilarga tushuncha beriladi. Bunda o‘quvchilarga milliy an’analarimizga nisbatan muhabbat uyg‘otiladi.

Tasviriy san’at darsi bilan texnologiya darsi chambarchars bog‘liqdir. Bu 2 fan har doim bir-birini to‘ldirib boradi. Chunki yasalgan narsa tasviri avval chiziladi. Shu chiziqlar asosida kerakli shakllar qirqiladi.

Pedagogika fani ta’lim-tarbiya usullarini o‘rgatuvchi fan bo‘lganligi sababli texnologiya darsi bilan doim bog‘liq.

Psixologiya fani o‘quvchilarning yosh xususiyatlarini bilgan holda texnologiya darsini olib boradi. Texnologiya har bir narsani yasattirayotganda o‘quvchilarning psixologik jarayonini hisobga olish zarur.

O‘lkamiz tarixi bu fan bilan bog‘liqligi o‘quvchilarni atrofda bo‘ladigan barcha yangiliklar o‘quvchilarni yangi bilimlar asosida dars o‘tishga ularni fikrlash qobiliyatlarini kengaytirishga, ekskursiyalar tashkil qilish va ekiskursiyalar asosida ko‘rgan narsalarini bajarishga o‘rgatadi.

O‘quv ustaxonada amaliy mashg‘ulot bu fanga bog‘liqligi o‘qishda bajaradigan har bir ishlar tayyorlanadigan ko‘rgazmalar va ulardan qanday foydalanish kerakligin o‘rgatadi.

O‘zbekiston mustaqilligining birinchi yilidan boshlab davlat bosh islohatchi taomili asosida mamlakatning siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy yo‘nalishlari belgilab olindi va bu yo‘ldan og‘ishmay borilmoqda.

O‘tgan asrda yuz bergan yana bir ijobiy o‘zgarish ilm-fan taraqqiyotining yuqori bosqichlarga ko‘tarilganligi, yangi texnika va texnologiyalarning paydo bo‘lganligidir.

Ma’lumki, fan-texnikaning rivojlanishi, birinchi navbatda, ishlab chiqarish kuchlarini qayta taqsimlashga olib keladi. Yangi texnologiya bilan ishlab chiqarish samaradorligi oshadi, ishlab chiqarilayotgan maxsulotlar sifati yaxshilanadi, dunyo bozorida raqobat vujudga keladi va ilm-fan darajasi past bo‘lgan mamlakatlarda ishlab chiqarilgan maxsulotlarni jahon bozorida sotish imkoniyati yo‘qoladi.

Shuning uchun ham davlatimiz siyosatining asosiy yo‘nalishlaridan biri

bo‘lgan ilm-fan tizimini isloh qilish hozirgi vaqtda dolzarb masalalar qatorida turibdi.

Yurtboshimiz shaxsiy tashabbusi bo‘yicha o‘tkazilayotgan o‘quv tizimi islohoti bir necha bosqichdan iborat.

Bunda:

*birinchi bosqich to‘liqsiz o‘rta ma’lumot to‘qqiz yillik maktablarda amalga oshiriladi;

*ikkinchi bosqich kasb-hunar kollejlari va akademik litseylarda bajariladi;

*uchinchi bosqichda universitet va institutlarda bakalavrlar tayyorlash yo‘lga qo‘yiladi;

*oxirgi bosqichda magistrlar, ya’ni yetuk mutaxassislar tayyorlash bilan natijalanadi.

Bu ishlarni amalga oshirishda ikkita katta muammoni, ya’ni tayyorlov bosqichlarini amalga oshirishi kerak bo‘lgan mutaxassis kadrlar hamda o‘quv-uslubiy ko‘rsatmalar va darsliklar tayyorlash masalasini hal etish zarur bo‘ladi.

Texnologiyani muhofaza qilish – bu ijtimoiy, iqtisodiy, texnika, sanitariya-gigiyena, texnologiya qonunlari va tashkiliy chora-tadbirlar tizimidan iborat bo‘lib, uzluksiz faoliyat jarayonida inson sog‘lig‘i va texnologiya qobiliyatini saqlashni ta’minlashga qaratilgan fandir.

Insonning jamiyatni taraqqiy ettirishi hamda ishlab chiqarishni boshqarishda asosiy kuch ekanligini hisobga olib, uning xavfsizligi va sog‘lig‘ini saqlash ijtimoiy taraqqiyot yo‘lidagi muhim omil hisoblanadi. Shuning uchun ham sanoat korxonalarida mahsulot yetishtirish jarayonida ishlab chiqarish sharoitini yaxshilash, ishlab chiqarishda jarohatlanish va kasb kasalliklarining kelib chiqish manbalarini yo‘qotish, shuningdek ish faoliyati inson uchun charchash, toliqish va kasallanish manbai bo‘lmasdan, quvonch va baxt keltiruvchi faoliyat bo‘lishini ta’minlashga harakat qilish zarur.

Sanoat korxonalarida to‘kis sanitariya-gigiyena sharoitlarini ta’minlash, og‘ir qo‘l kuchi bilan bajariladigan texnologiyani tugatish va kasb kasalliklarini butunlay yo‘qotish chora-tadbirlarini amalga oshirish kerak, zero, texnologiya qilish faqat yashash vositasi bo‘lib qolmasdan, balki hayot talabi bo‘lib qolishi kerak.

Texnologiyani muhofaza qilish fani bir qancha fanlar chegarasida vujudga keldi. Bunda ishlab chiqarishdagi hamma jarayonlar hisobga olinadi. Bular – ishlab chiqarish muhiti va sharoiti, inson bilan ishlab chiqarish qurollari o‘ratasidagi bog‘lanish, texnologik jarayonning borishi, texnologiya qilishni va ishlab chiqarishni tashkil qilish va boshqalardir.

Texnologiyani muhofaza qilish fani quyidagi fanlar bilan uzviy bog‘langan:

Ijtimoiy huquqshunoslik va iqtisod fanlari – bunda texnologiya qilish huquqi, jamiyatshunoslik, texnologiyani ilmiy tashkil qilish, iqtisod, sanoatni tashkil qilish

va rejalashtirish va boshqa masalalar ko‘riladi.

Tibbiyot fanlari – bunda texnologiya qilish gigiyenasi, sanoat sanitariyasi, sanoatda zaharlanish, texnologiya qilish fiziologiyasi, texnologiya qilish psixologiyasi va boshqa masalalar ko‘riladi.

Texnika fanlari – bunda umuminjenerlik fanlari, yong‘inga qarshi kurash texnikasi, injenerlik ruhshunosligi, ergonomika, sanoat nafosati va boshqa masalalar ko‘riladi.

Texnologiyani muhofaza qilish kursi to‘rt qismdan iborat:

Texnologiyani muhofaza qilishning umumiy masalalari: texnologiyani muhofaza qilish qonunlari asoslari;

Sanoat sanitariyasi va ishlab chiqarish gigiyenasi;

Xavfsizlik texnikasining umuminjenerlik masalalari;

Yong‘inga qarshi kurash chora-tadbirlari.

O‘zbekiston Respublikasida mehnatni muhofaza qilishning huquqiy, texnik va sanitariya-gigienik qoidalari bilan belgilab qo‘yilgan qonunlari qabul qilingan va yangidan tahrir qilingan qoidalar umumjahon talablari darajasida ishlab chiqarilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasining qonuni texnologiyani muhofaza qilish to‘g‘risida.

Ushbu qonun ishlab chiqarish usullari, mulk shaklidan qat’i nazar, mehnatni muhofaza qilishni tashkil etishning yagona tartibini belgilaydi hamda fuqarolarning sog‘lig‘i va mehnati muhofaza qilinishini ta’minlashga qaratilgan.

Savollar:

Texnologiya metodikasi qaysi fanlar bilan bog‘loq?

Mehnatni muhofaza qilish kursi necha qismdan iborat?

Foydalanilgan asosiy adabiyotlar:

1.R.A.Mavlonova va boshqalar. Umumiy pedagogika. Darslik. ”Navro‘z” nashriyoti. T.2016.

2.M.T.Satbayeva. Texnologiya o‘qitish metodikasi. Ma’ruzalar matni.T. 2015-y.

3.R.Ishmuhamedov, A.Abduqodirov, A.Pardayev. Tarbiyada innavatsion texnologiyalar T. 2010.

4. R.A.Mavlonova, M.T. Satbayeva. Texnologiya o‘qitish metodikasi. O‘quv qo‘llanma T. 2012-y.

5. D.Hoshimova, Sh.Maxmudova. Texnologiya muhofazasi fanidan ma’ruzalar matni.T.2012

8-MAVZU: MUTAFAKKIRLAR MEROSIDA MEHNAT TARBIYASI

Reja:

1. Mutafakkirlar merosida mehnat tarbiyasining targ‘ib etilishi
2. Mutafakkirlarning kasb-hunarga oid fikrlari.
3. Kasb-hunarga yo‘naltirishga oid o‘yin va tadbir turlari.

Tayanch so‘z va iboralar: sezib anglash, emotsional idrok, diqqat, xotira, tafakkur, faollik, diqqatning jamlanishi, qiziqish, mustaqil fikr yuritish, aqliy, axloqiy, jismoniy, estetik o‘stirish, o‘lchay bilish, asboblarni ishlata bilish, tartiblilik, tozalik, aniqlik, intizomlilik.

O‘quvchilarni mehnatga axloqiy jihatdan tayyorlash. Mehnatga axloqiy tayyorlash deganda eng avvalo, mehnatga ongli munosabatni shakllantirish tushuniladi.

Shu o‘rinda buyuk allomalarning hadislariy-ilm, mehnat va hunar haqidagi fikrlaridan foydalaniladi:

Ey o‘g‘il! Qaysi fan bo‘lmasin, to uni mukammal egallamaguningcha harakatni to‘xtatma, bir ilm ikkinchi ilmni egallashga yordam beradi. Bir ilmni egallashga aqling yo‘l berdimi, uni oxirigacha egallamay turib, chala tashlab qo‘yma!

A.Sherozi y

Hunarni asrabon netgumdir oxir,

Olib tuproqqamu ketgumdur oxir

Alisher Navoiy

Aziz do‘stlar oltin va kumushi bo‘lmagan odam kambag‘al emas balki es-xushi va kasb – hunari bo‘lmagan kishi kambag‘aldir.

Abdulla Avloniy

Mehnatga inson hayotini farovon qiluvchi davlatdir

Abu Rayxon Beruniy

Mehnatga qilmoq insonga xosdur. Agar sen inson bo‘lsang, o‘z xulqingni mehnat tumori bilan beza.

Alisher Navoiy

Sen avvalo mehnatni qadrla va o‘zgalar qilgan mehnatni ham qadriga yet, shunda sen o‘zingni haqiqiy mehnat sevar deb bilursan.

Imom al - Buxoriy

O‘z mehnating bo‘lsin doim yo‘ldoshing,
O‘zga minnatidan og‘ritma boshing.
Kunlaring o‘tarkan terib dur-hikmat,
Kunlaring to‘liqdir bo‘lsa hur mehnat.
Abdurahmon Jomiy

Agarda boshlang‘ich sinflar o‘quvchilariga tatbiqan gapiradigan bo‘lsak,

ularning bu yoshidan mehnat texnologiyani sevish, shu mehnatga natijalariga hurmat bilan yondashishlari nazarda tutiladi. Mehnatga munosabat shu mehnatning muhimligi va zarurligini tushunish, bunday mehnatgada jonbozlik ko‘rsatish, ishga shaxsan mas’uliyatni his qilgan holda yondashish ijtimoiy mulkka tejamkorlik bilan munosabatda bo‘lishni anglatadi.

Mehnatga axloqiy tayyorlash — bolalarga jamoada ishlashni, do‘stona o‘zaro yordamni, ijodiy tashabbusni, tashkilotchilik qobiliyatlarini namoyish qilish va texnologiyada xatti - harakat normalarini o‘rgatishdan iborat.

Mehnatga ruhiy jihatdan tayyorlash. Mehnatga ruhiy jihatdan tayyorlash murakkab, uzoq davom etuvchi va ko‘p qirrali jarayon bo‘lib, u butun mehnatga ta’limi va tarbiyasiga singib ketgandir. U garchi o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lsada, mehnatga axloqiy tayyorlashga juda yaqindir.

Bolani mehnatga ruhiy jihatdan tayyorlash — bu unda mehnatga nisbatan uning yoshiga muvofiq keluvchi ongli va ijobiy munosabatlarni tarkib toptirish, unda amaliy malaka va ko‘nikmalarni egallashga qiziqishni shakllantirish demakdir. O‘qituvchining vazifasi o‘quvchilarga yoshligidan boshlab mehnatga — bu har bir kishining vijdoni va burchi ekanligini, inson o‘z mehnati bilan sharaflanishini, faqat Vatan farovonligi yo‘lida qilingan mehnatdagina insonning eng yaxshi sifatlari rivojlanishi hamda takomillashishi mumkinligini anglashlariga yordam berishdir. Bolalarning texnologiyaga qobiliyati har bir kishi jamiyatning hayoti va faoliyati, uning farovonligi uchun zarur bo‘lgan vositalarni ishlab chiqarishda qatnashishi zarurligini anglashlari juda muhimdir. Shuningdek, bolalar jamiyatda kishi mehnatsiz yashay olmasligini ham uqib olishlari kerak.

Mehnatga ruhiy jihatdan tayyorlash turli psixologik jarayonlarni rivojlantirish va takomillashtirishni nazarda tutadi. Bular sezib anglash, emotsional idrok, diqqat, xotira, tafakkur va shu kabi jarayonlardir. Boshqacha qilib aytganda, ular mehnatning psixologik tarkiblari deyiladi.

Texnologiyaga o‘rgatishda bolaning imkoniyatlarini nazarda tutib, hissiy bilish jarayonini takomillashtirish zarur. Ma’lumki, texnologiya faoliyati, texnologiya ta’limi uchun ham turli sezgilar yig‘indisining (ko‘rish, eshitish, his etish, ta’m bilish, teri, muskul harakati) namoyon bo‘lishi xarakterlidir. Shuning uchun o‘qituvchilar quyi sinf o‘quvchilariga yangi materialni yoki asbobni tanishtirayotganlarida bolalardagi sezgining barcha turlarini faollashtiradilar: bolalar qog‘ozni ushlaydilar, silaydilar, aylantirib ko‘rib chiqadilar, uning qanday shitirlashiga quloq soladilar. Sezgilarning bunday faollashuvi ma’lumot haqida to‘liqroq tasavvurga ega bo‘lishga yordam beribgina qolmay, balki bu psixologik jarayonni rivojlantiradi, takomillashtiradi.

Mehnatga tayyorlashning yanada muvaffaqiyatliroq bo‘lishi uchun bolalarning xotiralarini o‘stirish vazifasi ham albatta amalga oshiriladi. Texnologiya bo‘yicha

o‘quv materiallarini eslab qolish boshqa buyumlarga nisbatan o‘ziga xos xususiyatga ega. Barcha yangi asboblar, materiallar, jarayonlarning nomini boshlang‘ich sinf o‘quvchilari buyumni ko‘rib idrok etish bilan fikran biriktirib, tinglab fahmlaydilar. O‘qituvchi texnologiya darsida faqat tushuntiribgina qolmay, balki asosan material va buyumlar namunasini, asboblarni, materialga ishlov berish usullarini, jarayonlarning izchilligini ko‘rsatadi. Shuning uchun mehnatga texnologiya ta’limida eshitish, ko‘rish xotirasi va harakatlantiruvchi xotira ham muhim o‘rin egallaydi. O‘quvchilarda texnologiya darsidan texnologiya darsigacha yangidan yangi bilim va ko‘nikmalar mujassamlashib boradi, ularni esa anglash hamda xotirlab qolish kerak. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga texnologiya malaka va ko‘nikmalarini o‘rgatish natijalari ko‘p jihatdan psixologik jarayonlarining rivojlanganligiga, bosh miya nazorati ostidagi mushakharakat apparatining takomillashganligiga bog‘liqdir. Texnologiya ta’limining to‘g‘ri borishida emotsional jarayonlar ham xarakterlidir. Bolalarni qiyinchiliklarni yengishga, qo‘yilgan maqsadga erishish yo‘lida matonat va qat’iyat bilan kirishishga, boshlagan ishni chala tashlab ketmay, balki oxiriga yetkazishga o‘rgatish lozim. Bu o‘rinda ijobiy emotsiyalar: texnologiyadan quvonish, lazzatlanish va qoniqish hissiyotlarining namoyon bo‘lishi juda muhimdir. Texnologiyada turli psixologik holatlar: faollik, diqqatning jamlanishi, qiziqish, mustaqil fikr yuritish, qoniqmaslik kabi tuyg‘ular namoyon bo‘ladi.

Texnologiyada shaxsning qiziqish, qobiliyat, temperament kabi individual psixologik xususiyatlari shakllanadi.

Texnologiyaga ruhiy jihatdan va axloqiy jihatdan tayyorlash jarayoni murakkab va uzoq davom etuvchi jarayondir.

Texnologiyaga amaliy jihatdan tayyorlash.

Texnologiyaga amaliy tayyorlash texnologiya ta’limining muhim bo‘g‘inlaridan biri hisoblanadi. U o‘zaro bog‘langan bir necha elementlardan: oddiy asbob va moslamalardan foydalana bilish, kerakli jarayonlarni to‘g‘ri va aniq amalga oshira bilish, ya’ni u yoki bu materialga ma’lum izchillikda ishlov bera olish, yo‘l qo‘yilgan xatoni o‘z vaqtida aniqlash va to‘g‘rilay olish kabilardan tarkib topadi.

Texnologiyaga amaliy tayyorlash faqat kerakli bilimlar bazasidagina amalga oshishi mumkin. U boshlang‘ich maktabda boshlang‘ich texnikaga oid bilimlarga asoslanadi. Texnologiya ta’limining mazmuniga muvofiq o‘quvchilar mazkur yosh uchun qulay bo‘lgan materiallarga ishlov berishda qo‘llaniladigan oddiy asbob va moslamalarni ishlatishning amaliy malaka va ko‘nikmalarini egallaydilar.

Oddiy asbob moslamalar maxsus asbob va mashinalarning bosh asosi hisoblanadi.

Amaliy malaka va ko‘nikmalar bilan qurollantirish asosiy ishlab chiqarish jarayonlarini o‘rgatish ham demakdir. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari duch

keladigan buyumlar texnologiyasi xilma-xildir, biroq bu masalani batafsil o‘rganmasdanoq ish jarayonlarining aniqligini sezib olish qiyin emas, ular: materialni o‘lchash va belgilash ularga egib, qirqib ishlov berish; qismlarini yelimlash, tikish, o‘rish va bog‘lash kabi yo‘llar bilan birlashtirish va mustahkamlash; detallarni yig‘ish va buyumni montaj qilishdir. Yakunlovchi jarayon buyumni bezashdir. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini texnologiyaga amaliy tayyorlashga grafik malakalarni shakllantirish ham taalluqlidir.

O‘quvchilardagi mehnatning ma’lum turiga bo‘lgan mayl va qiziqishni o‘z vaqtida aniqlash va ularga mehnat malakalarini sevgan mashg‘ulotlarida takomillashtirishlariga yordam berish juda muhimdir. Sevgan mehnatga bo‘lgan qiziqishdan qo‘shimcha maqsadlarda ham foydalanish mumkin.

Texnologiya ta’limi jarayonining o‘sishga ta’siri.

Texnologiya ta’limining vazifalari haqida gapirilganda o‘quvchilarni har tomonlama: aqliy, axloqiy, jismoniy, estetik o‘stirishni tilga olmaslik mumkin emas.

Bolalarni aqliy o‘stirishda texnologiya ta’limining roli ko‘p qirralidir. Texnologiya o‘quvchilarning bilim olishga intilishlarini qo‘zg‘ovchi vositagina emas, balki uning manbai hamdir. Texnologiya ta’limi jarayonida o‘quvchilarni aqliy o‘stirishda jismoniy va aqliy texnologiyani almashtirib turish muhim ahamiyatga egadir. Biroq har qanday texnologiya ham aqliy o‘sishga yordam bermasligini unutmaslik kerak. Texnologiya ta’limiga ijodiy tashabbussiz yondashish texnologiyani aqliy rivojlanish omiliga aylantirmaydi. Bilimlarni qo‘llashni talab qilmaydigan, tafakkurni faollashtirmaydigan texnologiya faoliyati aqliy qobiliyatlarni o‘stirmaydi. Texnologiya eng muhim iroda va axloqiy sifatlarning rivojlanishiga yordam beradi. Texnologiya ta’limida texnologiyaga psixologik tayyorlik, mehnatga faoliyatining to‘g‘ri motivlari tarbiyalanadi, shaxsning har bir ongli texnologiya kash uchun zarur bo‘lgan sifatlari shakllanadi.

Darslarning jihozlanganligi o‘z mehnati uchun shaxsiy mas’uliyatni, mehnat madaniyatini tarbiyalashda katta ahamiyatga egadir. Agarda bolalar yomon jihozlangan sinfda, qo‘pol, og‘ir va yoshlariga nomuvofiq asboblar bilan shug‘ullansalar, ish natijalari ko‘ngildagidek bo‘lmaydi. Bunday sharoitda, tabiiyki, texnologiyaga (mehnatga) muhabbatni, tartiblilikni, aniqlikni, asboblarga ehtiyotkorona munosabatni tarbiyalash qiyin bo‘ladi.

Mehnat madaniyatining tarkib topishi uchun darslarda doimo bolalarning e’tiborini asbob va materiallarni saqlash qoidasi hamda joylashtirish tartibiga, ish joyini to‘g‘ri jihozlashga, materiallardan tejamkorlik bilan foydalanish usullariga, ish harakatlari me’yori va sur’atiga ish sifatini ta’minlovchi tadbirlarga, ishlov berishda olingan aniqlik va tozalikka rioya qilishga va nihoyat, narsani chiroyli qilib bezashga jalb qilib borish kerak.

Agarda o‘qituvchining talablari amaldagi faktlardan ajralib tursa va buning

natijasida shartli bo‘lib qolsa, agarda bola har bir qadamida tartiblilikka, tozalikka, aniqlikka rioya qilishi lozimligiga ishonch hosil qilmasa, bolalarni texnologiyaga muhabbat ruhida tarbiyalashda muvaffaqiyatga erishish haqida gapirish qiyin.

Tartiblilik, tozalik, aniqlik, intizomlilik talablari texnologiya jarayoni va vositalarini o‘zining ehtiyojidan kelib chiqmay, bu faqat pedagogninggina talabi bo‘lgan hollarda ham texnologiyaning tarbiyaviy ahamiyati pasayadi.

Mehnat madaniyati malakalari u yoki bu mehnat jarayonida belgilangan tartibga va harakatlar izchilligiga rioya qilinishi lozimligini muntazam tushuntirib borish bilan birga bo‘ladigan ko‘p marta mashq qilishlar natijasida tarkib topadi.

Kerakli material va asboblar bilan yetarlicha ta’minlanmaganlik ham texnologiya madaniyatining shakllanishiga salbiy ta’sir etadi. Ba’zan o‘quvchilarning tayyorlanmaganliklari va uyushmaganliklari tufayli o‘qituvchining ko‘p vaqti bekorga sarf bo‘ladi: biri qaychisini unutib, biri qog‘ozsiz kelib ish qilayotgan o‘rtog‘ini narsa so‘rab chalg‘itadi. Shuning uchun o‘qituvchi dars boshlanishidan oldin guruh boshlig‘i yordamida o‘quvchilar o‘rtasidagi do‘stona o‘zaro yordamga tayanib o‘z vaqtida choralar ko‘rishi lozim, biroq har qanday holatda ham u o‘quvchini uyiga jo‘natmasligi yoki jazo berish tartibida o‘quvchini ishsiz qoldirmasligi kerak, afsuski, bunday hollar amaliyotda uchrab turadi. O‘quvchilar o‘rtasida yo‘lga qo‘yilgan o‘zaro yordam esa ularda do‘stlik, birodarlik, jamoa bo‘lib ishlash hissiyotlarini tarbiyalaydi.

Mehnatning tarbiyaviy kuchi bolaning mehnatga munosabatiga ko‘p jihatdan bog‘liqdir. Ishtiyoq bilan berilib qilinayotgan mehnat majburan qildirilayotgan mehnatga nisbatan bolalarning ongiga, hissiyoti va irodasiga kuchliroq ta’sir etadi. Shuning uchun o‘quvchilar biror predmetni yasashga kirishishlaridan oldin o‘qituvchi bu predmetning zarurligini, uni qo‘llash o‘rni va maqsadini tushuntirishi, so‘ngra uni yasash usullari va jarayonini tushuntirishga o‘tishi mumkin.

Bolalar tayyorlagan buyumlarning o‘z o‘rnida qo‘llanilishi ham katta ahamiyatga egadir. Ular o‘z mehnatlarining foydaliligini ko‘rganlarida, ularda o‘z mehnatlarining natijasidan qoniqish, yana qandaydir foydali, yaxshiroq narsani qilishga intilish paydo bo‘ladi. Ularda o‘z qobiliyatlariga ishonch, narsalarga hushyor munosabatda bo‘lish hissiyoti uyg‘onadi, chunki bolalar atroflaridagi buyumlarning qanday mehnat evaziga yaratilganligini anglaydilar. Shunday qilib, o‘quvchilarga o‘zi yaratayotgan narsalarning foydaliligini tushuntirish, ularni tayyorlash usullarini ko‘rsatishgina emas, balki bu buyumni mo‘ljallangan o‘rnida ishlatish ham mehnat tarbiyasini to‘g‘ri amalga oshirishni o‘qituvchidan talab qilinadi va bu talab mehnat tarbiyasining zaruriy elementi hisoblanadi.

Hayotda bola “o‘z narsasi”, “o‘z modelini” avaylab saqlashini va qadrlashini, biroq hech bir o‘ylamay boshqalar yasagan, o‘zinikidan ancha qimmatliroq bo‘lgan buyumni qirqishi, sindirishi, buzib tashlashini ko‘plab uchratish mumkin. Bolalar

o‘zlarining narsalarini odatda asraydilar, bu narsalarga fikran va xayolan qaytadilar, chunki bunga ular kuch, texnologiya sarflagan, uni yasashda kamchiliklarga yo‘l qo‘ygan, yana qaytadan tiklab nuqsonlarini to‘ldirgan.

Har qanday mehnatga ijod elementlari qo‘shilsa, uning tarbiyaviy ahamiyati ortadi. O‘quvchilar agarda buyumni bezashni o‘zlari o‘ylab topsalar juda quvonib ketadilar.

Texnologiya malakalari va ko‘nikmalari.

O‘quvchilarni tarbiyalash va ularni bo‘lajak amaliy faoliyatga tayyorlashda mehnat malakalari va ko‘nikmalari katta rol o‘ynaydi. Quyi sinf o‘quvchilariga texnologiya ta’limini berish vazifalaridan biri ularda bir qator texnologiya malakalari va ko‘nikmalarini shakllantirishdir.

Texnologiya malakalari va ko‘nikmalari faqat texnologiya ta’limdagina natijasi bo‘lib qolmay, balki o‘quvchilarni texnologiya faoliyatiga, ijtimoiy foydali ishlab chiqarish texnologiyaini bajarishga jalb qilish sharti hamdir.

Ko‘nikma — bu kishining bilim va elementar tajriba asosida egallagan, ma’lum harakatni ongli bajarishga bo‘lgan qobiliyatidir. Masalan, kartonni kesa bilish ko‘nikmasi, qaychini to‘g‘ri ushlay bilish, harakatni aniq muvofiqlashtirish, yo‘nalish, kuch va bosimning tengligini saqlash, qomatni muvofiq keluvchi tarzda tutish degan ma’noni anglatadi. Bu o‘rinda ustalik bilan harakat qilib, ma’lum ish shartlariga, masalan, ishning sur’ati va aniqligiga rioya qilish kerak. Aks holda ish qo‘pol chiqishi mumkin.

O‘quvchilarning bilimlari ish jarayonida bajarilayotgan harakatlarning nazariy asosi hisoblanadi. Harakatning ayrim bosqichlari va ularning izchilligni ana shu bilimlar orqali anglanadi, tushuniladi.

Elementar tajriba o‘quvchilarga faoliyatning ma’lum turi bo‘yicha tasavvur beradi. Bunday tasavvurlarni yaratishda o‘quvchilarning shaxsiy tajribalari ham, o‘zgalar tajribasining (so‘z, grafik tasvir orqali berilgan natural ko‘rsatish va shu kabilarning) ular tomonidan idrok etilishi ahamiyatlidir. Biroq shaxsiy tajriba yetakchi rol o‘ynaydi.

O‘zgalar tajribasini idrok etish faqat shaxsiy tajriba mavjud bo‘lgandagina ijobiy natija ko‘rsatadi. O‘rganuvchilarning shaxsiy tajribasi o‘zgalar tajribasini o‘rganish uchun zamindir deb ta’kidlagan edi. Berilayotganni o‘zlashtirish — bu o‘zgalar tajribasining natijalarini o‘z tajribasining ko‘rsatkichlari bilan qiyoslashdir. O‘zgalar tajribasi bo‘lajak ish uchun o‘ziga xos namuna, yo‘l yo‘riqdir.

O‘zi uchun yangi bo‘lgan harakatni bajarishda o‘rganuvchi dastlab ko‘p ortiqcha harakatlar qiladi, ularni moslashtira olmaydi, harakatlarni no‘noqlik bilan qiladi, tez charchaydi. Mazkur harakat ko‘p karra takrorlanganda o‘rganuvchi texnologiya mahoratini va chaqqonlikni egallaydi.

Mehnat harakatlarining mukammallashuvi sintetik bosqichda maxsus mashqlar

ta’sirida yuzaga keladi. O‘rganuvchining ongi ayrim harakatlarni yaxlit harakatga birlashtirish jarayoniga yo‘llangan bo‘ladi. Malaka — faoliyatning mashq qilishlar jarayonida yetilgan, tezlashgan komponentidir. Bu tez va aniq bajarishni mashq qilish tufayli tarkib topgan elementar avtomatlashgan ko‘nikmadir.

Malaka— bu ma’lum miqdordagi mashq va usullar bajarilganda ko‘nikmadan sakrab o‘tish degan ma’noni anglatadi. Shuning uchun mazkur ko‘nikma agarda malakani yuzaga keltirishni nazarda tutgan mashq va usullar to‘g‘ri tuzilgan bo‘lsa, u to‘g‘ri malakaga aylanishi mumkin. Biroq malakaning takomillashuv darajasi o‘qitishning turli bosqichlarida turlichadir. Uning strukturasi ham o‘zgaruvchandir. Mashqlar jarayonida o‘quvchilar bajarayotgan harakatlar murakkablashib borgan sari, asta sekin oddiy malakalarning murakkab malakalarga birlashuvi sodir bo‘ladi.

Shu bilan birga barcha ko‘nikmalar malakaga aylanavermaydi. Faqat faoliyatning u yoki bu turini, uning ayrim harakatlarini bajarishning texnik tomonigina avtomatlashadi. Faoliyatning o‘zi ongli, ya’ni murakkab ko‘nikma bosqichida davom etaveradi, bu ko‘nikma tarkibiga ko‘pgina elementar malakalar (o‘lchay bilish, asboblarni ishlata bilish va boshqalar) kiradi. Vaqtning cheklanganligi tufayli boshlang‘ich sinflardagi texnologiya ta’limi darslaridagi ish ko‘nikma bilan yakunlanadi.

Malaka o‘quvchilarni bilim bilan qurollantirish jarayoni bilan uzviy bog‘liq holda shakllantiriladi va asosan ana shu bilimga tayanadi.

Bilimga tayanmay, faqat boshqalarning harakatlariga mexanik taqlid qilish asosida egallangan malaka texnikaga oid malaka bo‘lolmaydi. Bu tor ma’nodagi malakadir. Ikkinchi tomondan, texnologiya malakalari va ko‘nikmalarini faqat fikrlash bilan shakllantirib bo‘lmaydi, buning uchun ma’lum darajada davomli mashq qilish zarur, eng asosiysi o‘quvchilarning amaliy texnologiya faoliyatida qatnashishlaridir.

Texnologiya ko‘nikma va malakalarini shakllantirish quyidagi asosiy bosqichlardan tarkib topadi:

a) kirish instruktaji;

b) texnologiya harakatlarini sinov uchun qilish;

v) ish harakatlari;

g) yakun chiqarish.

Kirish instruktaji bo‘lajak ishni bajarish usullarini, qo‘llanadigan asboblar, mexanizmlar, materiallarning ko‘rsatilishini o‘ziga biriktirgan og‘zaki tushuntirish metodi bilan yoki tarqatma material sifatida yozma, yozma grafik va grafik hujjatlardan, ularning strukturasi hamda qo‘llashning xususiyatlarini og‘zaki tushuntirishni qo‘shgan holda namoyish etish metodidan foydalanib o‘tqazilishi mumkin. Bu vaqtda o‘qituvchining ko‘rsatib borishi katta rol o‘ynaydi. Metodik hamda texnik jihatdan to‘g‘ri bo‘lgan, tushuntirishlar bilan birga olib boriladigan

koʻrsatish oʻquvchilarda boʻlajak harakat, namuna haqida toʻgʻri tasavvurning yuzaga kelishiga yordam beradi. Oʻqituvchining koʻrsatishi quyidagi qator talablarga javob berishi:

Koʻrsatilayotgan harakat eng maqsadga muvofiq, barcha munosabatlarda ham namunali boʻlishi;

Koʻrsatish namunaning ongli idrok etilishiga yordam berishi kerak. Oʻqituvchi oʻquvchining e'tiborini harakatning eng asosiy ahamiyatli tomoniga yoʻllashi, boshqa harakatning emas, aynan shu harakatning maqsadga muvofiqligini asoslashi, ularning konstruksiyani ongli egallanishiga erishishi lozim. Shuning uchun koʻrsatish doimo qisqa tushuntirish bilan birga boradi;

Koʻrsatish harakat namunasining oʻquvchilar tomonidan faol idrok etilishini ta'minlashi kerak. Aktivlik tafakkur faoliyatida hamda koʻrsatilayotgan narsani idrok etishda analizatorlar miqdorining koʻpayishida ifodalandi. Koʻrsatishga faqat koʻruv emas, balki eshitish, sezish va boshqa qoʻzgʻovchilarni qoʻshish orqali erishiladi.

Koʻrsatilayotgan harakat barcha detallari bilan har bir oʻquvchiga yaxshi koʻrinishi kerak. Oʻrganuvchilarning harakatni sinov uchun qilishlari asta sekin ish harakatiga aylanadi. Ayrim harakatlar bir butun harakatga qoʻshilib ketadi, uni bajarish asosida chaqqonlik va ravonlik shakllanadi.

Koʻrish nazorati oʻrnini asta sekin harakat analizatorining nazorati egallaydi. Shunga koʻra oʻrganuvchining ongi ayrim harakatlardan harakatning yakuniy natijasiga koʻchadi. Malaka tarkib topadi. Ishga yakunyasashda oʻqituvchi oʻquvchilar bilan suhbat metodini qoʻllaydi, ularning yutuq va kamchiliklarini tushuntiradi, zarur boʻlsa ayrim harakatlarni bajarish usullarini qayta koʻrsatadi.

Mehnat malakasining muvaffaqiyatli boʻlishi birqator shartlarga bogʻliq.

Malakani shakllantirishdagi muvaffaqiyatning birinchi sharti qoʻyilgan maqsadning aniqligi, faoliyat natijasida nimaga ega boʻlishini anglashdir. Texnologiya darslarida oʻqituvchi oʻquvchilarga yasalishi lozim boʻlgan buyumni koʻrsatadi. Soʻngra uning ayrim detallarini qanday tayyorlash kerakligini tushuntiradi, oʻquvchilar esa oʻz ishlarida oʻqituvchining koʻrsatmalariga rioya qilib, kerakli harakatlarni egallab boradilar.

Malakani muvaffaqiyatli shakllantirishning ikkinchi sharti faoliyatni rejalashtirishdir. Texnologiyani rejalashtirish ishning maqsadini yaxshiroq anglash, texnologiya mahsulotini, texnologiya natijasini tasavvur qilish, mehnat jarayonlarini, ularning izchilligini oʻylab chiqish hamda uning nozik joylarini ajratish imkonini beradi. Quyi sinf oʻquvchisiga (garchi oʻqituvchi ish natijasida nimaga ega boʻlishi, nimaga intilishi lozimligini aytgan boʻlsada) butun mehnat jarayonini qamrab olish ba'zan qiyinlik qiladi. Shuning uchun ish jarayonini ayrim kichik bosqichlarga taqsimlash va oʻquvchining faoliyati jarayonida yirikroq

topshiriqlarga birika oladigan mayda topshiriqlarni ajratib ko‘rsatish maqsadga muvofiqdir.

O‘quvchi o‘z faoliyatini mustaqil rejalashtirmas ekan, uning malakasi hech qachon to‘liq bo‘lmaydi.

Malakani muvaffaqiyatli shakllantirishning uchinchi sharti o‘zini o‘zi nazorat qilishdir. Nazorat ish yakunida hamda ish jarayonida amalga oshiriladi. Nazorat malakani shakllantirish jarayonidayoq faoliyatning qanday bo‘layotganligini, unda qanday nuqsonlar borligini va qanday ijobiy vaziyatlar mavjudligini anglash imkonini beradi.

Foydalanilgan asosiy adabiyotlar:

1. R.A.Mavlonova va boshqalar. Umumiy pedagogika. Darslik. ”Navro‘z” nashriyoti. T.2016.

2. M.T.Satbayeva. Texnologiya o‘qitish metodikasi. Ma’ruzalar matni.T. 2015-y.

3. R.Ishmuhamedov, A.Abduqodirov, A.Pardayev. Tarbiyada innavatsion texnologiyalar T. 2010.

4. R.A.Mavlonova, M.T. Satbayeva. Texnologiya o‘qitish metodikasi. O‘quv qo‘llanma T. 2012-y.

5. D.Hoshimova, Sh.Maxmudova. Texnologiya muhofazasi fanidan ma’ruzalar matni.T.2012

9-MAVZU: TEXNOLOGIYAGA OID SINFDAN TASHQARI MASHG‘ULOTLAR VA TO‘GARAK ISHLARINI TASHKIL QILISH

Reja:

1. Sinfdan tashqari ishlarning shakllari.
2. Texnologiyaga oid sinfdan tashqari mashg‘ulotlar va to‘garaklarni tashkil etish.

Tayanch so‘z va iboralar: o‘yinlar, jumboqlar, amaliy tayyorlash, kechalar, tanlovlar, viktorinalar, ekskursiyalar, ko‘rgazmalar, dasturxon tuzaydi, non qanday qirqiladi, suhbatlar o‘tkazish, ishdagi ustalik, qo‘g‘irchoq teatri ishtirokchilar san’atini, dekoratsiya ishini, yoritish texnikasini rivojlantirish, karton, qog‘oz, yog‘och, gazlama.

Mehnat tarbiyasi, mehnatga munosabatni tarbiyalash maktabdagi o‘quv hamda sinfdan tashqari ishlarning o‘zagi, maktabni hayot bilan aloqasini mustahkamlashning asosiy yo‘lidir.

O‘quvchilarni mehnatga psixologik va amaliy tayyorlash maktabning asosiy tarbiyaviy vazifalaridan biridir.

Maktabning turmush bilan aloqasi kundan-kunga mustahkamlanib bormoqda, sinfdan tashqari ishlarning o‘quvchilar o‘zlarining mustaqilliklari va tashabbuslarini namoyish eta oladigan, ularga jamiyat foydasi uchun tashkil etilgan texnologiyaning go‘zalligi va quvonchini, jamoaning kuchini his etishlariga yordam beradigan yangi shakl va usullari aniqlanmoqda. O‘quvchilarni sinfdan tashqari ishlari harakatining davom etishi to‘garak ishlari (jumladan, yosh naturalistlar va “Mohir qo‘llar” badiiy kashta tikish to‘garaklari) kabi formalari keng tarqalgandir.

O‘quvchilarni mehnat faoliyatiga psixologik va amaliy tayyorlash o‘quvchilar ijtimoiy foydali texnologiyaning har xil turlarida qatnashayotgan vaqtlarida xilma xil tarbiyaviy tadbirlar kompleksini qo‘llash orqali amalga oshirilishi kerak.

O‘quvchilar bilan olib boriladigan sinfdan tashqari ish maktabning butun ta’lim tarbiyaviy ishining ajralmas qismi bo‘lib, u bolani har tomonlama rivojlantirish, darslarda egallayotgan bilimlarini mustahkamlash, chuqurlashtirish, amalda qo‘llanishga yordam beruvchi muhim vositadir. Sinfdan tashqari ish ayni bir vaqtda o‘quvchilarning bilim doirasini kengaytiradi, texnologiya ta’limi tarbiyasi bolalarda fan, texnika, san’atning turli sohalariga qiziqishni o‘stirish masalalarini eng maqbul hal etishga yordam beradi.

Texnologiya ta’limi bo‘yicha sinfdan tashqari texnik texnologiya darslarining davomi, qo‘shimchasidir. O‘quv mashg‘ulotlari bilimlarga qiziqishni o‘stiradi, sinf-dan tashqari ish esa bilimlarni kengroq qo‘llash hamda chuqurlashtirish imkonini beradi. Shu bilan birga sinfdan tashqari ish darsda beriladigan materiallarni aynan takrorlamasligi kerak, u sinfdagi ishdan o‘zining o‘yin, qiziqarli xarakterdaligi bilan ajralib turadi. Sinfdan tashqari ish o‘quvchilarga ishning o‘zlariga ko‘proq yoqqan, o‘zlarini ko‘proq qiziqtirgan turini tanlashlari uchun imkon yaratadi. Faqat sinfdan tashqari ishlarda o‘quvchilarning individual ijodiy qobiliyatlari yorqinroq namoyon bo‘ladi, bu yerda ular istalgan ish bilan shug‘ullanishlari, qo‘yilgan maqsadga erishish uchun kerak bo‘lgan vaqt va kuchni sarflashlari mumkin.

Sinfdan tashqari ishning formalari ko‘pdir:

Ommaviy ish - kechalar, tanlovlar, viktorinalar, ekskursiyalar, ko‘rgazmalar.

To‘garak ishi – “Mohir qo‘llar”, “Qo‘g‘irchoq teatri”, “Yosh tabiatshunoslar”, “Quvnoq ustaxona”, “Mohir qo‘llar va Dizaynerlik”, “To‘quvchilik” to‘garaklar.

Individual mashg‘ulot — kolleksiyalar to‘plash, texnika bilan mustaqil shug‘ullanish. Timurchilik ishi, qishloq xo‘jalik texnologiyai.

Maktablarda boshlang‘ich sinfdan tashqari ishlarning ertaliklar, ko‘rgazmalar uyushtirish kabi ommaviy ish turidan keng foydalanib, tanlov va viktorinalarga kam e’tibor beriladi. Ommaviy ishlarning tanlov va viktorinalar kabi turi juda qiziqarli va ayni bir vaqtda katta tarbiyaviy imkoniyatlarga egadir. Chunki zehnlilik, tez javob

topa bilish, o‘z fikri, bilimi va ko‘nikmalarini safarbar eta bilish xuddi mana shu ish turlarida talab qilinadi.

Boshlang‘ich sinflardagi to‘garak ishi quyi sinf o‘quvchilarini umumiy rivojlantirish, ayniqsa o‘qishning turmush bilan aloqasi nuqtai nazaridan juda muxim va keraklidir. “Mohir qo‘llar”, “Qo‘g‘irchoq teatri” to‘garaklari ayniqsa katta ahamiyatga ega bo‘lib, to‘garaklarda o‘g‘il va qiz bolalar bir hil qiziqish bilan shug‘ullana oladilar. Har biri o‘z qiziqishi, kuchi va imkoniyatlariga yarasha ish bilan shug‘ullana oladi.

“Mohir qo‘llar” to‘garagi. Bu to‘garakning vazifasi o‘quvchilarga texnologiya va mehnat kishilariga muhabbatni singdirish, politexnik ta’lim, estetik tarbiyaga yordam berish, ularning badiiy didlarini, badiiy ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, konstruksiyalash fikrini uyg‘otishdir.

To‘garak ishini shunday tashkil etish kerakki, quyi sinf o‘quvchisi ham o‘zining sodda ijodiy fikrini amalga oshirish imkoniga ega bo‘lsin.

Ma’lumki, “Mohir qo‘llar” to‘garagi yosh xususiyatini nazarda tutib tashkil etiladi, quyida biz I — IV sinflar o‘quvchilarini birlashtiruvchi ana shu to‘garak haqida gap yuritamiz. To‘garakni tashkil etishdan oldin o‘qituvchi maktabdagi mavjud imkoniyatlarni chamalab chiqishi lozim. To‘garak uchun albatta alohida xona kerak. Bu xona parta stollar, ma’lum asbob va moslamalar tayyor ishlarni qo‘yish uchun stelajlar bilan jihrzlanishi lozim. Bundan tashqari, material zapasi oldindan tayyorlanishi kerak. “Mohir qo‘llar” to‘garagidagi materiallar va asboblar I-III sinflar o‘quvchilarning yoshlariga, jismoniy rivojlanganliklariga muvofiq bo‘lishi kerak. Bu to‘garakda asosan karton, qog‘oz, ingichka sim, tunuka, tabiiy materiallar ishlatiladi. Murakkab ishlov berilishini talab qilmaydigan, lobzik arra va bolalar randasi qo‘llanadigan fanera hamda yog‘och bilan ishlash ham kiritiladi.

Quyi sinflar o‘quvchilarida qiziqish barqaror bo‘lmaydi, shuning uchun ham “Mohir qo‘llar” to‘garagidagi ish mazmuniga ko‘ra ham, qo‘llanadigan materiallari va asboblariga ko‘ra ham xilma-xil bo‘lishi kerak. O‘quvchilarga o‘zlari qo‘llaridan keladigan ishlar bilan tanishishlariga, xilma-xil texnologiya malakalarini va turli materiallar haqida bilimlarni egallashlariga imkon berish kerak.

“Mohir qo‘llar” to‘garagida qanday amaliy ishlarni bajarish mumkin?

Tabiatshunoslik, mavzu, ona tili predmetlari bo‘yicha o‘quv qo‘llanmalarini tayyorlash.

Kitoblarni tuzatish va muqovalash.

Turli kolleksiyalarni jihozlash.

Yosh tabiatshunoslar ishi uchun inventar tayyorlash.

Sinfni, zalni bezash uchun turli narsalar yasash.

O‘yinlar, jumboqlar, attraksionlar uchun predmetlar tayyorlash.

Faneradan turli shakllar qirqish.

Yog‘ochni kuydirib va o‘yib narsalar yasash.

Loydan narsalar yasash.

Gipsdan narsalar yasash.

Tabiiy materialdan ko‘rgazmalar. Yangi yil archasi uchun narsalar yasash.

Konstruksiyasi murakkab bo‘lmagan xilma-xil harakatlanuvchi modellar, priborlar, maketlar yasash.

Maktab va uy jihozlarini yasash.

To‘garak rahbari to‘garak a’zolarining yosh xususiyatlarini, ularning imkoniyat va qiziqishlarini, maktabning real imkoniyatlarini nazarda tutib, bu ro‘yxatdan o‘z to‘garagiga muvofiq keladigan ish turini tanlab olishi mumkin.

“Mohir qo‘llar” to‘garagi ishida ishlab chiqarishga, tabiat quchog‘iga uyushtiriladigan ekskursiyalarning ahamiyati kattadir.

Ishlab chiqarishga uyushtirilgan ekskursiya o‘quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini faollashtiradi, texnologiya kishilariga hurmatini tarbiyalaydi, ularni xilma xil kasblar bilan tanishtiradi. To‘garak a’zolarining qurilish, mashina traktor parkiga, bosmaxonaga ekskursiyaga borishlari va u yerdagi ishlar bo‘yicha umumiy tasavvurga ega bo‘lishlari foydalidir. Bolalarni tushunarsiz narsalar bilan qiynamay, ularga tanish asboblar o‘zgartirilgan ko‘rinishda stanok va mashinalarda qanday ishlayotganligini, masalan, bosmaxonadagi qog‘oz qirqadigan pichoq yoki traktor plugining lemexi oddiy pichoqning har xil o‘zgargan turi ekanligiga e’tiborni qaratish kifoyadir. Asboblarning bunday o‘zgarishlarini ko‘rar ekanlar, bolalar zamonaviy murakkab texnikani yaxshiroq anglay boshlaydilar. Ekskursiyalarda bolalarga texnologiyaning qudrati va go‘zalligini his etishlariga, ishchilar stanoklarda ishlarni qanday ustalik, chaqqonlik va go‘zallik bilan bajarayotganliklarini ko‘rishlariga imkon berish kerak. Ularda shu ishchilar kabi chaqqon, mohir bo‘lish uchun qiziqish uyg‘otish kerak. Agarda maktab qishloqda joylashgan bo‘lsa va o‘quvchilarni shaharga ekskursiyaga olib borishning imkoni bo‘lmasa, to‘garak rahbari ekskursiyada o‘quvchilarga mavzusiga muvofiq diafilm yoki o‘quv filmini ko‘rsatishi mumkin. Rahbar diafilm yoki filmni o‘z hikoyasi bilan to‘ldirib boradi. Bu o‘quvchilarning ijodiy fikrlarini, fantaziyalarini texnologiya malakalarini takomillashtirish ehtiyojini o‘stiradi.

Narsalar yasash uchun shakllarni to‘garak a’zolari turmushdan olishlari kerak. Qirqib, kesib, o‘yib narsalar yasashdan oldin tabiatga sayr uyushtirish jonli va jonsiz tabiatni sinchkovlik bilan kuzatish o‘rinlidir.

To‘garak rahbarining vazifasi bolalarga faqat qirqish, kesish, yelimlash, foydali narsalarni yasashni o‘rgatishgina emas, balki bolalarga material (qog‘oz, yog‘och, penoplast va boshqalar) nimadan va qanday yasalganligi haqida tushuncha berish hamdir. Oddiy harakatlanuvchi modellarni yasashni ham shunga muvofiq keluvchi mashinalar, texnikaning yutuqlari haqidagi suhbatlar bilan bog‘lash, agarda imkoni

bo‘lsa garaj, aeroport, tramvay trolleybus parki va shu kabilarga ekskursiyalar uyushtirish maqsadga muvofiqdir.

To‘garak rejasini rahbar odatda sinf rahbarlari bilan hamkorlikda bir yilga tuzadi. Rejaga to‘garak qaysi ish turi bilan shug‘ullanishi va shu ish turlari bo‘yicha qanday amaliy ishlar amalga oshirilishi qayd etiladi. Rejadagi ishlar oddiydan murakkabga o‘tishni ta’minlash uchun qiyinlik darajasiga ko‘ra joylashtiriladi. Rejada o‘tkaziladigan ekskursiyalar ham ko‘rsatiladi. To‘garak rejasini maktab direktori tasdiqlaydi. To‘garak mashg‘uloti haftada bir marta o‘tkazilib u 1,5 soatdan ortiq davom etmasligi kerak.

To‘garak mashg‘uloti odatda yangi ish usullarini ko‘rsatishdan boshlanib, to‘garak a’zolari bu harakatni takrorlaydilar, asosiy ishga esa ular bu ish usullarini yaxshi egallab olganlaridan so‘ng kirishiladi. To‘garak a’zolarini ishlarni bajarish jarayonida oddiy sxemalar, chizmalardan foydalanishga, materiallarga tartibli, tejamkorlik bilan munosabatda bo‘lishga, asboblar hamda ish joyini toza va tartibli saqlashga albatta odatlantirish zarur. To‘garakning har bir a’zosi “O‘zing bilib oldingmi — o‘rtog‘ingga ham o‘rgat” degan qoidani doimo yodida saqlashi kerak.

Qo‘g‘irchoq teatri. Havaskorlik qo‘g‘irchoq teatrlari yil sayin maktab hayotiga dadilroq kirib kelmoqda. O‘quvchilarning spektakllarni tayyorlash va jihozlash ishlarini bajarib, so‘ngra sahnaga chiqishlari ularning ma’naviy va estetik hissiyotini tarbiyalaydi. Qo‘g‘irchoqlar yordamida o‘quvchilarning xatti harakat va xarakterining yaxshi yomon tomonlari namoyish etiladi shuningdek, maktab, ko‘cha, uyda o‘zini tutish kabi hislatlarni tarbiyalashda qo‘g‘irchoq teatri yaxshi agitator bo‘la oladi. Teatr ustidagi ish bolalarning original ijodlarini rivojlantirishga yordam beradi.

Teatrga aloqador barcha ishlar — qo‘g‘irchoqlar, pyesalar, musiqa va dekoratsiyalar shunday turtki element bo‘lishi kerakki, bolalar ulardan ijobiy ta’sirlanib barcha egallagan bilim va ko‘nikmalarini amalda qo‘llaydigan bo‘lsinlar. Bunga erishish esa jamoa hissiyotini tarbiyalashda katta rol o‘ynaydi.

Aytilgan barcha masallar, she’rlar va ertaklar namoyishiona tili va adabiyotni batafsil o‘rganishga, nutq malakasini oshirishga katta yordam beradi.

Qo‘g‘irchoq teatri ishtirokchilar san’atini, dekoratsiya ishini, yoritish texnikasini rivojlantirib, karton, qog‘oz, yog‘och, gazlama va boshqalarga ishlov berishni o‘zida biriktiradi. Asboblar, jihozlar va postanovkalarning sodda bo‘lishiga qaramay tomoshabinlarda idrokning yuqori samarasiga erishiladi.

Qo‘g‘irchoq teatrini rivojlantirish katta tarbiyaviy va madaniy ishdir.

Quyi sinflarda odatda qo‘g‘irchoq teatri to‘garagini sinf o‘qituvchisi tashkil etadi. Ishning ma’lum qismini, masalan, kostyumlarni tikish, butaforiyani tayyorlashni texnologiya ta’limi darslarida amalga oshirish mumkin. To‘garak ishida tajriba orttirgan yuqori sinf o‘quvchilari o‘qituvchiga katta yordam berishlari

mumkin.

Biroq to‘garak ishini boshlashdan oldin to‘garak a’zolariga qo‘g‘irchoq teatrining tarixiy yo‘lini, ya’ni Ulug‘ Vatan urushi yillarida halqlarning fashist bosqinchilariga qarshi olib borgan kurashlarini qo‘g‘irchoq teatrlarining artistlari qanday aks ettirganini aytib o‘tish foydadan xoli emas, albatta.

Agarda to‘garak ishqibozlari ko‘payib ketsa, ularni 12—15 tadan qilib guruhlarga ajratish va har bir guruhga alohida postanovka ustida ishlashni topshirish mumkin. Guruhda doimiy majburiyatlarni taqsimlash shart emas, ishni shunday tashkil etish kerakki, ishda fikr ham, ijod ham jamoa asosida bo‘lsin.

Spektaklni tayyorlashda har qancha o‘quvchi ishtirok etishi mumkin, ammo qo‘g‘irchoqlar bilan ishlash, ularni ko‘rsatish ishida odam soni bir vaqtning o‘zida 5 kishidan ortib ketmasligi kerak, aksincha ular bir birlariga halaqit beradilar.

Joy aniq bo‘lgach to‘garak rejasi tuzilib, unda quyidagilar aks ettiriladi:

To‘garakning yalpi ta’limiy - tarbiyaviy vazifalari

Tashkiliy masalalar.

Postanovka ustida ishlash (tayyor bo‘lish muddati ko‘rsatiladi).

O‘quv yili uchun reja tuzilib, unga qo‘shimcha oylik o‘quv ishlab chiqarish rejalari ham tuziladi va ularda har bir mashg‘ulotning mazmuni bayon qilinadi.

To‘garakning amaliy ishi uchun eng ahamiyatli bo‘lgan pesa tanlashdan boshlanadi. Dastlabki pesalardagi qiyinchiliklar bolalarning qiziqishlarini so‘ndirib qo‘ymasligi uchun qisqa, kam personajli, qo‘g‘irchoqlarini tayyorlash oson bo‘lishi kerak. Dastlabki tomoshalarni ikki uch personajning topishmoqlar mulotsati bilan o‘tkazish lozim. Topishmoqlar javobini tomoshabinlar topadilar. Bu muloqat she’riy va qo‘g‘irchoqlar xatti harakati yo‘li bilan ham bo‘lishi mumkin.

Teatr qo‘yishda qo‘g‘irchoqni maromi bilan o‘ynata bilish katta ahamiyatga egadir. Tomoshabinni qiziqtirish personajning mahoratiga bog‘liqdir. Qo‘g‘irchoqlarning boshini matodan, qog‘ozdan, ayrim qismlarini papemashedan yasash mumkin. Boshni yasashda uch barmoqli qo‘lqop tikiladi, o‘rta barmoq ichiga paxta tiqilib boshga o‘xshatiladi va kraxmallanadi, qolgan ikki barmoq esa qo‘l rolini bajaradi. Bu qo‘g‘irchoqni yasashning eng oddiy usulidir.

Qo‘g‘irchoq teatrining zaruriy anjomi shirma (chodir)dir. Uning balandligi qo‘g‘irchoq o‘ynatuvchining bo‘yiga muvofiq bo‘lishi kerak. “Nam veselo” to‘plamida juda qiziqarli va qulay chodir taklif etilgan.

Teatrning repertuari xilma xildir.

“Fonus xayol” bezatilishiga ko‘ra ancha oddiydir. Bu teatrning tashkil etilishi qo‘g‘irchoq teatri bilan deyarli bir xil, faqat unga personajlarni tayyorlash ancha osonroq. Personajlar qalin kartondan yoki yupqa fansrdan qirqib bo‘yaladi. Birinchi sinf o‘quvchilari personajlarning ayrim harakat qilmaydigan qismlarini tayyorlashadi, keyinchalik ish murakkablashadi, gavdaning ayrim qismlari oshiq-

moshiq (ip, sim yoki maxsus tugmalar) yordamida harakatlanadigan qilib biriktiriladi. Harakat qiladigan figuralar yordamida ko‘pgina samaralarga. erishiladi. Ish quyidagi tartibda boradi: qarama qarshi xonalar o‘rtasidagi eshikka ekran yoki choyshab tarang qilib tortiladi, tomoshabinlar o‘tirgan xona qorong‘i bo‘lib, figuralar orqasidan yorug‘lik beriladi. Choyshab orqasida stol o‘rnatilib figuralar uning ustida harakat qiladi, ular yorug‘lik ta’siri tufayli choyshabga katta bo‘lib tushadi. Har bir figuraning tagligi bo‘lib, uni o‘ynatuvchi ekran oldida harakatlantiradi. Har xil rangli chiroqlar ta’sirida voqeani yanada kuchaytirish mumkin (“Fonus xayol” teatrining ishi va texnikasi haqidagi adabiyotlar 6 ilovada berilgan).

Maktabning tarbiyaviy ishida mavzu kechalar katta rol o‘ynaydi. Bu kechalarga tayyorgarlikning o‘zi o‘quvchilarni she’r va hikoyalarni yodlash kostyumlarni bezash ishlarini amalga oshirishga majbur qiladi. Kechalar mavzusi shunday tanlanishi kerakki, u o‘quvchilarda har tomonlama qiziqish uyg‘otsin, ularni o‘ylashga, ixtiro qilishiga majbur etsin va faqat mavjud bilim va ko‘nikmalar bilan cheklanib qolmay, kecha mavzusining dasturiga muvofiq yangilarini ham o‘zlashtira borsin. Ayniqsa kechalar ikki yondosh sinflar qo‘shilganda juda qiziqarli va jonli o‘tadi. Kecha mavzusi asosan maqol va matallardan olinadi. Kecha mavzusi “Texnologiyaga va mohir qo‘llarga shon-sharaflar”, “Hamma narsa texnologiyadan yaraladi” kabi bo‘lishi mumkin.

Tayyorlov ishlarining rejasi.

Sinflarda texnologiyaning jamiyatimizdagi ahamiyati haqida suhbatlar o‘tkazish, ishdagi ustalik va mahoratga faqat zo‘r berib ishlash natijasida erishilishini misollar yordamida ko‘rsatish.

Iloji bo‘lsa ishlab chiqarishga ekskursiya uyushtirish.

Eng chaqqon, tartibli va mohir o‘quvchilar musobaqa estafetasini o‘tkazish (kim o‘rnini tez to‘g‘rilaydi, supurgini to‘g‘ri tutadi, tugmachani kim qanday qadaydi va stol ustiga dasturxon tuzaydi, non qanday qirqiladi, idishtovoqni qanday yuviladi va hokazo).

Avval har bir sinf o‘qituvchisi tanlov shartini e’lon qilib, tayyorlanish uchun vaqt beradi. Tanlov o‘z sinfida o‘tkaziladi. Tanlovning eng g‘olib o‘quvchisi sinf sharafini himoya qiluvchi deb tanlanadi.

Texnologiya darslarida, to‘garak mashg‘ulotlarida, uyda mustaqil tayyorlangan ishlar ko‘rgazmasini tayyorlash va jihozlash.

Mohir ustalar texnologiyaiga bag‘ishlangan rasmlar.

Bolalardan ota-onalarining qayerda ishlashlari va qanday ishlarni bajarishlarini so‘rab bilish, bilmaganlariga esa bilib kelishni topshirish. Sinfda hamma kasbning o‘z o‘rni borligi va ular jamiyatga qanday foyda keltirishi haqida suhbatlar o‘tkazish.

Texnologiya va hunarlarga oid maqollar, matallar hamda topishmoqlar

to‘plash.

Texnologiya va texnologiya kishilari haqida ro‘yxat tayyorlash.

Savollar:

1.Sinfdan va maktabdan tashqari ishlarning qanday maqsad va vazifalari mavjud?

2.Sinfdan tashqari ishlarning qanday shakllari bor?

3.To‘garaklar necha xilda bo‘lishi mumkin?

Foydalanilgan asosiy adabiyotlar:

1. R.A.Mavlonova va boshqalar. Umumiy pedagogika. Darslik. ”Navro‘z”nashriyoti.T.2016-y.

2. M.T.Satbayeva. Texnologiya o‘qitish metodikasi. Ma’ruzalar matni.T. 2015-y.

3. R.Ishmuhamedov, A.Abduqodirov, A.Pardayev. Tarbiyada innavatsion texnologiyalar T. 2010.

4. R.A.Mavlonova, M.T. Satbayeva. Texnologiya o‘qitish metodikasi. O‘quv qo‘llanma T. 2012-y.

5. Hoshimova D. Maxmudova Sh. Texnologiya muhofazasi fanidan ma’ruzalar matni.T.2012

10-MAVZU: BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA MEHNAT TARBIYASI VA KASB HUNAR TURLARI

Reja:

1. Mehnat tarbiyasi va uning mohiyati.
2. Mehnat tarbiyasining maqsadi va vazifalari.
3. O‘quvchilar mehnat faoliyati turlari, uni tashkil etishga qo‘yiladigan pedagogik talablar.
4. O‘quvchilarni mehnat faoliyati orqali kasbga yo‘llash.

Tayanch so‘z va iboralar: kompyuterlashtirish, iste’mol mahsulotlari, xabardor bo‘lish, texnologiyaga ongli yondashish, ijodiy munosabat, estetik tarbiya, xo‘jaliklar, korxona, zavod, fabrikalar, texnik va texnologik bilimlar.

Mehnat tarbiyasi o‘quvchilarga mehnatning mohiyatini chuqur anglatish, ularda mehnatga ongli munosabat, shuningdek, muayyan ijtimoiy-foydali harakat yoki kasbiy ko‘nikma va malakalarini shakllantirishga yo‘naltirilgan pedagogik faoliyat jarayoni bo‘lib, ijtimoiy tarbiyaning muhim tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi. Mehnat tarbiyasini shunday tashkil etish kerakki, inson mehnat jarayoni va uning natijasidan qanoatlanishini tarkib toptirishga ko‘maklashsin. Mehnat

tarbiyasining maqsadi shaxs xarakterining asosiy xislati sifatida uning texnologiyaga bo‘lgan ehtiyojini shakllantirishdir.

O‘quvchilarning ijtimoiy rivojlanishini ta’minlashda Mehnat tarbiyasi muhim shartlardan biri bo‘lib hisoblanadi. Uning amalga oshirilishi davlat tomonidan olib borilayotgan ijtimoiy va iqtisodiy siyosat mazmuni bilan belgilanadi.

O‘zbekistonda, bozor iqtisodiyoti munosabatlarini shakllantirishning asosiy tamoyillari jamiyatda amalga oshirilayotgan ijtimoiy islohotlarning asosi sanaladi.

Hozirgi davrda texnika va texnologiyalar rivojlanishini yuksak bosqichga ko‘tarish uchun ishlab chiqarishni keng ko‘lamda kompyuterlashtirish, iste’mol mahsulotlarini jahon standartlari darajasida ishlab chiqishni yo‘lga qo‘yish talab etilmoqda.

Bularning barchasi yuksak intellektual va jismoniy kamolotga ega bo‘lish, ishlab chiqarish jarayonlarining ilmiy-texnikaviy va iqtisodiy asoslaridan to‘laqonli xabardor bo‘lish, texnologiyaga ongli, ijodiy munosabatda bo‘ladigan yoshlarni tarbiyalashni taqozo etadi. Bu esa, o‘z navbatida, ta’lim muassasalarida texnologiya ta’limi va tarbiyasini tashkil etishga nisbatan ulkan talablarni qo‘yadi.

Mehnat tarbiyasining maqsadi o‘quvchilarda texnologiyaga ongli munosabatni shakllantirishdir. Mazkur maqsadga erishish yo‘lida quyidagi vazifalarni ijobiy hal etish maqsadga muvofiq:

Yosh avlodda mehnat qilish istagini qaror toptirish va ularni zamonaviy ishlab chiqarishning turli sohalarida faoliyat yuritishga tayyorlash;

O‘quvchilarda umumjamiyat manfaati yo‘lida mehnat qilish ehtiyojini hosil qilish;

Ularning aqliy qobiliyatlarini rivojlantirish;

O‘quvchilarning mavjud bilimlarini uzluksiz ravishda takomillashtirib borishlari uchun zarur shart-sharoitni yaratish;

Ularda texnologiya ko‘nikma va malakalarini tarkib toptirish;

O‘quvchilar faoliyatida yuqori madaniyat, maqsadga intilish, tashkilotchilik, mehnat intizomi, tadbirkorlik, tejamkorlik, ishni sifatli bajarish, moddiy boyliklarga ehtiyotkorona munosabatda bo‘lish, hayotiy faoliyat yo‘nalishini belgilash malakalarini shakllantirish;

O‘quvchilarda davlat iqtisodiy siyosati mazmuniga tayangan holda ular yashab turgan hududlar ishlab chiqarish xususiyatlariga muvofiq kasblarni egallashga bo‘lgan qiziqishni oshirish;

O‘quvchilarni kasbga yo‘llash, ularni mehnat faoliyatining barcha turlari, shuningdek, ular yashayotgan hududda ehtiyoj mavjud bo‘lgan mutaxassisliklar bilan tanishtirish.

Mazkur vazifalar tizimida o‘quvchilarni mehnatga psixologik va amaliy jihatdan tayyorlash ularning qiziqish va qobiliyatlarini aniqlash orqali amalga

oshiriladi.

Mehnat tarbiyasi mazmunida yuqoridagi vazifalar bilan birgalikda qator xo‘jalik-iqtisodiy omillar aniqlanada: viloyat va tumanlardagi ishlab chiqarish shart-sharoitlari, ta’lim muassasalarining imkoniyatlari, ularning moddiy bazasi, o‘qituvchi kadrlar, ta’lim muassasasidagi an’analar.

Mehnat tarbiyasi o‘quvchilarning aqliy, ma’naviy-axloqiy, jismoniy va estetik tarbiyasi bilan o‘zaro bog‘liq holda yaxlit tizimda amalga oshiriladi. Chunonchi:

Aqliy tarbiya o‘quvchilar mehnat tarbiyasi, ularni kasbga tayyorlashning asosi sanaladi. Zero, texnologiya ta’limi– nazariy va amaliy bilimlarni egallashga yordam beradi, bilim esa o‘z navbatida shaxsni mehnatga tayyorlashni takomillashtiradi. Texnologiya tarbiyasining samaradorligi o‘quvchilarni texnologiya faoliyatiga tayyorlash jarayonida har tomonlama rivojlangan shaxsni tarbiyalash vazifasi bilan belgilanadi.

Mehnat tarbiyasi axloqiy tarbiyaning asosiy vositasi hisoblanadi. Chunki mehnat faoliyati yordamida o‘quvchida mehnatsevarlik, intizomlilik, irodalilik, tashabbuskorlik, mustaqil harakat qilish kabi axloqiy xislatlar ham shakllanadi.

Mehnat tarbiyasi estetik tarbiya bilan mustahkam aloqada olib boriladi. Mehnat tarbiyasi mazmuniga estetik elementlarni singdirish asosida uni amalga oshirish o‘quvchilar texnologiya tarbiyasida katta ahamiyat kasb etadi. Mehnatda go‘zallik va o‘z mehnatdan zavqlanish uning yanada samarali kechishiga yordam beradi.

“Milliy istiqlol g‘oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar” risolasida milliy istiqlol mafkurasining ijtimoiy-iqtisodiy asoslari haqida fikr yuritilar ekan: “Milliy istiqlol mafkurasi o‘z mohiyatiga ko‘ra, har bir fuqaroning munosib turmush darajasini ta’minlaydigan farovon hayot kechirishga chorlaydi. Har bir insonni, u qaysi shakldagi mulkchilik asosida mehnat faoliyati bilan shug‘ullanmasin, shaxsiy manfaatlarini halq va vatan manfaati bilan o‘zaro uyg‘unlashtirib yashashga undaydi. ... Har bir fuqaroning farovonligi – butun jamiyatning farovonligidir, g‘oyasini ilgari suradi”, - deb ta’kidlanishi ham bejiz emas.

Yuqoridagilarga asoslanib, o‘quvchilar mehnat tarbiyasida quyidagi mezonlarni asos qilib olish maqsadga muvobiq. Bular:

o‘quvchilar tomonidan mehnatning ijtimoiy ahamiyatini tushunilishi;

ularning ixtiyoriy ravishda mehnat qilishlari;

ularda mehnat qilmay hayot kechiruvchilarga nisbatan nafrat uyg‘otish;

o‘quvchilarda mehnat va mehnat ahliga hurmat tuyg‘ularini qaror toptirish;

ularda mehnatda javobgarlikni his etish tuyg‘usini tarbiyalash;

ularning texnologiyaga ongli munosabatda bo‘lishlariga erishish;

texnologiyada ijodkorlikni qo‘llab-quvvatlash;

o‘quvchilarda jamiyat va umumhalq mulkini ko‘z qorachig‘iday asrash tuyg‘ularini shakllantirish;

mehnatda do‘stlik, o‘rtoqlik va hamkorlikka erishish;

o‘quvchilarning mehnatni go‘zallik manbai sifatida tushunishlariga erishish va boshqalar.

Yuqoridagi mezonlar asosida o‘quvchilarni bo‘lg‘usi kasbiy faoliyatga tayyorlash jarayonini barcha ta’lim-tarbiya ishlarini mustahkam aloqada, hozirgi zamon talablariga mos holda olib borish taqozo etiladi.

Mehnat tarbiyasini tashkil etishning pedagogik shart-sharoitlari:

Bolalar mehnatining o‘quv-tarbiyaviy vazifalar bilan bog‘liqligi.

Ijtimoiy ahamiyatli mehnatni o‘quvchilarning qiziqishlari bilan birga qo‘shib olib borilishi.

Mehnat faoliyatining hamma bopligi va qo‘ldan kela olishi.

Mehnat faoliyatining majburiyligi va vijdoniyligi.

Mehnat faoliyatini tashkil etishda jamoaviy va individual shakllarini birga qo‘shib olib borish.

Mehnat tarbiyasi bilan texnologiya ta’limi bir-biri bilan o‘zaro bog‘langan. Mehnat faoliyati ma’lum bilimga ega bo‘lishni talab etadi. Zero, bilim va ko‘nikmalar o‘quvchini texnologiya faoliyatiga tayyorlaydi.

Ta’lim jarayonida olgan bilimlarini amaliyotda sinab ko‘radilar, Umumiy texnologiya jarayonida o‘quvchilarning kombinatlar, jamoa hamda fermer xo‘jaliklari, korxona, zavod va fabrikalarda texnik va texnologik bilimlari mustahkamlanadi, shuningdek, ular tashkilotchilik malakalariga ham ega bo‘ladilar.

Sinfdan tashqari ishlar jarayonida texnologiya tarbiyasi ayniqsa muhim ahamiyat kasb etadi.

Sinfdan tashqari mashg‘ulotlarning turli shakllari o‘quvchining texnik ijodkorligini rivojlantiradi, u yoki bu bilim sohasida bilimga bo‘lgan qiziqishini shakllantiradi. To‘garaklarda o‘quvchining qiziqish va qobiliyatlari namoyon bo‘ladi.

O‘quvchilarning to‘garaklardagi faoliyati ma’lum pedagogik talablarga rioya qilganda samarali bo‘ladi. Chunonchi:

To‘garak faoliyati ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lishi lozim, ya’ni, o‘quvchilar tayyorlagan buyumlar kishilar uchun amaliy qiymatga ega bo‘lishi zarur;

Texnik ijodkorlik o‘quv muassasasidagi o‘quv-texnologiya jarayoni bilan uzviy alohada bo‘lishi kerak (maktab, kollej, oliy ta’lim va boshqalar);

Ijtimoiy-foydali, unumli texnologiya jarayonida o‘quvchining texnik ijodkorligini tashkil etishda faoliyatni ijtimoiy buyurtmadan ijodkorlikka aylantirish kerak bo‘ladi.

To‘garak faoliyati jarayonida o‘quvchilar o‘z kollejlari uchun o‘quv-ko‘rsatmali qurollar: jadvallar, rasmlar, diagrammalar, kolleksiyalar, oddiy modellar, yuqori sinflarda – stendlar, harakatdagi modellarni yaratish mumkin.

Tabiatshunoslik, botanika, zoologiyadan amaliy mashg‘ulotlarda o‘quvchilar o‘quv-tajriba uchastkalarida ishlaydilar, jonli burchaklar tashkil etadilar, o‘quv maskanini ko‘kalamzorlashtiradilar.

Mehnat tarbiyasi oilada tabaqalashtirilgan holda olib boriladi: bolalar o‘z-o‘ziga xizmat qiladilar, uy hayvonlarini parvarishlaydilar, ro‘zg‘or texnikalarini ta’mirlash bilan shug‘ullanadilar. Oila byudjeti va uni yuritish bilan bog‘liq topshiriqlarni bajaradilar, oilada bolalar va kattalar mehnatini hamkorlikda tashkil etishning imkoniyatlari cheksiz.

So‘nggi yillarda o‘quvchilar mehnat tarbiyasiga jamoatchilik katta e’tibor bermoqda. Yirik fermer xo‘jaliklari, qo‘shma korxonalarning jamoalari maktablarni otaliqqa olmoqda, ularning moddiy bazasini yaratish, o‘quvchilarning bilim olishlari, ijtimoiy-foydali texnologiyani tashkil etishda yordam bermoqdalar.

Mehnat faoliyatining asosiy turlari quyidagilardir:

O‘quv mehnati o‘quvchilarning ilmiy bilimlar hamda turli fanlar asoslarini o‘zlashtirishga yo‘naltirilgan faoliyati turidir.

Ijtimoiy-foydali mehnat shaxsni har tomonlama kamol toptirish hamda uning muayyan ijtimoiy ehtiyojlarini qondirishga yo‘naltirilgan hamda ijtimoiy texnologiya xarakteridagi faoliyati turidir.

Hozirgi davrda ta’lim muassasalarida o‘z-o‘ziga xizmat keng yo‘lga qo‘yilmoqda. O‘z-o‘ziga xizmat o‘quvchilarning ijtimoiy va o‘quv ehtiyojlarini qondirish maqsadida ularning o‘zlari tomonidan amalga oshiriluvchi texnologiya faoliyati turidir. O‘quvchilarning navbatchiligi o‘z-o‘ziga xizmat qilishni tarkib toptirishning muhim shaklidir.

Ishlab chiqarish mehnati turlari xilma-xildir. Masalan, o‘quvchilarning mehnat haftaligi, chorvaga yem-xashak tayyorlash va shirkat xo‘jaliklarida faoliyat yuritish va boshqalar. Unumli mehnat – o‘quvchilar mehnatining eng ommaviy shakli sanaladi.

O‘quvchilar hozirgi davrda “Kamolot” yoshlar ijtimoiy harakati faoliyatida ishtirok etadilar, dorivor o‘simliklar, urug‘larni yig‘ish, maktab binolarini ta’minlashda qatnashmoqdalar, fermer, shirkat va jamoa xo‘jaliklarida ishlab chiqarishni tashkil etishda ishtirok etmoqdalar.

Ayni vaqtda, juda ko‘plab maktablarda yordamchi xo‘jalik mavjud. Korxona va xo‘jaliklar ta’lim muassasasiga majmuaviy yondashuv asosida texnologiya tarbiyasini tashkil etishga ko‘maklashmoqdalar. O‘quvchilar ishlab chiqarish subyektlarining iqtisodiy rivojlanishi bilan tanishadilar, Bu jarayon ularni turli kasblarni egallash shartlari va sharoitlari bilan tanishtirishga yordam beradi.

Mehnat tarbiyasi o‘quvchilarni mehnatga psixologik va amaliy jihatdan tayyorlashni nazarda tutadi. Zero, mavjud sharoitda ro‘y berayotgan ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlar shaxs kamolotiga nisbatan juda katta talablarni qo‘ymoqda.

Xususan, mehnatga muhim ijtimoiy burch sifatida qarash, ma’lum faoliyatni bajarishda mas’uliyatni his etish, texnologiyaga va uning natijasi, shuningdek, texnologiya jamoasiga hurmat, texnologiya faoliyatini tashkil etishda tashabbuskorlik, faollik ko‘rsatish, o‘z aqliy va jismoniy qobiliyatini to‘liq namoyon etishga bo‘lgan ichki ehtiyoj, mehnati ilmiy tashkil etish yo‘lida amaliy harakatni olib borish shular jumlasidandir.

Texnologiyaga psixologik jihatdan tayyor bo‘lish esa tarbiyaviy ishlar tizimida amalga oshirilib, ularning har biri quyidagi vazifalarni hal etishga yordam beradi:

O‘quvchilar tomonidan mehnatning ijtimoiy ahamiyati, mehnatni tashkil etish hayotiy zaruriyat ekanligining anglab etilishiga erishish;

Ularda mehnat faoliyatini amalga oshirishga nisbatan rag‘bat uyg‘otish;

O‘quvchilarda mehnat ko‘nikma va malakalarini shakllantirish va hokazolar.

Jamiyatda kechayotgan ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlar, mulkka egalik, xususiy mulkni yaratish yo‘lida qonun doirasida olib borilayotgan amaliy faoliyatni qo‘llab-quvvatlashga yo‘naltirilgan ijtimoiy harakatlar texnologiya tarbiyasiga yangicha yondashuvni talab etmoqda.

Mehnat tarbiyasining yangi texnologiyalar asosida o‘quv dasturlari, ta’lim metodlarining variativligi tamoyili yotadi. Dasturlar kasb-hunar kollejlari ixtisoslashgan turli kasblar bo‘yicha yaratiladi. Ularda kasbiy ta’limni o‘zlashtirishga nisbatan qo‘yilgan davlat talablari o‘z ifodasini topadi.

Ta’lim jarayonida egallangan bilim, ko‘nikma va malakalar mehnat tarbiyasida pedagogik faoliyatning yakuniy natijasi emas, balki inson qobiliyatining rivojlanishi, ya’ni, mehnatga bo‘lgan layoqatini rivojlantirishning samarali vositasidir. Bu esa texnologiya tarbiyasida an’anaviy metodlarni emas, balki bilim olishning faol metodlaridan foydalanib, o‘quvchilarda tadqiqotchilik hamda ixtirochilik malakalarini rivojlantirish metodlarini qo‘llashni nazarda tutadi.

Bundan tashqari muammoli, izlanuvchan tadqiqot metodlari, konstruktorlash, loyihalash, texnik modellashtirish, texnologiyani tashkil etish jarayonida uning eng yaxshi variantlarini izlab topish, ijodiy topshiriqlarni to‘g‘ri tanlay olish, shuningdek, tanlovlar, yoshlarning ijodiy ko‘rgazmalarni tashkil etish ham eng samarali metodlardan sanaladi.

Texnologiya ta’limi va tarbiyasining tashkiliy-metodik Shakllari o‘qituvchi tomonidan tanlanadi. Bu Shunday Shakl va metodlar bo‘lishi kerakki, u o‘quvchiga texnologiyai muvaffaqiyatidan quvonch baxsh etsin, o‘z texnologiyaidan o‘zi faxrlansin.

Texnologiya tarbiyasining texnologiyalari o‘quvchining nazariy bilimlarini amaliyotda qo‘llash imkoniyatini yaratishi zarur. Bu esa, o‘z navbatida, texnologiya ta’limi mazmunini ham takomillashtiradi. U kompleks xarakter kasb etib, o‘quvchilarda o‘quv texnika va texnologiyalari haqida tasavvur hosil qilishi, amaliy

masalalarni hal etish malakasini shakllantirishi, sifat natijalarini ta’minlashi lozim. Ayniqsa, o‘quv topshiriqlarini hal etishga ijodiy yondashish, ishlab chiqarishning texnik-iqtisodiy, ijtimoiy ko‘rsatkichlarini yuqoriga ko‘tarishga intilish hosil qilishi maqsadga muvofiqdir.

Texnologiya ta’limi tarbiyasida sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlar rejasida texnologiya tarbiyasi yo‘nalishidagi tadbirlarning o‘rin olishini ta’minlash muhim pedagogik vazifalardan biridir. Texnologiya ta’limi tarbiyasi turli an’anaviy va noan’anaviy Shakllarda tashkil etiladi.

Demak, o‘quvchilarning mehnat faoliyatini tashkil etish jarayonida quyidagi vazifalar amalga oshiriladi:

O‘quvchilarning texnologiya ta’limi jarayonida ularning texnologiyaga qiziqishlarini oshirish, kasbiy yoki texnologiya faoliyatiga tayyor bo‘lishni ta’minlash.

O‘quvchilar kuchini to‘g‘ri taqsimlash, faoliyat turlari va uni ijro etishda o‘rin almashtirish vositasida ularda rahbarlik va ijrochilik malakalarini hosil qilish.

O‘quvchilarning texnologiya faoliyatiga rag‘batlantirishning samarali metod va vositalaridan foydalanishga e’tiborni qaratish.

Texnologiya faoliyatining turidan qat’iy nazar texnologiya madaniyatini shakllantirish, kasbiy faoliyatni rejalashtirish, vaqtdan oqilona foydalanish, o‘z joyini tartibli saqlash hamda texnologiya qurollariga ehtiyotkorona munosabatda bo‘lish.

1. Mehnat tarbiyasi ijtimoiy tarbiyaning tarkibiy qismidir. Mehnat tarbiyasining bosh g‘oyasi shaxsda texnologiya faoliyatini tashkil etish ko‘nikma va malakalarini hosil qilish, ijtimoiy texnologiyani qadrlash, texnologiyasevarlik hislatini tarbiyalash sanaladi. Insoniyat tomonidan yaratilgan barcha moddiy va ma’naviy boylik, ijtimoiy taraqqiyot asosida texnologiya faoliyati hamda uning samarasi aks etadi. Jamiyatda tashkil etiladigan texnologiya tarbiyasi yosh avlodni texnologiyasevarlik ruhida tarbiyalash, ularning Vatan ravnaqi, elu-yurt farovonligi yo‘lida texnologiya qilish, rivojlangan demokratik va huquqiy davlatni barpo etish jarayonida faol ishtirok etishga bo‘lgan ishtiyoqni uyg‘otish, yagona maqsad yo‘lida harakat qilishga tayyorlashdan iborat jarayonni o‘z ichiga oladi.

Halq pedagogikasi, Sharq allomalari, yetuk mutafakkirlari texnologiyaning shaxs kamoloti, shuningdek, jamiyat rivojidagi roliga yuksak baho berishgan. Zero, texnologiya insonning ham jismonan, ham ruhan kamolga yetishini ta’minlaydi. Inson o‘z texnologiyai bilan moddiy va ma’naviy boyliklarini yaratib berar ekan, ayni vaqtda uning o‘zi ham shaxs sifatida shakllanib boradi. Chunki inson aksariyat hollarda o‘z mehnat faoliyati bilan ijtimoiy munosabatlar subyekti (ishtirokchisi)ga aylanadi. Shu bois, insonni yoshlikdanoq texnologiya faoliyatiga jalb etish, maqsadga muvofiqdir. Ijtimoiy tarbiyani tashkil etish jarayonida texnologiya

tarbiyasi o‘quvchilarni ruhiy va amaliy jihatdan texnologiyaga, texnologiya faoliyatini yo‘lga qo‘yishga yo‘naltirilganligi bilan o‘ziga xos o‘rin tutadi. Ijtimoiy jamiyatning umumiy va iqtisodiy rivojlanishi zamonaviy bosqichda bunyod etuvchi, yaratuvchi hamda ishlab chiqaruvchi shaxsga nisbatan yuksak talabalarni qo‘ymoqda. Chunonchi, mehnatga nisbatan eng muhim ijtimoiy burch sifatida yondashish, har qanday texnologiya faoliyatiga nisbatan vijdonan munosabatda bo‘lish; mehnat va uning mahsulini qadrlash; texnologiyani tashkil etishga jamoa asosida yondashish; doimiy ravishda tashabbuslar bilan chiqish, texnologiyani faol, ijodiy tashkil etish; aqliy va jismoniy quvvatga tayangan holda texnologiya qilish ishtiyoqining ichki ehtiyojga aylanishi, texnologiyani ilmiy tashkil etish, texnologiyaga nisbatan asosiy hayotiy zarurat sifatida munosabatda bo‘lish, texnologiyaga, mehnat qilishga ruhiy tayyorlik quyidagi vazifalarni hal etadi:

A) mehnatning maqsad va vazifalarini anglash;

B) mehnat faoliyatini tashkil etish rag‘batini qaror toptirish;

V) mehnatni tashkil etish ko‘nikma va malakalarini shakllantirish.

Ta’lim muassasalarida texnologiya ta’limi va tarbiyasini olib borish maxsus dastur asosida amalga oshiriladi. Texnologiya ta’limi dasturi turli xususiyatga ega. Unda maktab, o‘qituvchi va o‘quvchilar texnologiya faoliyatini baholash bo‘yicha ta’lim va tarbiya natijalariga nisbatan davlatning minimum (eng kuchli) talablar aks etadi.

Mehnat tarbiyasi jarayonida bu boradagi bilim, ko‘nikma va malakalarga ega bo‘lish maqsadning o‘zigina va pedagogik faoliyatning yakuniy mahsuli emas, balki eng muhim insoniy layoqat — texnologiya qilish layoqatini rivojlantirish uchun vosita hisoblanadi. Shu bois bugungi kunning talabi texnologiya ta’limini tashkil etishda reproduktiv metodlar rolini kamaytirib, yuksak darajadagi mantiqiy fikrlash hamda yaratuvchanlik asosini hosil qiluvchi faol tadqiqot metodlaridan foydalanish hisoblanadi.

Texnologiya ta’limi va tarbiyasini tashkiliy shakllarini o‘qituvchilar yosh, psixologik xususiyatlari, mahalliy shart-sharoitlardan kelib chiqqan holda tanlaydigan. Texnologiya tarbiyasini yo‘lga qo‘yishga shunday shakl va metodlardan foydalanish lozimki, natijada texnologiya insonning eng sevimli mashg‘ulotiga aylansin, shaxs texnologiyai samarasi, yutug‘i va quvonchi bilan yashay olsin. Umumiy o‘rta ta’lim davrida o‘quv ustaxonalarida, maktabga tegishli o‘quv tajriba maydonlarida, otaliq korxonalari sexlarida anchagina murakkab texnologiya faoliyatini tashkil eta boshlaydilar. Bunday sharoitda texnologiya qilish egallagan nazariy bilimlarni amaliyotda qo‘llay olish imkoniyatini beradi.

Texnologiya ta’limi va kasb tanlashga yo‘llash ishlarini kuchaytirish maqsadida endilikda “o‘quv-ishlab chiqarish” tizimini umumiy o‘rta ta’lim maktablari faoliayatiga olib kirish maqsadga muvofiq. Zero bozor munosabati

sharoitida o‘quvchilar imkoniyati, kuchi bilan qishloq xo‘jalik mahsulotlarini yetishtirish, hunarmandchilik mahsulotlarini tayyorlash, ijodkorlik buyumlarini bunyod etish, sotishni yo‘lga qo‘yish maktab, o‘quvchilar ehtiyojlarini qondirish, iqtidorli bolalarni rag‘batlantirish, kam ta’minlangan oilalar farzandlariga yordam ko‘rsatish kabi faoliyatlarni uzluksiz tashkil etish imkonini bergan bo‘lar edi.

Yangi tipdagi o‘quv muassasalarida tashkil etiladigan menhat ta’limi va tarbiyasini o‘quvchilarga muayyan kasb-hunar yoki mutaxassislik ma’lumotini berishga asoslanadi. Kasb-hunar yoki mutaxassislik ma’lumotini berish ishining muvoffaqiyati o‘quvchilarning mazkur jarayonga tayyorgarlik darajasiga shuningdek, uni tashkil etish sharoitlari bilan oldindan topish ekanligiga bog‘liq. Shu bois umumiy o‘rta ta’lim maktabining VIII-IX sinflarida o‘quvchilar o‘rtasida mavjud kasb-hunar hamda mutaxassisliklar to‘g‘risidagi ma’umotlarni berib borish, ularning halq xo‘jaligida tutgan o‘rni va ahamiyati borasidagi targ‘ibotni tashkil etish maqsadga muvofiqdir. Kasb-hunar kollejlari va akademik litseylarda tahsil oluvchi o‘quvchilar ishlab chiqarish amaliyoti jarayonida kasb-hunar mutaxassisliklar yuzasidan amaliy ravishda tanishadilar. Ularga texnologiya ta’limi va tarbiyasini berishga mutaxassislar ishlab chiqarish ustalari katta rol o‘ynaydilar.

Ijtimoiy foydali texnologiya yoki avlodni jamiyat hayotining tashkil etish jarayonida faol ishtirok etishga tayyorlaydi. Ta’lim muassasalarida tashkil etiladigan ijtimoiy foydali texnologiyaning turlari xilma-xildir. O‘quvchilarning ijtimoiy foydali ishlari asosan sinfdan va maktabdan tashqari sharoitlarda tashkil etiladi.

O‘qituvchilarning ta’lim muassasalaridagi ijtimoiy foydali texnologiyalari ta’lim muassasasi binosi va hovlisini ozoda saqlash, muassasa binosi va o‘quv anjomlarini ta’mirlash, ko‘kalamzorlashtirish va obodonlashtirish ishlarini, tirik burchaklarni tashkil etish, sport maydonchalarini bunyod etish, tajriba maydonchalari, issiqxonalarda ishlash va hokazo kabilarni o‘z ichiga oladi. Maktabdan tashqari sharoitda esa o‘quvchilar qishloq xo‘jalik mahsulotlarini yig‘ib-terib olish ishida ishtirok etadilar, boshlang‘ich ta’lim o‘quvchilari yoki maktabgacha ta’im muassasalari tarbiyalanuvchilariga yetakchilik qilish, urush va texnologiya faxriylari, nafaqaxo‘rlar otaliqqa olish, ularga xo‘jalik ishlarini yuritishda yordamlashish, dorivor o‘simliklar, temir hamda qog‘oz parchalarini to‘plash, yashil tabiatni muhofaza qilish ishlarida qatnashish kabi faoliyatlar bilan shug‘ullanadilar. Mazkur faoliyatga o‘quvchilarni jalb etishda ularning qiziqishlari, imkoniyatlari yosh xususiyatlari hamda jismoniy quvvati hisobga olinadi.

O‘quvchilar boshlang‘ich sinflaridayoq ijtimoiy foydali texnologiyaga jalb qilinadilar. Shunga qaramay boshlang‘ich sinf o‘quvchilari ham o‘zlarining texnologiyalari umumjamiyat foydasiga qaratilganligini ijtimoiy ahamiyat kasb etishini anglay boshlaydilar.

Ta’limning keyingi bosqichlarida o‘quvchilar ijtimoiy foydali texnologiyaning,

ijtimoiy-g‘oyaviy asoslari ancha chuqurroq bo‘ladi. Ya’ni ijtimoiy foydali texnologiya rag‘bati jamiyat oldidagi ijtimoiy burchni his etish bilan shambarchas bog‘liq bo‘ladi. Jamiyat ravnaqi el-yurt, halq farovonligi uchun fidokorona texnologiya qilish o‘smir va o‘spirin o‘quvchilar texnologiyaining ijtimoiy-g‘oyaviy asosidir.

Ijtimoiy foydali texnologiyani tashkil etishning barcha bosqichlarida texnologiya faoliyatini tashkil etishga nisbatan pedogogik talablar qo‘yiladi.

Mehnat faoliyatining jamoa xarakteriga ega bo‘lishi. O‘quvchilar mehnat faoliyatining jamoa xarakteriga ega bo‘lishi muhim pedagogik talab sanaladi. O‘quvchilar texnologiya faoliyati ularda jamoatchilik ko‘nikmalarini hosil qilish, o‘zaro yordam va do‘stlik aloqlarini mustahkamlashni ko‘zda tutish lozim. Jamoa asosida tashkil etiladigan texnologiya faoliyati jarayonida har bir o‘quvchining yagona maqsad asosida texnologiya qilish uchun sharoit yaratiladi. O‘quvchi mustaqil harkat qilish bilan birga o‘rtoqlariga yordamlashadi. Muhim texnologiya faoliyatining ijobiy samarasi uchun har bir o‘quvchining ma’sulligi ortib boradi.

Mehnat faoliyati turlarini almashtirib turish jismoniy mehnatni aqliy mehnat bilan yoki dam olish bilan qo‘shib olib borish, texnologiya jarayoniga o‘yin unsurlarini singdirish, mehnatni tashkil etish chog‘ida o‘quvchilarni zo‘riqtirmaslik, toliqtirmaslik zarur.

Texnologiya faoliyatining tizimli va rejali bo‘lishiga erishish. O‘quvchilar texnologiya faoliyati bir o‘quv yili bo‘yicha rejalashtiriladi va texnologiya ta’limi o‘quv rejasida, jadvalda qayd etiladi. Ijtimoiy foydali texnologiyaning tizimli bo‘lishi oddiy texnologiya turidan murakkabroq texnologiya turiga o‘tish, shuningdek, sinfda, maktabda qilinayotgan texnologiyadan maktabdan tashqari sharoitda olib boriladigan ijtimoiy foydali mehnatga o‘tish tarzida olib borish maqsadga muvofiqdir. O‘quvchilar texnologiyai faoliyatining tizimi bo‘lishi texnologiyaning o‘quvchi tomondan hayotiy ehtiyoj zarurat sifatida e’tabor etilishiga olib keladi hamda bu borada o‘quvchida ko‘nikma va malaka hosil bo‘ladi.

Mehnat faoliyatining ijodiy xususiyatini kasb etish. Mazkur talab ham muhim pedagogik talab sanaladi. O‘quvchilar texnologiya faoliyatining qaysi turiga jalb etilmasin unda aqliy va jismoniy texnologiyaning uyg‘unlashuviga erishish uchun, unga nisbatan ijodiy yondashish uchun keng sharoit yaratilmog‘i lozim. Mehnat faoliyatini tashkil etish jarayonida uning har bir bosqichda o‘quvchiga yo‘l-yo‘riq ko‘rsatish, maslahat berish to‘g‘ri emas. Aksincha topshiriqni berish chog‘ida uni qanday bajarilishini tushuntirish, lozim bo‘lsa bajarib ko‘rsatish texnologiya jarayonida esa o‘quvchining mustaqil fikrlash, mustaqil qaror qabul qilish uchun imkon yaratib beradi. O‘quvchi mehnat orttirilgan tajriba asosida, shuningdek, tadqiqotchilik vazifalarini hal etish asosida bajarilganida ijodiy xususiyat kasb etadi. Aynan shu holatda o‘quvchining ko‘nikma va malakalari yanada mustahkamlanadi,

chuqurlashadi. Bunday mehnat o‘quvchida qiziqish uyg‘otadi, unda texnologiyaga nisbatan munosabatni qaror toptiradi.

O‘quvchilarni ijodiy mehnatga yo‘naltirishda maktab va maktabdan tashqari ta’lim-tarbiya muassasalarida tashkil etiladigan texnika va qishloq xo‘jaligi to‘garaklari alohida ahamiyatga ega. Bunday to‘garaklar faoliyati o‘quvchilarning aqlini, texnika va qishloq xo‘jaligi sohasidagi ijodkorligini o‘stiradi.

Mehnat tarbiyasiga nisbatan yangicha yondashish o‘quvchilar, tomonidan egallangan bilimlarni amaliyotda qo‘llay olishlarini ta’minlashga olib keladi. Bugungi kunda texnologiya tarbiyasining, tarkibiy tuzilmasi ham o‘zgarmoqda. U o‘zida texnika va texnologiyalarni tushunish (tasavvur qilish), amaliy vazifalarni hal etish ko‘nikmasi hamda holatlarini ifoda etadi.

Mehnat tarbiyasini samarali tashkil etishda sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlar muhim o‘rin tutadi. Mazkur tadbirlar shaxs uchun ham, jamiyat uchun ham foydali bo‘lib shaxsiy-yo‘lovchilik xususiyatiga egadir.

2. Texnologiya ta’limi va tarbiyasini maqsadi o‘quv ishlarida texnologiyaga nisbatan ongli munosabatni shakllantirishdan iboratdir:Mazkur maqsadni amalga oshirishda bir qator vazifalarni hal qilish talab etiladi. Texnologiya tarbiyasini tashkil qilish orqali hal qiluvchi vazifalar ko‘p qirralidir. U o‘quvchilarning texnologiya faoliyatiga amaliy va axloqiy tayyorgarlikning barcha tomonlarini qamrab oladi.

Texnologiya ta’limi va tarbiyasini tashkil etishda quyidagi vazifalarni amalga oshiriladi:

1. Texnologiyaning mohiyatini anglatish orqali o‘quvchilarga texnologiyaning shaxs kamolati va jamiyat tarqqiyotidagi o’rnini ko‘rsatib berish;

2. Inson mehnati hamda inson texnologiyai mahsuli bo‘lgan moddiy va ma’naviy ne’matlarni qadrlash, asrab avaylash;

3. Mehnat qilishga nisbatan rag‘batni, shuningdek muhabbatni uyg‘otish;

4. O‘quvchilarning texnologiyaga ijtimoiy burch sifatida yondashuvlarini yuzaga keltirish;

5. Mehnat faoliyatini tashkil etishga ongli vijdonan yondashish;

6. Mehnat faoliyatini jamoa asosida tashkil etish;

7. Texnologiyaga hayotiy zarurat, inson faoliyatining asosi sifatida munosabatda bo‘lish;

8. Mehnat kishini va uni ilmiy tashkil etish borasidagi ko‘nikma va malakalarni shakllantirish;

9. O‘quvchilarda mehnatsevarlik hislatini tarbiyalash, o‘z mehnati samarasidan g‘ururlanish tuyg‘usini shakllantirish;

10. Muayyan kasb-hunar sirlarini o‘zlashtirishga erishish va hokazolar.

Yosh avlodning mehnat faoliyati quyidagi yo‘nalishlarda rivojlantiriladi va

tarkib toptiriladi: texnologiya o‘yindan ajralgan holda mustaqil faoliyat sifatida shakllantiriladi; mehnat faoliyati jarayoning mohiyatini o‘zlashtirilishiga erishiladi: mehnat faoliyatining turli shakllari vujudga keltiriladi.

O‘quvchilar ta’lim jarayonida va darsdan tashqari sharoitlarda mehnatning ijtimoiy jamiyatda tutgan o‘rni va rolini, inson kamolatini ta’minlash omili ekanligini, shaxsni qobilyat va iqtidori texnologiya jarayonida takomillashtirlib borishni hayotiy misollar yordamida bilib olishlari lozim. Texnologiya ta’limi va tarbiyasini tashkil etishda bugungi kunda an’anaviy va noan’anaviy shakllardan foydalanilmoqda, xususan texnologiya bayramlari, ishlab chiqarish ko‘rgazmalari, ”Mohir qo‘llar” tanlovi, ”Quvnoq shahar ustaxonasi”, o‘quv ishlab chiqarish kombinatlari brigadalari, yordamchi ho‘jalik, ”Yosh radio texniklar stansiyasi” va ijodiy markazlar faoliyati, shuningdek ustoz-shogird an’analari asosida faoliyat olib boruvchi yakka tartibdagi kasb-hunar ta’limi va boshqalar.

Mehnat tarbiyasi to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilgan ta’lim muassasalarida o‘quvchilar maktabga kelgan dastlabki kunlaridanoq o‘zlarini yosh va psixologik xususiyatlariga mos texnologiya faoliyatiga jalb qilinadilar. Bunda ular o‘z-o‘ziga xizmat qilish borasidagi eng oddiy yumushlarni bajaradilar (chunonchi, sinf xona ozodaligini saqlash, o‘quv qurollarini ta’mirlash (kitoblarni yelimlash) o‘quv anjomlarini darsga tayyorlash va hakozolar).

Mehnat ruhiy, axloqiy va amaliy tayyorlash jarayonida o‘quvchilarda texnologiyasevarlik, texnologiyani tashkil etish jarayonida intizomga bo‘ysunish, maqsadni amalga oshirish yo‘lida shijoat, qat’iyat ko‘rsatish kabi axloqiy irodaviy xususiyatlar tarbiyalanib boradi.

Texnologiya ta’limi va tarbiyasini tashkil etishda jamoa asosidagi texnologiyani uyushtirish muhim masalalaridan biridir. Zero jamoa ishtirokida o‘tkazilayotgan texnologiya jarayonida do‘stlik, o‘rtoqlik o‘zaro yordam va hamkorlik jamoa texnologiyai samaralaridan quvonish kabi xislatlar tarbiyalanib boradi. Shuningdek ularda tashabbuskorlik, tashkilotchilik, texnologiyaga ijodiy yondashish, jamoa manfaatini shaxsiy manfaatdan ustun qo‘yish singari axloqiy sifatlarni shakllanishiga poydevor qo‘yiladi.

Mehnat madaniyati - bajarilayotgan ishga ongli munosabatda bo‘lish, uni ilmiy jihatdan to‘g‘ri tashkil etish (puxta rejalashtirish vaqtdan unumli foydalanish), ish o‘rnini ozoda tutish, texnologiya (ish) qurollariga ehtiyotkorona munosabatda bo‘lish, boshlangan ishni natijalash, uning samarali bo‘lishiga erishishga yo‘naltirilgan faoliyat ko‘rsatkichidir. Texnologiya madaniyati tushunchasi o‘zida o‘quvchining mustaqil harakat olib borishini texnologiya qilish va dam olishni to‘g‘ri tashkil eta olishni ham aks ettiradi.

Texnologiyaga ongli munosabatni tarbiyalshning yana bir talabi o‘quvchilarni ilm-fan, madaniyat, texnika va texnologiya borasidagi yangliklardan bohabar etish,

ularga nisbatan qiziqishini hosil qilish, bu boradagi layoqat, qobiliyat va iqtidorlarini oshirib borishdan iborat.

3. O‘quvchilar texnologiya faoliyatining turlari xilma-xil bo‘lib ular quyidagilardir:

1. Maishiy texnologiya.
2. O‘quv texnologiyasi.
3. O‘quv ishlab chiqarish texnologiyasi.
4. Ijtimoiy foydali texnologiya.

Bolalar bajaradigan ilk texnologiya turi maishiy mehnat bo‘lib, u o‘z-o‘ziga xizmat ko‘rsatishdan boshlanadi. Bola maktabgacha bo‘lgan yosh davridayoq o‘z-o‘ziga xizmat ko‘rsatishga doir eng oddiy texnologiyani bajarishi, ya’ni, kiyim boshi, oyoq kiyimini ozoda tutishi, o‘yinchoqlarini tartibga keltirish, zarur gigiyenik talablarga rioya qilishi kerak.

Bola muayyan yoshga to‘lgach kattalarga yordamlashadi, o‘z imkoniyatlarini anglab yetadi va o‘quv (ta’lim) texnologiyaiga muntazam tayyorlanib boradi.

Maktabda o‘z-o‘ziga xizmat ko‘rsatishga doir quyidagi mehnat ko‘rinishlari davom ettiriladi: sinf xonalari va maktab binosi, hovlisini ozoda saqlash, tartib qoidalarga rioya qilish, xonadagi gullarga qarash, ularni parvarish qilish, gul xonalarda gullarni o‘stirish, maktab oshxonasida, sport zali va suv havzalarida o‘z-o‘ziga xizmat ko‘rsatish kabi yumushlarga jalb etiladilar. Maishiy texnologiya yoki o‘z-o‘ziga xizmat ko‘rsatish texnologiyada texnologiyasevarlik, qat’iylik, tashabbuskorlik, olg‘a intilish singari fazilatlar tarbiyalandi.

O‘quv (ta’lim) mehnati o‘quvchilarning asosiy texnologiya turi hisoblanadi. U boladan katta axloqiy, irodaviy va jismoniy zo‘r berishni, kuchli talab qiladi. O‘quv texnologiyai faqat bilim olishni, bilishga oid ko‘nikma hamda malakalarni qaror toptirib qolmay, balki bolada ishtiyoq va batartiblikni tarbiyalashga o‘qishga qiziqishini rivojlantirishga ko‘maklashadi. O‘qishga bo‘lgan qiziqish va istak hamda o‘qishdagi muvaffaqiyatlardan xursand bo‘lishni bilish, xis etish aynan maktab partasidan tarbiyalanib boriladi.

Bu kabi murakkab vazifalar o‘quvchilarning mustaqil bilim olish ko‘nikmalariga erishish, ularda faol bilish faoliyatini tashkil etish layoqatini hosil qilish orqali hal etiladi. Shu maqsadda ta’lim-tarbiyaning quyidagi metod va vositalaridan foydalaniladi: kuzatish, ta’sir choralarini rag‘batlantiruvchi laboratoriya ishlari, amaliy va ijodiy ishlar, namuna ko‘rsatish, uchrashuv, ekskursiya, ommaviy axborot vositalari xizmatidan foydalanish va hakozlar.

O‘quvchining aqliy va jismoniy mehnati turli darslarda turli tartibda tashkil etiladi. Xususan jismoniy tarbiya va texnik texnologiya darslarida jismoniy mashqlar mazkur darslarning asosini tashkil etsa, matematika, fizika, astronomiya, geografiya va chizmachilik darslarida aqliy faoliyat, mantiqiy fikrlash asosiy o‘rin

tutadi. Maktab o‘quv rejasiga o‘quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlarini inobatga olish asosida shunday fanlar kiritilganki, ularning asosiy vazifasi o‘quvchilarga texnologiya ta’limi va tarbiyasini berishdan iborat.

O‘quvchilar boshlang‘ich ta’lim davrida texnologiya ta’limi darslarida qo‘l mehnati sirlarini o‘rganadilar, turli materiallar bilan tanishadilar, dastlabki texnologiya ko‘nikmalariga ega bo‘ladilar. O‘quvchilar mehnat faoliyatini tashkil etishga qo‘yiladigan talablar biri-biri bilan o‘zaro bog‘liq holda qo‘llanilsagina ijobiy natijalar beradi.

Savollar:

1. Texnologiya tarbiyasi va uning mohiyati nimalardan iborat?
2. Texnologiya tarbiyasining maqsadi va vazifalari haqida ma’lumot bering.
3. O‘quvchilar texnologiyai faoliyati turlari, necha qismdan iborat?
4. O‘quvchilar texnologiyai faoliyatini tashkil etishga qo‘yiladigan pedagogik talablar.

Foydalanilgan asosiy adabiyotlar:

1. R.A.Mavlonova va boshqalar. Umumiy pedagogika. Darslik. “Navro‘z” nashriyoti. T.2016.
2. M.T.Satbayeva. Texnologiya o‘qitish metodikasi. Ma’ruzalar matni.T. 2015-y.
3. R.Ishmuhamedov, A.Abduqodirov, A.Pardayev. Tarbiyada innavatsion texnologiyalar T. 2010.
4. R.A.Mavlonova, M.T. Satbayeva. Texnologiya o‘qitish metodikasi. O‘quv qo‘llanma T. 2012-y.
5. D.Hoshimova, Sh.Maxmudova. Texnologiya muhofazasi fanidan ma’ruzalar matni.T.2012-y.

11-MAVZU: TEXNOLOGIYA DARSLARIDA O‘QUVCHILARNI KASB-HUNARGA YO‘NLTIRISH TEXNOLOGIYALARI

REJA:

1. Texnologiya darslarida kasb-hunarga yo‘naltirish.
2. Kasbga yo‘naltirishda turli boshqotirmalardan foydalanish.
3. Kasbga yo‘naltirishga doir o‘yin texnologiyalaridan foydalanish.

Tayanch so‘z va iboralar: kasb-hunar, xulq-odob, tarbiya, amaliy ish, tajriba, ta’lim-tarbiyada rag‘batlantirish, odatlantirish, inson tabiat va jamiyat, amaliy kasb-hunar, xulq-odob, ma’naviy-axloqiy, odamdagi g‘ayrat.

Farobiy inson uchun xos bo‘lgan bu o‘n ikki xislatni o‘z asarida ilmiy-falsafiy jihatdan asoslab beradi. Bu asar yoshlarimizning axloqiy tarbiyasida, ayniqsa o‘zligini anglashda bebaho manba bo‘lib hisoblanadi.

Abu Nasr Farobiy ta’lim-tarbiyaga bag‘ishlangan asarlarida ta’lim-tarbiyaning muhimligi, unda nimalarga e’tibor berish zarurligi, ta’lim-tarbiya usullari va uslubi haqida fikr yuritadi. “Fozil odamlar shahri”, “Baxt-saodatga erishuv to‘g‘risida”, “Ixso al-ulum”, “Ilmlarning kelib chiqishi”, “Aql ma’nolari to‘g‘risida” kabi asarlarida ijtimoiy-tarbiyaviy qarashlar o‘z ifodasini topgan.

Farobiy o‘z ishlarida ta’lim-tarbiyani uzviy birlikda olib borish haqida ta’lim bergan bo‘lsa ham, ammo har birining insonni kamolga etkazishda o‘z o‘rni va xususiyati bor ekanligini alohida ta’kidlaydi.

Farobiy “Baxt-saodatga erishuv to‘g‘risida” asarida bilimlarni o‘rganish tartibi haqida fikr bayon etgan. Uning ta’kidlashicha, avval bilish zarur bo‘lgan ilm o‘rganiladi, bu – olam asoslari haqidagi ilmdir. Uni o‘rgangan, tabiiy ilmlarni tabiiy jismlar tuzilishini shaklini, osmon haqidagi bilimlarni o‘rganish lozim. Undan so‘ng, umuman, jonli tabiat – o‘simlik va hayvonlar haqidagi ilm o‘rganiladi, deydi.

Farobiy inson kamolotga yolg‘iz o‘zi erisha olmaydi, u boshqalar bilan aloqada bo‘lish, ularning ko‘maklashuvi yoki munosabatlariga muhtoj bo‘ladi, deb hisoblaydi.

Bunga Farobiy ta’lim-tarbiyani to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish orqali erishish mumkin, deydi. Chunki maqsadga muvofiq amalga oshirilgan ta’lim-tarbiya insonni ham aqliy, ham axloqiy jihatdan kamolga yetkazadi, xususan, inson tabiat va jamiyat qonun-qoidalarini to‘g‘ri bilib oladi va hayotda to‘g‘ri yo‘l tutadi, boshqalar bilan to‘g‘ri munosabatda bo‘ladi, jamiyat tartib-qoidalariga rioya qiladi.

Farobiy ta’lim-tarbiyaning asosiy vazifasi jamiyat talablariga javob bera oladigan va shu jamiyat uchun xizmat qiladigan yetuk insonni tarbiyalashdan iborat deb biladi.

Insonning axloqiy xislatlarini shakllantirish asosan tarbiya va tarbiyachining, bilimdon muallimning vazifasidir.

Abu Nasr Farobiy ilg‘or pedagogik qarashlari ilk o‘rta asr madaniyatining yuksalgan davridagi bu sohadagi yuqori g‘oyalarni o‘zida mujassam qila oladi. Farobiy falsafasi, jumladan, uning pedagogik g‘oyalari, xususan ijtimoiy pedagogikasi sharq va G‘arbning so‘nggi mutafakkir olimlariga – Ibn Sino, Beruniy, Miskaviyx, ibn rushd, ibn Xoldun, Rodjer Bekon, David, Didakta, Spinoza kabilarga katta ta’sir ko‘rsatdi.

Farobiy ta’lim va tarbiyaga birinchi marta ta’rif bergan olim sanaladi. Ta’lim – degan so‘z insonga o‘qitish, tushuntirish asosida nazariy bilim berish; tarbiya – nazariy fazilatni, ma’lum hunarni egallash uchun zarur bo‘lgan xulq normalarini va amaliy malakalarni o‘rgatishdir, deydi olim. Abu Nasr Farobiy yana aytadiki, “Ta’lim – degan so‘z halqlar va shaharliklar o‘rtasida nazariy fazilatni birlashtirish, tarbiya esa Shu halqlar o‘rtasidagi tug‘ma fazilat va amaliy kasb-hunar fazilatlarini birlashtirish degan so‘zdir. Ta’lim faqat so‘z va o‘rgatish bilangina bo‘ladi. Tarbiya

esa, amaliy ish tajriba bilan, ya’ni shu halq, Shu millatning amaliy malakalardan iborat bo‘lgan ish-harakat, kasb-hunarga berilgan bo‘lishi, o‘rganishidir”, - deydi.

Farobiyning ta’lim-tarbiya yo‘llari, usullari, vositalari haqidagi qarashlari ham qimmatlidir. U insonda go‘zal fazilatlar ikki yo‘l – ta’lim va tarbiya yo‘li bilan hosil qilinadi. Ta’lim nazariy fazilatlarni birshaltirsa, tarbiya esa tug‘ma fazilat – nazariy bilimlar va amaliy kasb-hunar, xulq-odob fazilatlarini birlashtiradi, ta’lim so‘z va o‘rganish bilan, tarbiya esa, amaliy ish, tajriba bilan amalga oshiriladi, deydi. Har ikkialasi birlashsa yetuklik namoyon bo‘ladi, ammo bu yetuklik bilim va amaliy ko‘nikmalarni qay darajada o‘rganganligiga qarab paydo bo‘ladi, deb ko‘rsatadi.

Farobiy ta’limda barcha fanlarning nazariy asoslari o‘rganilsa, tarbiyada ma’naviy-axloqiy qoidalar, odob me’yorlari o‘rganiladi, kasb-hunarga oid malakalar hosil qilinadi, deb uqtiradi. Bu muhim vazifa tajribali tarbiyachilar tomonidan ta’lim-tarbiyaning turli metodlari yordamida amalga oshiriladi. Farobiy ta’lim-tarbiya ishlarini ikki yo‘l bilan amalga oshirishni nazarda tutadi. Amaliy fazilatlar va amaliy san’at (kasb-hunar)lar va ularni bajarishga odatlanish masalasiga kelganda, bu odat ikki yo‘l bilan hosil qilinadi: bulardan birinchisi - qanoatbaxsh so‘zlar, chorlovchi, ilhomlantiruvchi so‘zlar yordamida odat hosil qilinadi, malakalar vujudga keltiriladi, odamdagi g‘ayrat, qasd-intilish harakatga aylantiriladi.

Ikkinchi yo‘l (yoki usul) – majbur etish yo‘li. Bu usul gapga kirmovchi qaysar Shaharliklar va boshqa sahroyi halqlarga nisbatan qo‘llaniladi. Chunki ular o‘z istaklaricha, so‘z bilan g‘ayratga kiradiganlardan emaslar. Ulardan birortasi nazariy nazariy bilimlarni o‘rganishga kirishsa, uning fazilati yaxshi bo‘ladi. Kasb-hunarlarni va juz’iy san’tlarni egallashga intilish bo‘lmasa, bunday odamlarni majbur etmaslik kerak. Chunki shahar halqlariga tarbiya berishdan maqsad – ularni fazilat egasi qilish va san’at ahllariga aylantirishdir.

Demak, Farobiy ta’lim-tarbiyada rag‘batlantirish, odatlantirish, majbur etish metodlarini ilgari surgan. Har ikkala usul ham pirovardida insonni har tomonlama kamolga etkazish maqsadini ko‘zlaydi.

Foydalanilgan asosiy adabiyotlar:

1. M.T.Satbayeva. Mehnat o‘qitish metodikasi. Ma’ruzalar matni.T. 2015-y.

3. R.Ishmuhamedov, A.Abduqodirov, A.Pardayev. Tarbiyada innavatsion texnologiyalar T. 2010.

4. R.A.Mavlonova, M.T. Satbayeva. Mehnat o‘qitish metodikasi. O‘quv qo‘llanma T. 2012-y.

5. D.Hoshimova, Sh.Maxmudova. Mehnat muhofazasi fanidan ma’ruzalar matni.T.2012

12-MAVZU: BOSHLANG‘ICH SINFLARDA TEXNOLOGIYA TA’LIMIDAN AMALIY ISHLAR

REJA:

1. Boshlang‘ich sinf texnologiya darslarida amaliy ish turlari.
2. Qog‘ozni kvadrat shaklda buklash orqali qurush-yasash
3. Ish qurollaridan foydalanishda texnika xavfsizligi qoidalari.
4. O‘z-o‘ziga xizmat ko‘rsatish texnologiyai.

Tayanch so‘z va iboralar: umumta’lim maktablari, oliy ta’lim muassasalari, iqtisodiyot, madaniyat, kvadrat shaklidagi qog‘oz, ketma-ket buklash, ip yopishtirish.

Qog‘ozni kvadrat shaklda buklash orqali o‘yinchoq xo‘rozni qurish-yasash

Tashkiliy qisim: Salomlashish;

Davomatni aniqlash;

Uyga berilgan vazifani so‘rab, o‘quvchilar darsga tayyorligini nazorat qilib chiqish.

Darsning borishi.

O‘quvchilarga dastlab xo‘rozning surati ko‘rsatiladi. So‘ng savol-javoblar yordamida uning o‘ziga xos tana tuzilishi umumlashtirilib, bugun ana shu xo‘rozni qog‘ozni buklash orqali yasashlari aytiladi. Barcha o‘quvchilar oldindan tayyorlab qo‘yilgan kvadrat qog‘ozni qo‘llariga olib, o‘qituvchi bilan ketma-ket buklab boradilar.

Dastlab, kvadrat qog‘ozni dioganal bo‘ylab buklanadi. Hosil bo‘lgan buklanish chizig‘iga kvadratning paski chap va yuqorigi o‘ng burchaklari uchburchak ko‘rinishida buklab qo‘yiladi. So‘ng hosil bo‘lgan o‘tkir uchi orqa tomonga qarata rasmdagidek buklanadi. Bunda har ikkala uchlik tomon ustma-ust va uchma-uch tushishi lozim. Endi ana shu hosil bo‘lgan shakl "a-b" chiziq bo‘ylab orqaga qarata teng ikkiga buklanadi.

Navbatdagi ish xo‘rozning bo‘yni uchun mo‘ljallangan kichik uchburchak ko‘rinishdagi qismini qo‘l bilan tortib ko‘tarishdan iboratdir. Buning uchun bo‘yin tomon chap, dum tomon o‘ng qo‘l bilan ushlab tortilsa g, h rasmdagi ko‘rinish hosil bo‘ladi. rasmda ko‘rsatilgandek buklash orqali xo‘rozning tumshug‘i hosil qilinadi. Endi xo‘rozning toji va bo‘ynidagi bag‘baqalari qizil rangdagi qog‘ozdan qirqilib, yopishtirib qo‘yiladi. Xo‘rozning dumini j- rasmda ko‘rsatilgandek qirqish orqali o‘yinchoqni yasash jarayoni nihoyasiga yetkaziladi.

O‘qituvchi imkoniyatiga ko‘ra xo‘roz o‘yinchog‘ini quyidagi rasmda ko‘rsatilgan chizma asosida vasalishi ham mumkin.



Rasmda do‘ppisimon qilib buklangan qog‘ozlardan “Gul”, “Baliq” o‘yinchoqlarini tayyorlash tartiblari ko‘rsatilgan. Gulni tayyorlab bo‘lganingizdan so‘ng qog‘ozchadan tayyorlangan bandni uning o‘rtasidagi teshikdan o‘tkazing. (Gulning bandi qog‘oz tasmasining bir chetini o‘rash orqali tayyorlanadi.) So‘ng gulning chetlaridagi teshikchali to‘rtta bo‘lakchalar navbati bilan bandning uchiga kiygizib chiqiladi. Gulning uchlari chiqib ketmasligi uchun bandining tepa qismi buklanib turguncha qilinadi. Baliq o‘yinchog‘ini tayyorlash tartibi esa rasmlardan

ma’lum. Uning yuqori qismiga ip yopishtirilsa, ilib qo‘yishga qulay bo‘ladi

Rasmda “Xo‘roz” o‘yinchog‘ini buklash orqali hosil qilish tartibi ko‘rsatilgan. Unga rioya qilgan holda xo‘rozcha o‘yinchog‘ini yasang. Xo‘rozning bo‘yin qismi hosil qilish uchun uning umumiy (tanasi teng o‘rtasidan ikkiga buklanadi va uchidan ushlanib tashqariga qarata tortiladi. Natijada xo‘rozning bo‘yin qismi hosil bo‘ladi. Navbatdagi ishda xo‘rozning dum qismi qaychida qirqib chiqiladi. Bo‘yin qismining yuqorisi esa tashqariga qarata rasmdagicha buklanadi.) So‘ng, xo‘rozning toj va baqbaqasi yelimlab qo‘yiladi.

MAVZU: Kvadrat shaklidagi qog‘ozdan kuchuk tasvirini yasash.

Maqsad: 1) O‘quvchilarning chizma asosida qirqish, yasash malakalarini o‘stirish, chizmalarni “o‘qiy olish”ga o‘rgatishni davom ettirish.

2) Buklash yasashdan o‘yinchoqni bezash malakalarini yanada rivojlantirish.

O‘quvchilar rangli qog‘ozdan kvadrat tayyorlash usuli bilan tanish bo‘lganliklari sababli, qog‘oz dioganali bo‘ylab buklab chiqarilganda buklash chiziqlari o‘zaro kesishib, markazini hosil qiladi. So‘ng 2-ta buklov tomoni buklanadi. So‘ng hozirgi buklangan ikkala tomoni yana teng ikkiga buklanadi. Bunda kuchukning qulog‘i hosil bo‘ladi. So‘ng ochiq pastki qismi buklanadi. Unda esa kuchukning tili hosil bo‘ladi.

Bu ishlarning hammasini etap-etap bo‘yicha yopishtirib chiqish kerak.

Qog‘ozni qirqish va buklash orqali baliq o‘yinchog‘ini tayyorlash.

O‘quvchilar qog‘ozdan kvadrat tayyorlash usuli bilan tanish bo‘lganliklari sababli. o‘qituvchi yangicha buklash usullarini tushuntirishga o‘tadi. Kvadrat qog‘oz dioganali bo‘ylab buklab, buklash chiziqlari o‘zaro kesishib, “o” markazini hosil qiladi. So‘ng kvadratning to‘rt tomoni shu nuqtagacha yetkazilib, buklab chiqiladi. Keyin qog‘ozning pastki ikki burchagida hosil bo‘lgan “1” va “2” kvadratchalarning dioganaliga ko‘rsatkich barmoqlar qo‘yilib, pastidan bosh va o‘rta barmoqlar bilan ushlanadi.

So‘ng bosh va o‘rta barmoq bir-biriga siqilib, ko‘rsatkich barmoq tortib olinsa, burchaklar hosil bo‘ladi. Endi shu burchaklarning buklanish chizig‘i bo‘ylab tekislab chiqilsa, “paraxod” kema o‘yinchog‘i hosil bo‘Iadi.

Navbatdagi ishda paraxodning yuqori qismi ham yuqorida ko‘rsatilgan buklash usuli yordamida pastdagi shaklga keltiriladi.

Natijada “konfet” ko‘rinishi hosil bo‘Iadi, uning taxi ochiladi va bir burchagi pastga qarata buklanib, avvalgi buklanish holatiga keltiriladi. So‘ng, baliqning uchburchak ko‘rinishdagi dumi buklanish chizig‘iga yetkazilib o‘rtasidan buklab qo‘yiladi.

Hosil bo‘lgan baliq o‘yinchog‘ining orqa tomoni parta ustiga ag‘darib qo‘yiladi. Bunda baliqning chap tomonida kichik o‘lchamdagi kvadrat bo‘laklari, suzgichlar va dumning hosil bo‘lganligini ko‘rish mumkin bo‘Iadi. Navbatdagi ish

baliqni sidirg‘asiga och xavo rangda bo‘yab, qulog‘i, og‘zi, ko‘zlari, suzgichlari, tangachalarini ishlab chiqarishdan iborat.

Baliqni buklash yo‘li bilan yasashdan tashqari tayyor andazasi yordamida karton qog‘ozidan qirqib yasash ham mumkin. Bunda o‘qituvchi katta-kichik o‘lchamdagi baliq andazasini o‘quvchilarga tarqatib chiqadi. Ular qog‘ozidan shu andaza yordamida baliqni yassi tasvirini qirqib oladilar. So‘ng bo‘yab, tepasiga ipdan ilgich yopishlirib qo‘yadilar. Undan bezak sifatida foydalanish mumkin. Dars oxirida barcha ishlar o‘quvchilar bilan birgalikda tahlil qilinadi.

Mavzu: **QOGOZDAN TO‘QISH USULLARI**

Mavzu: QOGOZDAN TO‘QISH USULLARI.

Maqsad: 1) oquvchilarnihg qogozdan toqish malakasini ostirish. 2) qogozdan toqish orqali oquvchilarning badiiy didini shakllantirish. Qog‘ozdan to‘qish — qog‘ozga ishlov berishning eng qiziqarli badiy usullaridan biridir. U tarbiyaviy ahamiyatga ega. Maqsadi oquvchilarda chamalash, aniqlilik, tartiblilikni o‘stirish hamda ularga to‘qish usullarini o‘rgatishdir. Ornamentlar to‘qimachilik tarkibiga kiradi va u estetik tarbiyaning vositalaridan biri hisoblanadi. To‘qish namunalarida o‘quvchilar o‘rish, arqon va iplar tushunchalarini egallaydilar, naqshlar o‘yishni, naqsh gullarini uyg‘unlashtirishni o‘rganadilar, ular turlash texnikasi bilan tanishadilar.

Ogozdan to‘qishda quyidagilarni hisobga olish zarur:

Turli detallarga mo‘ljallangan qog‘ozlarning qalinligi bir hil bo‘lishi kerak. Naqshni tanlab, to‘qiladigan chiziqlar yuqori qatordan boshlab qanday izchillikda borishini, ular bilan qaysi kataklar berkitilishini ko‘rib chiqing. Naqshlarda asosan bir xil to‘qilgan poloskalar takrorlanadi. Ularning qayerda takrorlanishini mustaqil belgilab oling.

Naqsh bir tekis chiqishi uchun ularni bir to‘qilayotgan poloskani oldingisiga to‘g‘ri va zich qilib to‘qish lozim. Bu ishni ishnihg orqa tomonidan qilish kerak, aks holda poloskaning old chetlari ezilishi mumkin.

To‘qishda rangsiz universal yelimdan foydalangan ma’qul. Yelimni gugurt cho‘pi bilan yopishtiriladigan poloskaning qoq o‘rtasiga nuqta tarzida surtib, tayyor yupqa karton yoki qalin qog‘ozga,yani bezalishi kerak bo‘lgan qog‘ozga yopishtirish kerak.

To‘qishda barcha barmoqlarni ishlatishga harakat qiling.

Polosalardagi kesiklar shaxmat tartibida to‘qiladi. kesiklarni qiya tarzida ham qilish mumkin.

Foydalanilgan asosiy adabiyotlar:

1. R.Ishmuhamedov, A.Abduqodirov, A.Pardayev. Tarbiyada innavatsion texnologiyalar T. 2010.

2. R.A.Mavlonova, M.T. Satbayeva. Mehnat o‘qitish metodikasi. O‘quv

qo‘llanma T. 2012-y.

3. D.Hoshimova, Sh.Maxmudova. Mehnat muhofazasi fanidan ma’ruzalar matni.T.2012

13-MAVZU: TEXNOLOGIYA DARSLARIDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH

REJA:

1. Axborot kommunikatsion texnologiyalari haqida ma’lumot.
2. Texnologiya ta’limi darslarida AKTdan foydalanishning o‘ziga xos xususiyatlari.
3. Amaliy mashg‘ulotlar uchun taqdimot tayyorlash texnologiyalari.

Tayanch so‘z va iboralar: texnologiya, taqdimot, texnologiya, zamonaviy axborot, ijtimoiy, ilmiy-texnik, iqtisodiy, madaniy, siyosiy, axborotlarni yaratish, tarqatish, qayta ishlash, kompyuter texnikasi.

Ta’lim jarayoniga zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etish va bunda o‘qituvchilarning ko‘nikma va malakalarini oshirish to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasining jamoat ta’lim axborot tarmog‘ini tashkil etish to‘g‘risida”gi 2005-yil 28-sentyabrdagi PQ-191 sonli Qarori, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Kompyuterlashtirishni yanada rivojlantirish va axborot kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2002-yil 6-iyundagi 200-sonli, “O‘qituvchi kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi 2006-yil 16-fevraldagi 25-sonli qarorlarining qabul qilinishi mazkur masalaga davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishi sifatida e’tibor qaratilayotganligidan dalolat beradi.

O‘quv jarayonida zamonaviy axborot texnologiyalarini qo‘llash ta’lim metodlarining samaradorligini oshirishga, o‘qituvchilar texnologiya faoliyatining o‘zgarishiga, ularning pedagogik mahoratlarini takomillashtirishga, pedagogik tizimlarning tarkibiy o‘zgarishiga samarali ta’sir etadi. Bu esa pedagogik jarayonlarni axborotlashtirishni tashkil etish va boshqarishda o‘ziga xos vazifalarni qo‘yadi.

Pedagogik ta’lim jarayonlarini zamonaviy axborot texnologiyalari asosida samarali tashkil etish:

masofaviy o‘quv kurslarini va elektron adabiyotlarni yaratuvchi jamoa o‘qituvchilar, kompyuter dasturchilari, tegishli mutaxassislarning birgalikda faoliyat olib borishini;

o‘qituvchilar o‘rtasida vazifalarning bir maromda to‘g‘ri taqsimlanishini;

ta’lim va tarbiya jarayonini yanada mukammal tashkil qilishni takomillashtirish va pedagogik faoliyatning samaradorligini oshirish monitoringini tashkil etish imkoniyatini yaratadi.

Jamiyatning har bir a’zosi, o‘zining kundalik faoliyatida, uzluksiz ravishda turli axborot resurslaridan foydalanadi. Doimiy ravishda ortib borayotgan axborotlar hajmi jamiyatdagi intellektual salohiyatning oshishiga xizmat qiladi. Modomiki shunday ekan, o‘qituvchi ham o‘z kasbiy va pedagogik mahoratini zamonaviy axborot texnologiyalari oqimi asosida oshirib borishi mumkin. Har bir o‘qituvchi texnologiya faoliyati jarayonida axborot texnologiyalaridan unumli foydalanishi uchun avvalo o‘z axborot muhitini shakllantirishga zamin yaratishi kerak. Zamonaviy axborot texnologiyalari o‘z muhitida axborot obyektlarini, ularning o‘zaro aloqasini, axborotlarni yaratish, tarqatish, qayta ishlash, to‘plash texnologiyalari va vositalarini, shuningdek, axborot jarayonlarining tashkiliy va huquqiy tarkibini mujassamlashtiradi.

Hozirgi kunda o‘qituvchi ta’lim-tarbiya jarayonida o‘quvchilarning imkoniyatlari va talablarini inobatga olishi zarur. O‘qituvchi tomonidan targ‘ib etilayotgan ta’lim va tarbiya tizimi shaxsga yo‘naltirilgan xarakterda bo‘lishi, ya’ni shaxsning har xil xususiyatlari va sifatiga e’tibor qilgan holda tabaqalashtirilgan bo‘lishi kerak.

Har qanday ta’lim va tarbiya tizimi ma’lum bir ijtimoiy, ilmiy-texnik, iqtisodiy, madaniy va nihoyat, siyosiy muhitda shakllanadi va rivojlanadi. Bu muhitlarning eng ustuvori ijtimoiy-iqtisodiy omillardir. Ilmiy-texnik taraqqiyot, madaniy va siyosiy muhit ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlarni rivojlantirishi yoki sekinlashtirishi mumkin. Ta’lim tizimi jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy rivojlanishining asosiy vazifalarini amalga oshirishga xizmat qiladi, chunki umumta’lim maktablari, oliy ta’lim muassasalari insonni iqtisodiyot, madaniyat, siyosiy jihatdan hayotda qizg‘in faoliyat ko‘rsatish uchun tayyorlaydi. Shuning uchun ham ta’lim muassasalari o‘qituvchisi ta’lim-tarbiya jarayonining tayanch bo‘g‘ini sifatida muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu bilan bir qatorda, hozirgi kunda umumta’lim maktablari va oliy ta’lim muassasalari o‘qituvchilari o‘rtasida ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlar va ilmiy-texnik taraqqiyot o‘zining ifodasini kechikib topmoqda. O‘qituvchi va o‘quvchilarning fikrlashi va qabul qilish faoliyatida yangi g‘oyalar, yangi zamonaviy axborot texnologiyalarini o‘zlashtirish ma’lum bir vaqtni talab etadi.

Shaxsga yo‘naltirilgan o‘qitish, birinchi navbatda, ta’limning paradigmasini o‘zgartiradi. Agar ta’lim tizimida o‘qitish ustuvor sanalgan bo‘lsa, hozirgi kunda jamiyatning axborotlashuvi davrida ustuvorlik o‘qishga va o‘rgatishga yo‘naltirilgan. Shu sababdan ta’limning o‘qituvchi-darslik-o‘quvchi paradigmasi o‘quvchi-darslik-o‘qituvchi paradigmasi bilan o‘rin almashmoqda. O‘qituvchi

endilikda yangi statusga ega bo‘ladi, endi uning vazifasi o‘quvchilarda mustaqil bilim olish imkoniyatlarini yaratish va ijodiy faoliyatlarini tashkil etish, bilimlarni mustaqil egallash va ularni amaliyotda qo‘llashga o‘rgatishdan iborat. O‘qituvchi bunday maqsadlarda o‘qitishning metodlari, texnologiyalarini shunday tanlashi kerakki, u o‘quvchilarga nafaqat tayyor bilimlarni o‘zlashtirishlarida, balki bilimlarni turli manbalardan izlash, mustaqil egallash, o‘zlarida shaxsiy nuqtai nazarning shakllanishi, uni asoslashi va avvalgi egallangan bilimlardan yangilarini olishda foydalanish imkoniyatini yaratishi kerak. Bunday o‘qitishni “rivojlantiruvchi” ham deb atash mumkin.

Bilimlarni o‘zlashtirish fikrlashni rivojlantiruvchi muhim omil hisoblansada, bilimlarni har qanday o‘zlashtirish yoki egallash o‘quvchining fikrlashiga rivojlantiruvchi ta’sir ko‘rsatmaydi. Buning uchun bilimlarni o‘zlashtirishning faoliyat shakllarini faollashtirish lozim. Egallangan bilimlarni oddiygina qaytarish o‘quvchilarning mustaqil fikrlashlarini rivojlantirishda yetarli manba bo‘lolmaydi. Faol bilish, mustaqil fikrlash faoliyati juda zarurdir. Bilimlarni mustaqil egallash faoliyati va olingan bilimlarni qo‘llash jarayoni yangi bilimlarning shakllanishiga, o‘quvchining samarali fikrlash manbaiga aylanadi.

Shu sababdan mamlakatimizda va jahonning rivojlangan davlatlarida ta’lim sohasini isloh qilish jarayonida pedagogik texnologiyalarning rivojlanishi, zarur axborotlarni mustaqil izlab topish, muammoni qo‘ya bilish va uning yyechimini hal etish, olingan bilimlarni tanqidiy tahlil eta olish va ushbu bilimlar asosida yangi masalalarni echishda qo‘llash uchun yo‘naltirilgan. Endilikda shaxsga yo‘naltirilgan ta’limning zaruriyligi barchaga ayon bo‘lmoqda.

Shaxsga yo‘naltirilgan o‘qitish – bu o‘quvchining yosh va shaxsiy xususiyatlarini, qobiliyati va imkoniyatlarini inobatga oluvchi, ilg‘or pedagogik va axborot texnologiyalaridan o‘quvchi shaxsini rivojlantirishda samarali foydalanuvchi o‘qitishdir. Shunday qilib, shaxsga yo‘naltirilgan o‘qitishda o‘qitishni tabaqalashtirish va individuallashtirish asosiy tamoyil sifatida qaraladi.

Zamonaviy axborot texnologiyalari shakl va mazmunining rang-barangligi – o‘quvchining qiziqishi, imkoniyati va shaxsiy xususiyatlaridan kelib chiqib taklif etilayotgan holatlardan tanlash imkoniyatini beradi. Bunday imkoniyat ta’lim tizimida ham o‘z aksini topishi zarur. O‘qituvchining har xil sathli o‘qitishni zamonaviy axborot texnologiyalari asosida tashkil etishi bunday muammoning yechimi bo‘la oladi.

O‘quv mashg‘ulotlarini o‘quvchilarning kundalik fanlar majmuasi va ular bo‘yicha berilgan kundalik topshiriqlar majmuasi asosida belgilanishi, har bir o‘tilgan mavzuni keyingi darsda so‘rab baholanadigan qilib tashkil etilishi ko‘plab muammolarni keltirib chiqaradi. Bunday holda o‘quvchilar biron bir fanga o‘zlarining asosiy diqqat-e’tiborini to‘liq qarata olmaydilar. Bunday notugalliklarni

bartaraf etishda, modulli o‘qitish eng yaxshi echim hisoblanishi mumkin.

Zamonaviy jamiyatda ta’lim tizimini rivojlantirishning strategik yo‘nalishi – bu insonning turli sohalarda maqsadli mustaqil faoliyat asosida intellektual va axloqiy rivojlanishidir. Bunda uchta asosiy vazifaga e’tibor qaratiladi:

Ta’lim tizimini isloh etish.

Mustaqil faoliyat tamoyilini ta’lim va tarbiyaning asosiy tamoyili sifatida e’tirof etish.

Ta’lim va tarbiya jarayoniga zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etish.

Zamonaviy insonning o‘qish jarayoni faqat bog‘cha, umumta’lim maktablari, akademik litseylar yoki kasb-hunar kollejlari, oliy ta’lim muassasalari bilan tugamaydi. Inson butun umri davomida ta’lim olishi zarur, ya’ni ta’lim uzluksiz bo‘lishi kerak. Demak, uzluksiz ta’lim – davr talabidir. Zero, bu muammo zamonaviy axborot texnologiyalariga bo‘lgan ehtiyojni yanada shakllantirishi shubhasiz.

XXI asr – axborotlashtirish asrida ta’lim sohasini axborotlashtirish, har bir ta’lim muassasasidan:

- o‘qitish va o‘qish jarayonining;
- ta’lim muassasasi boshqarilishining;
- ta’lim muassasasi bo‘linmalarining;
- ta’lim muassasasi faoliyati muhitining axborotlashtirilishini talab qiladi.

Hozirgi ta’lim muassasalarida kompyuter texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlarini takomillashtirish, ta’lim jarayonida bunday texnologiyalarni qo‘llashning eng muhim ko‘rsatkichlaridan biri ekanligi pedagog olimlar tomonidan e’tirof etilmoqda. Jumladan, U.Sh.Begimqulov ta’lim muassasalarida kompyuter axborot muhiti va hozirgi zamon talablariga javob bera oladigan darajadagi axborot bazasini yaratish zarurligini, gipermatn va multimedia, o‘qitishda immitatsiya, kommunikatsiya tizimlarini rivojlantirishni, zarur axborotlarni kompyuter texnikasi yordamida kiritish, tizimlashtirish, saqlash va foydalanish uchun tavsiya qilinadigan ma’lumotlar bazasini yaratishni taklif etadi. Shu boisdan, o‘qituvchi kadrlarning zamonaviy axborot texnologiyalari imkoniyatlaridan foydalanib bilim, ko‘nikma va malakalarini shakllantirish maqsadida hamda o‘qituvchilar pedagogik mahoratlarini hozirgi zamon talablari asosida takomillashtirishga mo‘ljallangan masofaviy malaka oshirish kurslarini tashkil etish tashabbusi bilan chiqadi.

U.Sh.Begimqulov zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalari sohasida erishilayotgan yutuqlarni inobatga olib, kompyuter texnologiyasini quyidagi jihatlarda ta’lim muassasalari pedagogik faoliyati jarayonlarida qo‘llash samarali bo‘lishini ta’kidlaydi:

Kompyuter texnologiyalari (kompyuter savodxonligi)dan foydalanishda, o‘qituvchi uning mazmuniga ko‘ra bir qancha vazifalarni bajarishi mumkin. Faol

foydalanish imkoniyatiga ega kompyuter texnologiyalari quyidagi asosiy didaktik funksiyalarni bajaradi:

- multimedia texnologiyasini qo‘llash evaziga o‘quvchilarda fanlarga qiziqishni rivojlantiradi;

- bunda ta’limning interfaolligi tufayli o‘quvchilarning fikrlash qobiliyatlari faollashadi va o‘quv materialini o‘zlashtirish samaradorligi oshadi;

- real holatlarda namoyish qilinishi qiyin yoxud murakkab bo‘lgan jarayonlarni modellashtirish va ko‘rish imkoniyatini berishi bilan muhim ahamiyatga ega ;

- o‘quv materiallarini o‘zlashtirilishi faqat darajasiga ko‘ra emas, balki o‘quvchilar erishgan mantiqan qabul qilishlarining darajasiga ko‘ra ham samarali hisoblanadi;

- masofadan turib ta’lim olishni faqat o‘zlashtiruvchi o‘quvchilar yoki internet ta’limi uchun tashkil etilmaydi, balki sababsiz dars qoldirgan o‘quvchilar uchun ham tashkil etish imkoniyatini beradi;

- o‘quvchilarga mustaqil izlanish yo‘li bilan materiallarni izlash, topish hamda muammoli masalalarga javob berish orqali ma’lum tadqiqot ishlarini bajarish uchun imkoniyat yaratadi;

- o‘quvchilarning yangi mavzuni o‘zlashtirishi, misollar echishi, insho, bayon yozish ishlarida, o‘quv materiallari bilan mustaqil tanishish, tanlash va axborot hamda ma’lumotlarni tahlil etish kabi masalalarni tez bajarish uchun sharoit yaratadi.

Ma’lumki ta’lim mazmunini takomillashtirishning bosh xususiyatlaridan biri kompyuter bilan muloqot jarayonida uning doimiy murojaat qilinadigan “qo‘llab-quvvatlovchi axborot”ini ko‘paytirish, kompyuter axborot muhiti va hozirgi zamon talablariga javob bera oladigan darajadagi axborot bazasining yaratilganligi, gipermatn va multimedia, o‘qitishda immitatsiya, kommunikatsiya tizimlari qabul qilingan.

Ma’lumotlar bazasi deganda, axborotni kompyuter texnikasi yordamida kiritish, tizimlashtirish, saqlash va foydalanish uchun tavsiya qilish tushuniladi.

Bir qator axborotlarni an’anaviy qayta ishlash uchun ularni tayyorlashning standart shakllari mavjud bo‘lib, ularga bibliografiya, statistik ma’lumotlar, referatlar kiradi. Ma’lumotlar bazasi axborot tarkibiga statistik, matnli, grafik va ko‘rinishli axborotlarni cheksiz ko‘p miqdorda va albatta, belgilangan shakllardagi ko‘rinishlarini qabul qiladi.

Bilimlar bazasi esa, yopiq tizimda, mazkur mavzu bo‘yicha qo‘shimcha axborotlarga ehtiyoj sezmagan holda va uning har bir elementi, mantiq jihatdan bog‘langan boshqa elementlarga chiqa olishi bo‘yicha tuzilmali axborotlashtirilgan tizimga ega bo‘ladi. Bunda ushbu bilimlar bazasiga kiritilmagan, ya’ni undan tashqi elementlarga murojaat qilinishiga imkon bo‘lmaydi. Bilimlar bazasining birlamchi

bibliografik o‘xshashliklari sifatida turli ens iklopediyalar, lug‘atlar xizmat qiladi.

O‘quvchilar bilimi sifatlarini test savollari yordamida aniqlash va psixo-fiziologik rivojlanayotganligini tashxis qilish maqsadida kompyuter tizimiga eksport tizimi qo‘shimcha kiritilgan bo‘lib, bu tizim yordamida elektron tarmoq orqali bilimlarni baholash va bu masala bo‘yicha yetarlicha natijalarni aniqlash mumkin.

Bunday dasturiy vositalardan, ta’limdagi holat va uning maqsadiga ko‘ra, ba’zan o‘quvchilarning ehtiyojlarini chuqurroq anglash zaruriyati nuqtai nazaridan, ularning ma’lum fan sohasida bilimlarini tahlil qilish bo‘yicha boshqa bir hollarda esa, o‘qitishning psixologik tamoyillarini hisobga olish maqsadida keng foydalaniladi.

Kompyuter yordamida turli ilmiy axborotlar, o‘quv materiallari bo‘yicha axborotlarni tavsiya etishning boy imkoniyatlari, xususan ularga integrativ kurslarni kiritish, fanning tarixi va metodologiyasi bilan tanishish, turli fanlar bo‘yicha ularning zamonaviy darajasiga oid bilimlar, madaniyat va ijtimoiy ongga dahldor bilimlarni kiritish, ta’lim mazmunini sezilarli o‘zgartirish va keskin boyitishga yordam beradi, uni faollashtirish va rivojlantirishda muhim omil bo‘ladi.

Kompyuter vositalari yordamida mustaqil ta’limni tashkil etish nuqtai nazaridan tahlil etadigan bo‘lsak, aksariyat uning interfaolligini, bevosita muloqot yordamida o‘quvchi o‘quv rejasida ko‘rsatilgan, istalgan fan sohasida maxsus o‘quv dasturlari yordamida bilim olish imkoniyatiga ega ekanligi ma’lum bo‘ladi. Kompyuter vositasi, o‘quvchi yoxud o‘qituvchi murojaatlariga “javob beradi”, ular bilan bemalol “muloqotga kirishadi”, bular kompyuter ta’limi metodikasining asosiy xususiyatlaridan biri sanaladi.

Ayniqsa, kompyuter texnologiyasining ma’lum mavzuni o‘qitish bo‘yicha yoki alohida didaktik masalalarni hal etishda foydalanish kabi holatlar (“kirib boruvchi” texnologiya nomi bilan mashhur), shuningdek, o‘qitishda ma’lum texnologiyaning asosiy, aniqlovchi va eng muhim tavsiflovchisi sifatida kompyuterni qo‘llanish holatida kompyuter va boshqa texnologiyalar orasidagi munosabatlar masalasi juda dolzarb sanaladi.

Kompyuterli o‘qitish metodikasining boshqa bir muhim xususiyati, u o‘qitish jarayonining barcha bosqichlarida, jumladan, yangi o‘quv materialini tushuntirishda, qaytarishda, umumlashtirishda, o‘quvchilarning ma’lum fan bo‘yicha erishgan bilim, malaka va ko‘nikmalarini tekshirishda namoyon bo‘ladi. Bunday jarayonda o‘qituvchi kompyuterning o‘quvchi uchun turli vazifalarni, xususan o‘qituvchilik, ishchi qurol, ta’lim obyekti, o‘zaro muloqot kabi funksiyalarni bajarishini bilishi kerak.

Kompyuter va internet yordamida keng auditoriya bilan bog‘lanish va uning natijasi sifatida o‘zaro muloqotlashuvchi jamoa muhiti yaratiladi.

Kompyuter texnologiyalari asosida o‘qituvchi o‘zining kasbiy mahoratini oshirish uchun mustaqil faoliyatida quyidagi vazifalarni bajarishi lozim:

1. O‘quv jarayonini bir butun guruh va bir butun fan (o‘quv jarayonining grafigi, tashqi tashxis, joriy, oraliq va yakuniy nazorat va boshqalar) sifatida tashkil etish.

2. O‘quv jarayonida guruhni faollashtirish va muvofiqlashtirish, ish joylarini taqsimlash, ko‘rsatmalar, guruh ichida boshqarish va boshqalar.

3. O‘quvchilarni individual kuzatish, individual yordam ko‘rsatish, har bir o‘quvchi bilan individual muloqot olib borish. Kompyuter yordamida eshitish va ko‘rish imkoniyatlari, individual o‘qitishning eng samarali shakllariga erishiladi.

4. Axborot muhitini tashkil etuvchilari (shaxsiy kompyuter, o‘quv va namoyish qurilmalarining har xil turlari, dasturiy vositalar va tizimlar, o‘quv-metodik ko‘rsatma, qo‘llanmalar va boshqalar) ma’lum o‘quv kursining mazmuni bilan aniqlangan bog‘liqlik asosida tayyorlanadi.

Ta’limni jadallashtirishda axborot texnologiyalaridan foydalanish o‘quv jarayonining samaradorligini oshiradi, bunda:

o‘qituvchilar, ilmiy xodimlar jahonning salmoqli ilmiy, metodik adabiyotlaridan foydalanish imkoniyatiga ega bo‘ladilar;

uzoq hududlarda joylashgan yetakchi ta’lim muassasalarining ilmiy laboratoriyalari bilan tanishadilar;

turli mavzularda videokonferensiyalar tashkil qilish va amalga oshirishga erishiladi;

o‘qituvchilarning o‘zaro seminar va treninglari o‘tkaziladi;

masofaviy ta’lim, axborotlar almashinish va shunga o‘xshash juda ko‘p imkoniyatlarga ega bo‘ladilar.

Zamonaviy axborot texnologiyalarini ta’lim muassasalari tizimiga tatbiq etish o‘quv jarayonida zamonaviy o‘qitish metodlarini qo‘llashga hamda o‘qituvchi pedagogik mahoratini namoyish etishga keng imkoniyatlar ochadi.

O‘quvchilar bilimini baholashning kompyuter tizimi va o‘zlashtirish monitoringini tashkil etish uchun, avvalo, zamonaviy ta’lim tizimida o‘qitishning sifatini tashxis qilishga, ya’ni uning holatini aniqlamay turib, undagi jarayonlarni samarali boshqarishga, ta’limda ma’lum bir maqsadga erishishning iloji yo‘qligi hech kimda shubha tug‘dirmaydi. O‘quvchilarning yakunlovchi bilim va malakalarini ta’lim jarayonida turli mezonlar va yondashuvlarga tayanib aniqlash, bu jarayonlarga zamonaviy axborot texnologiyalarini qo‘llash, ularning qo‘yilgan didaktik talablarga haqiqatan mosligini nazorat qilish mumkin.

Bunda pedagogik tashxis, o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va malakalarini shakllantirish darajasini aniqlashni, nazorat qilishni, baholashni, yig‘ish va statistik ma’lumotlarning tahlili hamda kelgusida bu jarayon rivojini bashorat qilishni o‘z

ichiga oladi. Metodik adabiyotlarda o‘quvchilar o‘zlashtirishlarining tashxisi, ular tomonidan erishilgan yutuqlarning darajasi sifatida qayd etish ekanligiga e’tiborni qaratsak, unda pedagogik tashxisning maqsadi, ta’lim jarayoni borishining tahlili va uni baholashni o‘z vaqtida aniqlanishidan iborat bo‘ladi.

Ma’lumki, ta’lim jarayonini bunday baholash, faqat o‘quvchining o‘z-lashtirish darajasini belgilash bilan chegaralanib qolmay, o‘qish jarayonini rag‘batlantirishda muhim pedagogik vosita va ijobiy motiv uyg‘otish bilan o‘quvchi shaxsiga kuchli ta’sir etadi. Shu xilda o‘quvchini obyektiv baholash asosida unda adekvat ravishda o‘z-o‘zini baholash imkoniyati tug‘iladi va o‘z muvaffaqiyatlariga tanqidiy munosabatning shakllanishi qayd etiladi. Shu nuqtai nazardan o‘quvchi bilim, ko‘nikma va malakalarini baholash, ayniqsa, bilimlarini nazorat qilishning kompyuterlashtirilgan tizimi, zamonaviy axborot-pedagogik tizimlarida, ularda bilimni nazorat qilishni tashxisiy ahamiyati va haqqoniyligini samarali bajarish maqsadida tinmay izlanishlar va takomillashtirish ishlarini olib borish taqozo qilinadi. Mazkur masalaning yechimi o‘qitishning maqsadga muvofiq va haqqoniy bo‘lishida, iloji boricha aniq va asoslangan usul sifatida qayd qilingan.

Kompyuter texnologiyalari asosidagi o‘quvchilar bilimini nazorat qilish faqat mutaxassis o‘qituvchilar tomonidan emas, balki pedagogik jarayon ishtirokchilari tomonidan ham amalga oshirilishi maqsadga muvofiqdir. Bunday texnologiyalarni monitoring tizimida joriy qilishda pedagogik jarayon ishtirokchilarining axborotga, bilimga bo‘lgan ehtiyoj va ishtiyoqlarini faollashtirishga erishish zarur.

O‘quvchilar bilimi, ko‘nikma va malakalarini nazorat qilish kompyuter tizimining asosiy maqsadi, ular erishgan yutuqlar va muvaffaqiyatlarni aniqlash, uni takomillashtirish yo‘llarini ko‘rsatish, shu asosda o‘quvchilarga samarali ijodiy faoliyat ko‘rsatish uchun sharoit yaratishdan iborat. Bu maqsad, birinchi navbatda, o‘quvchilar tomonidan o‘quv materiallarini o‘zlashtirish sifati bilan, ya’ni o‘quv dasturida belgilangan bilim, ko‘nikma va malakalarni egallash darajasi bilan bog‘liq. Ikkinchi tomondan, kompyuter nazoratining asosiy maqsadini aniqlashtirish, o‘zaro, shuningdek, o‘z-o‘zini nazorat qilish bo‘yicha yondashuvlarni amalga oshirish hamda o‘zaro va o‘z-o‘zini nazorat qilishga bo‘lgan ehtiyojning shakllanishi bilan bog‘liq. Uchinchidan esa, bu maqsad o‘quvchilarda bajarilgan ish uchun javobgarlikning namoyon bo‘lishi kabi shaxsning ijobiy sifatlarini tarbiyalashga qaratilgan bo‘ladi.

Nazorat qilishning eng muhimi – nazorat funksiyasi bo‘lib, o‘quvchilar erishgan bilim, ko‘nikma va malakalarning darajasini, ularning bilish faoliyati bo‘yicha yondashuvlarini, bilimlarni o‘zlashtirganlik ko‘rsatkichlariga ko‘ra ularning aqliy faoliyatlari rivojlanish darajasini aniqlashtirish imkoniyatini beradi.

Uning ikkinchi muhim vazifasi o‘qitish bo‘lib, u o‘quvchi erishgan bilimlar, ko‘nikma va malakalarni takomillashtiradi, uning tizimliligini nazorat qilishni

ta’minlaydi. Bunday nazorat jarayonida o‘quvchilar o‘rganilayotgan materialni qaytarish va mustahkamlash bilan shug‘ullanadilar. Bilimlarni kompyuter texnologiyalari asosida tekshirish, o‘rganilayotgan materialdan asosiysini ajratib olish, shuningdek, erishilayotgan bilim, ko‘nikma va malakalarning mazmunini aniqlash imkoniyatini beradi.

Nazorat qilishning uchinchi – tashxis qilish vazifasi, o‘quvchilarning o‘zlashtirayotgan bilim, ko‘nikma va malakalaridagi kamchiliklar, yetishmovchiliklar, xatolar haqida, xatolarning soni hamda xarakteri haqida ma’lumot olishga yordam beradi. O‘qitish jarayonida tashxis qilish orqali nazorat ma’lum darajada ta’limning samarali metodikasini tanlashga yordam berishi bilan muhim sanaladi.

Kompyuter texnologiyalari asosida o‘qituvchi o‘quvchilar bilimini nazorat qilishda, uning bashorat etuvchi vazifasidan, ya’ni, ta’lim-tarbiyaviy jarayon haqida, uning kelajagi, oldindan ko‘ra bilish mumkin bo‘lgan holatlari to‘g‘risida axborotlarni oladi.

U o‘quv jarayonining ma’lum bosqichida o‘quv materialining ma’lum qismi bo‘yicha mo‘ljallangan aniq bilim, ko‘nikma va malakalar yetarlicha shakllangani, yoxud shakllanmaganligini bashorat qilish asosida nazorat olib borish imkoniyatini beradi. Ma’lum ilmiy bashorat bo‘yicha erishilgan natijalar o‘quvchilarning kelajakdagi faoliyatlari modelini yaratish uchun qo‘llaniladi. Bunday bashorat o‘qituvchining kelajakda o‘qitishni rejalashtirish va amalga oshirish uchun aniq xulosalar olishiga yordam beradi.

Bilimlarni nazorat qilishning rivojlantiruvchi vazifasi, o‘quvchilarning bilishga bo‘lgan faolliklarini, ularning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda namoyon bo‘ladi. Kompyuter texnologiyalari asosida amalga oshiriluvchi nazorat jarayonida o‘quvchilarda nutq, xotira, diqqat, tasavvur, iroda va fikrlash qobiliyatlarining rivojlanishi yaqqol seziladi. Nazorat qilishning rivojlantiruvchi vazifasi, shaxsning qobiliyati, moyilligi, qiziqishlari va ehtiyojlari kabi xususiyatlarining shakllanishiga ta’sir qilishi bilan muhim ahamiyatga ega.

Shuningdek, o‘quvchilar erishayotgan bilimlarni nazorat qilishda uning yo‘naltiruvchi vazifasi ham mavjud bo‘lib, o‘qituvchi uning mohiyatini, alohida o‘quvchi yoki butun guruh tomonidan o‘qitishning maqsadiga qay darajada erishilganligi, ya’ni o‘quv materiali qanday miqdorda va qanchalik chuqur o‘zlashtirilganligi bilan belgilanadi. Bunday nazorat tufayli o‘qituvchi yo‘l qo‘yilgan xatoliklarni va kamchiliklarni o‘rganib, o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va malakalarini takomillashtirishda qanday yondashuvlarga urg‘u berish lozimligini anglab oladi. Nazoratning yo‘naltiruvchi vazifasi o‘quvchining turli xususiyatlari bo‘yicha o‘z-o‘zini yaxshi bilishga, o‘zi erishgan bilimlari, qobiliyati va imkoniyatlarini anglash va odilona baholashiga katta yordam beradi.

O‘quvchilarni nazorat qilishning yana bir muhim vazifasi ularni tarbiya qilish bilan bog‘liq bo‘lib, o‘qituvchi o‘quvchilarda o‘qishga javobgarlikni, intizomni, saranjomlik va sarishtalikni, axloqiy his-tuyg‘ularni tarbiyalaydi. Ularda texnologiyaga layoqatlilikni, g‘urur va irodani hamda texnologiyaga nisbatan muntazam ko‘nikmalarni shakllantiradi.

Bunday jihat haqqoniy bo‘lishi uchun internetning ta’lim resurslari talabgorlarning so‘rovlari va talablariga to‘la javob bera oladigan darajada bo‘lishi shart. Shuning uchun ham ekspertlar tomonidan ta’lim veb – saytlarining sifatlarini baholash kompyuter tashxisining haqqoniyligida muhim o‘rin tutadi.

Ta’limda veb-saytlarning sifati ta’lim jarayonining axborot fazosining rivojlanishiga ta’sir etuvchi eng muhim jihatlardan sanaladi. U mazkur fazoda ta’lim olishning sifatiga va mazkur tizimning madaniyatli tashkil etilganligi darajasiga bevosita ta’sir etadi.

Tashxis va monitoringni ta’limda joriy etishda mavjud metodologiyani qo‘llash orqali axborotli o‘qitish muhitining tashxisiy vazifasini aniqlash imkoniyati tug‘iladi.

Ayni paytda, o‘quvchilar erishgan bilimlar, ko‘nikma va malakalarni nazorat qilishning keng tarqalgan yo‘li – testlar yordamida tekshirish bo‘lib, u kompyuterning undan foydalanuvchi bilan o‘tkazadigan muloqotiga asoslangan. Mazkur tizim “o‘qituvchining texnik qayta qurollanishi, uning mexanizatsiyalashtirilgan texnologiya” yoki “o‘qituvchi mashina” degan shiorlar ostida o‘qituvchining o‘quvchi bilan individual ishlash jarayonini mujassamlashtiruvchi sifatida dunyoga kelgan. Ba’zan, o‘quv jarayonida sun’iy intellekt tizimining qo‘llanilishi baholash jarayonining murakkabligi, xususan o‘quvchini baholash uchun o‘quvchiga katta miqdordagi axborotni qayta ishlashi, baholovchi va baholanuvchi orasidagi o‘zaro ta’sir jarayonining murakkabligi bu masalani oson hal qilish imkoniyatini bermaydi. Xususan, o‘quvchi bilim va malakasini kompyuterlashtirilgan holda nazorat qilish, talab qilinadigan bilimlar majmuasining sifatini aniqlash muammosini hal qilish lozimligini, busiz erishilgan bilimlarni baholash mezonlarini va ularning o‘zlashtirilganlik darajasini aniqlash qobiliyatlarini belgilash mumkin emasligi oydin bo‘ldi.

O‘qituvchilar tomonidan o‘quvchilar bilimi, malaka va ko‘nikmalarini nazorat qilishning asosiy maqsadi, ular erishgan yutuqlar va muvaffaqiyatlarni aniqlash, uni takomillashtirish yo‘llarini ko‘rsatish va shu asosda o‘quvchilarning faol ijodiy faoliyat ko‘rsatishlari uchun sharoit yaratishdan iborat. Bu maqsad, birinchi navbatda, o‘quvchilar tomonidan o‘quv materiallarini o‘zlashtirish sifati bilan, ya’ni o‘quv dasturida belgilangan bilim, ko‘nikma va malakalarni egallash darajasi bilan bog‘liq. Ikkinchi tomondan, nazoratning asosiy maqsadini aniqlashtirish, o‘zaro va o‘z-o‘zini nazorat qilish bo‘yicha yondashuvlarni o‘rganish hamda o‘zaro va o‘z-

o‘zini nazorat qilishga bo‘lgan ehtiyojning shakllanishi bilan bog‘liq. Uchinchidan esa, bu maqsad o‘quvchilarda bajarilgan ish uchun javobgarlikning namoyon bo‘lishi kabi shaxsning ijobiy sifatlarini tarbiyalashga qaratilgan bo‘ladi.

O‘quvchilarning bilimlarini intellektual nazorat qilish o‘qituvchidan ziyraklikni, adolat bilan faoliyat yuritishni talab qiladi. Bilimlarni intellektual baholashning turli metodlari mavjud bo‘lib, ular ichida keng tarqalgan metodlar quyidagilar:

og‘zaki yo‘l bilan tekshirish;

yozma-grafik usulda tekshirish;

amaliy-laboratoriya mashg‘ulotlarini bajarish orqali tekshirish.

Bilimlarni og‘zaki usul bilan tekshirish metodi asosan ikki qismdan: birinchisi, tekshirish savollari va vazifalari, ikkinchisi esa, qo‘yilgan savol va vazifalarga javoblar hamda talablardan tashkil topadi. Bunda savol va topshiriqlarning mazmunini belgilashda, o‘rganilayotgan o‘quv materiali mazmuni bilan ilgari o‘tilgan materiallar mazmuni orasidagi bog‘lanishni tahlil qilish, o‘tilgan mavzuni nazorat qilishda esa yetakchi bilimlarni ajratish zarur bo‘ladi.

Savol va berilgan topshiriqlarning sifati o‘quvchilarning aqliy faoliyatlarining xarakteriga bog‘liq bo‘lganidan, ular o‘quvchilarning xotirasini faollashtirish, fikrlash (solishtirish, umumlashtirish, yaxlitlash va hokazo) va nutqini rivojlantirishga qaratilmog‘i lozim.

Bilimlarni yozma – grafik usulda tekshirish, o‘quvchilarning

- nazariy bilimlarini;

- o‘quvchilarni masalalar va boshqa eksperimental topshiriqlarni bajarishda qo‘llay olish ko‘nikmasi va malakasini;

- o‘quvchilarda berilgan masalalar bo‘yicha shakllangan ko‘nikmalarni tekshirishni nazarda tutadi.

Yozma – grafik usulda ishlarni tekshirish metodikasi quyidagi to‘rt etapda bajariladi:

- nazoratni o‘tkazishga tayyorgarlik;

- uni tashkil etish;

- o‘tkazish;

- natijalarni tahlil qilish.

Nazoratni tashkil etishda nazorat etaplarining maqsadlarini belgilash, nazorat obyektlarining mazmunini tanlash, tekshirish vazifalarini tuzish lozim bo‘ladi.

Bilimlarni amaliy - laboratoriya mashg‘ulotlarini bajarish orqali tekshirish. Ushbu usul yordamida, o‘quvchilarning erishgan nazariy bilimlari asosida amaliy masalalarni yechish, turli jadvallardan, formulalardan, chizmalar va o‘lchash asboblaridan unumli foydalanish ko‘nikmasi va malakalari tekshiriladi.

Amalda masalalar yechishda o‘quvchidan masalalarni yechishning algoritmini

tuzish talab etiladi, chunki bunday tekshirishda o‘quvchi faoliyatining mantiqiy ketma-ketligi to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri ekanligi ma’lum bo‘ladi.

Shunday qilib, o‘qituvchi tomonidan tekshirishning turli metodlari qay darajada muvaffaqiyatli ekanligi tanlanganligi, o‘quvchilar bilimlarini odilona baholashda muhim ko‘rsatkichlardan sanaladi.

Zamonaviy axborot texnologiyalari muhitida pedagogik jarayonlarni quyidagicha samarali tashkil etish mumkin:

- o‘qituvchilar o‘rtasida texnologiya taqsimotini to‘g‘ri tashkil etish;
- masofaviy o‘quv kurslari va elektron adabiyotlarning yaratuvchisi bo‘lgan jamoaga o‘qituvchilar, kompyuter dasturchilari va mutaxassislarining birlashuvi;
- pedagogik jarayonning tashkil qilinishini takomillashtirish va o‘qituvchi faoliyati samaradorligining monitoringini olib borish.

Yangi zamonaviy axborot texnologiyalari asosida o‘qituvchilarning pedagogik mahorati oshirish uchun:

- ta’limda texnologik asoslarning tez rivojlanishi bilan bog‘liq bo‘lgan yangi kurslarni yaratish;
- o‘quv kurslarini yaratish asosida o‘qituvchilarning ko‘nikma va malakalarini shakllantirish;
- masofaviy kurslarning ochiqligi tufayli ularning sifatiga bo‘lgan talablarning va o‘quv materiallari sifatini nazorat qilishga oid ehtiyojlarning qondirilishi;
- o‘quv jarayonida o‘quvchi faoliyatining ustuvor mavqe tutishini, o‘quv jarayoni salmog‘ining o‘qituvchidan o‘quvchiga ko‘chishini ta’minlash;
- yangi kommunikatsion texnologiyalardan foydalanish asosida, o‘qituvchining har bir o‘quvchi bilan teskari aloqasining vujudga kelishini amalga oshirish.

O‘zbekistonda ta’lim-tarbiya sohasini isloh qilishning asosiy omillaridan biri, bu ta’lim jarayonlariga zamonaviy axborot va kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish hisoblanadi.

Bunday vazifalarni bajarish “Kadrlar tayyorlash milliy modeli”ni amalga oshirishning bosqichlarida belgilab berilgan, uning kelajakdagi istiqboli Prezidentimiz tomonidan ilmiy asoslab berildi. Modelni amaliyotga tatbiq etish o‘quv jarayonini texnologiyalashtirish bilan uzviy bog‘liqdir. Ilmiy texnikaviy taraqqiyot ishlab chiqarishning ko‘p sonli tarmoqlari bilan bir qatorda ta’lim sohasiga ham zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etishni taqozo etmoqda. Shu bois, “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”da “o‘quv-tarbiyaviy jarayonni ilg‘or pedagogik va axborot texnologiyalari bilan ta’minlash“ zaruriyati e’tirof etildi, uning ikkinchi va uchinchi bosqichlarida bajariladigan jiddiy vazifalardan biri sifatida belgilandi.

Nima uchun bugungi kunda ta’limda axborot texnologiyalarini joriy etishning nazariy asosini yaratish va amaliyotga tatbiq etish zaruriyati paydo bo‘ldi?

Birinchidan, o‘qituvchini o‘quv jarayonining tashkilotchisi sifatida emas, balki bilimlarni egallash manbalaridan biriga aylanib qolayotganligini ta’kidlash mumkin.

Ikkinchidan, ilmiy-texnik taraqqiyotning rivojlanayotgan bosqichida axborotlarning keskin ortib borayotganligi va ulardan o‘qitish jarayonida foydalanish uchun vaqtning chegaralanganligi, shuningdek, o‘quvchilarni kasbiy faoliyatga mukammal tayyorlash talablari ta’lim tizimiga zamonaviy texnologiyalarni joriy etishni taqozo etmoqda.

Ta’lim tizimini isloh qilishning muhim yo‘nalishlaridan biri –axborot va telekommunikatsiya texnologiyalari bilan ta’lim jarayonini tizimli integratsiyalash va uni boshqarish hisoblanadi. Islohotlar jarayonida bosh vazifa qilib, o‘quv jarayonini tashkil etish, uning mazmunini tubdan yangilash, kompyuterlashgan muhitda o‘qituvchilarning pedagogik faoliyati va o‘quvchilarning bilim olish jarayonini tashkil etish bilan belgilanadi.

“Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”da kadrlar tayyorlash tizimini mukammallashtirishning asosiy yo‘nalishlaridan biri sifatida ta’lim tizimining yaxlit axborot makonini yaratish alohida ta’kidlab o‘tilgan. Unda ta’limning zamonaviy axborot texnologiyalari, kompyuterlashtirish va kompyuter tarmoqlari negizida rivojlanib borishi belgilangan.

Zamonaviy axborot texnologiyalarining ta’limni intensivlashtirish va optimallashtirish imkoniyatlari masofaviy malaka oshirishni tashkil etishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun umumiy o‘rta ta’lim maktablari, o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalari o‘qituvchi kadrlari malakasini oshirishdan asosiy maqsad o‘qituvchilarda zamonaviy axborot texnologiyalari imkoniyatlaridan foydalanib bilim, ko‘nikma va malakalarini hamda pedagogik mahoratlarini shakllantirishdir.

Bugungi kunda pedagogik ta’lim samaradorligini oshirish bilan bevosita aloqador bo‘lgan bir qator, hozirgacha yechimi topilmagan muammolar mavjud. Bu muammolar ta’lim sohasini axborotlashtirish, zamonaviy axborot texnologiyalari sohasida o‘qituvchi kadrlar tayyorlash, o‘qituvchilarning zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalardan foydalanish malakasining yetarli emasligi bilan bog‘liq.

Bu muammolarning muhim qirralaridan biri sifatida o‘qituvchilarning o‘zlarida ta’limni zamonaviy axborot texnologiyalari bilan jihozlashga bo‘lgan munosabatlarini ko‘rsatish mumkin. Shu narsani ta’kidlash joizki, axborotlashtirish sharoitida o‘qituvchining pedagogik mahorati hozirgi zamon talablari darajasida yanada oshadi.

Hozirgi kunda barcha ta’lim muassasalari zamonaviy kompyuter va telekommunikatsiya texnologiyalari asosida jihozlanmoqda. Bu, o‘z navbatida, o‘qituvchilarning o‘z texnologiya faoliyatlariga yangicha yondashuvlarini talab

etadi. O‘quv jarayonida yangi texnologiyalarni joriy etilishi, o‘qituvchini texnik vositalar tomonidan siqib chiqishga emas, balki uning vazifalari, rolini o‘zgartiradi, o‘qituvchilik faoliyatini yanada serqirra kasbga aylantiradi.

Kompyuter va zamonaviy axborot texnologiyalarining jadal sur’atda rivojlanishi endilikda hozirgi zamon o‘qituvchisining pedagogik mahorati naqadar serqirra ekanligini namoyon etmoqda. Hozirgi kunda zamonaviy o‘qituvchidan:

- o‘quv kurslari dizayneri – o‘quv kurslarining yaratuvchisi;
- fasiliteytor – o‘qitish metodlari bo‘yicha maslahatchi;
- tyutor–o‘quv kurslarini interfaol taqdim etish bo‘yicha mutaxassis;

invigilator – ta’lim natijalarini nazorat qilish usullari bo‘yicha mutaxassis bo‘lishni talab etmoqda.

Zamonaviy texnologiyalar, masofaviy oliy pedagogik ta’limni yangicha tashkil qilinishiga zamin yaratadi. Bunday ta’limda o‘qituvchilar, kompyuter dasturchilari va mutaxassislari yordamida o‘qituvchilarning yangicha malaka oshirish kurslarini tashkil etish talab qilinadi. Masofaviy o‘qitish kurslarini yaratishda dastlab:

- kurslarning maqsadi;
- maqsadga erishish yo‘llari;
- o‘quv materiallarini taqdim etish usullari;
- o‘qitish metodlari;
- o‘quv topshiriqlarining turlari;
- muhokamalar uchun savollar;
- munozara va bahslarni tashkil etish yo‘llari;
- o‘zaro aloqa usullari va kommunikatsiya singari omillarni aniqlash lozim.

O‘qituvchi kadrlar pedagogik mahoratlarini oshirish maqsadida masofaviy malaka oshirishlari nuqtai nazaridan kelib chiqib, tinglovchilarda zamonaviy axborot texnologiyalari imkoniyatlaridan foydalana olish bilim, ko‘nikma va malakalarini shakllantirishga qaratilgan. “Ta’limda axborot texnologiyalari” kursi U.Sh.Begimqulov tomonidan taklif etilgan hamda mazmun va me’yor jihatidan mukammal ishlab chiqilgan bo‘lib, o‘qituvchilarning pedagogik mahoratlarini hozirgi zamon talablari asosida takomillashtiradi.

Shuningdek, kursning maqsadi – o‘qituvchilarda zamonaviy axborot texnologiyalari, kasbiy faoliyat va axborot jamiyati uchun zarur bo‘lgan texnik vositalar va dasturiy ta’minot borasidagi bilim, ko‘nikma va malakalar shakllantiriladi, zamonaviy axborot texnologiyalarini ta’lim jarayonida, shuningdek, kasbiy faoliyatlarida har qanday muammolarni yechishda qo‘llashni o‘rganadilar. Dastlab o‘qituvchilar boshlang‘ich tayyorgarlik darajasida quyidagi talablarni o‘zlashtiradilar:

matn muharririning asosiy obyektlari va ular ustida bajarilishi mumkin bo‘lgan amallarni bilishi;

matnni tahrirlash va formatlash uchun matn muharririni qo‘llay olishi;

grafik axborotlarni taqdim etishning rastr va vektor usullarini o‘rinli qo‘llay olishi;

grafik muharrirning asosiy obyektlari va ular ustida bajarilishi mumkin bo‘lgan amallarni bilishi;

tasvirni yaratish va tahrirlash uchun grafik muharrirni qo‘llay olishi;

elektron jadvallarning imkoniyat va vazifalarini tushungan holda ishlata olishi;

diagrammalar yaratishni bilishi;

elektron jadvallarni masalalar yechishda qo‘llashi;

ma’lumotlar bazasining imkoniyati va vazifalarini tavsiflashi;

ma’lumotlar bazasining turlarini tavsiflashi;

ma’lumotlar bazasining asosiy obyektlari va ular ustida bajarilishi mumkin bo‘lgan amallarni bilishi;

oddiy ma’lumotlar bazasini yarata olishi;

yozuvlarni saralash va qidirishni amalga oshirishi.

Kursning modul tuzilishini quyidagilardan iborat etib belgilash mumkin:

1-modul. Ta’limda axborot va kommunikatsiya texnologiyalari.

2-modul. Pedagogik dasturiy vositalar.

3-modul. Elektron o‘quv materiallarini yaratish texnologiyalari.

4-modul. O‘qitishning zamonaviy texnik vositalari.

Bunda o‘qituvchilar o‘z pedagogik mahoratlarini quyidagi modullar mazmunini o‘zlashtirgan holda boyitib boradilar:

1. Ta’limda axborot va kommunikatsiya texnologiyalari. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari haqida tushuncha, axborot va kommunikatsiya texnologiyalari vositalari, ularni ta’lim jarayonida qo‘llash imkoniyatlari, shaxsning ta’lim-tarbiyasi va rivojlanishida zamonaviy axborot texnologiyalari va pedagogik dasturiy vositalar, axborot va kommunikatsiya texnologiyalari vositalarini yaratish, ularni o‘quv-tarbiya jarayonida qo‘llashning didaktik asoslari, o‘quv maqsadli elektron vositalarni yaratish va foydalanishdagi pedagogik-ergonomik talablar va ularning sifatini baholash, o‘quv-tarbiya jarayonining axborot-metodik ta’minotini va ta’lim muassasalari tashkiliy-boshqaruv tizimini avtomatlashtirish va uning istiqbollari, elektron-o‘quv materiallari bazasining tuzilmasi va tarkibi, ta’limiy internet resurslar va ulardan o‘quv jarayonida foydalanish, elektron o‘quv-metodik materiallar majmuasi, uning tuzilmasi va tarkibi, axborot va kommunikatsiya texnologiyalari vositalaridan ta’limiy maqsadlarda samarali va qulay foydalanishning pedagogik-ergonomik shart sharoitlari, informatika va axborot texnologiyalari xonasiga qo‘yiladigan talablar va unda ta’lim jarayonini tashkil etishning metodik jihatlari, axborot va kommunikatsiya texnologiyalari vositalaridan ta’lim jarayonida foydalanishning istiqbolli yo‘nalishlari va kelajagi.

2. Pedagogik dasturiy vositalar. Asosiy tushunchalar: pedagogik dasturiy vositalarning umumiy ta’rifi, namoyish yetuvchi dasturlar, nazorat qiluvchi dasturlar, o‘rgatuvchi dasturlar, dasturiy vositalarning didaktik imkoniyatlari, ekspert-o‘rgatuvchi tizimlar, avtomatlashtirilgan o‘rgatuvchi tizimlar, foydalanuvchi va pedagogik-dasturiy vositalarning o‘zaro hamkorligini tashkil etish metodlari. Pedagogik-dasturiy vositalar yaratish tamoyillari: talabalarning psixofiziologik xususiyatlarini va kompyuterning texnik imkoniyatlarini hisobga olish, o‘qitish strategiyasining ustuvorligi; pedagogik, psixologik va funksional to‘lalik, motivatsiyali faollashtirishning ta’minlanganligi, qo‘llashdagi universallik va modul tuzilishga egalik. Pedagogik-dasturiy vositalar ssenariyasini yaratish texnologiyasi: foydalanish maqsadini aniqlash, o‘quv materiallarini tahlil qilish va tanlash, uni strukturalash va formallashtirish, pedagogik ssenariyni taqdim etish. Pedagogik-dasturiy vositalar asosida o‘quv faoliyatini boshqarish. Dasturlash tillarida pedagogik-dasturiy vositalar yaratish texnologiyasi. Avtomatlashgan o‘rgatuvchi tizimlar. O‘qitish uchun axborot resurslarining integratsiyasi: didaktik vositalarning uyg‘unligi, an’anaviy va pedagogik-dasturiy vositalardan kompleks foydalanish. Pedagogik-dasturiy vositalarni yaratishning texnik vositalari. “Lektor” tizimi va undan pedagogik-dasturiy vositalarni yaratishda foydalanish. Pedagogik-dasturiy vositalar bo‘yicha praktikum.

3. Elektron o‘quv materiallarini yaratish texnologiyalari. Elektron o‘quv materiallari va ularning turlari: elektron darslik, elektron o‘quv qo‘llanmasi, elektron ma’lumotnoma, elektron majmua, elektron katalog va boshqalar. Elektron o‘quv materiallarini yaratish bosqichlari va texnologiyasi; elektron o‘quv materiallarini yaratish prinsiplari asosida elektron o‘quv materiallarini yaratish. Zamonaviy dasturlash tillari asosida elektron o‘quv materiallarini yaratish (Delphi, Visual Basic, C++ va boshqalar). PowerPoint va FrontPage muhitida ilovalar yaratish. Hypermethod muhitida multimediali ilovalar va elektron o‘quv materiallarini yaratish. O‘quv materiallariga ovoz berish texnologiyasi va uning vositalari.

4. O‘qitishning zamonaviy texnik vositalari. Audiovizual axborot: manbalari, o‘zgartiruvchilar, tashuvchilari. Audiovizual madaniyat: tarixi, kons epsiyalari, tuzilmasi, faoliyat ko‘rsatishi. Inson tomonidan audiovizual axborotni qabul qilishning psixofiziologik asoslari. Audiovizual texnologiyalar: rasm va rasmga olish, optik proeksiya (statik va dinamik) va uning vositalari, tovush yozish (analogli va raqamli) va uning vositalari, televideniye va videoyozuv (analogli va raqamli) va uning vositalari, kompyuterlar va multimediali vositalar. O‘qitishning audiovizual texnologiyalari: tele va videokonferens iyalar, ularni tashkil etish, audio, video va kompyuterli o‘quv qo‘llanmalari, audio, video va kompyuterli materiallarning banki, audio, video va kompyuterli o‘quv qo‘llanmalarini yaratishning didaktik prins iplari. O‘qitishning interaktiv texnologiyalari.

Mazkur kurs yakunida o‘qituvchilar zamonaviy axborot texnologiyalarini ta’lim va tarbiya jarayonida qo‘llay olish bo‘yicha pedagogik mahoratlarini oshiradilar, bilim, ko‘nikma va malakalarga ega bo‘ladilar.

O‘qituvchilar masofaviy o‘qitish kurslarini yaratishda ta’lim oluvchilar motivatsiyasi, o‘quv maqsadlarining qo‘yilishi, o‘quv materiallarini qabul qilishga sharoitlar yaratish, o‘quv materiallarini yetkazish, teskari aloqa, baholash kabi talablarni inobatga olishlari zarur.

Taklif etilayotgan “Ta’limda axborot texnologiyalari” kursini malaka oshirish tizimida joriy etilishi o‘qituvchi kadrlarning innovatsion bilimlarni egallashlarida muhim ahamiyat kasb etadi.

Mamlakatimizda ta’lim sohasida olib borilayotgan islohotlardan mo‘ljallangan vazifalarni amalga oshirish zamonaviy axborot texnologiyalaridan keng foydalanishni hamda o‘quvchilarda omilkorlikni shakllantirish maqsadida internet – resurslardan keng foydalanishni ko‘zda tutadi, bu esa o‘z navbatida o‘qituvchi kasbiy madaniyatining bir qismi va umumta’lim maktablarida ta’lim muhitini tegishli o‘zgarishi sifatida o‘qituvchilarning yuqori saviyadagi axborot madaniyatiga ega bo‘lishini ko‘zda tutadi.

Ma’lumki, axborot eskirishi, ayniqsa, shiddat bilan eskirish xususiyatiga ega, demak, o‘qituvchi uzluksiz ta’lim olishi, ijod qilishi (mustaqil va maxsus tashkil etilgan) zarur.

Ta’limni modernizatsiyalash sharoitida uzluksiz pedagogik ta’lim tizimida o‘qituvchi kadrlarni tayyorlashga qo‘yiladigan talablar ortib bormoqda.

O‘qituvchi zamonaviy axborot texnologiyalari asosida o‘z–o‘zini tako-millashtirishida masofaviy kurslar bebaho yordam ko‘rsatadi. Internet orqali tayyorgarlik mavzusini tanlash, vaqtni tejash, o‘qitish samaradorligini oshirish imkoniyatini beradi. O‘zini, o‘z tajribasini ochib berish qobiliyati o‘qituvchi axborot madaniyatining muhim jihati hisoblanadi.

Ba’zan o‘qituvchilar ma’muriyatning ishchi dasturlarni, ish yuzasidan hisobotlarini, ish yuritishning zamonaviy talablaridan kelib chiqib kompyuterda rasmiylashtirishni talab qilishini to‘g‘ri qabul qilmaydilar. Biroq, hujjatlarni ham texnik, ham dasturiy zamonaviy vositalardan foydalanib tayyorlashning ko‘nikma va malakalari aniqrog‘i, istagi o‘qituvchiga innovatsiyalarga tayyor turadigan mahoratli o‘qituvchi sifatida tavsifnoma beradi.

O‘quv faoliyatini diagnostika va monitoring qilish ishlarida kompyuterdan foydalanish shuningdek, o‘qituvchining axborot kommunikatsion texnologiyalarni bilish saviyasini tavsiflaydi. Kompyuterdan foydalanishda o‘quvchilarning hamda o‘qituvchining sog‘lig‘ini saqlash me’yorlariga rioya qilish o‘qituvchi axborot madaniyatining ajralmas qismidir.

Xulosa qilib shuni ta’kidlash kerakki, yangi axborot texnologiyalarining tatbiq

qilinishi o‘qitishning an’anaviy texnologiyalarini inkor qilmaydi.

Kompyuter vositalari va axborot texnologiyalari didaktik jarayonga ulkan ta’sir ko‘rsatadi, uning faolligini muntazam oshirib boradi, biroq shu bilan birga o‘quv jarayonida axborot–kompyuter vositalaridan foydalanishda pedagogik maqsadga muvofiqlik prinsipiga amal qilish talab etiladi.

Mavzuni o‘zlashtirish uchun savollar

1. Ta’lim jarayoniga axborot texnologiyalarini joriy etish to‘g‘risida qanday Qarorlar qabul qilingan?
2. Pedagogik ta’limda zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanishning samaralari va imkoniyatlari?
3. O‘qituvchilarning pedagogik faoliyatida axborot texnologiyalaridan foydalanishning ahamiyatini ta’riflang?

Foydalanilgan asosiy adabiyotlar:

1. R.Ishmuhamedov, A.Abduqodirov, A.Pardayev. Tarbiyada innavatsion texnologiyalar T. 2010.
2. R.A.Mavlonova, M.T. Satbayeva. Mehnat o‘qitish metodikasi. O‘quv qo‘llanma T. 2012-y.
3. D.Hoshimova, Sh.Maxmudova. Mehnat muhofazasi fanidan ma’ruzalar matni.T.2012.

14-MAVZU: INTERFAOL USULLARNI TEXNOLOGIYA DARSLARIDA FOYDALANISH USULLARI

Reja:

1. Tabaqalashtirilgan darajadagi texnologiyalar.
2. Individual ta’lim texnologiyasi.
3. Axborot texnologiyalari: ta’limiy va nazorat qiluvchi dasturlar.

Tayanch so‘z va iboralar: o‘quv jarayoni, o‘qitishni tabaqalashtirish, gipoteza, Batov tizimi, Tramp rejasi, tarmoqlangan dasturlar.

Tabaqalashtirilgan darajadagi texnologiya. G.K.Selevko tadqiqotlarida o‘qitishni tabaqalashtirish o‘quv jarayonini tashkil etish shakli sifatida izohlanadi, o‘zida bilim darajasi bir xil bo‘lgan, u yoki bu jihatdan o‘quv jarayonida umumiy sifatlarga ega bo‘lgan o‘quvchilar guruhi bilan o‘qituvchi ishlaydi. O‘qitishni tabaqalashtirish o‘quv jarayonidagi ta’lim oluvchilarning turli guruhlarini ixtisoslashtirilishini ta’minlaydigan umumiy didaktikaning bir qismi sifatida ham belgilanadi. O‘qitish tizimining qurama texnologiyasi (N.P.Guzik). “O‘qitish tizimining qurama texnologiyasi” saviyasiga va darslarda mavzu bo‘yicha

davriylikni rivojlantirishga ko‘ra sinf ichidagi o‘qitishning tabaqalashtirilishi deb qaraladi. Darslar har bir mavzu bo‘yicha ketma-ket joylashgan besh tipdan iborat bo‘ladi:

1) mavzuni umumiy tahlil qiluvchi darslar (ular ma’ruzalar deb yuritiladi);

2) ta’lim oluvchilarning mustaqil ishlari jarayonida o‘quv materialining chuqurlashtirib ishlab chiqishini ko‘zda tutgan, tuzilgan seminar mashg‘ulotlari (bunday darslar uchtadan beshtagacha bo‘lishi mumkin);

3) bilimlarni umumlashtirish va tartibga tushirish (guruhlash) darslari (mavzular bo‘yicha sinovlar);

4) fanlararo materiallarni umumlashtirish (mavzular bo‘yicha vazifalarni himoya qilish);

5) dars-praktikumlar.

Keyingi bosqichda o‘qituvchi o‘quvchilarning saviyalariga ko‘ra tabaqalashtirish ishlarini tashkil etadi. Bu ish yangi materialni berish, uni mustahkamlash va takrorlash, bilim, malaka va ko‘nikmalami nazorat qilish orqali amalga oshiriladi. Bu texnologiyada uchta tabaqalashtirishning turli darajadagi qiyinchiliklari: “A”, “V” , “ S” dasturlari ajralib turadi.

Dasturlar quyidagi vazifalami hal qiladi:

• muayyan darajadagi bilim, malaka va ko‘nikmalarni egallashni ta’minlaydi;

• ta’lim oluvchilarning ta’lim darajadagi mustaqilligini ta’minlaydi;

“S” dasturi tayanch standart sifatida qayd qilinadi. Uni bajarish orqali ta’lim oluvchilar fan bo‘yicha o‘quv materialini, uni qayta tiklay olish darajasida o‘zlashtiradilar. “S” dasturi vazifalarini nisbatan qiyin dasturga o‘tmasdan oldin har bir o ‘quvchi bajara olishi lozim.

“V” dasturi mavzuni qo‘llash bilan bog‘liq masalalarni yechish uchun zarur bo‘lgan o ‘quv va aqliy faoliyatining umumiy va o‘ziga xos usullari bilan birga egallashni ta’minlaydi. Ushbu dasturga kiritiladigan qo‘shimcha ma’lumotlar birinchi bosqich materiallarini kengaytiradi, asosiy bilimlarni isbotlaydi, namoyish etadi va oydinlashtiradi hamda tushunchalarning amal qilish va qo‘llanishini ko‘rsatib turadi.

“A” dasturi o‘quvchilarning bilimlarini to‘la anglash, ijodiy qo‘llash darajasiga ko‘taradi. Bu dasturda ijodiy qo‘llash istiqboli tobora takomillashib boruvchi ma’lumotlar, chuqurlashtiriladigan materiallar, hamda uning mantiqiy asoslanganligi joylashtirilgan. Materiallarni takrorlashda turli darajadagi vazifalami erkin tiklash metodikasi qo‘llanadi. Tabaqalashtirilgan vazifalarni nazorat qilishda individuallikka o‘tiladi va u chuqurlashtiriladi.

O‘quv jarayonini samarali boshqarish va tashkil etish asosiga qurilgan pedagogik texnologiyalar.

G.K.Selevko pedagogik texnologiyani rejalashtiriladigan natijalar bilan birga

boshqariladigan tizim deb ta’riflaydi.

Texnologik jarayon tuzilmasini axborotlarning uch asosiy harakat yo‘nalishi bilan tavsiya etiladi.

G.K.Selevko uch shahobchani belgilaydi:[1]

1. Asosiy shahobcha – mazmunning harakati bo‘lib, u axborotning manba (o‘qituvchi)dan qabul qiluvchi (talaba)ga uzatish (o‘quvchilar e’tiboriga uzatish, o‘quv-bilish faoliyatiga rahbarlik qilish, o‘quvchilar tomonidan bilimlarni idrok etish, o‘zlashtirish va mustahkamlash). Unda axborotlarni qo‘shimcha boshqarish manbalari – kitoblar, texnik vositalar, kompyuterlar va o‘quvchi tomonidan ularni mustaqil idrok etish (o‘z-o‘zini boshqarish jarayoni) muhim holat hisoblanadi.

2. Boshqarishga ta’sir o‘tkazish shahobchasi. U o‘z ichiga rejalashtirishni (strategik va taktik), ta’limiy axborotlarning asosiy psixologik harakati korreksiyasini qamrab oladi.

3. Jarayonlar haqidagi (qayta bog‘lanish, nazorat, baholash, qo‘shimcha axborotlar shahobchasi) axborotlar o‘qituvchidan o‘quvchiga uzatilish shahobchasi.

O‘quv jarayonining samaradorligi:

• o‘quv axborotlari mazmunining eng maqbul tuzilmasi;

• boshqarish samaradorligi va bilish faoliyatini tashkil etish;

• axborotlarni o‘zlashtirishda individual o‘z-o‘zini boshqarish imkoniyatlaridan foydalanish;

• axborotlarni o‘zlashtirishning samarali nazoratini tashkil etishga bog‘liq.

Tayanch sxemalar izohidan foydalangan holda istiqbolli o‘qitishni boshqarish S.N.Lisenkova texnologiyasi. Bu texnologiya asosida quyidagilar yotadi:

• hamkorlik pedagogikasiga bo‘lgan shaxsiy yondashuv;

• o‘zlashtirish (muvaffaqiyat) - o‘qitish jarayonida bolalar rivojlanishining eng muhim sharti;

• sinfdagi fayz: xayrixohlik, o‘zaro yordam;

• xatolaridan ogoh qilish, lekin xatolar ustida ishlash emas;

• o‘quv materialining ketma-ketligi, izchilligi;

• vazifaning har bir o‘quvchiga qulayligi va ularga alohida-alohida bo‘lib berilishi;

• asta-sekin to‘liq mustaqillikka o‘tish;

• bilag‘on o‘quvchi vositasida bilmaydigan o‘quvchilarni o‘qitish.

S.N.Lisenkova metodikasining xususiyati shundaki, qiyin mavzular dasturda belgilangan soatlarda emas, balki undan oldin o‘rganila boshlanadi. Bu istiqbolli tayyorgarlikdir.

Istiqbolli tayyorgarlik o‘rganilishi yaqinlashib kelayotgan qiyin mavzularni

[1] https://pdoshka.ru/en/wall/selevko-pedagogicheskie-tehnologii-chitat-onlain-selevko-g-k/

yo‘l-yo‘lakay o‘tishning boshlanishidir.

Umumlashtirish bu muayyan bilimlar asosidagi mavzuni umumlashtirishdir.

S.N.Lisenkova metodikasi asosida materialni o‘zlashtirish uch bosqichda kechadi:

1. Kelgusida o‘zlashtirilishi lozim bo‘lgan bilimlarni oldindan kichik hajmlarda berib borish;

2. Yangi tushunchalami aniqlashtirish, ulami umumlashtirish va qo‘llash;

3. Fikrlash usullari va o‘quv xatti-harakatlarining ravonligini rivojlantirish.

Individual ta’lim texnologiyasi. Inge Unt, A.S.Graniskaya, V.D.Shadrikov tadqiqotlarida individual o‘qitish o‘quv jarayonini tashkil etish shakli, modeli sifatida belgilanadi.

Unda:

• pedagog faqat birgina talaba bilan o‘zaro munosabatda bo‘ladi;

• bir talaba faqat o‘qitish vositalari (kitoblar, komyuter va b.) bilan o‘zaro aloqada bo‘ladi.

Individual o‘qitishda faoliyatning mazmuni, metodlari va sur’ati talabaning xususiyatlariga moslashtiriladi.

Shaxsiy yondashish deganda:

• u pedagogikaning tamoyili bo‘lib, unga ko‘ra pedagog o‘quv-tarbiya ishlari jarayonida talabalaming shaxsiy xislatlarini hisobga olgan holda ayrim talabalar bilan individual model bo‘yicha o‘zaro munosabatda bo‘lish hamda individual xususiyatlarga asoslanish;

• o‘quv jarayonida talabalarning individual xususiyatini hisobga olish;

• barcha talabalaming rivojlanishigina emas, balki har bir talabaga alohida rivojlanish uchun psixologik - pedagogik tadbirlar yaratish tushuniladi.

O‘qitishni individuallashtirish:

• o‘quv jarayonini tashkil etish bo‘lib, unda o‘qitish usullari, sur’atini tanlash talabaning individual xususiyatlari bilan bogilanadi;

• individual yondashuvni ta’minlovchi turli o‘quv-metodik, psixologik-pedagogik va tashkiliy-ma’muriy tadbirlardir.

Shunday qilib, didaktika bo‘yicha amalga oshirilgan tadqiqotlarga ko‘ra o‘qitishni individuallashtirish o‘quv jarayonining shunday tashkil qilinishiki, unda individual yondashuv va individual shakl ustuvor hisoblanadi.

O‘qitishni individuallashtirish quyidagi mualliflik texnologiyalarida asoslab berildi:

- Inge Untning o‘qitishni individuallashtirish texnologiyasi;
- A.S.Gransikayaning moslashuvchan o‘qitish texnologiyasi;
- V.D.Shadrikovning individuallikka qaratilgan reja asosida o‘qitish texnologiyasi.

Inge Untning o‘qitishni individuallashtirish texnologiyasidagi asosiy konsepsiya hozirgi sharoitda o‘qitishni individuallashtirishning muhim shakli o‘quvchilaming maktabdagi va uydagi mustaqil ishlari deb qoidalashtirilgan. Inge Unt uning mazmuni va metodikasi deb mustaqil ishlar uchun individual o‘quv vazifalari, joriy o‘quv adabiyotiga moslashtirilgan, individuallashtirilgan mustaqil ishlar qo‘llanmasi asosida nashr etilgan ish daftarlarini tushunadi.

A.S.Graniskaya o‘zining moslashuvchan o‘qitish tizimini sinf-dars tizimida tashkil etish va unda o‘qituvchi 60-80% vaqtini o‘quvchilar bilan individual ishlashga ajratish mumkinligini qayd qiladi. A.S.Graniskaya metodikasining o‘ziga xosligi uning darsni muayyan g‘ayriodatiy qurilma asosida tashkil etishidir:

• Birinchi qism - barchani o‘qitish;

• Ikkinchi qism - ikki parallel jarayon: o‘quvchilaming mustaqil ishlari va o‘qituvchining ayrim o‘quvchilar bilan individual ishlashi, ya’ni umumlashtirilgan sxemalardan foydalanish, almashinib turuvchi juft o‘qituvchi bo‘lib ishlash, moslashuvchan ko‘p qirrali vazifalar va b.

V.D.Shadrikov gipotezasiga ko‘ra agar bolaga murakkablashib boruvchi vazifalaming tafsiloti berilsa, unga o‘rganish jarayonini motivatsiyalash taklif etilsa, lekin bolaga shu bugun uning uchun mumkin va qulay ishlash imkoniyati qoldirilsa, o‘quvchilar qobiliyati samarali rivojlanadi deb hisoblanadi. V.D.Shadrikov metodikasi asosini har bir o‘quvchining qobiliyatiga qarab o‘qitishga imkon beradigan olti darajadagi o‘quv rejasi, dastur va metodik qo‘llanma tashkil etadi. Har bir fanning murakkablik darajasiga ko‘ra kuchi yetgan variantni tanlab olib, o‘quvchilar sinfda tez-tez almashib turadi va fanning hajmi va mazmunini qo‘ldan chiqarmay birgalikda o‘quv dasturini o‘zlashtirishga harakat qiladilar. Murakkablik darajasini tanlash tezlikda amalga oshiriladi va “ba’zan” uni amalga oshirib bo‘lmaydi. Chunki u sinfdagi o‘quvchilarning tenglashish, qobiliyati holatiga bog‘liq bo‘ladi. Murakkablikning olti darajasi amalda barcha bolalarga e’tibor berishga, barchaning kuchi etadigan hamda o‘quvchining qobiliyatiga, uning rivojlanishiga moslangan, o‘quv jarayonini tashkil etishga imkon beradi.

Bu o‘qitishni individuallashtirish mualliflik texnologiyasi negizida umumiy tamoyillar mavjud:

individuallashtirish o‘qitish jarayoni strategiyasidir;

individuallashtirish – individuallikni shakllantirishning zaruriy omili;

barcha o‘rganiladigan fanlarda individuallashtirilgan o‘qitishdan foydalanishning mumkinligi;

individual ishlarni o‘quv faoliyatining boshqa shakllari bilan integratsiyalash;

individual sur’atda, uslubda o‘rganish.

Individuallashtirish texnologiyasining umumiy xususiyatlariga quyidagilar kiradi;

o‘zlashtira olmaslikka olib keluvchi omillami qayd qilish;

fikrlash jarayonida bilim, malaka, ko‘nikmalarni egallash asnosida individual kamchiliklami tuzata olish usullari;

oila tarbiyasidagi motivatsiyaning bo‘linmasligi hamda iroda sustligi kamchiliklarini qayd qilish va yenga olish;

qobiliyatli va iste’dodli o‘quvchilarga nisbatan o‘quv jarayonini optimallashtirish (ijodiy faoliyat, sinf va sinfdan tashqari ishlami hisobga olish);

o‘qitish jarayonini tanlash erkinligini berish;

umumiy o‘quv malakalari va ko‘nikmalarini shakllantirish;

o‘quvchilarning o‘z-o‘ziga mos baho bera olishini shakllantirish;

o‘qitishning texnik vositalaridan, shuningdek, EHMdan foydalanish.

O‘qitishni individuallashtirish texnologiyasiga quyidagilar kiradi:

Batov tizimi. AQSHda ishlab chiqilgan bu tizimda o‘quv jarayoni ikki qismga bo‘linadi:

Birinchi qism - butunicha sinf ishi.

Ikkinchi qism- individual mashg‘ulotlar.

Bunday mashg‘ulotlar unga zaruriyat sezgan o‘quvchilar bilan yo umum tomonidan qabul qilingan me’yorlardan orqada qolmaslik yoki nisbatan rivojlangan qobiliyatlari bilan ajralib turganlar bilan bir qatorda bo‘lishini ta’minlash maqsadida o‘tkaziladi.

Yuqori qobiliyatli kategoriya o‘quvchilar bilan o‘qituvchi, nisbatan kamroq qobiliyatli va qoloq o‘quvchilar bilan o‘qituvchi yordamchisi shug‘ulanadi.

Tramp rejasi – bu texnologiya AQSHda juda mashhur. Bu o‘qitish shakllarining shunday tizimiki, unda katta auditoriyadagi mashg‘ulotlar kichik guruhlardagi individual mashg‘ulotlar bilan qo‘shib olib boriladi. Zamonaviy texnik vositalar yordamida 100-150 kishidan iborat katta guruhlarda yuksak malakali o‘qituvchilar, professorlar ma’ruza o‘qiydilar. 10- 15 kishidan iborat kichik guruhlar esa ma’ruza materiallarini muhokama qiladilar, bahs yuritadilar. Individual ishlar esa maktab kabinetlarida, laboratoriyalarida o‘tkaziladi. Ma’ruza mashg‘ulotlariga 40%, kichik guruhlardagi mashg‘ulotlarga 20%, kabinet va laboratoriyalardagi individual ishlarga esa 40% ajratiladi. Odatdagi sinf tushunchasi yo‘q, kichik guruhlar ham doimiy emas.

Dasturlashtirilgan o‘qitish texnologiyasi. Dasturlashtirilgan o‘qitish XX asrning 50-yillari boshida paydo bo‘ldi. U amerikalik psixolog B.Skinner nomi bilan bog‘liq. U materiallaming o‘zlashtirilishini boshqarishning samaradorligini oshirishda, axborotlarni qismma-qism uzatishning muntazam programmasi asosiga qurish va uni nazorat qilishni tavsiya etdi.

N.Krauder tarmoqlangan dasturni ishlab chiqdi, unda nazorat natijalariga ko‘ra ta’lim oluvchilarga mustaqil ishlar uchun turli xildagi materiallar tavsiya etiladi.

G.K.Selevko dasturlashtirilgan o‘qitishga quyidagi ta’rifni beradi, ya’ni dasturlashtirilgan o‘qitish deganda o‘qitish uskunalari (EHM, dasturlashtirilgan darslik, kinotrenajer va b.) yordamida dasturlashtirilgan o‘quv materialining o‘zlashtirilishini boshqarishni tushunadi. Dasturlashtirilgan o‘quv materiali muayyan mantiqiy izchillikda beriladigan nisbatan katta bo‘lmagan o‘quv axborotlari (“kadrlar”, “fayllar”, “odimlar”) seriyasidan iborat bo‘ladi.

V.P.Bespalko bilish faoliyatini tashkil etish va boshqarish namunasidagi pedagogik texnologiya tasnifini tavsiya etdi. U o‘qituvchi va ta’lim oluvchi (boshqariluvchi) munosabatlarini quyidagicha belgilaydi:

- berk (o‘quvchilarning nazorat qilinmaydigan va tuzatilmaydigan faoliyati);
- davriy (nazorat, o‘z-o‘zini nazorat qilish, o‘zaro nazorat);
- tarqoq - (frontal) yoki yo‘nalganlik (individuallik);
- qo‘l (og‘zaki) yoki avtomatlar (o‘quv vositalari) orqali.

V.P.Bespalko texnologiyasi turlari:

- klassik ma’ruza metodida o‘qitish (boshqarish-berk, tarqoq, qo‘lda);
- audiovizual texnik vositalarda o‘qtish (berk, tarqoq, avtomatlashtirilgan);
- konsultant (maslahatchilar) tizimi (berk, yo‘naltirilgan, qo‘lda);
- o‘quv adabiyotlari yordamida o‘qitish (avtomatlashtirilgan) - mustaqil ish;
- “kichik guruhlar” tizimi (davriy, tarqoq, qo‘lda) - o‘qitishning tabaqalashtirilgan usuli;
- kompyuter o‘qitishlari (davriy, tarqoq, avtomatlashtirilgan)
- “repetitor” tizim (davriy, yo‘naltirilgan, qo‘lda) – individual o‘qitish;
- “dasturlashtirilgan o‘qitish” (davriy, yo‘naltirilgan, avtomatlashtirilgan) ular uchun oldindan programmalar tuzib qo‘yiladi.

Dasturlashtirilgan o‘qitishning besh asosiy tamoyili farqlanadi:

Boshqarish qurilmalarining muayyan bosqichligi (iyerarxiya) tamoyili.

Bu dasturlashtirilgan o‘qitish texnologiyalarining iyerarxiya tuzilmasida, avvalambor, pedagog turadi va bu fanda dastlabki umumiy mo‘ljal hisoblanadi; o‘qitishning murakkab nostandart vaziyatlarida individual yordam va korreksiya o‘rin oladi.

Qayta aloqa tamoyili. U o‘quv faoliyatining har bir tadbiri bo‘yicha o‘quv jarayonini boshqarishni davriy tashkil etish tizimini talab qiladi. Bunda avvalo to‘g‘ri aloqa o‘rnatiladi. Zaruriy harakat obrazi to‘g‘risidagi axborot boshqaruvchi obyektdan boshqariluvchiga uzatiladi. Qayta aloqa V.P.Bespalko ta’kidlashicha, pedagog uchungina emas, balki ta’lim oluvchiga ham zarur; birinchisiga korreksiya uchun, ikkinchisiga esa o‘quv materialini tushunish uchun.

Ichki va tashqi qayta aloqa ham mavjud. Ichki qayta aloqa ta’lim oluvchilarning o‘z natijalarini va o‘zining aqliy faoliyati xarakterini mustaqil korreksiya qilish uchun xizmat qiladi.

Tashqi qayta aloqa ta’lim oluvchiga bevosita o‘quv jarayonini boshqaruvchi qurilmalar vositasida yoki pedagog tomonidan ta’sir etishda amalga oshiriladi.

3. O‘quv materialini yoritish va uzatishda amalga oshiriladigan odimlovchi texnologik jarayon tamoyili. Odimlovchi o‘quv tadbiri – bu texnologik usul bo‘lib, unda o‘quv materiali dasturda axborot bo‘laklari va o‘quv vazifalari (bilim va malakalar)ni samarali o‘zlashtirishni ta’minlashga xizmat qiladigan va ta’lim oluvchining bilimlarini o‘zlashtirishning muayyan nazariyasini aks ettirganining kengligi bo‘yicha alohida, mustaqil, lekin o‘zaro bog‘langan va optimal bo‘lgan qismlardan iboratdir.

To‘g‘ridan-to‘g‘ri va qayta aloqa uchun zarur bo‘lgan axborotlar to‘plami bilish harakatlari va qoidalarining ta’limiy dastur odimini hosil qiladi Bu odim tarkibiga uch o‘zaro aloqador kadr qo‘shiladi: axborot, qayta aloqa tadbiri va nazorat. Odimlovchi o‘quv tadbirlari izchilligi dasturlashtirilgan o‘qitish texnologiyasi asosini tashkil etuvchi ta’limiy dastur hosil qiladi.

4. O‘qitishda individual namuna va boshqarish tamoyili davom ettiriladi. Bu tamoyil ta’lim oluvchining har biriga shunday axborot jarayonini yo‘naltiradi va tavsiya etadiki, u ta ‘lim oluvchiga mashq jarayonida, tezlikda oldinga siljishga imkoniyat beradi, chunki uning bilish kuchi unga muvofiq ravishda boshqaruvchi tomonidan uzatilgan axborotga, moslashishga qulay bo‘ladi.

5. Dasturlashtirilgan o‘quv materialini uzatish uchun maxsus texnik vositalardan foydalanish tamoyili. dasturlashtirilgan o‘qitish texnologiyasini ilmiy asoslash bir qator ta’limiy programmalarni farqlash imkoniyatini beradi:

- ravon dasturlar;
- tarmoqlanuvchi dasturlar;
- soddalashtirilgan dasturlar;
- aralash dasturlar;
- algoritim;
- blokli o‘qitish;
- modulli o‘qitish;
- bilimlarni to‘la o‘zlashtirish;

Ravon dasturlar – bu nazorat topshiriqlari va o‘quv axborotlarining almashinib turuvchi u qadar katta bo‘lmagan bloklar ketma-ketligidir.

Ravon dasturlarda ta’lim oluvchi to‘g‘ri javob berishi shart. Ba’zan ehtimol deb topilgan javoblardan birini shunchaki tanlaydi. To‘g‘ri topilgan javobda u yangi o‘quv axborotiga ega bo‘ladi. Agar javob to‘g‘ri chiqmasa, axborotni qaytadan o‘rganishga tavsiya etiladi.

Tarmoqlanuvchi dasturlar. Ta’lim oluvchi noto‘g‘ri javob berganda, unga qo‘shimcha o‘quv axboroti beriladi va u ta’lim oluvchiga nazorat topshiriqlarini bajarish, to‘g‘ri javob qaytarish va o‘quv axborotlarining yangi bo‘laklarini olish

imkoniyatini beradi.

Soddalashtirilgan dasturlar. U ta’lim oluvchiga yangi o‘quv materialini murakkablik darajasiga qarab tanlab olish, uni o‘zlashtirish jarayonida u yoki bu tarzda o‘zgartirish, oddiy ma’lumotnoma, lug‘at va qo‘llanmalardan foydalanish imkoniyatini beradi.

Aralash dasturlar. U ravon, tarmoqlanuvchi, soddalashtirilgan dastur bo‘laklarini o‘zida qamrab oladi.

Algoritm. U aqliy va amaliy tadbirlar izchilligini belgilovchi tafsilotdir. U o‘qitishning mustaqil vositasi hamda ta’limiy dasturlarning qismi bo‘lishi ham mumkin.

Blokli o‘qitish. Bu moslashuvchan dastur asosida o‘quvchilarning turli-tuman intellektual tadbirlar va egallagan bilimlaridan o‘quv vazifalarini yechishda foydalanish imkoniyatlarini ta’minlaydi.

Quyidagi izchil bloklar farqlanadi:

axborot bloki;

test-axborot (o‘zlashtirishni tekshirish);

korreksion-axborot (noto‘g‘ri javob qaytarilganda qo‘shimcha o‘qitish);

muammoli blok: olingan bilimlar asosida vazifalarni yechish;

tekshirish va korreksiya bloki.

Modulli o‘qitish. U modullar bo‘yicha tuzilgan o‘quv dasturlari asosida o‘qitishni tashkil etishdir. Modul kurs mazmunini uch sathda qamrab oladi: to‘la, qisqartirilgan va chuqurlashtirilgan. Dastur materiallari bir vaqtning o‘zida barcha ehtimol ko‘rilgan kodlarda: rasm, test, ramzlar va so‘z bilan berilishi mumkin.

O‘qitish moduli o‘quv materialining avtonom (mustaqil) qismi bo‘lib, quyidagi komponentlardan tashkil topadi:

• aniq ifodaga ega bo‘lgan o‘quv maqsadi (maqsadli dastur);

• axborotlar banki: o‘qitish dasturi shaklidagi ayni o‘quv materiali;

• maqsadlarga erishish bo‘yicha metodik qo‘llanma;

• zaruriy malakalarni shakllantirish bo‘yicha amaliy mashg‘ulotlar;

• qo‘yilgan modul maqsadiga qat’iy muvofiq keluvchi nazorat ishi.

Bilimlarni to‘la o‘zlashtirish texnologiyasi. O‘quv materiallari bir necha bo‘laklarga bo‘linadi: o‘zlashtirilishi tegishli bo‘lgan o‘quv unsurlari, undan so‘ng bo‘limlar bo‘yicha tekshirish uchun materiallar ishlab chiqiladi, undan so‘ng o‘qitish, tekshirish - joriy nazorat, korrektirovka va qayta, o‘zgartirilgan tarzda ishlab chiqish - o‘qitish.

Foydalanilgan asosiy adabiyotlar:

1. R.Ishmuhamedov, A.Abduqodirov, A.Pardayev. Tarbiyada innavatsion texnologiyalar T. 2010.

2. R.A.Mavlonova, M.T. Satbayeva. Mehnat o‘qitish metodikasi. O‘quv qo‘llanma T. 2012-y.

3. D.Hoshimova, Sh.Maxmudova. Mehnat muhofazasi fanidan ma’ruzalar matni.T.2012

15-MAVZU: TEXNOLOGIYA TA’LIMI VA TARBIYASINING UZVIYLIGI

Reja:

1. Texnologiya ta’limi va tarbiyasining uzviyligi va ularning o‘ziga xos jihatlari.
2. Integratsiyalashgan tarbiyaviy tadbirlarning samaradorligini oshirish omillari.

Tayanch so‘z va iboralar: texnologiya ta’limi, tarbiya, integratsiya, jismoniy, ruhiy, axloqiy, ma’naviy, oila, maktab, bola, adabiyot, san’at, kino, radio, televidenia.

Tarbiya – shaxsda muayyan jismoniy, ruhiy, axloqiy, ma’naviy sifatlarni shakllantirishga qaratilgan amaliy pedagogik jarayon; insonning jamiyatda yashashi uchun zarur bo‘lgan xususiyatlarga ega bo‘lishini ta’minlash yo‘lida ko‘riladigan chora tadbirlar yig‘indisi. Tarbiya insonning insonligini ta’minlaydigan eng qadimiy va abadiy qadriyatdir. Tarbiyasiz alohida odam ham, kishilik jamiyati ham mavjud bo‘la olmaydi. Chunki odam va jamiyatning mavjudligini ta’minlaydigan qadriyatlar tarbiya tufayligina bir avloddan boshqasiga o‘tadi.

Pedagogik adabiyotlarda “Tarbiya” atamasi keng va tor ma’nolarda ishlatiladi. Keng ma’noda tarbiya inson shaxsini shakllantirishga, uning jamiyat ishlab chiqarishi va ijtimoiy, madaniy, ma’rifiy hayotida faol ishtirokini ta’minlashga qaratilgan barcha ta’sirlar, tadbirlar, harakatlar, intilishlar yig‘indisini anglatadi. Bunday tushunishda tarbiya faqat oila, maktab, bolalar va yoshlar tashkilotlarida olib boriladigan tarbiyaviy ishlarni emas, balki butun ijtimoiy tuzum, uning yetakchi g‘oyalari, adabiyot, san’at, kino, radio, televidenia, bugungi kunda ommalashga internet saytlari va boshqalarni ham o‘z ichiga oladi. Shuningdek, keng ma’nodagi tarbiya tushunchasi ichiga ta’lim va ma’lumot olish ham kiradi.

Tor ma’noda tarbiya shaxsning jismoniy rivoji, dunyoqarashi, ma’naviy axloqiy qiyofasi, estetik didi o‘stirilishiga yo‘naltirilgan pedagogik faoliyatni anglatadi. Buni oila va tarbiyaviy muassasalar hamda jamoat tashkilotlari amalga oshiradi. Ta’lim va ma’lumot olish tor ma’nodagi tarbiya ichiga kirmaydi. Lekin har qanday tarbiya ta’lim bilan chambarchas bog‘liq holdagina mavjud bo‘ladi. Chunki

ta’lim va ma’lumot olish jarayonida shaxsning faqat bilimi ko‘payibgina qolmay, balki axloqiy ma’naviy sifatlari qaror topishi ham tezlashadi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan yoshlarni mustaqil hayotga dunyoqarashi keng, faol fuqarolar etib tarbiyalash maqsadida “Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qaror qabul qilindi.

Konsepsiyaning maqsadi – yosh avlodda mustaqil va baxtli hayot uchun zarur ijtimoiy malaka hamda fazilatlarni yoshiga mos, bosqichma-bosqich shakllantirishdan iborat.

Ushbu maqsadga erishish, uni amalda ro‘yobga chiqarish uchun quyidagi vazifalarni amalga oshirish talab etiladi:

ma’naviy-axloqiy tarbiyani baholashning ilmiy asoslangan indikatorlarini ishlab chiqish;

tarbiyaning homiladorlik davridan boshlanib voyaga yetgunga qadar davom etadigan, tadrijiylik va uzluksizlik tamoyillariga asoslangan metodikasini ishlab chiqish va hayotga tatbiq etish;

bola tarbiyasida milliy va zamonaviy pedagogikaning ilg‘or yutuqlaridan samarali foydalanish;

tarbiyalanuvchilar bilan birga tarbiyachilarning ham bilimi va malakasini muntazam oshirib borish;

ma’naviy tarbiyani shakllantirishda oila, mahalla va ta’lim muassasalari, shuningdek, ommaviy axborot vositalari va boshqa ijtimoiy tuzilmalar o‘rtasida samarali hamkorlik mexanizmini yo‘lga qo‘yish;

ma’naviy tarbiyaning tadrijiy rivojlanish va uzluksizlik tamoyillariga asoslanishi.

Uzluksiz ma’naviy tarbiya:

davlat ta’lim standartlariga muvofiq ta’lim dasturlarini amalga oshiruvchi davlat va nodavlat ta’lim muassasalari;

ta’lim sohasida ilmiy-tadqiqot ishlarini amalga oshiruvchi ilmiy-pedagogik muassasalar;

davlat boshqaruvi organlari, jamoatchilik tashkilotlari, mahalla va oila institutlari orqali joriy etiladi.

Uzluksiz ma’naviy tarbiya Konsepsiyasi quyidagi bosqichlarni qamrab oladi:

birinchi bosqich – oilalarda (ikki davr asosida: birinchi davr – homila davri, ikkinchi davr – bola tug‘ilganidan 3 yoshgacha bo‘lgan davr);

ikkinchi bosqich – maktabgacha ta’lim 3 – 6 (7) yoshgacha bo‘lgan davr;

uchinchi bosqich – umumiy o‘rta ta’lim tizimida (ikki davr asosida: birinchi davr – 7 (6) – 10 yosh boshlang‘ich sinf, ikkinchi davr – 11 – 17 yosh o‘rta va yuqori sinflar);

to‘rtinchi bosqich – ishlab chiqarishda faoliyat ko‘rsatayotgan va band bo‘lmagan yoshlar, shuningdek, o‘rta maxsus kasb-hunar va oliy ta’lim muassasalari tizimida (ikki davr asosida: birinchi davr – o‘rta maxsus kasb-hunar va oliy ta’lim bilan qamrab olinmagan, shuningdek, ishlab chiqarishda faoliyat ko‘rsatayotgan va band bo‘lmagan yoshlar – 17 – 30 yosh, ikkinchi davr – o‘rta maxsus kasb-hunar, oliy ta’lim muassasalarining o‘quvchi-talabalari 15 – 22 (24) yosh[2].

Konsepsiyada belgilanganidek umumiy o‘rta ta’lim muassasalari o‘quvchilarining yoshi va psixofiziologik xususiyatlarini inobatga olgan holda ularning ongiga umuminsoniy qadriyatlar va yuksak ma’naviyatni yanada chuqur singdirish, ularni vatanparvarlik va insonparvarlik ruhida tarbiyalash, umumiy o‘rta ta’lim muassasalaridagi ma’naviy-tarbiyaviy ishlarni yangicha asosda tashkil etish maqsadida Vazirlar Mahkamasi tomonidan “Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida “Tarbiya” fanini bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qaror qabul qilindi.

Ushbu qarorga ko‘ra umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida “Odobnoma”, “Vatan tuyg‘usi”, “Milliy istiqlol g‘oyasi va ma’naviyat asoslari” hamda “Dunyo dinlari tarixi” fanlarini birlashtirgan holda yagona “Tarbiya” fani 1 - 9-sinflarda – 2020-2021 o‘quv yilidan, 10-11-sinflarda esa 2021-2022 o‘quv yilidan boshlab fanlarga ajratilgan umumiy soatlar doirasida bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etilishi belgilab qo‘yildi.[3]

Tarbiya har qanday jamiyat va har qanday mamlakat hayotida hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Yosh avlodning, umuman, jamiyat a’zolarining tarbiyasi bilan yetarlicha shug‘ullanmagan mamlakat turg‘unlik va inqirozga mahkumdir. Negaki, o‘sishi va rivojlanishi uchun har qanday jamiyatda ham moddiy va ma’naviy boyliklar ishlab chiqarish, to‘xtovsiz ravishda yuksalib borishi lozim. Buning uchun yosh avlod moddiy va ma’naviy boyliklarni ajdodlari darajasida, ulardan ham yaxshiroq ishlab chiqara bilishlari kerak.

Tarbiya texnologiyasi – tarbiya natijalariga asoslanib, tarbiyaning maqsad va vazifalarini oydinlashtirib, tarbiya jarayonining har bir bosqichini alohida-alohida loyihalash, tarbiyaning shakl, metod va vositalarini aniq belgilab olishga qaratilgan tizimli jarayon.[4]

Tarbiyaning texnologiyaviyligi ta’lim muassasalarida tarbiyaviy maqsadlarni amalga oshirish va unga erishishga sharoit yaratadi, nazariy asoslangan uzluksiz

---

[2] O‘zbekiston Respublikasini Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31-dekabrdagi 1059-sonli “Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasi”. Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 03.01.2020-y., 09/20/1059/4265-son, 19.06.2020-y., 09/20/391/0777-son.

[3] O‘zbekiston Respublikasini Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 6-iyundagi 422-sonli “Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida “Tarbiya” fanini bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori. Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 07.07.2020-y., 09/20/422/1033-son.

[4] Xo‘jayev B. “Metod, usul va texnologiya: mazkur tushunchalarni qachon farqlashga o‘rganamiz!?”. “Boshlang‘ich ta’lim” jurnali. № 9. – T.: 2014. 10-11-b.

davom etadigan tarbiyalash jarayonining shakllari, metodlari, usullari va vositalarini o‘qituvchi to‘g‘ri tanlab natijalarga erishishini ta’minlaydi. U ilmiy modellashtirish (loyihalashtirish) asosida amalga oshiriladi, modellashtirishda tarbiyaviy maqsadlar bir xil ma’noda beriladi hamda o‘qituvchi tomonidan insonning shaxsiy xususiyatlari va sifatlarini rivojlantirishning muayyan bosqichlarini obyektiv ravishda o‘lchash va baholash imkoniyatlarini yaratadi.

Tarbiyaning texnologiyaviyligi har qanday pedagogik tizimda - ilmiy muammolar bilan o‘zaro munosabatda bo‘lgan tushunchadir. Biroq, agar ilmiy muammo tarbiyalanuvchiga bilim berish, ilmiy tafakkurini oshirish hamda ko‘nikma va malakalarini shakllantirish kabi maqsadlarni ifodalaydigan bo‘lsa, u holda tarbiya texnologiyasi o‘qituvchiga o‘quvchilarni tarbiyalash yo‘l-yo‘riqlari va ularga erishish vositalarini to‘g‘ri yo‘naltirishga yordam beradi.

Tarbiyaning texnologiyaviyligi tarbiyalashga yo‘naltirilgan ilmiy muammo sifatida o‘quvchilarda axloqiy sifatlarni shakllantirish va rivojlantirish uchun lozim bo‘lgan va komil insonga xos barcha insoniy fazilatlarni muayyan shart-sharoitlarda uzluksiz tarbiyalash asosida takomillashtirishni nazarda tutadi, bu esa ta’lim mazmunining o‘ziga xos xususiyatlarini ham belgilaydi.

Shu munosabat bilan tarbiyaviy jarayonni harakatga keltiruvchi kuch, turtki asosan nimada ekanligi to‘g‘risida savol paydo bo‘ladi. Pedagogikada inson tarbiyasiga qo‘yiladigan, uning hayotida yuzaga keladigan talablar va uning huquqiy imkoniyatlari, ijtimoiylashuvi, shaxsiy rivojlanish darajasi o‘rtasidagi ziddiyatlar bunda asosiy manba bo‘lib hisoblanadi. Ushbu talablar uning yosh xususiyatlariga muvofiq kelgandagina, insonni tarbiyalash va uni shaxs sifatida rivojlantirish jarayonining boshlanishiga turtki bo‘ladi. L.S.Vigotskiy bolaning biror harakatni kattalarning yordamisiz bajara olishi mumkin bo‘lgan holatini dolzarb rivojlanish hududi deb atagan. Bola o‘qish jarayonida biror yangi narsani o‘qituvchining yordami bilan salohiyatli tarzda o‘zlashtirishga qodir bo‘lgan daraja yaqin rivojlanish hududi bilan belgilangan. Hududlar orasidagi masofa ziddiyatli tarbiyaviy holatni vujudga keltiradi - tarbiyaviy jarayonning bunday holati shaxsni shakllantirishda vujudga keladigan va erishiladigan yutuqlar o‘rtasidagi tafovut mavjud bo‘lganda yuzaga keladi. Bunday qarama-qarshiliklarning paydo bo‘lishiga yo‘l qo‘ymaslik uchun o‘qituvchi-tarbiyachi belgilangan tarbiyaviy maqsadlarni o‘z maromida uzluksiz, mukammal amalga oshirishi lozim. Shundagina tarbiyaviy nuqsonlarni bosqichma-bosqich bartaraf etishga shart-sharoit yaratiladi.

O‘qituvchining tarbiyaviy maqsadlarni to‘g‘ri tanlashda ko‘ngilchanlik xarakteriga ega bo‘lmasligi lozim. U pedagogikaning uslubiyati, jamiyatda ro‘y berayotgan o‘zgarishlar, ushbu jarayon yuzasidan qabul qilingan maxsus qonun va qoidalar asosida belgilanadigan maqsadlar va milliy qadriyatlar to‘g‘risidagi falsafiy tasavvurlar, shuningdek jamiyat va davlat taraqqiyotining ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy

va boshqa o‘ziga xos xususiyatlari bilan belgilanadi.

Tarbiya texnologiyasida o‘qituvchi tomonidan belgilanadigan maqsadlar turli darajada bo‘lishi va bosqichma-bosqich bir biriga bo‘ysunishi, ketma-ket bajarilishi mumkin. Biroq, tarbiyaviy maqsadning asosiy mohiyat – davlat maqsadlari, ijtimoiy buyurtmalardan kelib chiqishi lozim. Aytish mumkinki, asosiy daraja - mamlakatda inson va uning fuqarolari qadr - qimmati to‘g‘risidagi ijtimoiy tasavvurlarni aks ettiradigan maqsadlardir. Ular mutaxassislar tomonidan ishlab chiqiladi, hukumat tomonidan qabul qilinadi, qonunlar va boshqa hujjatlarda qayd etiladi. Keyingi daraja – ta’lim dasturlari va standartlarida aks etadigan maqsadlar, ya’ni davlat ta’lim standartlari, maxsus ta’lim tizimlarining va ta’lim bosqichlarining maqsadlari. Eng quyi daraja - muayyan yoshdagi kishilarni tarbiyalashda maqsadning birligi.

Shaxsni shakllantirish, boshqarish, tarbiyaviy faoliyat natijasida yuksak ma’naviy va axloqiy hislatlarga ega bo‘lgan yuqori malakali kadrlar tayyorlash tasodifiy harakatlar orqali emas, balki, oldindan belgilangan va puxta o‘ylab tuzilgan tarbiyaviy maqsadlar asosida olib boriladi. Tarbiyaviy texnologiyada uning maqsadi, shakl va metodlari, shaxsning o‘z-o‘zini tarbiyalash va qayta tarbiyalash jihatlari muhim ahamiyat kasb etadi. Shunday ekan, o‘qituvchining tarbiyalash maqsadlarini to‘g‘ri belgilashi va yo‘lga qo‘ya olishiga nisbatan g‘oyaviy yondashuv ijtimoiy buyurtma asosida belgilanib, amalga oshirilishida mavjud shart-sharoitlarni yaratish talab etiladi.

Tarbiya texnologiyalarini modellashtirish. Modellashtirish – obyektlarda ijtimoiy reallikning muayyan qismlarini tadqiq etish uslubi hamda predmetlar va hodisalarning real mavjud bo‘lgan hamda quriladigan modellarini o‘rganish va ishlab chiqishdir. Shunday ekan, tarbiya texnologiyalarini ham ishlab chiqish va amalga oshirishda modellashtirishdan foydalanish ularni yaxlit pedagogik hodisa sifatida uslublarini o‘rganib chiqish muhim ahamiyat kasb etadi.

Modellashtirishning shakli va qo‘llanilishi foydalaniladigan modellar va ularni qo‘llash sohalariga bog‘liq. Tarbiya texnologiyalarining samaradorligini oldindan ko‘ra bilish yoki loyihalashtirishda va tadqiq etishda modellashtirishdan foydalanish to‘g‘risidagi muammo “pedagogik modellashtirish” nomini olgan.

Modellar xarakteriga ko‘ra predmetli va belgili (informatsion) modellashtirishga bo‘linadi. Shartli ravishda ular asl obyektning belgilangan funksional xususiyatlarini ifodalaydi.

Pedagogik faoliyatda maxsus reja asosida olib boriladigan tadqiqot modellari predmetli modellashtirish deb ataladi.

Jadvallar, chizmalar, formulalar kabi modellar belgili modellashtirish sifatida namoyon bo‘ladi.

Modellashtirilishi lozim bo‘lgan obyektning xarakteri va yosh xususiyatlariga ko‘ra avvalo, uning xulq-atvori (unda kechadigan tarbiyaviy jarayonlarga amal

qilinishi) modellashtiriladi. Bunda tarbiya texnologiyasining quyidagi ikkita muhim jihatini e’tiborga olish zarur:

Barcha tarbiyalanuvchilar o‘zlashtirishi lozim bo‘lgan tarbiyaviy jarayonni modellashtirish.

Pedagogik faoliyatda mukammal tarbiyalanishi mumkin bo‘lmagan tarbiyasi og‘ir o‘quvchilar bilan o‘zaro tarbiyaviy faoliyatni modellashtirish.

Tarbiya texnologiyalarini ishlab chiqish va amalga oshirishda modellashtirishdan foydalanishning bayon etilgan nazariy asoslaridan tashqari yana bir nechta mustaqil, biroq o‘zaro ta’sir ko‘rsatuvchi kuchga ega bo‘lgan tarbiyaviy jarayonning bir-biri bilan o‘zaro bog‘liq jihatlarini ajratib ko‘rsatish mumkin:

tarbiyaviy faoliyatda obyekt va subyektning o‘zaro kommunikativ munosabati;

bir maqsadga qaratilgan va aniq mazmunga ega tarbiyaviy metodlar;

uzluksiz faoliyatli tarbiyaviy jarayon va uning ij obiy natijalari;

guruh jamoasi norasmiy yetakchisi (lideri)ning tarbiyaviy jarayonga ta’siri.

Obyekt va subyektning o‘zaro kommunikativ munosabati tarbiyaviy texnologiya modelida asosiy faoliyat ko‘rsatuvchi deb e’tirof etiladi. Unda tarbiyalashni amalga oshiradigan o‘qituvchi yoki shaxslar guruhi, shuningdek manfaatlari doirasida tarbiyaviy o‘zaro ta’sir ko‘rsatishni tashkil etuvchi shaxs yoki ijtimoiy muhit guruhi (masalan: sinf guruhi) tushuniladi.

Tarbiyaviy reja asosida tarbiyalashning bir maqsadga yo‘naltirilganligi, tarbiyaviy texnologiya unsurlarini modellashtirishda o‘qituvchi tomonidan belgilangan hamda obyektni tarbiyalashdan ma’lum bir maqsadni ko‘zlash yoki faraz qilishdir. Ushbu jarayon asosida o‘qituvchi ishtirokida olib boriladigan tarbiyaviy faoliyatning bir maqsadga qaratilganligi aniq mazmunga ega tarbiyaviy vositalarda, shakl va metodlarda ifodalanadi.

Uzluksiz faoliyatli tarbiyaviy jarayon tarbiya texnologiyalarining asosiy tarkibiy qismlaridan biri bo‘lib, ta’limning uzluksizligini va nafaqat ta’lim muassasalarida, balki tarbiya oilada, ijtimoiy va geografik muhitda, mahallada olib borilishini bildiradi. Zero, ota-ona yoki avlod-ajdodlarga xos bo‘lgan nutq, tafakkur, texnologiya, ijod qilish qobiliyati va boshqa iste’dod alomatlarining irsiyat orqali bolaga o‘tishini ta’minlovchi biologik omillarning (layoqat va iste’dodmudroq holatda bo‘lib, uning uyg‘onishi uchun oilada va ta’lim-tarbiya muassasalarida qulay sharoit yaratish talab etiladi) hamda shaxsga ijobiy yoki salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan, shaxsning shakllanishiga ta’sir etuvchi oila, maktab, do‘stlar va tengqurlar davrasi kabilarni o‘z ichiga oluvchi mikromuhitning uzluksiz tarbiyaviy jarayonda ta’siri beqiyosligi olimlarimiz tomonidan e’tirof etilgan. Ayniqsa, oila muhiti shaxsning shakllanishida o‘ziga xos muhim tarbiyaviy maskan bo‘lib, nihoyatda keng tarmoqli tarbiyaviy ta’sir etish quvvatiga ega. Ota-onaning tarbiyalanganligi va tarbiyaviy tajribalarni mukammal bilishi, bola tarbiyasida

doimiy nazorat va javobgarlik hissi o‘zbek oilasi uchun eng qadrli burch sifatida e’zozlanadi. Bularning barchasi tarbiyalanuvchi subyektga nisbatan komil inson shaxsiga xos sifatlarni shakllantirishga qaratilgan.

Guruh jamoasida norasmiy yetakchining (lider) xatti-harakati va xulq-atvori bilan tarbiyaviy jarayonga ta’sir etishi guruhda tarbiyalanuvchilarning barcha hayotiy faoliyatida muhim rol o‘ynaydi. Bolalar va o‘smirlar jamoasidagi lider (yetaklovchi, boshlovchi) o‘qituvchi yoki tarbiyachi tomonidan guruhda rasman tayinlanmaydi. Jamoadagi bolalarga norasmiy yetakchilik qiluvchi o‘quvchi o‘qituvchilar oldida e’tibordan chetda yuradi, o‘zining qattiqqo‘lligi, xarakteridagi guruhga yetakchilik qilishga xos tug‘ma qobiliyati, mustahkam irodaga egaligi, qo‘rqmasligi bilan guruh a’zolarining hurmatini qozonib, jamoadan ajralib chiqadi va o‘zi bilan hammaslak, hamfikr bolalarni yetaklaydi. Norasmiy liderning har qanday faoliyati salbiy oqibatlarga olib kelishi yoki ijobiy natijalar berishi ham mumkin. Bunda o‘qituvchining mahorati, psixologik tajribasi muhim ahamiyat kasb etadi. O‘qituvchining norasmiy liderga nisbatan qattiqqo‘lligi, tarbiyaning jazolovchi metodlarini qo‘llashi foyda bermaydi, aksincha, zararli oqibatlarga olib kelishi mumkin.

O‘qituvchi o‘zining ziyrakligi va chuqur psixologik bilimi, yuksak pedagogik mahorati bilan avvalo o‘quvchilar guruhi jamoasidagi liderni aniqlashi, kerak bo‘lsa, unga yon bosib, o‘z tomoniga og‘dirib olishi lozim. Pedagogik mahoratning ishontirish va ta’sir etish usullari asosida norasmiy lider ongiga sezdirmasdan kirib borib, o‘z ta’sirini o‘tkaza olgan o‘qituvchi guruh jamoasida bir xil tarbiyaviy muvozanatni saqlay oladi. Shundan keyin tarbiyaviy texnologiyaning ma’qul bo‘lgan unsurlarini modellashtirib qo‘llashi va cho‘chimasdan tarbiyaviy faoliyat olib borib, belgilangan maqsadga erishishi mumkin.

O‘quvchilar jamoasida norasmiy yetakchilar bilan birga rasmiy, o‘qituvchilar tomonidan tayinlangan yo‘lboshchilar ham mavjud. Odatda rasmiy yo‘lboshchilar tarkibini a’lo baholarga o‘qiydigan, jamoa ishlarida faol ishtirok etuvchi o‘quvchilar tashkil etsa, norasmiy liderlar garchi bu kabi sifatlarni namoyon etmasalarda, ayrim sifatlariga ko‘ra tengdoshlarini o‘z ortlaridan ergashtiradilar. Norasmiy liderlarning ma’naviy-axloqiy qiyofasi boshqa o‘quvchilarga jiddiy ta’sir ko‘rsatadi. Shu bois sinf rahbari bilan birga o‘quv muassasasi pedagogik jamoasi norasmiy liderlarni aniqlab ular faoliyatini bevosita nazorat qilib borishlari zarur. O‘quvchilar uyushmasiga pedagogik rahbarlik, yuqorida qayd etilganidek, aksariyat holatlarda guruh rahbari tomonidan amalga oshiriladi. Shu sababli guruh rahbari guruhning umumiy hamda har bir a’zosining individual xususiyatlarini bilishi, xulq atvoridagi har bir o‘zgarishni inobatga olgan holda jamoaga yondashishi zarur.

O‘qituvchi tarbiyaviy faoliyatning barcha unsurlari o‘zaro aloqadorligini va o‘zaro bog‘liqligini nazariy va amaliy jihatdan tushunishi tarbiyaviy jarayonni

to‘g‘ri yo‘naltirishga imkoniyat beradi. Bunda pedagogikada tarbiyaviy o‘zaro ta’sir ko‘rsatishning shakllari, metodlari, usullari va vositalarini ochib beradigan hamda tarbiyaviy texnologiyalarning “pedagogik vositalari”ni shakllantiruvchi faoliyati va natijalariga, tarkibiy qismlariga alohida e’tibor qaratiladi. O‘qituvchi avvalo tarbiyadan kelib chiqadigan maqsadga to‘g‘ri baho bera olishi kerak.

Tarbiyaviy jarayon va tarbiya mazmunini modellashtirish. Tarbiyaviy jarayonni modellashtirishda o‘quvchilarning hayoti va faoliyatini ta’lim muassasalarida pedagogik jihatdan to‘g‘ri uyushtirish uchun, ularning tashqi ta’sir etuvchi omillarga nisbatan ta’sirchan munosabatda bo‘lishini unutmaslik kerak. Pedagog va psixolog olimlarning tadqiqotlari shuni ko‘rsatadiki, shaxsga tashqi omillarning o‘zaro (xoh salbiy, xoh ijobiy bo‘lsin) ta’siri avvalo o‘quvchilarning o‘zaro munosabatlariga bog‘liq. O‘quvchilarning tarbiyaviy faoliyatini uyushtirayotganda o‘qituvchi yoki tarbiyachi tashqi ta’sir etuvchi omillarga nisbatan tarbiyalanuvchining munosabatini, kechinmalarini, qanday anglashini, baholashini ulardan o‘zi uchun nimalarni olayotganligini bilishi zarur.

Tarbiya jarayonini modellashtirishda o‘quvchining nafaqat ongi, balki his-tuyg‘ularini ham o‘stirib borishga erishish lozim, unda jamiyatning shaxsga qo‘yadigan axloqiy talablariga muvofiq keluvchi xulqiy malaka va odatlar hosil qilinadi. Bunga erishish uchun o‘quvchining ongi, hissiyoti va irodasiga ta’sir etib boriladi. Tarbiya jarayoniga o‘qituvchi rahbarlik qiladi. U o‘quvchilarning ta’lim muassasasidagi tarbiyaviy faoliyatini belgilaydi, ularning ijtimoiy jarayonga faol kirib borishlarini o‘z xohish istaklari bilan tarbiyaviy faoliyatga faol ishtirok etishlari uchun shart-sharoitlar yaratadi.

Ijtimoiy jarayonda faol ishtirok etish orqali o‘quvchilarning mustaqilligi, ijodiy tashabbuskorligi ortib boradi. Ushbu faoliyatni modellashtirishda o‘qituvchi o‘quvchilar jamoasining manfaati va talab istaklarini e’tiborga olishi zarur. Bola o‘z xulqi, xatti-harakati uchun jamoa oldida javobgarlikni sezishga erishgach, ijrochi emas, balki umumiy ishning faol qatnashchisi bo‘lib qoladi.

Ushbu holatlar tarbiya jarayonidagi ichki va tashqi qarama-qarshiliklarni bartaraf etishga yordam beradi. Jamiyatda axborot kommunikatsion texnologiyalarining jadal sur’atlarda rivojlanib borishi natijasida o‘quvchilar ko‘p vaqtlarini ta’lim va tarbiyaga mutlaqo aloqasi bo‘lmagan kommunikatsion texnologik ma’lumotlarga sarflamoqdalar (modul telefonlar, internet, kompyuter, DVD filmlar va boshqalar). Ushbu vositalardan oqilona foydalanishni o‘quvchiga o‘rgatish, ta’qiqlangan texnik vositalardan foydalanishni man etish, ularni nazorat qilish o‘qituvchilar va ota-onalarning hamkorlikdagi vazifalariga kiradi. O‘quvchilarning ko‘p vaqtlarini olayotgan keraksiz texnik ma’lumotlarni bartaraf etish uchun faqat modellashtirish asosida ish olib borish mumkin. O‘qituvchining tarbiyaviy ishlar rejasida ushbu muammolar yuzasidan turli mavzudagi suhbatlar

uyushtirish rejasi o‘rin olishi lozim.

Bu jihat unutilsa, muayyan qarama-qarshiliklar vujudga keladi. Aks holda, xulq me’yorlari, axloq talablarini yaxshi tushunmay qolishi natijasida o‘quvchi ijtimoiy munosabatlarda beqaror, tasodifiy ma’lumotlarga va tashqi ta’sirlarga tez beriluvchan bo‘lib qolishi mumkin.

Tarbiyani samarali modellashtirish uchun uning harakatlantiruvchi kuchini, har bir o‘quvchining tarbiya jarayonidagi faoliyatini yaxshi bilish kerak. Buning uchun o‘qituvchi quyidagi holatlarni unutmasligi lozim:

tarbiyalanuvchi ruhiyatini puxta bilish;

ota-onalar bilan muntazam aloqada bo‘lib, ular ishtirokida o‘quvchi bilan tarbiyaviy mazmunda suhbatlar o‘tkazish;

o‘quvchining ichki dunyosini, xarakterini bilmasdan u bilan qo‘pol muomalada bo‘lmaslik, sodir etilgan xatoliklarni kechira olish;

o‘quvchining qiziqishlarini, uni o‘rab turgan tashqi muhitni doimiy nazorat qilish;

o‘quvchini qat’iy kundalik rejimga o‘rgatish va uni kuzatib borish;

iste’dodini, qobiliyatini va o‘zi tanlagan kasbga moyilligini e’tiborga olib uni takomillashtirish;

o‘quvchining bola ekanligini, adashishga, ba’zan xatoliklarga yo‘l qo‘yishini unutmaslik, ushbu salbiy holatlarni kechiktirmasdan tuzatib borish.

Shaxsni shakllantirish, boshqarish, nazorat xarakteriga ega bo‘lib, bu borada belgilangan vazifalar tasodifiy harakatlar orqali emas, balki oldindan modellashtirilgan va puxta o‘ylangan rejalar asosida belgilanib hal etib boriladi.

Tarbiyaviy jarayonni modellashtirishda o‘qituvchi bilimli, raqobatbardosh yetuk kadrlarni tarbiyalash uchun javobgar shaxs ekanligini unutmasligi kerak. Ushbu vazifalar tarbiya texnologiyalari maqsadlaridan kelib chiqib belgilanadi. Mustaqil O‘zbekiston Respublikasida ayni vaqtda yosh avlodni tarbiyalab voyaga yetkazish uchun tarbiyaning quyidagi umumiy vazifalarini hal etish o‘qituvchi-tarbiyachi zimmasiga yuklatilgan:

o‘quvchilarni ijtimoiy hayotga tayyorlash, ularda keng dunyoqarashni tarkib toptirish, o‘z shaxsiy turmushiga maqsadli yondashuv, reja va maqsad birligi hissini uyg‘otish;

o‘quvchilar ongini mustaqil davlatchiligimiz siyosatining tub mohiyati mujassamlashgan milliy mafkuramiz va umuminsoniy qadriyatlar, chuqur bilim va tafakkur, keng dunyoqarash bilan boyitib borish;

v) umuminsoniy axloq me’yorlari (odamiylik, kamtarlik, o‘zaro yordam, mehr-muhabbat, muruvvat, adolatli bo‘lish, insonparvarlik, axloqsizlikka nisbatan nafrat va hokazolar)ning mohiyatini anglashiga, muomala odobi, yuksak madaniyatni qaror toptirishga erishish;

g) o‘quvchilarda huquqiy va axloqiy me’yorlarga hurmat ruhida yondashish hissi va fuqarolik tuyg‘usi, ijtimoiy burchga mas’ullikni qaror toptirish;

tabiatni muhofaza qilish, ekologik muvozanatni yuzaga keltirish borasida mas’uliyat hissini rivojlantirish;

vatanparvarlik tuyg‘usini shakllantirish, o‘zga millat va halqlarni hurmat qilish, ularning huquq va burchlarini kamsitmaslik tuyg‘usini qaror toptirish;

j) O‘zbekiston Respublikasining ichki va tashqi siyosatiga to‘g‘ri va xolisona baho berishga o‘rgatish;

z) insonni oliy qadriyat sifatida qadrlash, rahm-shafqatli bo‘lish, uning sha’ni, or-nomusi, qadr-qimmati, huquq va burchlarini hurmat qilishga o‘rgatish.

Shu bilan birga tarbiya mazmunining asosiy yo‘nalishlari bo‘lmish, axloqiy, aqliy, jismoniy, ekologik, iqtisodiy, huquqiy va siyosiy tarbiyaning g‘oya va maqsadlari o‘qituvchi tomonidan modellashtirilib, bajariladigan vazifalar belgilab olinadi va amalga oshiriladi. Ushbu tarbiyaviy vazifalar mazmunini anglagan holda o‘qituvchi quyidagi faoliyatni olib borishi lozim:

Axloqiy tarbiyani tashkil etish jarayonida o‘qituvchi ijtimoiy-axloqiy me’yorlar mazmunidan xabardor bo‘lishi, ularga milliy an’analarimiz, urf-odatlarimizdan kelib chiqib belgilangan axloqiy me’yorlarning ijtimoiy hayotdagi ahamiyatini bilishi, ijtimoiy-axloqiy me’yorlar (talab va ta’qiqlar) asosida o‘quvchilarda axloqiy ong va madaniyatni shakllantirishi.

Aqliy tarbiyani yo‘lga qo‘yish asosida - o‘quvchilarni ilm-fan, texnika va texnologiya borasida qo‘lga kiritilayotgan yutuqlar, yangilik va kashfiyotlardan boxabar etadi, ularga ijtimoiy va tabiiy fanlar bo‘yicha bilimlarni berish bilan tafakkuri shakllantiriladi, dunyoqarashi rivojlantiriladi.

Jismoniy tarbiyani tashkil etish jarayonida - o‘quvchilarni o‘z sog‘liqlarini saqlash va mustahkamlash, organizmni chiniqtirish, jismoniy jihatdan to‘g‘ri rivojlanishi hamda uning ishchanlik qobiliyatini oshirish borasida g‘amxo‘rlik qilish tuyg‘usini yuzaga keltiradi, ularda ko‘nikma va malakalarni hosil qilish, ularni maxsus bilimlar bilan qurollantirish, o‘quvchilarning yoshi, jinsiga muvofiq keladigan (kuch, tezkorlik, chaqqonlik, chidamlilik, sabot, texnologiya, iroda va xarakterni qaror toptirish) jismoniy harakat sifatlarini rivojlantirish

Estetik tarbiyani olib borish jarayonida o‘qituvchi o‘quvchilarda estetik his-tuyg‘u, estetik

didni tarbiyalaydi, ularning ijodiy qobiliyatlari, estetik ehtiyojlari va go‘zallikni sevish, go‘zallikka intilish tuyg‘ularini rivojlantiradi, estetik madaniyat rivojlantiriladi.

Ekologik tarbiyani olib borish bilan - o‘quvchilarga ekologik bilimlar berish asosida shaxs, jamiyat va tabiat uyg‘unligi hamda aloqadorligi haqidagi ma’lumotlar tushuntiriladi, ularda ekologiyaning insoniyat, jamiyat taraqqiyotidagi o‘rni va

mohiyati borasidagi tushunchalar qaror toptiriladi, o‘qituvchi o‘quvchilarda tabiatga nisbatan ehtiyotkorona va mas’uliyat bilan munosabatda bo‘lish, tabiatni asrash to‘g‘risida g‘amxo‘rlik qilish kabi tuyg‘ularni tarbiyalaydi.

Iqtisodiy tarbiyani tashkil etish jarayonida o‘qituvchi o‘quvchilarga iqtisodiy bilimlarni berish asosida mamlakatda iqtisodiy barqarorlikni ta’minlash uchun bozor infrastrukturasi qoidalariga amal qilish, ichki bozorni to‘ldirish, kichik va o‘rta biznesni yaratish borasidagi faoliyatga faol ishtirok etish ko‘nikma va malakalarini hosil qildiradi, inson texnologiyai bilan asrlar davomida bunyod qilingan moddiy va ma’naviy boyliklarni asrash borasida qayg‘urish tuyg‘ularini qaror toptiradi, iqtisodiy madaniyatni shakllantiradi.

Huquqiy tarbiyani tashkil etish jarayonida o‘quvchilarga davlatimiz Konstitutsiyasi, davlat haqidagi ta’limot, fuqarolik, oila, texnologiya, xo‘jalik, ma’muriy sud ishlarini yuritish va boshqarish huquqlarining ma’nosi tushuntiriladi, ular ongiga ijtimoiy-huquqiy me’yorlarning shaxs va jamiyat hayotidagi ahamiyati haqidagi tushunchalar singdiriladi, huquqiy munosabat va madaniyat mohiyati yuzasidan tasavvurga ega bo‘lishni ta’minlaydi.

G‘oyaviy-siyosiy tarbiyani tashkil etish jarayonida o‘qituvchi o‘quvchilarga siyosiy bilimlarni berish, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, fuqarolik jamiyati asoslari, milliy davlat tuzilishi, davlat organlari faoliyati, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasining ichki va tashqi siyosati mazmunini to‘g‘ri tushunishni ta’minlash asosida siyosiy faoliyat yuzasidan ko‘nikma va malakalarni tarkib toptiradi, siyosiy madaniyat me’yorlari shakllantiriladi.

Tarbiya qonuniyatlari va tarbiya mazmuni tamoyillarini modellashtirish. Tarbiya texnologiyasida tarbiya jarayoni, mazmun va mohiyatidan kelib chiqib belgilangan vazifalarni o‘qituvchi amalga oshirishi uchun uning o‘ziga xos qonuniyatlarini anglab olish muhim ahamiyatga ega.

Tarbiyaning eng muhim qonuniyatlaridan biri aniq maqsadga yo‘naltirilganligidir. Zamonaviy talqinda tarbiya jarayoni o‘qituvchi va o‘quvchilar o‘rtasidagi muayyan maqsadga erishishga qaratilgan samarali hamkorlik. Zero, tarbiya jarayonida o‘qituvchi va o‘quvchilarning birgalikdagi faoliyatlari tashkil etiladi, boshqariladi va nazorat qilinadi. Yagona maqsadga erishish yo‘li zamonaviy tarbiya jarayonining maqsadini tavsiflaydi.

Tarbiya jarayoni ko‘p qirrali jarayon bo‘lib, unda tarbiya mohiyatini yoritishga xizmat qiluvchi ichki va tashqi (subyektiv va obyektiv) omillar ko‘zga tashlanadi. Subyektiv omillar shaxsning ichki ehtiyojlari, qiziqishlari, hayotiy munosabatlari mazmunini anglashga yordam bersa, obyektiv omillar shaxsning hayot kechirishi, shakllanishi, hayotiy muammolarni ijobiy hal etish uchun sharoit yaratadi. Tarbiya jarayonining tashkil etilishi va boshqarilishida nafaqat o‘qituvchi faoliyati, balki o‘quvchining yosh va psixologik shaxsiy xususiyatlari, o‘y-fikrlari, hayotiy

qarashlari ham muhim ahamiyatga ega.

Tarbiya jarayonining yana bir qonuniyati uning uzoq muddat davom etishidir. Tarbiya natijalari tez sur'atda yaqqol ko‘zga tashlanmaydi. O‘zida insoniy sifatlarni namoyon eta olgan shaxsni tarbiyalab voyaga etkazishda uzoq muddatli davr talab etiladi. Shaxsning muayyan vaqtning o‘zida, turli-tuman qarashlar mavjud bo‘lgan bir sharoitda harakat qilishi tarbiya jarayonini murakkablashtiradi. Ta'lim muassasalarida olib borilayotgan tarbiyaviy jarayon shaxs ongi va dunyoqarashini shakllantirishda muhim o‘rin tutadi. Binobarin, yoshlik yillarida insonning asab tizimi yuqori darajada ta'sirchan hamda beqaror bo‘ladi. Shu bois tarbiyada muvaffaqiyatga erishish uchun o‘quvchilik yillarida shaxsga to‘g‘ri tarbiya berish lozimligi talab etiladi.

Tarbiya jarayonining yana bir qonuniyati uning uzluksizligidir. Ta'lim muassasalarida olib borilayotgan tarbiya jarayoni bu - o‘qituvchi va o‘quvchilarning birgalikdagi uzluksiz, tizimli harakatlari jarayonidir. O‘quvchilarda ijobiy sifatlarni qaror toptirishda yagona maqsad sari yo‘naltirilgan, bir-birini to‘ldiruvchi, boyitib boruvchi, takomillashtiruvchi faoliyat alohida ahamiyat kasb etadi. Shu bois oila, ta'lim muassasalari, jamoatchilik hamkorligida tashkil etilayotgan tarbiyaviy tadbirlarning uzluksiz o‘tkazilishiga erishish maqsadga muvofiqdir.

O‘quvchilarni tarbiyalashda ta'lim muassasasi yetakchi o‘rin egallasa ham, o‘quvchilarga uzluksiz tarbiyaviy ta'sir o‘tkaza olmaydi, chunki, o‘quvchilar belgilangan ma'lum muddatda ta'lim muassasasida, o‘qituvchining tarbiyaviy ta'siri ostida bo‘lib, qolgan bo‘sh vaqtining asosiy qismini oilada, ko‘chada, jamoat orasida o‘tkazadilar. Kuzgi, qishki, bahorgi va ayniqsa, yozgi ta'tillar davrida o‘quvchilar ta'lim muassasai o‘qituvchilari ta'siridan chetda qoladilar. Demak, ta'lim muassasalarida o‘quvchilarni tarbiyalash vaqt jihatidan chegaralangan bo‘lib, sinfdan va maktabdan tashqarida amalga oshiriladigan tarbiyaviy ishlardan holi vaqtda ular o‘qituvchi yoki tarbiyachining ta'siri hamda nazoratidan uzoqlashadilar. Ayni vaqtda, respublikamizda o‘quvchilarning ta'lim muassasalaridan uzoqlashtirmaslik maqsadida qo‘shimcha ta'lim muassasalari faoliyat olib bormoqda. Qo‘shimcha ta'lim muassasalarida o‘quvchilar xususiy fanlar hamda xorijiy tillarni mukammal o‘zlashtirishlari, texnik va badiiy yo‘nalishlar bo‘yicha bilim olishlari, amaliy faoliyat ko‘nikma va malakalariga ega bo‘lishlari mumkin. Qo‘shimcha ta'lim muassasalarida tashkil etilayotgan turli yo‘nalish va mavzulardagi uchrashuvlar, ko‘rgazmalar, ko‘rik-tanlovlar, suhbatlar o‘quvchilarning tafakkurini boyitishda, ularda mustahkam xarakter va irodani tarkib toptirishda muhim o‘rin tutmoqda.

Tarbiya jarayonining yana bir qonuniyati - bu uning yaxlit holda tizimli tashkil etilishidir. Yaxlitlik shundan iboratki, tarbiya jarayonining maqsadi, mazmuni va metodlarining birligi shaxsni shakllantirish g‘oyasini amalga oshirish uchun xizmat

qiladi. Bizga ma’lumki, shaxs ma’naviy-axloqiy sifatlarni navbatma navbat emas, balki yaxlit tarzda o‘zlashtira boradi, shu bois pedagogik ta’sir ham yaxlitlik, tizimlilik xarakteriga ega bo‘lishi lozim. Tarbiya jarayonining yaxlitlik, tizimlilik xususiyati qator pedagogik talablarga amal qilish, o‘qituvchi va o‘quvchilar o‘rtasidagi hamkorlikni qaror toptirishni talab etadi.

Tarbiyaning yana bir qonuniyati shundan iboratki, bu jarayon ikki tomonlama aloqa xususiyatiga ega bo‘lib, unda o‘quvchining o‘zi ham faol ishtirok etadi. Ikki tomonlama aloqa ikki yo‘nalishda, ya’ni, o‘qituvchining o‘quvchiga ko‘rsatadigan ta’siri (to‘g‘ri aloqa) hamda o‘quvchining o‘qituvchiga nisbatan munosabati (teskari aloqa) tarzida tashkil etiladi.

Tarbiyaning pedagogik texnologiya nazariyasi g‘oyasiga muvofiq, endilikda o‘quvchi tarbiya jarayonining obyektigina bo‘lib qolmasdan, subyekti sifatida ham faoliyat ko‘rsatishi mumkin. Shuning uchun o‘qituvchi o‘quvchining ichki imkoniyatlari, unga nisbatan bo‘layotgan tashqi ta’sirlar va axborot manbalarini inobatga olishi zarur. Agarda mazkur talab unutilsa, shaxsni tarbiyalash qiyinlashadi yoki barcha urinishlar samarasiz yakun topadi. Mana shundan tarbiya jarayonining yana bir xususiyati tarbiyada qarama-qarshilikning mavjudligi kelib chiqadi. Ushbu qarama-qarshiliklar o‘quvchilarga o‘z tushunchalariga muvofiq paydo bo‘lgan dastlabki sifatlar o‘rtasida yoki o‘quvchilarga qo‘yiladigan talablar bilan ularni bajarish imkoniyatlari o‘rtasidagi ziddiyatlarning kelib chiqishi uchun zamin yaratadi.

Undan tashqari ushbu qarama-qarshiliklar ko‘pincha o‘quvchining ongi bilan xulqi bir-biriga muvofiq bo‘lmasligidan, o‘qituvchi va tarbiyachilarning o‘quvchilar yosh psixologik, fiziologik xususiyatlarini (fe’l-atvori, xarakteri, qiziqishlari, jismoniy, ruhiy hamda fiziologik jihatdan sog‘lomligi) yaxshi bilmasliklari oqibatida sodir bo‘ladi.

Tarbiya texnologiyalarini qo‘llashda pedagogik vositalardan foydalanish. Tarbiyalanuvchilarning harakati faol bo‘lishi, ular bilan olib boriladigan tarbiyaviy faoliyat funksiyalari esa doimo almashinib, yangilanib turilishi lozim. Shuning uchun ham tarbiyalanuvchilarning faoliyati ustidan rahbarlik qilishda, o‘qituvchi pedagogik mahoratning boy tajribalariga ega bo‘lishi zarur. So‘nggi yillarda pedagogika fanida tarbiyaviy faoliyatni to‘g‘ri tashkil etishda yetakchi yondashuv sifatida turli pedagogik vositalar va metodlar qo‘llanilmoqda. Mazkur faoliyatni mukammal yo‘naltirish uchun quyidagi pedagogik vositalar va metodlardan foydalanish mumkin:

Pedagogik talab jamiyatda qabul qilingan xulq-atvor, ijtimoiy qoidalar, an’ana va urf-odatlarning muayyan me’yorlarini bajarish uchun o‘quvchiga qo‘yiladigan talablar majmui tushuniladi. Talab ijtimoiy xulq-atvor me’yorlarining yig‘indisi, real masala yoki biror-bir xatti-harakatlarning bajarilishi to‘g‘risidagi aniq

koʻrsatma sifatida ifodalanishi mumkin. Ushbu talablar bajarilish shartiga koʻra bevosita yoki bilvosita boʻladi. Bevosita koʻrsatma yoki yoʻriqnomalar axloq meʼyorlariga soʻzsiz boʻysunish koʻrinishiga ega boʻlishi lozim. Bilvosita talablar esa, iltimos, maslahat, imo-ishora koʻrinishida taqdim etilib, bajarilishi, oʻquvchilarning oʻzlariga havola etiladi. Barkamol, har jihatdan kamolotga erishgan jamoada koʻpincha bilvosita talablardan foydalaniladi.

Jamoada oʻzaro munosabatni tarbiyalash metodi jamoa aʼzolarining birgalikdagi faoliyati va xulq-atvorlariga qoʻyiladigan talablarning aks etishidir. Jamoa boʻlib va ayrim kishilar tomonidan jamoaning fikr-mulohazalarini ifoda etish uni amalga oshirish vositalariga oʻqituvchi rahbarlik qiladi. Tarbiyalanuvchilarning faoliyatini, xulq-atvoridagi ijobiy hislatlarni baholash asosida ularni ragʻbatlantiradi, jamoada sogʻlom fikrni, oʻzaro yaxshi muhitni tarkib toptiradi, doʻstona munosabatlarni shakllantiradi.

Oʻrgatish – bu tarbiyalanuvchilar uchun belgilangan axloqiy meʼyorlarni ularning xulq-atvoriga singdirish, koʻnikmalar hosil qilish kundalik faoliyatga aylantirish va doimiy bajarilishini tashkil etishdir. Oʻqituvchi ushbu barqaror odatlarning shakllanishiga oʻquvchilarga yordam beradi. Belgilangan axloqiy va maʼnaviy meʼyorlarni kuzatish, shuningdek, mavjud qoidalarning (shaxsiy gigiyena, muomala va boshqalar) bajarilishi shaxs rivojlanishining ilk bosqichlarida yaxshi samara beradi. Tarbiyaviy vositalar tarbiyalanuvchilarga nimani, qanday va nima uchun bajarish kerakligini tushuntirish oʻqituvchidan talab etiladi. Bir vaqtning oʻzida oʻqitish, xatti-harakatlar bajarilishining tekshirilishini ham koʻzda tutadi.

Mashq qilish feʼl-atvorga xos odatlarni, aniq sohada faoliyatning maqbul algoritmini shakllantirish maqsadida harakat usullarining maʼlum bir tartibda qaytarilishidan iborat. Mashq qilish metodining vositalariga oilada, taʼlim muassasasida va boshqa jamoat joylarida belgilangan tartibga rioya qilish, toʻgʻri tashkil etilgan oʻquv faoliyati, bir maqsadga yoʻnaltirilgan ijtimoiy topshiriqnomalar kiradi.

Bu keng maʼnoda oʻqituvchi-tarbiyachi rahbarligida ijtimoiy meʼyorlarga muvofiq xatti- harakatlar uchun shart-sharoitlar yaratuvchi, oʻquvchilar hayoti va faoliyatining toʻgʻri tashkil etilishidir. Mashq qilish oʻrgatishga tayanadi, shuning uchun oʻqituvchi asosiy vazifani bajaradi. Rejalashtirish, ijro etish, baholashda jamoada faol boʻlish oʻquvchining iqtidorini rivojlantiradi va axloqiy sifatlarini shakllantiradi. Biroq oʻrgatish va mashq qilishda oʻquvchilar faoliyatining ijobiy tomonlariga tayanish lozim va oʻz navbatida ularni shakllantirgandagina samara berishini hisobga olish zarur.

Tarbiyalanadigan holatlar – bu oʻqituvchi tomonidan ziddiyatli holatlarda mustaqil tarzda amalga oshiriladigan oʻquvchilarda ijobiy feʼl-atvor koʻnikmalarini shakllantiruvchi murakkab vositalardan biridir. Buning uchun tasodifiy ziddiyatli

holatlarni modellashtirish, guruhda nizolarni bartaraf etishda foydalanish, muammoni to‘g‘ri hal qilish yo‘llarini tanlash kabi vositalardan foydalaniladi.

Rag‘batlantirish – tarbiyalanuvchilarning qizg‘in faoliyatga moyillik ko‘rsatishga jalb etish maqsadida ma’naviy va moddiy rag‘batlantirish usullari va vositalarining yig‘indisidir. Mazkur metod tarbiyalanuvchi yoki guruhning ijobiy bahosi, xususiyatlarini ma’qullash va e’tirof etish, xatti-harakatlari va xulq-atvorining ifodasi sifatida ham qaralishi mumkin. U o‘quvchilarning o‘z faoliyatidan qoniqishini, o‘z kuchiga ishonch hissini, o‘z-o‘ziga ijobiy baho berishni yuzaga keltiradi, o‘quvchilarni axloqiy me’yorlar asosida xulq-atvorini yaxshilashga tomon rag‘batlantiradi. Rag‘batlantirish vositalariga o‘qituvchi va ota-onalarning, ta’lim muassasasi xodimlarining maqtovi, minnatdorchiligi, turli mukofotlar, “Faxriy yorliq”lar bilan taqdirlash yoki boshqa moddiy mukofotlar kiradi. Bunda tarbiyachining so‘z bilan maqtovi, minnatdorchilik bildirishi, imo-ishoralari, mimikasi va baholashi, rag‘batlantirish vositalari ko‘rinishida namoyon bo‘ladi. Rag‘batlantirish nafaqat natijani, balki faoliyatning sababi va usulini ham ma’qullashni, tarbiyalanuvchilar ijobiy faoliyatini ma’qullashning dalilini emas, balki uning moddiy hissasini qadrlashga o‘rgatishni tavsiya etadi. Rag‘batlantirishni ayniqsa, ko‘pincha kichik yoshdagi maktab o‘quvchilariga va o‘zlarining imkoniyatlariga ishonmaydigan o‘smirlarga berish talab etiladi. Katta yoshdagi o‘quvchilar uchun ham ulardan foydalanish tarbiyaviy samara beradi.

Tanqid asosida o‘qituvchi tomonidan tarbiyalanuvchilar shaxsiy sifatlarida namoyon bo‘ladigan salbiy odatlariga baho beriladi yoki jamoa faoliyatida ro‘y beradigan tasodifiy salbiy hodisalar o‘quvchilar bilan tahlil qilinib ko‘rib chiqiladi. Bunda, o‘qituvchi ma’lum bir maqsadga bog‘liq holda tanqidning turli usullarini vaziyatga qarab qo‘llaydi. Chunonchi, sinf jamoasida bir shaxsga taalluqli bo‘lgan yoki sinf jamoasiga nisbatan tanqid, kamchiliklarni bartaraf etishga undovchi rag‘batlantiruvchi tanqid, kutilmagan hodisalarni bayon etuvchi afsusli tanqid, jamoa bilan birgalikda ro‘y bergan kamchilik uchun qayg‘urish tanqidi, ta’nali tanqid kabilar.

Majburlash – bu o‘quvchining xulq-atvoriga qo‘yiladigan salbiy baholashning ifodasi, xulq-atvor me’yorlariga zid bo‘lgan xatti-harakatlari va bema’ni qiliqlarining muhokamasidir. Pedagogika fanida ushbu vosita tarbiyalashning eng so‘nggi metodi sifatida ifodalanadi. Ushbu metod turlari, qo‘llanilayotgan boshqa tarbiyaviy metodlar istalgan tarbiyaviy maqsadga erishishda imkoniyat bermagandagina, qo‘llanilishi mumkin.

XX asrning o‘rtalarida pedagogikada majburlashdan shaxsni kamsituvchi va salbiy oqibatlarga olib keluvchi tarbiyalash metodi sifatida foydalanish rad etilgan. Biroq, keyinchalik majburlashdan pedagogik jihatdan to‘g‘ri foydalanish qonuniy deb e’tirof etildi: u uyat, or-nomus tuyg‘ulari o‘quvchida bo‘lmaganda, uning xatti-

harakati salbiy oqibatlarga olib keladigan holatlarda, tarbiyalanuvchining xulq-atvorini tuzatadi, unga xatosini tushunib etishga imkoniyat beradi.

Tarbiyaviy faoliyatda majburlash metodi shaxsning qadr-qimmatini kamsitmaydigan puxta o‘ylangan xatti-harakatlar asosida olib boriladi va uni amalga oshirishda bunday vositalarning tanlanishi chuqur tahlil talab qilinishini hisobga olish zarur. Ular qatoriga o‘qituvchining tanbehlari yoki qat’iy talablari, yanada jiddiy mas’uliyatga ehtimolli jalb etish to‘g‘risidagi ogohlantirish, jamoada muhokama qilish yoki pedagogik kengashga chaqirish, boshqa sinfga yoki maktabga o‘tkazish, umumta’lim muassasasidan chetlatishni kiritish mumkin.

Ilmiy pedagogik adabiyotlarda tarbiyalashning ko‘rib chiqilgan pedagogik vositalaridan tashqari shaxs bilan tarbiyaviy o‘zaro ta’sir ko‘rsatishning ayrim umumiy usullari ham o‘z aksini topadi. Ular qatoriga pedagogik faoliyatning yangi turlarini joriy etish, muomala ma’nosini o‘zgartirish, kabilarni kiritish mumkin. Biroq ularning mazmuni tarbiyalanuvchilarning ongiga ta’sir ko‘rsatishdan iborat hamda ma’no jihatidan yuqorida ko‘rib chiqilgan tarbiyalash metodlarini o‘z ichiga oladi. Tajribali o‘qituvchi bir vaqtning o‘zida psixologik tarbiyaviy ta’sir metodlaridan ham foydalanish yetarli darajada samara berishini biladi. Ta’kidlab o‘tilganidek, o‘qituvchi tomonidan qo‘llaniladigan pedagogik vositalar o‘quvchilarning ongiga yo‘naltirilgan. Pedagogik tajribalarning ko‘rsatishicha, og‘zaki bo‘lmagan ta’sir ko‘rsatish metodlari (mimika, pantomimika, imo-ishora, holat, xatti-harakatlar, ko‘zlarning ifodasi, ovoz intonatsiyasi), his-tuyg‘uga yo‘naltirilgan ta’sir ko‘rsatish metodlari (birgalikda qayg‘urish, g‘azablanish, xursand bo‘lish) va oqilona ta’sir ko‘rsatish metodlari (asosiy vosita – ishontirish) juda samarali hisoblanadi. Shu bilan birga psixologik metodlar ham, pedagogik metodlar bilan bir vaqtda qo‘llanilishi o‘qituvchining o‘quvchi shaxsiga tarbiyaviy ta’sir etishni kuchaytiradi.

Tarbiya texnologiyalarida foydalaniladigan, ko‘rib chiqilgan metodlar uning masalalarini yanada to‘liqroq hal etish uchun shart-sharoitlarni yaratgan holda, tarbiyalashning barcha shakllarida amalga oshiriladi. Biroq ularni tanlash, o‘zlashtirish va amalga oshirishda ko‘pgina omillarga, jumladan, milliy an’analar, urf-odatlar, pedagogikaga xos bo‘lgan holatlarga e’tibor berish zarur.

Mavzuni o‘zlashtirish uchun savollar

Mamlakatimizda so‘nggi yillar davomida yoshlar tarbiyasiga oid qabul qilingan qonun va qarorlar, nizomlar haqida ayting.

Tarbiyaviy jarayonning asosiy xususiyatlari nimalardan iborat?

Ta’lim muassasalarida tarbiyaning texnologiyaviyligi qanday natijalar beradi?

Tarbiyaviy texnologiyalarni modellashtirish nima?

Tarbiyaviy jarayonning bir-biri bilan bog‘liq o‘zaro jihatlari qanday?

Tarbiyaviy texnologiyalarni qo‘llashda pedagogik vosita va

metodlarning ahamiyati nimalardan iborat?

Foydalanilgan asosiy adabiyotlar:

1. R.Ishmuhamedov, A.Abduqodirov, A.Pardayev. Tarbiyada innavatsion texnologiyalar T. 2010.
2. R.A.Mavlonova, M.T. Satbayeva. Mehnat o‘qitish metodikasi. O‘quv qo‘llanma T. 2012-y.
3. D.Hoshimova, Sh.Maxmudova. Mehnat muhofazasi fanidan ma’ruzalar matni.T.2012.

II-MODUL. TEXNOLOGIYA DARSLARINI TASHKIL ETISH METODIKASI

MAVZU: APPLIKATSIYA VA MOZAIKA BILAN ISHLASH DARSLARINI TASHKIL ETISH METODIKASI

Reja:

1. Applikatsiya haqida ma’lumot.
2. Applikatsiya turlari bilan tanishtirish.
3. Applikatsiya va mozaika bilan ishlash darslarini to‘g‘ri tashkil etish talablari.

Tayanch so‘z va iboralar: Applikatsiya, geometrik shakl, dekorativ, yelimlash, qirqish, mavzuli, qog‘oz, syujet, naqsh, gullar, o‘yinchoqlar, bayroqlar, suvenirlar, devoriy gazetalar, stendlar, ko‘rgazma, barg, shox, qo‘ziqorin, qush, mashina, odam, uy, qo‘l texnologiyai.

Applikatsiya tasvirlash texnikasining turli formalarini qirqish va ularni fon tarzida qabul qilingan materiallar hisobiga mustahkamlashga asoslanuvchi turidir.

“Applikatsiya” tushunchasi xususiyatlari va faktura materiallariga ko‘ra xilma xil bajarilish texnikasining o‘xshashligi bilan birlashgan badiiy asarlarni yaratish usullarini o‘z ichiga oladi. Har bir material applikatsiyasi bajarish texnikasiga jiddiy ta’sir ko‘rsatuvchi xususiyatlarga ega, masalan, qog‘oz, limon, daraxtlar po‘stloqlari fanta turli yelimlar bilan yopishtiriladi.

Applikatsiya badiiy asarlarni yaratishning eng sodda va oson usulidir, bunda tasvirning realistik asosi saqlanadi. Bu applikatsiyadan faqat bezash maqsadlaridagina ko‘rgazmali qurollar, turli o‘yinlar uchun qo‘llanmalar, o‘yinchoqlar, bayroqlar, suvenirlar, devoriy gazetalar, stendlar, ko‘rgazmalar va kostyumlarni tayyorlash emas, balki kartina, pano, naqshlarni va shu kabilarni yaratishda ham keng qo‘llash imkonini

Dekorativ applikatsiya — u naqsh, gullardan tashkil topib, alohida-alohida tasvirlar (barg, shox, qo‘ziqorin, qush, mashina, odam, uy va shu kabilar) dan tarkib topuvchi predmetli, hodisa, harakatlar uyg‘unligini aks ettiruvchi syujetdan iborat bo‘lishi mumkin,

Applikatsiya 2500 yil muqaddam ko‘chmanchi halqlarda paydo bo‘lgan. Applikatsiya bilan kiyim-bosh, turar joylar bezatilgan. Bu ishda ular teri-mo‘yna, namatdan foydalanishgan.

Applikatsiya turli halqlarda turli materiallardan tayyorlangan. Masalan, yoqutlar applikatsiya ishida po‘stloqdan foydalanishgan, bo‘yalgan po‘stloqdan qilingan applikatsiyalar bilan ular o‘tovlarini bezashgan. Xanti-mansi, evenk va boshqa shimol halqlari applikatsiyada teri, sukno, mo‘yna ishlatishgan.

Komi, qozoq, qalmiq, osetin, buryat va boshqa halqlar applikatsiyadan milliy kiyim, uy-ro‘zg‘or predmetlarini bezashda foydalanishgan.

Gazlamadan applikatsiya materiali sifatida ancha keyinroq foydalanila boshlandi. Gazlama parchalarini fon xizmatini o‘tovchi materialga tikib naqsh yaratilgan. Gazlamadan yasalgan applikatsiya bilan kiyim-bosh, uy-ro‘zg‘or predmetlari bezatilgan.

Faqat XVI asrga kelib rivojlangan qogozdan applikatsiya qilishni applikatsiyaning “yosh” turi deyish mumkin. Qog‘ozdan naqsh qirqish bilan o‘tmishning mashhur san’atkorlari ham shug‘ullanishgan. Masalan, rassom Piter Paul Rubens, daniyalik haykaltarosh Bertel Garvildson ishlari shular jumlasidandir. Mashhur ertakchi Gans Xristian Andersen o‘z ertaklari motivlari asosida qog‘ozdan applikatsiyalar qirqqan. F.P.Rassom Tolstoyni XIX asrning birinchi yarmidagi siluet yaratuvchilarning eng mohir ustasi deyish mumkin. Uning 50 ta siluet ishi ermitajda saqlanmoqda.

XIX asrda siluet san’ati G.Narbut, Y.Krutikov va ko‘pgina boshqa rassomlarning ijodida ham o‘z aksini topdi. Applikatsiya san’ati bilan faqat professional san’atkorlargina shug‘ullanib qolmay, balki halq orasidan chiqqan mohir ustalar ham bu ish bilan shug‘ullangan edilar. Ukraina va Belorussiyada qog‘ozdan naqshli parda-firanklar qirqishgan. Qog‘ozdan kartinalar yaratib, oynalarga yopishtirilgan. Rassom Ye.Lebedeva ham o‘z talantini qog‘ozdan applikatsiyalar qirqishga bag‘ishlagan. Polshada bezak sifatida qirqilgan naqshlar yangi oqlangan devor va shiplarga yopishtirilgan, bu ijod halqda — vitsinanki deb ataladi.

Hozirgi kunda applikatsiya halq san’atida juda keng tarqalgandir. Applikatsiyaning eng yosh turi flaristikadir. Applikatsiya bilan shug‘ullanish o‘quvchilarni garmonik rivojlantirishda katta ahamiyatga ega. Applikatsiya ijodni rivojlantirishga yordam beradi, fantaziyani boyitadi, kuzatuvchanlik, diqqat va tasavvurni aktivlashtiradi, irodani tarbiyalaydi, qo‘l texnologiya, formani his qilish, chamalash va rangni sezishni o‘stiradi. Rangli qog‘oz yoki boshqa materialdan kompozitsiyalar ustidagi ish badiiy didni avj oldiradi.

Mashg‘ulotga o‘quvchilar oldindan tayyorgarlik ko‘rishadi: stolning ustiga qog‘oz yozib, o‘ng tomoniga qaychi, yelim uchun cho‘tka, chizg‘ich, qalam, avtoruchka, old tomonlariga yelim, qiyqimlar uchun quti, chap tomonlariga ish vaqtida halaqit bermaydigan qilib rangli qog‘oz naborini qo‘yadilar. Har bir mashg‘ulot oxirida o‘quvchilar keyingi mashg‘ulotda kerak bo‘ladigan narsalarni yozib oladilar.

O‘quvchilar ishlayotgan materiallariga tejamkorlik bilan munosabatda bo‘lishlari, o‘z ishlarini rejalashtira bilishlari, materialni tejamkorlik bilan sarflashlari, vaqtdan ratsional foydalanishlari va ish joyini toza saqlashlari kerak.

Barcha ish turlarini albomning o‘ng varag‘ida bajarish tavsiya etiladi. Sinfdagi ishlar — albomda bajariladi. Ijodiy topshiriklarni parta, stolga knopkalar bilan mustahkamlangan alohida varaqda bajargan ma’qul.

Elim bilan ishlaganda ho‘l va quruq latta bo‘lishi lozim. Ho‘l latta qo‘lga yuqqan kleysterni artish uchun, qurug‘i yelimlanayotgan tasvirlarni ustidan bosish va ortiqcha kleysterni artish uchun kerak.

Applikatsiya ishida asosiy material qog‘ozdirdazmollangan va kraxmallangan gazlama bo‘laklaridan ham foydalanish mumkin. Bu materiallar bilan bir qatorda somon, quritilgan o‘simlik, urug‘, danak va shu kabilardan ham foydalaniladi.

Sanoat qog‘ozning rangi va fakturasiga ko‘ra farq qiluvchi 250 navini ishlab chiqaradi.

Tolalarning ko‘ndalang yo‘nalishi bo‘yicha qirqilgan qog‘oz yopishtirilganda izlar qoldiradi, uzunasiga qirqilganda bir tekis yaxshi yotadi. Ishlaganda qog‘ozning bu xususiyatini e’tibordan qochirmaslik kerak. Kleyster surilganda qog‘oz uni shimishini, qog‘oz tolalarning ko‘ndalangiga, uzunligidan ko‘proq kengayishini ham unutmaslik kerak. Agarda qog‘ozni kleyster surilgan zahotiyoq yelimlansa, davom etayotgan shimish va kengayish natijasida qog‘ozda g‘ijimlar, izlar paydo bo‘ladi. Shuning uchun kleyster surilgach, qog‘oz bir oz vaqt yopishtirilmay turishi kerak. Qog‘ozning yaltiraydigan marmar, shagren, bosma gul tushirilgan, barxat, kumush va bronza rasm solish va chizmachilik navlari applikatsiya uchun yaroklidir.

Applikatsiya ishlari doimo xotirada saqlanishi hamda majburiy qoida sifatida bajarilishi lozim bo‘lgan ma’lum izchillikda ado etiladi. Istalgan applikatsiya syujetni tanlashdan boshlanib, undan kenin applikatsiya eskizi, qog‘oz tanlash, kerakli detallarni qirqish, ularni fonga qo‘yish, yelimlash va nihoyat quritish jarayonlari keladi. Oddiy applikatsiyalar eskizsiz bajariladi.

Applikatsiya qilishda asosiy e’tibor uning umumiy kompozitsiyasiga qaratilishi kerak. Yaxshi o‘ylangan kompozitsiya, ya’ni tasvirlash lozim bo‘lgan narsalarni joylashtirish — applikatsiya muvaffaqiyatining garovidir.

Kompozitsiya yordamida figura va predmetlarning fazodagi holati aniqlanadi, tasvirlanadigan hodisalarning uyg‘unligiga erishiladi. Bu maqsadlarda masshtab va proporsiya, ritm yoki simmetriya sistemasi qo‘llanadi. Eskizni tuzishda applikatsiyaning kompozitsion markazini aniqlash muhimdir. Kompozitsiyaning barcha detallari, hatto eng kichiklari ham qog‘ozdan qirqiladi, ularni chizmaslik kerak, bunday qilinganda mazkur turning stili buziladi.

Tayyorlangan detallar yelimlanadigan sath, ya’ni fonga joylashtiriladi va o‘ylangan kompozitsiya hosil qilinadi, agarda bu kompozitsiya ma’qul bo‘lmasa detallar boshqacha joylashtiriladi. Detallarni yopishtirishda joyni adashtirmaslik uchun ularning o‘rnini qalam bilan belgilab qo‘yish kerak.

Elimlashda yelim fonga emas, detalga suriladi. yelimni detalning chetlariga yaxshilab surish uchun cho‘tka yelimlanayotgan detal chetidan chiqib, tagidagi qog‘ozga ham tegib o‘tishi kerak. yelimlangan detalning ustiga toza qog‘oz yozib, kaft bilan silab tekislanadi. Applikatsiyalar odatda qog‘ozning buralib ketmasligi,

tor kelmasligi uchun ustidan yengil bostirib quritiladi.



Eng oddiy applikatsiya bu geometrik figuralardan qilinadigan ornamental applikatsiyadir.

Avval ornament eskizi tuziladi, so‘ngra kerakli detallar (geometrik shakllar) o‘lchami va miqdori hisoblanadi. Detallarni tayyorlab ma’lum tartibda joylashtiriladi va yopishtirishni qaysi detaldan boshlash kerakligi aniqlanadi.

Misol tariqasida eng oddiy geometrik shakl — kvadratni olib, uning ritmik almashinishini hosil qilish uchun turli holatlarda joylashtirib ko‘ramiz. Bunda variantlarning ko‘pligini ko‘ramiz. Agarda kvadrat boshqa elementlar, masalan, uchburchak bilan to‘ldirilsa, variant yanada ko‘payadi. Ishni boshlash uchun markazni topish, simmetriya o‘qini o‘tkazish va ornament elementlarini shunga ko‘ra joylashtirish lozim.

Agarda geometrik figuralar kvadrat yoki aylanaga simmetrik joylashtirilsa, qiziqarli dekorativ ornament hosil bo‘ladi.

Geometrik shaklli applikatsiyalar. Bajarilish texnikasiga ko‘ra applikatsiyaning eng oddiy turlaridan biri geometrik shaklli applikatsiyalardir. I-III sinflar o‘quvchilari geometrik shaklli applikatsiyalarni bajarishda quyidagi bilimlarni egallaydilar.

Geometrik shakllar: kvadrat, to‘g‘ri burchak, uchburchak, aylana qog‘oz bo‘lagidan va o‘lchov asboblari yordamida hosil bo‘lishi haqidagi mavjud bilimlarini mustahkamlaydilar.

Badiiy didni o‘stiradilar, rasm darslarida chiziq, doira, kvadratda ornamentlar tuzish bo‘yicha olingan bilimlarni chuqurlashtiradilar.

Ayrim predmetlarni detalma-detal tahlil qilib, geometrik shakllarni to‘g‘ri

idrok etishni o‘rganadilar. Masalan, archa bir-biriga kiygazilgan uchburchakka o‘xshaydi yoki yuk mashinasi turli o‘lchamdagi to‘g‘ri burchaklardan, g‘ildiragi aylanadan tashkil topgan. Ko‘pgina predmetlarni ana shunday hal qilish va ularni geometrik shakllar yordamida qog‘ozda tasvirlash mumkin.

Bolalarning “ko‘p”, “kam”, “uzunasiga”, “ko‘ndalangiga”, “qism” va “qatlam”, “ikki qismga qirqish”, “to‘rt qismga”, “teng qismlarga” kabi tushunchalari mustahkamlanadi.

Bolalar ranglar uyg‘unligini to‘g‘ri tanlashni o‘rganadilar. Ularda estetik did tarbiyalanadi.

Geometrik shaklli applikatsiyalarni ham dekorativ — ornament, predmet, syujetli applikatsiyalarga ajratish mumkin.

O‘quvchilar bajaradigan birinchi ish — bu qog‘oz bo‘lagi, kvadrat, doira, to‘g‘ri burchak hamda ovaldan turli geometrik shakllarni yasay olishdir. Bu ishni bajarish uchun o‘quvchilar rangli varaqdan bo‘lakni qirqib oladilar. Buning uchun ular varaqning har ikkala tomoniga bir xil masofada nuqtalar qo‘yadilar va ularni chizg‘ich bilan birlashtirib, qog‘oz chiziqini shu belgilangan chiziq bo‘yicha qirqib oladilar. Qirqib olingan qog‘oz chetlarini bukish bilan kvadratlar olinadi. Applikatsiya yopishtiriladigan qog‘oz ikkiga buklanadi va buklangan joyini silab iz tushiriladi. Qog‘ozni ochib, detallar iz bo‘ylab yopishtiriladi. Avval kvadrat yopishtiriladi, so‘ngra keyingi kvadratdan taxlash yo‘li bilan 4 ta kvadrat olinadi va ular ham yopishtiriladi, keyingi kvadratdan uchburchaklar qirqib yopishtiriladi. Navbatdagi darsda o‘quvchilar geometrik shakllardan ornament yasashlari mumkin.

O‘quvchilar har xil rangdagi 2 ta qog‘ozdan 6 ta kvadrat qirqadilar. Ornament yelimlanadigan qog‘ozni tayyorlab, o‘rtasiga chiziq tushirib kvadratlarni shu chiziq bo‘ylab joylashtiradilar. Ish ijodiy bo‘lishi mumkin. O‘qituvchi doskada kvadratlardan yasalishi mumkin bo‘lgan ornamentning bir necha variantlarini ko‘rsatadi va o‘z ornamentlarini topishni bolalarga havola qiladi. Kuni uzaytirilgan gruppalarda uchburchak yoki shunga yaqin shakllardan ornamentlar yasash mumkin. Doira, kvadrat va ovaldan ornamentlar yasash. Ornament detallari: turli o‘lchamdagi kvadrat, uchburchaklar tayyorlanadi. Kvadratda naqsh diagonal bo‘yicha tuziladi — bunda shakllarni simmetrik joylashtirish qulay. Doirada naqsh markazdan radiuslar bo‘ylab tuziladi.

Geometrik figuralardan predmetli applikatsiya. Bolalarning predmetlarni fazoviy idrok etishi rivojlanishi kerak. Bizni o‘rab turgan narsalar: uy, archa, daraxt, mashina, idish-tovoq, jonivorlar, gullar va shu kabilarni u yoki bu darajada geometrik shakllar bilan ifodalash mumkin.

O‘qituvchi istagan predmetni tanlashi mumkin. Uni bolalar bilan birgalikda ko‘rib, uning ayrim detallari qaysi geometrik shakllarga o‘xshashligi, ularni qanday o‘lchamlarda, qaysilarini kattaroq, qaysilarini kichikroq olish, qanday izchillikda

joylashtirish kerakligi aniqlanadi. O‘quvchilarni doira va ovalni qo‘lda tekis qirqishga o‘rgatish kerak. Buning uchun kvadrat shakldagi qog‘ozni to‘g‘ri buklab, burchaklari qirqilsa doira tayyor bo‘ladi. To‘g‘ri burchak shaklidagi qog‘ozni to‘rt buklab, burchaklari qirqilsa oval va unipg qismlari hosil qilinadi. Endi bu geometrik shakllardan applikatsiyalar (shar, qo‘ziqorin) yasash mumkin.

Rangli qog‘ozlardan olingan doiralar va ularning qismlari bilan applikatsiya bo‘yicha juda ko‘p geometrik ishlarni bajarish mumkin. Doiralarning har birini shunday joylashtirish kerakki, natijada talab qilinadigan kontur paydo, bo‘lsin. Ishni qo‘ziqorin, pufak kabi oddiy shakllarni bajarib I sinfdayoq boshlash mumkin. II-III sinflarda murakkabroq ishlarni bajarish, masalan, berilgan radiusdagi doirani chizish, doirani qismlarga bo‘lish mumkin. Bu ishlar o‘quvchilarda ijodiy va atroflicha tasavvurni, badiiy didni o‘stirishga yordam beradi. Bolalarda qo‘yilgan maqsadga erishish yo‘lida qat’iyatlilik, tartiblilik tarbiyalanadi, uyushqoqlik bilan ishlash, ko‘rsatmalarga rioya qilish, tashabbuskorlik ko‘rsatish ko‘nikmalari shakllanadi. O‘quvchilar tayyorlagan applikatsiyalar ona tili va mamavzutika darslari uchun ajoyib didaktik material, o‘quvchilar nutqini o‘stirish vositasi bo‘lishi, ularning predmetlar shakli, rangi, fazoda joylashishi haqidagi tushunchalarini boyitishga xizmat kilish mumkin. Bunday applikatsiyalar bilan ishlash o‘quvchilarga sirkul bilan ishlashni, sirkul yordamida aylanani qismlarga ajratishni o‘rgatadi.

O‘qituvchi o‘quvchilar bilan suhbatda ko‘pgina predmetlar rasmdagi shakliga o‘xshashligini, mashina, traktor, samolyotlarning ham ko‘pgina qismlari doira shaklida ekanligini aniqlaydi. O‘qituvchi doirani qanday chizish va uni qismlarga ajratish usullarini ko‘rsatadi, masalan, doirani uch qismga ajratish uchun sirkul ninasini aylana chizig‘idagn istagan nuqtaga qo‘yish va aylana chizilgan radius bilan shunday yoy yasash kerakki, u doira chizig‘ini ikki nuqtada kesib o‘tsin. Bu yoy doira markazidan albatta o‘tishi shart. Shundan so‘ng qalamning uchini ayni doira bilan kesishgan nuqtasiga, sirkul ninasini doira chizig‘iga qo‘yib ikkinchi yoy chiziladi. O‘quvchilar bu ikki yoy doirani uch teng qismga bo‘lishiga ishonadilar. O‘quvchilar bu uchala kesishish nuqtasini chizg‘ichda to‘g‘ri chiziq chizib doira markazi bilan birlashtiradilar. So‘ngra doirani qirqib olib, shu chiziqlar bo‘yicha uni uch qismga ajratadilar. O‘qituvchi doirani har bir qismining chegarasi ikki radius va yoydan iboratligini tushuntiradi. O‘qituvchi o‘quvchilarga doskadagi chizmaga qarab doirani qanday qilib 6 qismga bo‘lish mumkinligini o‘ylashni topshiradi. O‘quvchilar doirani uchga bo‘lish, so‘ngra sirkul ninasi turgan joyga nuqta qo‘yish kerakligini aniqlaydilar. Keyin doira markazidan chiziq o‘tkazib, uni ikkiga bo‘ladilar. Doirani 8 qismga bo‘lish uchun dastlab uni 4 ga bo‘ladilar, so‘ng to‘rtdan bir qismining har birini to‘g‘ri chiziq bilan ikkiga bo‘ladilar. Bo‘lish sirkul bilan bajariladi, uning o‘lchami doira radiusiga tengdir.

Bir rangdagi qog‘ozdan simmetrik tuzilishdagi tasvirlarni qiyish uchun ma’lum geometrik shakldagi kvadrat qog‘oz, to‘g‘ri burchak olinadi. Agarda predmet dumaloqroq (olma, pomidor, olcha va shu kabilar) bo‘lsa kvadrat, agarda cho‘zinchoqroq (bodring, sabzi, daraxt va shu kabilar) bo‘lsa to‘g‘ri burchak olinadi. Qog‘oz ikkiga buklanib, unga predmetning yarim silueta chiziladi, bunda uning markazi bukilgan chiziq bo‘yicha o‘tadi va qirqib olinadi. Qirqib olingan siluet yoyilganda, predmetning to‘liq chizilgan shaklini ko‘ramiz. Bolalar qirqish ko‘nikmasini egallab olganlaridan so‘ng ko‘pgina predmetlarning konturini chizishda asosiy xususiyatlari saqlab qolinishi muhimdir. Shuning uchun biror predmetning konturini tushirishdan oldin, uni yaxshilab ko‘rib chiqish, shaklini o‘rganish, proporsiyasini aniqlash kerak.

Ko‘p rangli applikatsiyalarni qirqish anchagina murakkab ish bo‘lib tasvirni qismlarga ajratish bilan aloqadordir. Bu turdagi applikatsiyani bajarishda fonni tanlash muhimdir. Fon ifodalanadigan predmetlar rangidan ochroq bo‘lishi kerak. Ana shunda predmet xuddi bo‘rtib turgandek, yorqin ko‘rinadi. Hammasi o‘ylangan kompozitsiyaga bog‘liq. Fonda joylashadigan detallar rangi ham shunday tanlanadi, detallarning tabiiy joylashishi va ular o‘lchamlarining uyg‘unligiga e’tibor berish kerak. Bu ishlarni bajarishning bir necha usullari mavjud: ayrim detallar konturlarini oldindan belgilamay qirqiladi; ayrim detallar esa belgilangan natura eskizlar bo‘yicha qirqiladi.

Applikatsiyalarning ifodaliligi va jonliligiga erishishning usullari ko‘p. Ayrim detallarning tag qismida kesiklar qilinib, yelimlashda boshqa qog‘oz qo‘yiladi.

Dekorativ applikatsiya o‘zining ornamentalligi, shaklining umumlashganligi, rangi bilan ajralib turuvchi tasvirlardir. Rang real yoki shartli bo‘lishi mumkin.

Qog‘ozdan qilinadigan dekorativ applikatsiya keng qo‘llaniladi. Applikatsiyaning bu turi bilan tabrik telegrammalari, taklifnomalar, albom va shu kabilar bezatiladi.

Dekorativ applikatsiyalarni bolalar kitob va jurnallari va boshqa materiallardan olish, ayrim elementlarni qo‘lda yaratish mumkin. Sharq naqshi applikatsiyaning bu turi uchun boy materialdir. Aytib o‘tilganidek, har bir milliy ornamentga ular atrofidagi tabiat tasviridan kelib chiquvchi o‘ziga xos xususiyatlar xarakterlidir. Dekorativ applikatsiya bir va ko‘p rangli bo‘lishi mumkin.

Shakliga ko‘ra ornamentlar cheksiz va cheklangan bo‘ladi. Cheksiz orgamentda uni tashkil etuvchi ayrim elementlar ritmik yoki simmetrik almashinib turadi. Bu elementlarning rangi, shakli bir xil bo‘lishi kerak.

Cheklangan ornament bir shakl kvadrat, to‘g‘ri burchak, doira, oval va shu kabilar ichiga joylashadi yoki erkin kompanovka qilinadi. Undagi elementlar ham xuddi fazoviy uyg‘unlikda bo‘lishi kerak.

O‘zbek milliy ornamenti ustida to‘xtalib o‘tamiz.

O‘zbekiston halq amaliy san’atida ham cheksiz, ham cheklangan naqshning asosiy elementlari — g‘o‘za bargi, paxta chanog‘i, paxta guli, quyoshni ifodalovchi doiradir. Buralib ketuvchi chiziqlar go‘yoki nozik shoxlardek elementlarni bir-biri bilan birlashtirib, naqshga o‘ziga xos xususiyat baxsh etadi.

O‘zbek naqshining hoshiyasidagi ochilgan paxta chanog‘i bir element, bargi — ikkinchi, yarim ochilgan chanoq — uchinchi elementdir.

Syujetli applikatsiya: Syujetli applikatsiya kompozitsiyasiga ko‘ra oddiy va murakkab bo‘lishi mumkin. Murakkab syujetli applikatsiya ertaklar, hikoyalar va shu kabilarga illyustratsiya sifatida yasaladi. Agarda syujet oddiy bo‘lsa tasvirlarni oldindan belgilamay qirqish mumkin.

Tegirmon. Bu syujetli applikatsiya detallari unchalik murakkab emas: bulut, o‘rmon, uning olisdagi ko‘rinishi yaqin ko‘rinadiganiga ko‘ra to‘qroq rangda bo‘ladi, anhor, anhor sohili, o‘tlar va to‘g‘ri burchak shaklidagi tegirmon qirqiladi. Ularni qog‘oz ustiga joylashtirib yopishtirish boshlanadi. Avval bulut, so‘ngra olisdan ko‘rinadigan qismi yelimlanadi. Endi suvni ifodalovchi rangli qog‘oz (yaxshisi rangli sellofan) olinadi, ana shundan keyin qirg‘oqlar va nihoyat kompozitsiyaning asosiy qismi tegirmon yelimlanadi. Bu ishda faqat turli navlardagi qog‘ozdangina emas, balki boshqa material - rangli sellofandan ham foydalaniladi.

Murakkab syujetli applikatsiya ham syujet tanlashdan boshlanadi. Agarda syujetni o‘quvchining o‘zi o‘ylab topgan bo‘lsa, bu rasm chizish malakasiga ega bo‘lsa, unda avval syujetning rasmi, so‘ngra rasmlar detallari chiziladi va qirqib olinadi. Ayrim detallar turli rangdagi qog‘ozlardan qirqiladi. Agarda o‘quvchi rasmni yaxshi chiza olmasa, u tanlangan rasmdan kalka qog‘oz yordamida nusxa ko‘chirishi mumkin. Bu rasm ayrim detallarga ajratiladi, har bir detalni (ma’lum

rangga qo‘yib) rangli qalam bilan atrofi chizib chiqiladi. Ularni qirqib olib, syujet yoki narsa detallari qog‘ozda yig‘iladi. Predmet yoki syujetning tabiiy ko‘rinishiga putur yetmasligi uchun ularning qaysi tartibda yelimlanishi belgilanadi va ishga kirishiladi.

Kichraytirish va kattalashtirish usuli yordamida rasmlardan kattalashtirib yoki kichiklashtirib applikatsiyada foydalanish mumkin.

Mavzulik applikatsiya. Mavzutik applikatsiya ma’lum mazmunni aks ettirishi lozim u badiiy asar uchun illyustratsiya, applikatsiyaplakat bo‘lishi mumkin. Badiiy mavzutik applikatsiya ishi predmetlar formasini, asosiy proporsiyalarni, qismlarning o‘zaro aloqasini, manzara va narsalarning hajmini, rangini, soya va yorug‘lik tushayotgan tomonini munosib rang berib ko‘rsatish kabilarni ifodalashi kerak.

Badiiy applikatsiya mavzu ishlarni yaratish faqat texnologiyani emas, balki badiiy tayyorgarlikni ham talab qiladi. Texnologiya ta’limi darslarida applikatsiya ishlarini bajarish texnikasi o‘rganiladi.

Plakat applikatsiyasi mavzutikasining elementlarini o‘quvchilar turli bayramlarga bag‘ishlangan tabrik telegrammalari, yo‘l belgilari va shu kabilar tarzida bajaradilar.

Ish mavzu va fikrni tanlashdan boshlanadi. Ko‘pincha ochiq tondagi qog‘oz fon tarzida tanlanadi. Applikatsiyaga qaratilgan kompozitsiya va elementlar miqdori qog‘ozni tanlashni belgilaydi. Kompozitsiya ustida ishlaganda asosiy e’tibor tanlangan mavzuning mazmuniga, kerakli materiallar, ularning o‘lchamlari, ranglarini tanlashga qaratiladi. Kompozitsiya hajmiga ko‘ra eng katta element asosiy mavzutik element bo‘lishi kerak.

“Bahor” mavzusida applikatsiya. 1-sinf o‘quvchilari uchun 8 Mart “Halqaro xotin-qizlar” kuniga atab oddiy qog‘oz yoki tabriknomada bajarilgan ish mavzuni umumlashtiruvchi ish bo‘lishi mumkin. Bu ishda bolalar andaza bilan ishlaydilar, taxlash va simmetrik qirqishni eslaydilar, chamalash ko‘nikmalarini sinaydilar va yupqa qog‘ozdan ingichka oq yoki sariq to‘g‘ri chiziqlarni qirqadilar. Quyosh uchun kvadrat qog‘ozdan doira qirqsa bo‘ladi. Bolalar yasagan gullar turlicha bo‘lishi mumkin. Novdalar ham qo‘lda qirqiladi.

Suhbatni o‘qituvchi “8 Mart kuni” haqida olib borishi mumkin va bunda u sovg‘a masalasini albatta eslatib o‘tadi. Nima sovg‘a qilish mumkin-u, nima mumkin emas, eng yaxshi sovg‘a o‘z qo‘ling bilan yasalgan sovg‘adir.

O‘qituvchi suhbatni qahramon ayollarga, Ulug‘ Vatan urushi qatnashchilari

bo‘lgan ayollarga bag‘ishlashi mumkin. Mavzu o‘quvchilar bilan ilgari o‘tkazilgan suhbatlar mavzuiga ko‘ra tanlanadi.

Shundan keyin namuna ko‘rib chiqiladi, uning elementlari, ish usullari, kerakli materiallar aniqlanadi, ishning borishi belgilanadi:

a) taklifnoma yoki papka uchun qog‘oz tayyorlanib, u ikkiga buklanadi;

b) ko‘k rangdagi qog‘ozga to‘g‘ri burchak chiziladi, uning o‘lchami uzunasiga papka, taklifnoma ustining uzunligidan 1 sm kam, eniga esa enining yarmidan 2 sm atrofida kattaroq;

v) ko‘k qog‘ozdan qirqilgan to‘g‘riburchak taklifnomaning ustiga yopishtiriladi, bunda ko‘k qog‘oz taklifnomani bo‘yashda halaqit bermasligi uchun bukish chizig‘ining chap tomonidan ozgina joy qoldirib yopishtiriladi;

g) endi quyosh va uning nurlari uchun yoy qirqiladi. Buning uchun kvadrat shakldagi qog‘ozni kerakli o‘lchamda qirqiladi;

d) namuna asosida quyosh nurlari qirqiladi;

e) och ko‘k yoki jigar rang qog‘ozdan ikkita shoxcha qirqib, namunadagidek yopishtiriladi; gullar qirqib yopishtiriladi.

Ish ijodiy tarzda bo‘lganligi uchun o‘quvchilar gullarni shoxchalarga mustaqil joylashtiradilar. Barglar o‘qituvchi tarqatgan andaza bo‘yicha qirqiladi. Taklifnomaning ichki tomoni naqsh bilan bezatilib, tekst yoziladi.

Texnik tafakkurni rivojlantirish, konstruktorlik ko‘nikma va malakalarini tarbiyalash — texnologiya ta’limi darslarida o‘qituvchi oldida turgan muhim vazifalardan biridir. Bu vazifa turli materiallarga ishlov berish jarayonida hal etilishi kerak. Istalgan darsda o‘quvchilarning aktiv texnik tafakkurlari uchun ish topiladi. O‘qituvchi o‘quvchilar oldiga yechish uchun bir qator texnik vazifalarni qo‘yib, ularning fikrini kerakli yo‘lga yo‘llashi lozim. Ana shunday uyushtirilgan darslarda o‘quvchilarda biror narsani mustaqil ishlab chiqish: buyumni, u yoki bu detalning shaklini o‘zgartirish, yangi detallar bilan to‘ldirish, hisobkitob qilish, detallar

rasmlarini kattalashtirish yoki kichiklashtirish, bir materialni ikkinchisi bilan almashtirish, buyumni tayyorlash texnologiyasini o‘zgartirishi uni bezashni o‘ylab chiqish kabi fikrlar ko‘proq tug‘iladi.

Savol va topshiriqlar:

1. Applikatsiya nima va qanday turlari bor?
2. Applikatsiyalarni tayyorlash necha bosqichli bo‘ladi?
3. Applikatsiya turlaridan foydalanib tabiat ko‘rinishini yasash.

Foydalanilgan asosiy adabiyotlar:

1. R.A.Mavlonova., M.T.Satbayeva. O‘quv ustaxonasida amaliy mashg‘ulot. Toshkent «ILM ZIYO» 2010 y.

2. R.A.Mavlonova., M.T.Satbayev. O‘quv ustaxonasida amaliy mashg‘ulot. Toshkent «ILM ZIYO» 2011 y. II-nashr.

3. Маргрет Коерсидр. “Большая книга поделок” Фречверлад, Германия, 2010 г.

4. Г.Анохина, А.Кацияева “Весёлые фигурки и забавные модели из бумаги” Ростов-наДону, “ИД.Владис” 2012 г.

5. А.Гаврилова “Узоры и орнаменты из бумаги” М., 2012 г.

MAVZU: MOZAIKA (NAQSH) HAQIDA MA’LUMOT

Reja:

1. Mozaika san’ati haqida ma’lumot berish.
2. Qog‘ozdan mozaika yasash haqida ma’lumot berish.
3. Qog‘ozdan mozaika yasash texnologiyasini amaliy ko‘rsatish.
4. Yog‘ochda mozaika qilish.
5. Rangli qog‘ozdan mozaika qilish.

Tayanch so‘z va iboralar: Mozaika, asboblar, yelimlash, jurnal stollari, yodgorliklar, lo‘nda, dekorativ, tasvirli yaltiroq polirovka, mozaika asarlari, dekorativ sa’nat, oyna, sapol, plita.

Mozayka. Mozayka monumental dekorativ sa’nat turlaridan biridir. Turli davrlarda va turli mamlakatlarda mozayka qo‘llaniladigan materialga ko‘ra xam, naqsh va rasmlarga ko‘ra xam o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lgan. O‘rta Osiyo madrasalari, machitlar, hukmdorlarning saroylarimozayka bilan bezatilgan. Mozayka xozirgi kunda monumental sa’natga aylangan. Mozayka bilan binolarning tashqi qismlari, devorlari va halq amaliy sa’nati asarlari bezatiladi. Mozayka ishlarida oyna, sapol plitalaridan, marmar tosh bo‘lakchalaridan foydanaladi.Loasda

rangli ko‘zguparchalaridan ajoyib mozayka asarlari yaratiladi, ular quyoshda bir-biriga qo‘shilib va porlab, shodlik kayfiyatini yaratadi. Mazayka ishlariga bisser munchoqlaridan safol idishlarga bezak berishda xamda matolarga chizilgan badiiy obrazlarni bezatishda ishlatish xam mumkin. Mozayka bu rasm satxida ayrim-ayrim parchalar (qog‘oz, oyna, sapol, gul barglari, bisser muynchoqlar, turli meva savzovot urug‘lari,tuxum po‘sti va shu kabilar) qo‘yib chiqishdir.

1. Qog‘ozdan mozayka ishlarini bajarish uchun keraksiz chiqindi rangli qog‘oz bo‘laklarini oladi.

2. Qog‘oz bo‘laklari tanlangan rasmga ko‘ra mayda va yirik bo‘laklarga bo‘linadi.

3. Qog‘oz bo‘ladigan mozayka qilishda shunday tasvirni tanlash kerakki ularning konturlari mumkin qadar tekis va mayda egri-bugrilari bo‘lmasligi kerak.

4. Kontur qora qog‘oz orqali o‘tkaziladi yoki shablondan aylantirib chiziladi.

5. Avval rasm sathining bir qismiga elim surtiladi.U erga qog‘oz bo‘lagi bittalab terib chiqiladi, keyin ikkinchi qismiga xam shu tartibda davom ettiriladi.

6. Ortiqcha elim toza latta bilan artib tozalanadi, qog‘oz yaxshiroq yopishishi uchun ustidan sekin bosib qo‘yiladi.

Bunday ish odatda eng oddiy konturlardan boshlanadi. Keyinroq konturlar ancha murakkablashadi.

Mamlakatimizda yetishtiriladigan turli meva savzabotlar, poliz ekinlarining urug‘lari, danak, bisser muynchoqlar, chig‘anoq, mayda toshlar xamda tuxum po‘choqlari bilan xam xilma-xil mozayka ishlarini bajarish mumkin.

Mozaika sa’nati haqida

Mozaika monumental dekorativ sa’nat turlaridan biridir. Turli davrlarda va turli mamlakatlarda mozaika qo‘llaniladigan materiallariga ko‘ra ham naqsh va rasmlarga ko‘ra ham o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lgan. O‘rta Osiyoda madrasalar, masjidlar, hukmdorlarning saroylari mozaika usulida bezatilgan.

Hozirgi kunda mozaika bilan binolarning tashqi qismlari, devorlari va halq amaliy sa’nati asarlari bezatiladi. Mozaika ishlarida oyna, sopol, plitalardan, foydalaniladi.

Rangli ko‘zgu parchalaridan ajoyib mozaika asarlari yaratilgan, ular quyoshda bir-biriga qo‘shilib va porlab shodlik kayfiyatini yaratadi.

Qog‘ozdan mozaika usulida mevalar shaklini yasash texnologiyasi taqdimoti

1. Rangli qog‘ozni bo‘laklarga bo‘lib olamiz.

2. Qog‘oz bo‘lagini mayda qilib uchburchak, to‘rtburchak doira shakllarda kesib olamiz.

3. Nokning rasmini chizib olamiz.

4. Maydalangan qog‘oz bo‘laklarini rasmga yopishtirib chiqamiz

O‘qituvchi dars jarayonida partalarni oralab yurib, o‘quvchilarga kerakli ko‘rsatmalarni berib boradi. Yaxshi va yomon bajarilayotgan ishlardan namunalar ko‘rsatib tegishli amaliy yo‘l-yo‘riqlar beradi.

Qog‘ozdan mozaika ishlaridan namunalar

So‘ngi yillarda yog‘ochning turli navlaridan mozaika qilish keng tarqaldi. Uni ustaxona sharoitida ham amalga oshirish mumkin. Yupqa yog‘och plastinkalar (bir qavatli fanera)dan tasvir yig‘iladi va keyin ularni asosga yelimlab, ustidan lak yoki politra beriladi.

Yog‘och mozaika nabori juda qiziqarli va ishning zamonaviy turidir. Uning aniq, lo‘nda, dekorativ tasvirli yaltiroq polirovka qilingan sathi xonadonlarning zamonaviy planirovkasiga, devorlar rangi, mebellarning qat’iy qatoriga juda mosdir.

Mozaika bilan mebellarni, jurnal stollari, yodgorliklar va ko‘pchilik shu kabi narsalarni bezashi mumkin,

Yog‘ochga qo‘l asboblari bilan ishlov berganda xavfsizIik texnikasining ma’lum qoidalariga rioya qilinishini talab qiladi. Asboblar va moslamalarni ishlatish qoidalarini bilish uni ishlatayotgan har bir kishi uchun majburiydir.

QOIDAGA RIOYA QIL!

1. Ishni hech qachon o‘qituvchini ruxsatisiz boshlama!
2. Asboblarni faqat o‘z o‘rnida ishlat!
3. Yaroqsiz asbob bilan ishlama!
4. Ishni chet ishlarga chalg‘imay bajar!
5. Asbob-uskunalarni o‘zi uchun belgilangan joyda saqla!
6. Uzun kiyimda bo‘lma, yengingni shimar, choklarini yig‘!
7. Materialni qo‘lda yo‘nma!
8. Osilib turganda kesma!
9. Pichoq bilan o‘zing, o‘rtog‘ing tomonga qarab yo‘nma!
10. Kesilga, tilingan, shilingan joylarni yuvib, yod surtib, toza bint bilan bog‘la.

Mozaika ishini bajarishda rangli qog‘ozlarni to‘rtburchak, ucburchak, rombik va doira shaklida kesish mumkin.

Foydalanilgan asosiy adabiyotlar:

1. Sanaqulov X.R, Xodieva D.P, Sanaqulova A.R. “Texnologiya” 3-sinf uchun darslik . –T:. Sharq, 2019.
2. X.Sanaqulov, D.Xodieva “Boshlang‘ich sinflarda qog‘ozdan amaliy ishlar” metodik qo‘llanma 2012 yil T:.Ipak yo‘li poligraf, 2012.
3. Sanaqulov X.R, Xodieva D.P «Boshlang‘ich sinflarda tabiiy materiallardan amaliy ishlar» o‘quv-metodik qo‘llanma 2009 yil. TDPU.
4. Nurmatova M.Sh. “Mehnat tarbiyasi” Toshkent. TDPU. 2005-y

MAVZU: TUXUM PO‘CHOG‘IDAN O‘YINCHOQLAR TAYYORLASH VA MOZAIKA

Reja:

1. Tuxum po‘chog‘idan buyum yasash.
2. Tuxum po‘chog‘idan ”Sichqoncha” yasash.

Tayanch so‘z va iboralar: Tuxum, applikatsiya, jihoz, mozaika, asboblar, kaptar, baliq, masxaraboz, kemacha, jo‘ja va archa o‘yinchoqlari, Guash, oddiy qalam, flomaster, mo‘yqalam, qaychi, kurakcha.





Tuxum po‘chog‘idan buyum yasash. Tuxum po‘choqlaridan bajariladigan applikatsiya ishi uchun kerakli jihozlar: rangli, ertakli kitobchalar, oq qog‘oz yoki rangli qog‘oz, kalka (xitoy qog‘oz), PVA yelimi, tozalab yuvib quritilgan tuxum po‘chog‘i, akvarel bo‘yoq, qora qalam, qora flomaster, rangsiz lak (PF-284). Tuxum po‘chog‘idan buyum yasash uchun tuxum po‘chog‘ini maydalangan va butun holda saqlash mumkin. Tuxum po‘chog‘ini butun asrash uchun tuxumning ikki uchi teshiladi va uning ichidagilari puflab chiqariladi. Buning natijasida ichi bo‘sh tuxum po‘chog‘iga ega bo‘linadi.

Bunday tuxum po‘chog‘i sinuvchan bo‘lganligi uchun qutichalarda saqlash kerak. Butun tuxum po‘chog‘i va tuxum po‘chog‘ining maydalanganidan mozaika

tayyorlash mumkin. Masalan: kaptar, baliq, masxaraboz, kemacha, jo‘ja va archa o‘yinchoqlari. Avvalo tuxum po‘chog‘ini yuvib, quritib, xovonchada maydalanadi. Juda kukun bo‘lib ketmasligi kerak. So‘ngra rangli fonga tasvirni kalka qog‘ozi yordamida qora qalamda tushirib olinadi va ustidan qora flomaster bilan tasvir yurgizib chizib chiqiladi, uning ketidan PVA yelimi surtiladi. Jarayonda tezlik bilan ishlash talab qilinadi. Sababi yelim qotib qolmasligi kerak. Surtilgan yelim ustidan maydalangan tuxum po‘chog‘ini qo‘lda sepib, gazeta bilan bosib chiqiladi. Yopishgan tuxum po‘chog‘i tasvirda qoladi. Yopishmagani to‘kiladi. Shundan keyin bo‘yash ishini boshlash mumkin. Tasvirni rangli kitobchadagi tasvir rangiga qarab akvarel bo‘yoqda bo‘yaladi. Bo‘yoqni iloji boricha suvga nisbatan ko‘proq ishlatish lozim. Bitta bir xil rangga bo‘yab quritib, ikkinchi rangni bo‘yashga kirishiladi. Bo‘yoq qurigach rangsiz lakda laklab chiqiladi. Shunda tuxum po‘chog‘i yaxshi yopishadi va yaltirab turadi.

Tuxum po‘chog‘idan “Sichqoncha” yasash.

Kerakli ashyolar: tuxum po‘chog‘i, pushti rangdagi qog‘oz yoki shu rangdagi mato, plastilin, PVA yelimi, qaychi, mo‘yqalam, flomaster va qalam.

Bajarish usuli: shablon asosida sichqonchaning qulog‘ini ikki buklangan qog‘oz yoki matodan qirqasiz, quloqlarini o‘rtasidan qirqib bir-biriga yelimlaysiz va ozgina buklab, tuxumga yelimlanadi. Ingichka kesma qog‘oz mo‘ylovi uchun qirqiladi. Flomaster yordamida ko‘zi, og‘zi, mo‘ylovlari chiziladi. Qulog‘i va dumi yelimlanadi. Plastilindan kichkina dumaloq qilib tuxumning uchiga yopishtiriladi (bu burni). Ustidan yelim surtib qo‘yiladi.

Tuxum po‘chog‘idan “Baliqchalar” yasash.

Kerakli ashyolar:

Tuxum po‘chog‘i (guashda bo‘yalgan holatda).

Rangli qog‘oz (suzgichi, dumi, ko‘zi uchun).

Guash, oddiy qalam, flomaster.

PVA yelimi, mo‘yqalam, qaychi, kurakcha.

Bajarish usuli: Baliqcha suzgichi, ko‘zi flomaster yordamida chiziladi.

Tuxum po‘chog‘idan “Masxaraboz” archa o‘yinchog‘ini yasash.

Kerakli ashyolar: tuxum po‘chog‘i, rangli qog‘oz, PVA yelimi, gugurt cho‘p, ip, plastilin.

Bajarish usuli: “Masxaraboz” o‘yinchog‘ini yasash uchun ichi bo‘shagan tuxum po‘chog‘ini olinadi.

U qimirlamasligi uchun tagiga ozgina plastilin qo‘yish kerak. Rangli qog‘ozdan eni 2sm li kesma qog‘oz qirqiladi, uni qat-qat qilib buklaymiz va tuxum po‘chog‘ini plastilin bilan qo‘yilgan joy atrofiga yelimlaymiz, bu masxarabozning yoqasi bo‘ladi. Endi yarim doira shaklida 6 sm li qog‘oz olib, undan konus shaklini hosil qilish

mobaynida I sm li gugurt cho‘piga 12 sm li ipni ikki buklab bog‘lab, tuxum po‘chog‘ining teshikchasi ichiga joylashtiramiz, uning atrofini konus qilib yelimlasak, ilgich hosil bo‘ladi. Rangli qog‘ozdan masxarabozning ko‘zi, qoshi, og‘zini qirqib yelimlaymiz. Shu bilan masxaraboz o‘yinchog‘i tayyor bo‘ladi.

Savol va topshiriqlar:

1. Tabiiy materil tuxum po‘chog‘idan mozaika qilish bosqichlari qanday?
2. Butun tuxum po‘chog‘idan qanday o‘yinchoqlari tayyorlash mumkin?
3. Tuxum po‘chog‘idan o‘yinchoqlar tayyorlash.

Foydalanilgan asosiy adabiyotlar:

1. R.A.Mavlonova., M.T.Satbayeva. O‘quv ustaxonasida amaliy mashg‘ulot. Toshkent «ILM ZIYO» 2010-y.

2. R.A.Mavlonova., Satbayeva M.T. O‘quv ustaxonasida amaliy mashg‘ulot. Toshkent «ILM ZIYO» 2011-y. II-nashr.

3. Н.Б.Троицкая «Нестандарние уроки и творческие занятия» ДРОФА 2006 г.

4. С.Гринт, “Природный материал” Москва, АЙРИС-ПРЕСС 2005 г.

5. Н.Белова, “Игрушки к празднику” Москва Эксмо издательство “Домино” 2005 г.

6. Э.К.Гулянс, И.Й.Базик “Что можно сделать из природного материала” 2000 г.

MAVZU: SOMONDAN KOMPOZITSIYA TAYYORLASH

Reja:

1. Poxolsomondan sanoatda to‘qish va dekoratsiya, applikatsiya ishlari.
2. Somonni applikatsiya va bezash ishlarida ishlatishga tayyorlash.

Tayanch so‘z va iboralar: Poxol, somon, apllikatsiya, bezak, qamish, poya, bug‘doy, javdar, arpa somonlari, qutichalar

Poxol (somon). Poxolsomondan sanoatda to‘qish va dekoratsiya, applikatsiya ishlarida (qutichalar, panellar, qalamdonlar) va shu kabilarga bezak berishda foydalaniladi. Bu maqsadda bug‘doy, javdar, arpa somonlari ishlatiladi. Agarda bu o‘simliklarning poyasi yaxshilab ko‘rib chiqilsa, poyaning o‘zaro bo‘g‘imlar bilan birikkanligini, eng yuqoridagi qismi ingichkaroq, uzunroqligini ko‘rish mumkin. Poya ana shu bo‘g‘imlardan qirqib, qismlarga ajratiladi. Qirqilgan poya qismlari ko‘rinishi va uzunligiga ko‘ra sortlarga ajratiladi: eng uzuni I sort, kaltarog‘i II, eng qisqasi III sort.

Applikatsiya va bezash ishlarida ishlatishdan oldin somon bog‘lami tog‘oraga solinib, ustidan qaynoq suv quyiladi va tog‘orada bir sutka saqlanadi. Bir sutkadan so‘ng uni tog‘oradan olib, suvi silqitib tushiriladi va har birini uzunasiga o‘rtasidan bo‘linadi.

Qirqqanda pastdan yuqoriga qarab qirqiladi. So‘ngra somonning qirqilgan tomonini pastga qilib qo‘yib, silliq qilib dazmollanadi. Dazmolning qiziganlik va dazmollash vaqtiga ko‘ra somonni turli rangga kiritish mumkin. Masalan, ochsariq, sariq, och jigarrang, jigarrang. Dazmollangan somon ehtiyotlik bilan qutichaga solib qo‘yiladi.

Agarda somondan narsalar yoki qo‘g‘irchoq to‘qiladigan bo‘lsa, uni tog‘oradan namligida olib, yumshoqlik vaqtida 4-5 somondan iborat lenta to‘qiladi yoki bog‘ qilib bog‘lab, qo‘g‘irchoq yasaladi, to‘qilgan somon lentadan turli narsalar: shlyapalar, karmonlar va shu kabilar to‘qiladi.

Yong‘oq, cho‘chqayong‘oq, meva va poliz ekinlarining urug‘lari (danaklari) keng tarqalgan, to‘plash va saqlash oson bo‘lgan material hisoblanadi. Yong‘oq ishlov berilishi oson hamda pishiq materialdir. Agar yong‘oqni, ayniqsa, yeryong‘oqni diqqat bilan kuzatib faraz qilinsa, u yoki bu obraz (yong‘oq, toshbaqa, qo‘ngiz, qayiqcha, yeryong‘oq, qush, jonivorlar, ular tanalarining, ayrim qismi) kishi ko‘z o‘ngiga keladi.

Cho‘chqa yong‘oqni yetilgan vaqtida usti yumshoqligida terib olish va ular ortiqcha qurib ketmasligi uchun issiqlik manbalaridan uzoqroqda saqlash kerak. Ana shunday qilinganda ularni teshish, qismlarga ajratish qiyin bo‘lmaydi. Cho‘chqayong‘oqni pallasi bilan birga yig‘ish kerak, chunki ulardan mustaqil narsalar yasash yoki narsalarning bezagi, bir qismi sifatida foydalanish mumkin.

Meva va poliz ekinlarining urug‘ (danak)larini yaxshilab yuvish, artish, quritish hamda qutichalarga solib qo‘yish kerak.

Qamish, g‘o‘zapoyani yaxshilab tozalash va ularni uzunliklariga moslab yasalgan quticha, g‘iloflarga solib qo‘yish kerak.

Sazan, karp, okun, sudak va shu kabi baliqlarning tangalarini shilimshiqligini ketkazish uchun avval issiq, so‘ngra sovuq suvda yaxshilab yuvish, gazeta yoki taxta ustiga quritish uchun yoyib qo‘yish kerak. Baliqning tangasi quritilganda buralib ketadi, shuning uchun ustiga fanera yoki qalinroq karton qo‘yib, narsa bostirib qo‘yish lozim.

Qushlar qanoti katta pat, tanalarini qoplaydigan pat, par bo‘ladi. To‘planayotgan patlar yog‘ va har xil chetnarsalardan tozalanadi. Oq patlilarni turli ranglarga bo‘yash qiyin emas. Rangli patlardan tabiiy ko‘rinishda foydalaniladi.

Patlarni bo‘yashdan oldin yog‘ va boshqa chet narsalardan tozalanadi. Buning uchun uni 10 protsentli sovun eritmasiga solib qo‘yiladi. Agarda patlarni bog‘lam qilib bog‘lab, eritmaga solinsa va eritma qaynash darajasigacha isitilsa yanada yaxshiroq bo‘ladi. Patlar ortiqcha qizib ketmasligi uchun uni eritmadan bir necha marta olib sovitiladi va yana eritmaga solinadi. Patlarni eritmadan olib, toza suvda chayiladi va ipga osib quritiladi.

Qurigan patlar anilin bo‘yog‘ining qaynoq eritmasiga solinadi.. Ipakni bo‘yaydigan bo‘yoqlardan ham foydalanish mumkin. Patni mo‘yqalam yordamida rangli lak bilan ham bo‘yasa bo‘ladi.

Tuxum po‘chog‘ini maydalangan va butun holda, saqlash mumkin. Tuxum po‘chog‘ini butun asrash uchun tuxumning ikki uchi teshiladi va uning ichidagilari puflab chiqariladi. Buning natijasida ichi bo‘sh tuxum po‘chog‘iga ega bo‘linadi. Bunday po‘choqni sinuvchan bo‘lganligi uchun qutichalarda saqlash kerak. Tuxum

po‘chog‘ining maydalanganligini har qanday xom va pishgan tuxumdan tayyorlash mumkin. Faqat ichki pardasi olib tashlanishi kerak.

Jo‘xori so‘tasi va bargini maxsus tayyorlash shart emas. yetilgan so‘taning po‘sti ajratilib, oftobda quritiladi. Qurigan po‘stlarni ishlatishdan oldin yoyib, ustiga 2—3 soat ho‘l latta yopib qo‘yiladi. Keragini bir chetidan olib ishlatilaveriladi.

Tomosha kovoqlarning tashqi ko‘rinishi, katta-kichikligi juda xilma-xildir. Olmadan tortib to xumchadek keladigan tomosha qovoqlar uchraydi.

Savol va topshiriqlar:

1. Tabiiy materil somondan kompozitsiya qilish bosqichlari qanday?
2. Poxolsomondan sanoatda to‘qish va dekoratsiya, applikatsiya ishlarini bajarish bosqichlarini aytib bering.
3. Somon(poxol) materialini qachon, qanday va qayerdan olinadi?
4. Quritilgan somondan kompozitsiya qilish.

Foydalanilgan asosiy adabiyotlar:

1. R.A.Mavlonova., Satbayeva M.T. O‘quv ustaxonasida amaliy mashg‘ulot. Toshkent «ILM ZIYO» 2011-y. II-nashr.
2. С.Гринт, “Природный материал” Москва, АЙРИС-ПРЕСС 2005 г.
3. Н.Белова, “Игрушки к празднику” Москва Эксмо издательство “Домино” 2005 г.
4. Э.К.Гулянс, И.Й.Базик “Что можно сделать из природного материала” 2000 г.
5. О.Черибрикова “Забавные подарки по поводу и без” Москва Эксмо., 2006г.

MAVZU: QOG‘OZ VA KARTON BILAN ISHLASH DARSLARINING MAZMUNINI TASHKIL ETISH METODIKASI

Reja:

1. Qog‘oz va karton haqida ma’lumot.
2. Qog‘oz va karton turlari va xususiyatlari.
3. Qog‘oz va karton bilan ishlash texnologiyasi.

Tayanch so‘z va iboralar: Qog‘oz, tarix, karton, ip, gazlama, kitob, chizma, rasm, yog‘och, qog‘oz, poxol (somon), ip, gazlama, makulatura, sathi silliq, yelim singdirilgan, yupqa egiluvchan, rangli jilo.

Odamlar asrlar davomida o‘z xotiralarini suyakka, toshga, hayvonlar terisiga bitik qilib kelganlar. Dastlabki kitoblar qoyalar bo‘lib, ibtidoiy odamlar unga

ovchilik qurol yarog‘lar, o‘rmon va sahroda yashovchi hayvonlarning rasmlarini qo‘yib, ishlaganlar. Qadim Hindistonda yozuvlar palma daraxtining barglariga bitilgan. Palma barglarini biriktirib kitob holiga keltirganlar. Eramizdan besh asr muqaddam uzoq sharq mamlakatlarida shoyiga yozish rasm bo‘lgan. Olimlar qog‘ozni birinchi marta ipak, namat tayyorlayotgan vaqtda paydo bo‘lgan deb, taxmin qiladilar. Bambuk qog‘oz tayyorlagan ustaning nomi bizga noma’lum. XIX asrda Saksoniyalik to‘quvchi Keller bo‘lib, qog‘oz tayyorlashda eng yaxshi xom-ashyo yog‘ochni maydalash usulini topdi.

Qog‘oz ishlab chiqarishda yog‘och poxol (somon) ip gazlama, eski ishlatilgan qog‘oz xomashyo hisoblanadi. Ip gazlamadan asosan qog‘ozning qimmatbaho va maxsus navlarini ishlab chiqarishda foydalaniladi. Poholda n karton, arash qog‘ozdan tayyorlash.

Makulatura turli navdagi qog‘ozlarni tayyorlashda yaxshi xomashyo hisoblanadi. Poxol va asosan yog‘ochdan, qog‘oz chiqarishning asosiy xom-ashyosi bo‘lgan sillyuloza tayyorlanadi.

QOG‘OZ HAQIDA MA’LUMOT

Bugungi kunda madaniy turmushimizni qog‘ozsiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Uzoq o‘tmishda esa qog‘oz bo‘lmagan. Uning o‘rniga iptidoiy jamoa kishilari baland qoyalardan, o‘simlik yaproqlaridan, hayvonlarning terilaridan foydalangan. Sho‘rolar davrida chop etilgan manbalarda qog‘ozning ilk vatani Xitoy deb ko‘rsatilgan. U yerda milodiy ikkinchi asrda o‘simlik tolalaridan qog‘oz ishlagan, hatto o‘tmishda qog‘oz ishlab chiqarilgan Yaponiya, Eron, Shimoliy Amerika, Ispaniya, Marokash, Italiya, Rossiya mamlakatlari ham tilga olingandi. Turkistondagi qog‘oz hunarmandchiligi Samarqandni suvo‘tmas ipagiday muloyim va sip-silliq qog‘ozlarni atayin tilga olinmaydi. Turkiston ma’daniyatidan ko‘z yumib o‘tish chorizm siyosatining bir ko‘rinishi edi. Shu sababli tarixdan biror misol keltirish kerak bo‘lib qolsa, Sho‘ro mafkurachilari iloji boricha uni g‘arbga olib borib taqardi, buni iloji bo‘lmasa Xitoyni ro‘kach qilardi. Turkiston halqlarining milliy g‘ururi uyg‘onishidan cho‘chib, ularni boy o‘tmish ma’daniyatidan iftixor tuyg‘ulari kuchayishidan qo‘rqishar edi. Qog‘oz haqida shuni aytish kerakki, qog‘ozning ilk vatani qadim Turon, Turkiston, bugungi O‘zbekiston qadim Samarqanddir.

Qog‘ozni kelib chiqish tarixining xususiyatlari haqida ma’lumot. Odamlar asrlar davomida o‘z xotiralarini suyakka, sopolga, toshga , hayvon terisiga yozib qoldirganlar. Dastlabki kitoblar - qoyalar bo‘lib, ibtidoiy odamlar unga ovchilik, o‘rmon va sahroda yashovchi hayvonlarni rasmini o‘yib tushirganlar Dastlabki yozuv sistemasi piktografiya "piktos" grekcha rasm ma’nosini anglatgan. Qadim Hindistonda yozuvlar palma barglariga bitilgan. Palma yaproqlarini quritib, ulardan plastinkalar qirqib olingan va tush bilan

yozilgan. Novgorod ruslari qayin po‘stlog‘iga yozganlar. Qadimgi greklar mum kitoblarni ixtiro qilishgan.

Eramizdan V asr muqaddam Uzoq Sharq mamlakatlarida shoyiga yozish rasm bo‘lgan. Bular hammasi qimmatbaho xomashyo hisoblanib, qog‘ozga bo‘lgan talab kuchaygani sari ulardan foydalanilmagan.

Eng dastlabki qog‘oz Xitoyda kashf qilindi. Uni tayyorlash usulini Xitoyliklar anchagacha sir saqlashdi. Yevropada esa o‘rta asrlarda pergament alohida ishlov berilgan buzoq terisidan foydalanishgan. Faqat X asrga kelib Yevropada eski-tuski lattalarni maydalab qaynatib tayyorlangan qog‘oz paydo bo‘ldi.

Qog‘oz tayyorlash uchun o‘rmondan kesib olingan daraxt dastlab g‘o‘la qilib kesib olinadi, keyin mayda payrahalarga yo‘niladi va yog‘och mayda tolali massaga aylanguncha maydalanadi. Shundan keyin navbat avtomat inashinalarga keladi. Nam va yumshuq qog‘oz massasi mashina orqali o‘tib, bir zumda silliq, zich oq qog‘ozga aylandi. Shu bir zumda mayda teshikchalari bor uzun to‘r ustiga yoyilgan qog‘oz massasidan suv siqib tashlanadi, u presslanadi, qizib turgun og‘ir barabanlar uni silliqlaydi va tayyor qog‘oz ulkan rulonlarga o‘raladi. Hozirda qog‘ozning 600 dan ortiq turi bor. Qog‘oz ishlab chiqarishda bundan tashqari poxol (somon), ip, gazlama, makulatura kabi xomashyolar kerark bo‘ladi.

Qog‘oz va kartonning klassifikatsiyasi. Sellyuloza qog‘oz sanoati qog‘oz va kartonning ikki yuzga yaqin turini ishlab chiqaradi. Texnikada qog‘ozning telegraf va magnitlangan magnitofon lentalari, foto sezgir qog‘ozlar, elektr o‘tkazmaydigan qog‘ozlar, nam o‘tkazmaydigan libra va sliu kabi xilma-xil turlaridan keng foydalaniladi.

Gazeta qog‘ozi – eng arzon va ko‘p tarqalgan qog‘oz turi bo‘lib sifati pishiq emas, suvni va yelimni tez singdiradi.

Yozuv qog‘ozi – sathi silliq, yelim singdirilgan, namlikni kamroq oladi. Narsalarni konstruksiyalash, muqovalash, kartondan yasalgan narsalanii yelimlash juda qulay.

Chizmachilik qog‘ozi – eng pishiq va qalin qog‘oz. Matodan tayyorlanadi, uning oliy navi qo‘lda quyiladi. Undan karnaval maskalari , lito va shu kabilarni yasashda foydalaniladi.

Rasm qog‘ozi — 2-nomerli bo‘lib, to‘liq sellyulozadan tayyorlanadi, oliy naviga 25% latta qo‘shiladi. Qo‘l texnologiyai darslarida, shuningdek chizmalar chizishda foydalaniladi.

Rangli va jiloli qog‘ozi — applikasiya, muqovalash ishlarida foydalaniladi. Turli naborda chiqariladi.

Yelimlangan qog‘oz – jilo berilgan qog‘oz bo‘lib, bir tomoniga yelim surtilgan qo‘l texnologiyaiga juda qulay.

Rangli jiloli qog‘ozi – turli ranglarda bo‘yalgan, jilo berilgan rangli qog‘ozning o‘rnini bosib, qo‘l texnologiya darslarida keng qo‘llaniladi.

Shagren naqshdor qog‘ozi – muqavasozlikda, tayyor narsalar ustiga yopishtirishda, archa o‘yinchog‘i yasashda foydalaniladi.

Gul qog‘ozining – rangi va guli turlicha bo‘ladi.

Kalka qog‘oziga – shaffoflik berish uchun moy mum singdiriladi.

Millimetli qog‘oz – sathi bosma to‘r shaklida tayyorlanadi.

Filtr qog‘oz — yelimlanmagan qog‘ozdir.

Karton qas’oz — 1 kv. m 250 gr.dan ortiq bo‘ladi.

Oq karton — pishiq emas, tez sinadi, qirqish oson.

Sariq karton — pishiqroq, egiluvchan, yaxshi qirqiladi.

Kul rang karton – pishiqroq, qirqish qiyin.

Rangli karton — yupqa egiluvchan, sathiga rangli jilo berilgan, ishlov berish oson.

Qog‘oz va karton turlari juda xilma-xil ular bir necha turlarga bo‘linadi:

I. RANGLI QOG‘OZ.

1.silliq. 2.g‘adir-budur. 3.krepli. 4. duxobali. 5. relefli. 6. yaltiroq.

II. KARTON.

1.sifatli. 2.rangli. 3.qo‘pol. 4.relefli. 5.silliq. 6.gafreli. 7.presli.

III.YOZUV QOG‘OZ.

1. daftar. 2. bloknot. 3.yon daftarcha. 4.kundalik daftar. 5.ish, sinf jurnali.

6. kitob. 7.gazeta. 8.konvert. 9.atkritka.

IV. CHIZMA RASM.

1. vatmn. 2. aleksandrika. 3.akvarelnaya. 4.bosma qog‘oz. 5.millimetrovka.

6. kalka: a) qorali; b) tushli.

V. XO‘JALIK QOG‘OZI.

1. gigiyena. 2. oboy. 3. salfetka. 4. sochiqli. 6. dastrumolli. 7. idish-tovoq qog‘ozi. 8. andaza,

VI. O‘ROV QOG‘OZI.

1. oq qog‘oz. 2. kraft. 3. bantik. 4. etiketka. 5. karobka. 6.tuxum idishi.

VII. TEXNIK QOG‘OZ.

1. pul. 2. hujjat, pasport, tug‘ilganlik guvohnomasi.

3. qimmatbaho qog‘oz, aksiya, lotoreya. 4.qum qog‘oz. 5. rasm qog‘oz.

Ba’zi qog‘oz turlaridan ishlangan applikatsiya ishlaridan namunalar.

Savol va topshiriqlar:

1. Qog‘oz qachon paydo bo‘lgan?
2. Qog‘oz turlarini sanab bering?
3. Turli qog‘ozlardan kolleksiya tayyorlang.

Foydalanilgan asosiy adabiyotlar:

1. Sanaqulov X.R, Xodieva D.P, Sanaqulova A.R. “Texnologiya” 3-sinf uchun darslik . –T:. Sharq, 2019.

2. X.Sanaqulov, D.Xodieva “Boshlang‘ich sinflarda qog‘ozdan amaliy ishlar” metodik qo‘llanma 2012 yil T:.Ipak yo‘li poligraf, 2012.

3. Sanaqulov X.R, Xodieva D.P «Boshlang‘ich sinflarda tabiiy materiallardan amaliy ishlar» o‘quv-metodik qo‘llanma 2009 yil. TDPU.

4. Nurmatova M.Sh. “Mehnat tarbiyasi” Toshkent. TDPU. 2005-y

MAVZU: QOG‘OZNI O‘LCHASH, BUKLASH VA TAXLASH ORQAlI TO‘G‘RI TO‘RTBURCHAK QOG‘OZDAN BUYUMLAR YASASH. (ORIGAMI)

Reja:

1. Origami tarixi.
2. Yasalish usullari.

Tayanch so‘z va iboralar: Qog‘oz, buklov, falsbeyin, origami, taxlash, buklash, to‘rt burchak, besh burchak, dizayner, o‘yinchoqlar, qayiqcha, baliqcha, samolyot.

Qog‘oz bilan ishlash turlaridan biri qog‘ozni taxlashdir. Qog‘ozni yelimsiz buklab ma’lum narsalar yasaladi. Qog‘ozdan biror narsa yasash uchun qog‘ozni talabga muvofiq tarzda teng ikkiga, bir necha qismga kressimon, murakkabroq to‘g‘ri siniq chiziqiar bo‘yicha buklash kerak bo‘ladi. Qog‘ozdan buklab narsalar yasash bolalarning politexnik bilim doiralarini kengaytiradi. Kirish suhbatida o‘qituvchi bolalarni qog‘oz sirlari, uning klassifikalsiyasi, sanoatda, turmushda qo‘llanishi bilan tanishtirish usuli. Bolalar predmet yasashga aloqador operatsiyalarni bajarganlarida qog‘ozning turli qalinlikda bo‘lishi uning egiluvchanligi, sinuvchanligi bilan tanishadilar.



Qog‘ozga qo‘lda ishlov berishda asosan qaychi va pichoq ishlatiladi. Qaychi ikki xil birining uchi yumaloq, umuniiy uzunligi 130 mm dan tomoni, uzunligi 55 mm va ikkinchisining umumiy uzunligi 50-70 mm bo‘lishi kerak. Pichoqning ham ikki turidan foydalaniladi, birining uchi dumaloq, qirquvchi qismining uzunligi 70 mm bo‘lib, bukilgan qog‘ozlarni qirqish uchun, ikkinchisining uchi o‘tkir metall chizg‘ich bo‘lib qirqishga mo‘ljallangan - uzunligi 80 mm, eni 18 mm bo‘ladi.

Falslineykadan qog‘oz va kartonni pichoq bilan qirqishda foydalaniladi. Bu chizqich metaldan yoki pichoq kesmaydigan materialdan tayyorlanadi. Chizg‘ichning borti chizg‘ichni bosib turgan chap qo‘l barmoqlarini pichoqdan asraydi.

Falsbeyin yoki silliqlagich buklangan qog‘ozning chetlari, burchaklarini tekislashda kerakli asbob.

Inson o‘zini har narsaga qodirligini har doim va har vaqt isbotlab kelgan. Insonning fikrlari, o‘z ijodiy qobilyatini o‘rinli qo‘llay olishi yangi san’at asarlarni o‘z qo‘li bilan yaratilib, uni butun olamga tanitish xususiyatiga egadir. U yaratgan san’at asari uning ichki kechinmalarini yuzaga chiqarib beradi. Yaqindan beri meni hayotimda “Origami” so‘zi juda ko‘p uchraydigan bo‘lib qoldi va men bu san’at turi haqida ko‘proq ma’lumot olishga kirishdim. Bilsam men Origami san’ati bilan kichik yoshimdan shug‘ullangan ekanman, lekin bu origami ekanligini bilmaganman. Biz hammamiz kichik yoshimizda qog‘ozni taxlash buklash orqali turlicha o‘yinchoqlar, jumladan qayiqcha, baliqcha, samolyotlar va boshqa o‘yinchoq figuralarni yasaganmiz va yana qog‘ozni taxlab buklab o‘zimiz yangi oyinchoqlar yaratmoqchi bo‘lganmiz. Lekin bu qiziqishlarimiz tagida chuqur ildizga va tarixga ega san’at yotganini biz bilmaganmiz. Shunday qilib Origami qog‘ozning plastikasidan yaratilgan san’at asari hisoblanib, Yaponiyada vujudga kelgan. Qogozni kelib chiqishi Xitoy bo‘lishiga qaramay Yaponiyada undan chiroyli figuralar yasashni o‘ylab topishgan. Yaponiyada origami san’atidan (794-1185) yillarda XEYAN hukmronlik davridan bo‘lgan. Ushbu davrda qog‘oz qo‘lda mashaqqatli usullar bilan tayorlangan va u qimmatbaxo noyob narsa hisoblangan, undan faqatgina ayrim xollardagina foydalanilgan. Kamakura (1185-1333y) va Muromati (1333-1573y) davrida origami sana’ti imperatorlar saroyigacha kirib borgan. Zodagonlar, saroy ayonlari, monaxlar qog‘ozni taxlash buklash orqali san’at asarlarini yarata olish xususiyatiga ega bo‘lishlari va shu orqali o‘zlarini qaysi tabaqa a’zosi ekanliklarini namoyon etishlari kerak bo‘lgan. Boshqa zodagon oilalar esa origami figuralari orqali muhr va gerblarini yaratishgan. Undan tashqari kapalak shaklidagi, turna ko‘rinishidagi, gul ko‘rinishidagi figuralar sevgi izhor etishda, tabriknoma sifatida, do‘stlik taklif qilish uchun insonlarga quruq gapdan ko‘ra chiroyli sovg‘a bo‘lgan.

Adzuti-Momoyama (1573-1603) va Edo (603-1867) davrida origami san’atning noyob turidan ommalashgan turiga aylandi va u insonlarning bo‘sh vaqtlarini unumli o‘tkazishlari uchun juda katta eshiklarni ochib berdi. Mana shu davrda origamining eng sodda oddiy modellari yaratildi. Ularning orasida bizning hammamizga ma’lum bo‘lgan turna (tsuru) –baxt va uzoq umr belgisi bo‘lmish o‘ylab topilgan. Bir necha modellar Yapon origami san’ati ustasi Akira Yoshizavaga tegishli hisoblanadi. Xuddi mana shu inson origami alifbosini yaratgan. Uning ushbu modellari bizgacha yetib kelgan. O‘zining ilk dunyo bo‘ylab sayohatini Origami XX asr boshlarida boshladi. Origami san’atining rivojlanishiga Origami ustalaridan Buyuk Britaniyalik Deyv Brill, Vengriyalik Peter Budai, Frantsiyalik Erik Juazel, Italiyalik Alfredo Djunta, Singapurlik Ronald Kox va AQSH lik Robert Long va Djon Montrollar katta hissa qo‘shishgan.

Bir varaq qog‘ozdan bir necha ming turdagi figuralar yaratish mumkin. Oddiy taxlash va buklash insonlarning fantaziyasi origami dunyosida yangi dunyo yaratishlari mumkin. Origami san’ati butun dunyo yoshlari va keksalar uchun o‘zining eshiklarini ochgan. Ushbu san’at turidan hattoki Parij modelerlari, Amerika dizaynerlari, olti yoshli bolakaylar ham zavq va shavq bilan foydalanishadi. Har birimiz origamidan o‘zligimizni topamiz. Arxitektor-origami orqali qurilishga yangilik kiritadi, yigit esa o‘z sevgan insoniga origamidan sovg‘a tayyorlaydi, nashriyot esa origamiga oid yangi kitoblar ishlab chiqadi, o‘qituvchi o‘z o‘quvchilari oldida qo‘l xarakatlari yordamida sehrgarga aylanadi, keksa inson esa nevaralari oldida har narsaga qodir bo‘lib, o‘quvchi o‘zi yasagan narsasi orqali mashg‘ulotlarga ishtiyok bilan qaraydigan bo‘ladi.

Xullas qo‘lingizga bir varaq qog‘oz olib fikrlash qobiliyatingizni ishga solib yangi origami figuralarini yarating. Siz yasagan ushbu figuralar hammaga quvonch keltirsin.

Origami Yaponcha so‘z bo‘lib “taxlangan qog‘oz” degan ma’noni anglatadi.

Klassik origami oddiy kvadrat qog‘ozni taxlash buklash orqali bajariladi. Qogozni taxlash buklashda ishlatiladigan murakkab belgilar to‘plami mavjud bo‘lib u origamining eng murakkab turlarida qo‘llaniladi. Ushbu belgilarning ko‘p qismi XX asr o‘rtalarida taniqli Yapon origami ustasi Akira Yosidza tomonidan amalda birinchi qo‘llanilgan (1911-2005).

Klassik turdagi origami bir tekis rang berilgan rangli qog‘ozni taxlab buklab yelim va qaychi ishlatmasdan yasaladi. Xozirgi kundagi origamiga esa yangilik kiritib yelimdan va qaychidan foydalanilmoqda.

Origamining kelib chiqishi haqida juda ko‘p ma’lumotlar keltirib o‘tilgan. Har holda uning ildizlari Yaponiyaga taqaladi. 1960 yilga kelib origami san’ati butun dunyo bo‘ylab tarqala boshlandi, modulli origami birinchilardan bo‘lib turli mamlakatlarda yasala boshlandi, undan keyin esa origamining boshqa yo‘nalishlari

ham insonlar tomonidan katta qiziqishlar bilan o‘rganila boshlandi. Hozirgi kunda esa dunyo tan olgan san’at turlaridan biriga aylandi.

Modulli origami origamining taniqli turlaridan hisoblanib unda oldin qog‘ozni taxlash va buklash orqali figuralar tayyorlab olinadi, keyin bu figuralardan birgalikda bir butun modul yig‘iladi, bu modulli origami kusudama shari deb ataladi.

Oddiy origami-uning uslubini Britaniyalik origamist Djon Smit o‘ylab topgan, uning origami shakllari faqatgina tog‘ burmalari va adirliklardan iborat bo‘lgan.

Nam taxlash va buklash – bu texnika Akira Yosidzava tomonidan ishlab chiqilgan bo‘lib unda asosiy xom ashyo suvda namlangan qog‘ozga ishlov beriladi. Bu usul bilan geometrik shaklga ega bo‘lmagan ob’ektlar ya’ni hayvonchalar, gullar shaklini oson chiqarish mumkin. Lekin bu turdagi origamiga hamma qog‘oz turlari ham mos kelavermaydi. Buning uchun qog‘ozga suv shimuvchi yelim singdirilgan va pishiq tolalar bilan ishlov berilgan qog‘oz bo‘lishi kerak. Figuralarni hosil qilayotganda namlangan qog‘ozga ishlov berish oson bo‘ladi.

Uncha qiyin bo‘lmagan figuralardan turna va suv paqildog‘iga oddiy oq qog‘oz ishlatsa ham bo‘ladi 70-90 gm 2 qog‘ozning og‘irroq turi origamining nam turida qo‘llasa bo‘ladi. 100 gm 2 dan ortiq. Undan tashqari origami yasash uchun «kami» origami qog‘ozi mavjud. Uni tayyor kvadrat shaklda va bir tekis rang berilgan, yoki bir tomoni rangli ikkinchi tomoni oq bo‘ladi. Undan tashqari naqsh ornament tushirilgan qog‘oz ham mavjud. Bu qog‘ozning o‘lchovi 2,5 smdan - 25smgacha bo‘ladi, bu siz yasamoqchi bo‘lgan figurangizga bog‘liq. Bu origami qog‘ozi printer qog‘ozidan bir muncha yengil bo‘ladi. Folgali qog‘oz turi ham origamida figuralar yasashda ko‘p foydalaniladi. Bu qog‘ozning bir tomoni folga ikkinchi tomoni oddiy qog‘ozli bo‘ladi. Yoki ikkala tomoni folga o‘rtasida esa oddiy qog‘ozli turi mavjud. Bu qog‘ozdan figuraning mayda qismlarini chiqarish oson hisoblanadi.

Yaponiyada origami uchun maxsus “vasi” qog‘oz turi ishlatiladi. Vasi qog‘oz turi boshqa qog‘ozlarga nisbatan kattiqroq bo‘lib u asosan yog‘ochdan tayyorlanadi. Yaponiyadagi ko‘p san’at turida ushbu Vasi qog‘oz turidan foydalaniladi. Vasi qog‘oz turi Edgeworthia papyrifera, po‘stlog‘idan undan tashqari bambuk, guruch va bug‘doy poyalaridan tayyorlanadi.

Asosan origami san’at turida kvadrat qog‘oz turidan ko‘proq foydalaniladi. Lekin to‘g‘ri to‘rt burchak, besh burchak, olti va sakkiz burchakli qog‘ozlardan ham foydalaniladi.

Shunday qilib origami faqatgina bo‘sh vaqtni to‘g‘ri o‘tkazishdan iborat bo‘lmay u insonning aqlini charxlaydi, ijodkorlik qobiliyatini shakllantiradi, fikrlarni bir joyga jamlashga yordam beradi.

Savol va topshiriqlar:

1. Origami qayerda va qachon paydo bo‘lgan?

2. Origami turlarini sanab bering?

3. Taxlash buklash orqali bosqichli origami tayyorlang.

Foydalanilgan asosiy adabiyotlar:

1. Б.Б.Гончар «Модульный оригами» Москва, Айрис-Пресс 2009 г.

2. Т.Б.Сержантова «Оригами базовые формы» Москва, Айрис-Пресс 2009 г.

3. Т.Б.Сержантова “Оригами лучшие модели” М., АЙРИС-ПРЕСС 2010 г.

MAVZU: KARTON QOG‘OZLARDAN DARSLAR UCHUN SHABLON. TRAFARET YASASH. BUKLET VA SOVG‘A YON DAFTARCHA

Reja:

1. Trafaretlar, shablonlar haqida ma’lumot.

2.Yon daftarcha tayyorlash usuli.

Tayanch so‘z va iboralar: Trafaretlar, shablonlar, rangni bosish, karton, rangli qog‘oz, texnik qog‘oz, asboblar, qog‘oz, yupqa karton, tunuka, selluloid, papye-mashe.

Trafaretlar, shablonlar zamonaviy sanoatda xilma-xil maqsadlarda keng qo‘llaniladi.

Trafaret qalin qog‘oz, yupqa karton, tunuka, selluloid, plastmassadan tayyorlanadigan yig‘indisi turli murakkablikdagi naqshni yoki biror yozuv tekstini tarkib toptiradigan tirqishlar qilingan plastinkadir. Trafaretdan ko‘p karra takrorlanuvchi rasmlar, harflar, yozuvlarni olish mumkin.

Trafaret tayyorlash uchun kerakli shakl (rasm) namunadan nusxa qog‘oz

yordamida qalin qog‘ozga tushiriladi yoki qol bilan chiziladi. Tushirilgan shaklning detallar uchi kichik qaychi yoki qalamtarosh bilan qirqib olinadi. Trafaret tayyor bo‘lganda ikkala tasvirni saqlash lozim, chunki undan keyinchalik to‘g‘ri va teskari iz olish mumkin.

Trafaretda turli rangni bosish. Bu holda ranglarning qancha bo‘lishi nazarda tutilgan bo‘lsa, shuncha miqdorda bir xil qog‘oz olinadi. Harna qog‘oz orasiga nusha qog‘oz qo‘yib chiqiladi. Eng ustidagisiga asl rasmini qo‘yib qora qalam bilan chiziladi. Natijada ayni bir rasmning nusxasiga bo‘linadi. Har bir qog‘ozga qaysi rang berilishini yozib, rasmning shu rang beriladigan qismi qirqib olinadi. So‘ng trafaretni navbat bilan qog‘ozning ustiga qo‘yib unga tegishli bo‘yoq beriladi.

Shablon butkul qabul qilingan namuna bo‘lib, keramika sanoatida lagan, tarelka, chashkalarni tayyorlashda keng qo‘llaniladi. Maktabga doir va qaytarma shablonkadan loy va papye-mashe bilan ishlaganda, simmetrik shakldagi modellarni loy va shu kabilardan yasashda foydalaniladi.

Shablon maktabda matematika, ona tili, atrofi olam fanlarida keng qollaniladi. Sanash, kim chaqqon, baland - past, qo‘shish, ayirish, gap tuzing kabi jumboqlarni o‘zlashtirishda keng qo‘llaniladi.

Shablon tayyorlash uchun: tasvir qog‘ozga tushiriladi, uni qirqib, rang beriladi (akvarel bo‘yoqda), qurigach laklanadi.

Shablonlar bir xil rangli yoki ko‘p bo‘yoqli bo‘ladi.

Yon daftarcha tayyorlash.

Material: karton, rangli qog‘oz, texnik qog‘oz. Asboblar: qaychi, yelim, mo‘yqalam, chizg‘ich, qalam, taglik kleyonka, yelimni artish uchun latta. Ish tartibi:

Bloknot uchun tayyorlangan varaqlarni yelimlash, buning uchun har bir varaqda 10 mm (barcha varaqlarda faqat bir tomonga) buklash va quyidagi tartibda yelimlash: birinchi varaqda chiziqni buklab uni buklangan tomoni bilan stolga qo‘yish, keyingi varaqda chizig‘ni buklab oldingisiga shunday yopishtirish kerakki, natijada u pastda qolsin, buklangan varaq yuqorida bo‘lsin. Ish shu tartibda davom etadi. Oxirgi varaqqa uzunasiga falsovka qilingan qog‘oz yelimlanadi. Uning uzunligi varaq uzunligiga, eni esa buklangan chiziqlar enidan ikki marta katta. Uni varaqlardan yelimlanadi, bunda buklangan chiziqlar hosil bo‘ladi.

Bloknotning qalinligini o‘lchab, koreshokning o‘lchami aniqlanadi.

Bloknot varaqlarining o‘lchamidan uchala tomonidan ham 5 mm dan ortiqroq karton tayyorlash.

Texnik qog‘ozni tayyorlash.

Karton qopqoqlarni koreshokka yopishtirish.

Bloknotni yopishtirish.

Qopqoqlarga rangli qog‘oz yopishtirish.

Bloknotning ich qismiga texnik qog‘oz yopishtirish.

Albom.

Material: karton, rangli qog‘oz, liderin albom varaqlari, shnur.

Asboblar: qaychi, chizg‘ich, qalam, mo‘yqalam, yelim, dirakol, taglik kleyonka, yelim latta.

Ishning borishi. Detallarni tayyorlash.

a) albom varaqlari:

b) kapton astarlar, birining eni albom varaqlarining qalinligiga, uzunligi varaqlarning uzunligiga teng, ikkita boshqasining eni 40 mm, uzunligi varaqlar uzunligiga teng;



v) karton qopqoqlar — uzunligi albom varaqlariniig uzunligiga teng, eni albom varaqlaridantaglik enining (30 mm) olib tashlanganiga teng;

g) rangli qog‘oz;

d) koreshok karton qopqoqlarning uzunligi plyus 40 mm, eni prokladkalar yig‘indisi plyus karton qopqoqlarni yelimlash uchun 60 mm va plyus prokladka va qopqoq orasidagi zazor 12 mm ga teng;

e) karton qopqoqlar o‘lchamidagi texnik qog‘oz.

Prokladkalarni koreshokka yelimlash. Enli prokladkani koreshok o‘rtasiga, ikkita boshqasnni uning o‘ng va chap tomoniga 2 mm oraliqda yelimlash.

Karton qopqoqlarni koreshokdan 2 mm oraliqda yelimlash.

Karton qopqoqlarga rangli qog‘oz yopishtirish (bloknotdagi singari).

Qog‘oz va eni 40 mm prokladkalarda teshiklar teshish.

Varaqlarni qo‘yib, shnurni bog‘lash.

Savol va topshiriqlar:

1. Shablon va trafaret qanday tayyorlanadi?
2. Sovg‘a yon daftarcha qanday tayyorlanishini tartibini aytib bering?
3. Buklet tayyorlang.

Foydalanilgan asosiy adabiyotlar:

1. Маргрет Коерсидр. “Большая книга поделок” Фречверлад, Германия, 2010 г.

2. Г.Анохина, А.Кацияева “Весёлые фигурки и забавные модели из бумаги” Ростов-наДону, “ИД.Владис” 2012 г.

3. Н.Белова, “Игрушки к празднику” Москва Эксмо издательство “Домино” 2005 г.

MAVZU: QOG‘OZNI QIRQIB YOPISHTIRISH USULLARI. SIMMETRIK, ASSIMMETRIK, NAQSH QIRQISH

Reja:

1. Qog‘ozdan va boshqa materiallardan turli naqsh va bezaklarni qirqish.
2. Oddiy va murakkab bo‘lgan simmetriya haqida ma’lumot.

Tayanch so‘z va iboralar: Material, oddiy murakkab, simmetriya, assimmetriya, qirqish, bezak, barglar, gullar, shohlar, qushlar, jonivorlar.

Qog‘ozdan va boshqa materiallardan turli naqsh va bezaklarni qirqish allaqachonlardan beri turmush bezagi sifatida tarkib topgan simmetrik qirqib yasalgan narsalarni, bezaklarni dunyoning barcha halqlarida uchratish mumkin. Naqsh va simmetrik tasvirdan maktabda applikatsiya ishlarida, maktab burchaklari, stendlar, albomlarni bezashda foydalaniladi. Avval belgilangan chiziqlardan, keyin esa chamalab qirqishni o‘rganadilar. Simmetrik qirqish ma’lum qoidalarga amal qilishni talab etadi. Simmetriya oddiy va murakkab bo‘lishi mumkin. Simmetriya bir tomoni ikkinchi tomoniga o‘xshash va teng bo‘lgan garmonik uyg‘unlikdir. Simmetrik tasvirning asosi o‘qdir. Oddiy simmetriyada bitta o‘q bo‘lib, bu o‘q yordamida naqshlarni oddiy usulda bajarish mumkin. Qog‘oz ikkiga buklanadi, unga tasvir tushurib qirqiladi va simmetrik rasmga ega bo‘linadi. Bunday ishni to‘rt buklangan qog‘ozda bajarish ham mumkin. Qog‘ozga tushirilgan rasmning shtrixlangan qismlari qirqib olinadi, natijada geometrik naqshli qog‘ozga ega bo‘lamiz. Qog‘ozni bir necha qavat buklab unga faqat polosa, uchburchak, doiralarni emas, balki barglar, gullar, shoxlar, qushlar, jonivorlar va kerak bo‘lgan barcha shakllarni qirqib olish mumkin. Murakkab simmetriyada bir necha o‘q bo‘ladi. Simmetrik qirqish bo‘yicha topshiriqlar narsalarni bezash uchun beriladi. 1-2 sinf o‘quvchilati bir o‘qli simmetriyani va kvadratdagi naqshlarni bajara oladilar. Murakkabroq maydaroq ishlar 3-4 sinflarga beriladi.

Simmetrik qirqish ishining borishi:

1.Kerakli tasvirni qirqish uchun qog‘oz o‘lchami olinadi.

2.Qog‘ozni ikkiga buklab, unga tasvirni razmetka qilish.

3.Rasvirni qirqish va qog‘ozni ochish.



4. Rangli qog‘ozga yelimlash.



Savol va topshiriqlar:

1. Simmetrik va asimmetrik qirqish usulini aytib bering?
2. Naqsh va naqsh elementlarini qayerlarda ishlatish mumkin?
3. Simmetrik qirqish turlaridan bosqichli ko‘rgazma tayyorlang.

Foydalanilgan asosiy adabiyotlar:

1. Маргрет Коерсидр. “Большая книга поделок” Фречверлад, Германия, 2010 г.
2. Г.Анохина, А.Кацияева “Весёлые фигурки и забавные модели из бумаги” Ростов-наДону, “ИД.Владис” 2012 г.
3. А.Гаврилова “Узоры и орнаменты из бумаги” М., 2012 г.

MAVZU: KARTON QOG‘OZLAR BILAN ISHLASH USULLARI. MUQOVALASH ISHLARINI BAJARISH

Reja:

1. Kitob ishlab chiqarish texnologik jarayoni.
2. Muqovalash jarayoni.
3. Muqovasozlik ishlarida kerak asbob va moslamalar.

Tayanch so‘z va iboralar: Kitob, poligrafiya, muqova, karton, press, qog‘oz bo‘yoq, karta, jadval, qo‘lda terilgan, harf teruvchi.

Kitob bosish jarayonidagi birinchi bosqich (nusxa) olinadigan bosma shaklini tayyorlashdir. Bosma forma bosma tekst nabori va illyustratsiyalarni bosish uchun klishedan tashkil topadi. Avval harflar qo‘lda terilgan, harf teruvchi chap qo‘lida verstatkann ushlab, o‘ng qo‘li bilan kassalardan, liter harflarni olib to‘ldirgan. Bir soat davomida 2000 belgi terilgan. Birinchi harf teruvchi “Avtomat”ni Petr Knyaginskiy kashf etgan. Knyaginskiyning g‘oyasi zamonaviy avtomatik qator quyuvchi nabor ustanovkalariga asos qilib olingan.

Linotip mashinasi (mashina bosma formani o‘zi quyadi, biroq butun stereotipni emas, alohida qatorlar)ning ixtirochisi Ottner Mergentalerdir.

Mamlakatimizga birinchi linotip 1905 yilda keltirilgan va birinchi linotipist yosh harf teruvchi Aleksey Terentevich Yegorov bo‘lgan.

Zamonaviy poligrafiya sanoatida qo‘llanilayotgan bosma formalarining usti har xil bo‘lib, uning xarakteri, relef, chuqur va yassi bosishning asosiy formalaridan birini belgilaydi.

Relef yoki bo‘rtib chiqqan harflardan bosilganda ottisk formaning bo‘rtgan yoki relef qismiga qorejagan bosmaxona bo‘yog‘idan olinadi. Butun relef bir

yassilikda bo‘ladi.

Chuqur (glubokaya pechat) bosmada yassi sath ustiga o‘yuvchi rezesi qalam bilan yoki o‘yuvchi moddalar yordamida chuqurchalar hosil qilinadi, bo‘yoqning ortiqchasi rassel (yupqa po‘lat chizg‘ich) bilan olib tashlanadi, bosish jarayonida formadagi chuqurchadan qog‘ozga o‘tadi.

Yassi bosma (ploskaya pechat) bu maxsus ishlov berilgan silliq sath, bunda toshbosmadan foydalaniladi.

Yuksak badiiy gravyuralar, reproduksiyalar chuqur bosma usulida kitob, gazeta, jurnallar relefi formalari bosiladi. Mexanik terish ishlari turli konstruksiyadagi maxsus harf teradigan mashinalarda amalga oshiriladi.

Matnning to‘plam terilgan qatorlari va klishedan ma’lum formatda vyorstka sahifalar qilinadi. Kitobning betlari yoki nabor chiziqlari bosma listni tashkil etadi. Bosishga mo‘ljallangan qog‘oz ma’lum formatga (60X92) ega bo‘lib, uning har ikkala tomoniga bosma listni tashkil etuvchi nabor chiziqlari joylashadi. Bosilayotgan kitobning formatiga ko‘ra bir listga 8-16-32-64-128 kitob sahifasi joylashishi mumkin.

Bosma listda betlarni shunday joylashtirish kerakki, keyinchalik qirqishda, falsovka qilishda kitob sahifalari zararlanmasin va taxlanganda izchil tartibda kelsin. Bunday taqsimlash bosma format mashinaga tushirish (spusk) deyiladi.

Tiraji ommaviy bo‘lgan nashrlar, ayniqsa gazeta va jurnallarni chiqarishda stereotipdan foydalaniladi. Dastlabki nabordan kartonga o‘yma qilib tushirilgan nusxa matritsa olinadi, undan bosmaxona metali yordamida bo‘rtib chiqqan nusxa stereotip olinadi. Matritsalarni uzoq saqlash, dastlabki naborni esa hal qilib, boshqa ishlarda foydalanish mumkin.

Nabor yoki stereotipdan bosish pechat (bosish) mashinalarida amalga oshiriladi. Eng oddiy bosish mashinalari — shtigel mashinalarida, qog‘oz bo‘yoq qorejagan pechat formata cho‘yan plita — tigel bilan bosiladi. Mashinada hamma narsa formata bo‘yoq surtish, qog‘oz listini yopish, presslash, olish va ottisklar sanash mexanizmlashtirilgan. Murakkabroq va unumdorroq mashinalar yassi pechat mashinalaridir. Bu mashinalarda formalar harakatlantiruvchi rama talerga joylashtiriladi. Talerning qaytishborish harakatida nabor sathiga bo‘yoq surtiladi so‘ngra bu sath ustidan barabanga mustahkamlangan qog‘oz dumalab o‘tadi.

Eng unumdor mashina rotatsion mashina bo‘lib, unda butun jarayon to‘xtovsiz va bir tekisda bo‘lib o‘tadi. Bosma list aylanib turuvchi ikki silindr orasidan o‘tadi. Ikkita yarim silindr stereotiplar shaklidagi (bosma forma) shu silindrlardan biriga o‘rnatnladi. Stereotiplarga valiklar yordamida bosmaxona bo‘yog‘i surtiladi. Qog‘oz formata ikkinchi silindr bilan siqiladi. Bosilgan listlar mexanik tarzda kesiladi, falsovka qilinadi va hisoblanadi.

Ofset usulida bosish nima degani? Bunday bosishni 1880 yilda fransuz Vuarem

kashf etgan. Bosish jarayonida bo‘yoq avval formata, so‘ngra undan rezina valik orqali qog‘ozga o‘tadi. Bunday bosish usuli unutilib yuborilgandi, faqat asrimizning boshida amerikalik Ayra Rubel va nemis Kaspar German uni qayta tiklab, unda ofset usulida bosish deb nom berdilar. Bu usulda ko‘p bo‘yoqli illyustratsiyalar bosiladi. Hozirgi kundagi ofset mashinalar o‘sha prinsipda ishlaydi, biroq ular ancha takomillashgandir. Zamonaviy ofset mashinalar soatiga 15 minggacha ottisk beradi.

Muqovalash jarayoni.

Bosma listlardan muqovalangan kitob tayyorlash uch jarayon—kitob blokini komplektlash, muqova tayyorlash va blokni muqovaga biriktirishdan iborat.

Kitob, broshyura va jurnallar tayyorlash jarayonida daftarlardan, ya’ni 2, 3, 4 buklab falsovka qilib (taxlab) tuziladi.

Ikki buklab falsovka qilingan daftar 8,3 buklangani 16, 4 buklangani 32 tekst chizig‘idan iborat bo‘lib, har bir chiziq o‘zining kolonsifr deb ataluvchi ma’lum nomeriga ega, bu nomer tayyor kitobda bet nomerini anglatadi. Daftarning tartib nomerini anglatadigan va uning birinchi varag‘ida teriladigan raqam bosh signatura deyiladi. Daftarning uchinchi varag‘ida qo‘shimcha signatura, bosh signaturani takrorlovchi yulduzchali raqam qo‘yiladi. Bosh signatura yonida avtorning familiyasi, kitobning nomi yoki oddiygina buyurtma nomeri yoziladi, shunga ko‘ra mazkur nashrga boshqa buyurtma daftarlarining aralashib ketmasligi nazorat qilinadi, bundan tashqari har bir daftarning koreshok qismida maxsus kontrol belgi bo‘ladi, bunday belgilar bir-biriga nisbatan aralash holatda joylashib blok koreshogida narvoncha ko‘rinishini egallaydi. Daftarlarning blokka to‘g‘ri biriktirilganligi shundan tekshiriladi. Birinchi va oxirgi daftar koreshogining chetiga ikki buklangan qalinroq qog‘oz yelimlanib u forzats deyiladi.

Kitob bloklarining daftarlari tikiladigan shnur, disk, tasma forzatsga yelimlanadi. Forzatsning tashqi tomoni keyinchalik muqovaning ichki tomoniga yelimlanadi va shu orqali blokni muqova bilan mustahkamlaydi.

Muqova qattiq, yumshoq bo‘lishi, ustidan qog‘oz, karton, gazlama, plastmassa, charm va shu kabilar qorejapshi mumkin. Superovaraq (muqova jildi) muqovani ifloslanishdan saqlaydi, u qog‘oz yoki shaffof plyonkadan tayyorlanadi.

Kitob blokini tayyorlash jarayoni quyidagi jarayonlarni o‘z ichiga oladi:

a) qirqish va falsovka qilish — bosilgan listlarni daftar qilib tahlash;

b) daftarlarni talab qilinadigan izchillikda tikish;

v) illyustratsiya, karta, jadval, forzatslarni. yopishtirish;

g) ip yoki sim bilan tikish;

d) blokni birinchi pressovkalash;

e) koreshokni tikish;

j) ikkinchi presslash;

z) blokni uch tomondan qirqish;

i) koreshokni yumaloqlash;

y) koreshok chetiga rangli, oxiri yo‘g‘onlashgan tasma yopishtirish;

k) koreshokka qalin qog‘oz yopishtirish.

Maktabda muqovasozlik ishlari. Kitobni qo‘lda muqovalashga aloqador barcha jarayonlar boshlang‘ich maktab o‘quvchilarining qo‘lidan bemalol keladi. Muqova ishlarini bajarishda o‘quvchilar qog‘oz va kartonga ishlov berish (egish, qirqish), kartonga qog‘oz yopishtirish, ayrim-ayrim varaqlarni yopishtirish kabi malakalarini mustahkamlaydilar. Biroq ular kitobga muqova qilish usullarini o‘rganib, egallab borar ekanlar, ular poligrafiya sanoatining tarmoklaridan biri haqida bilimni olib muqovasozlik ishining asoslari bilan tanishadilar. Muqova ishlash ishiga aloqador kasblar bilan tanishadilar. Bundan tashqaribolalarga kitobga muhabbat, unga nisbatan tartibli, extiyotlik bilan munosabatda bo‘lish singdiriladi. Muqova yasash ishlarini bajarish jarayonidagi muqovani bezashda bolalardagi badiiy did, razmetka va egish ishlarida aniqlik va tartiblilik rivojlanadi. Kitoblarni tuzatishda ularni ijtimoiy foydali texnologiyaga o‘rgatiladi.

Muqovasozlik ishlarida kerak asbob va moslamalar. Muqova tayyorlash ishida asosan qog‘oz va kartonga ishlov beriladigan asboblar: pichoq, falsli chizg‘ich, burchak, sirkul, mo‘yqalam, kleyster uchun tog‘oracha, teshgich, kanselyariya ninalaridan foydalanish mumkin. Maxsus asbob-uskunadan tikadigan stanok, press, qirqadigan va siqadigan taxtalar kerak bo‘ladi.

Pichoq bir yon tomoni yassi, ikkinchi yon tomoni 5-10° burchakda charxlangan bo‘lishi kerak.

Mo‘yqalam muqova ishlari uchun o‘rtacha o‘lchamdagi, egiluvchan tukli bo‘yoqchilik cho‘tkasidan foydalaniladi. Tor chizig‘larni rassomlar ishlatadigan o‘rtacha nomerdagi (№ 6 -12) mo‘yqalamlar bilan yelimlash ma’quldir.

Press — kitobni ikkita taxta o‘rtasiga qo‘yib, ustidan yuktosh, g‘isht, bostirib qo‘yishdir. Buning uchun tosh va g‘ishtni yaxshilab sovunlab yuvib quritiladi, ularni moybo‘yoq bilan bo‘yash ham mumkin. Bostiriladigan tarozi toshlar ham zanglamagan, ustidan lak yurgizilgan bo‘lishi kerak. Takomillashganroq press ikkita taxta, ikki yoki to‘rtta strubsina (iskanja) dir. Shuni unutmaslik kerakki, taxtalar bir tekisda siqish uchun qisqichning barcha vintlarini bir xil mikdorda burash kerak. Sotuvda muqova ishlariga mo‘ljallangan maxsus presslar bor.

Kitoblar maxsus tikuv stanogida tikiladi. Stanokning asosi qalinligi 2,5 sm dan kam bo‘lmagan uzunligi 40 sm gacha, eni 20 sm taxta bo‘lib, past tomondan chetlariga stanokning asosini ish stolidan 15-20 mm ko‘tarib turuvchi rejakalar o‘rnatiladi. Asosning old chetida yon chetlaridan 4-5 sm oraliqda teshik qilinib, u yerga yuqori qismida rezbasi bo‘lgan ikkita tik stoyka o‘rnatiladi, bu stoykalarga gaykalar buraladi, ularga ponalar qo‘yiladi, ko‘ndalang rejakani ana shu gayka yoki ponalar ushlab turadi. Quyi taxta perekladiga shnur yoki tasma uchun teshiklar

qilinadi.

Kitoblarni ta’mirlash.

Zararlangan sahifalarni tiklash — bu yirtilgan joylarni yelimlash, hoshiyalarini mustahkamlash, to‘g‘rilash va sahifa burchaklarini tiklash, chiqib ketgan sahifalarni mustahkamlash, yamoq solishdan iboratdir.

Kitob sahifalarini tuzatishda shu narsani unutmaslik kerakki, restavratsiya qog‘ozi kitob sahifasining yo‘qolgan qismiga qalinligi, rangi, strukturasi bo‘yicha muvofiq kelishi kerak, yaxlit tiklashda yoki yo‘krlgan qismlar ko‘p bo‘lganda sahifa deformatsiyaga uchramasligi uchun uni oldindan doka tamponi bilan namlanadi. Restavratsiya qilinayotgan va yopishtirilayotgan qog‘oz tolalarining uzun va ko‘ndalang yo‘nalishi muvofiq kelishini albatta kuzatish kerak. yirtilgan joylarni papiros qog‘ozi bilan yelimlashda, sahifa deformatsiyaga uchramasligi uchun qog‘ozni har ikkala tomondan yopishtirish kerak.

Chokdan chiqqan yelim nam tampon bilan artib olinadi. Ish organik yoki oddiy oyna parchasi ustida o‘tkaziladi. Sahifalarning yaxshi yopishishi va ular deformatsiyaga uchramasligi uchun saxifalar orasiga filtratsiya qog‘ozini qo‘yib press ostiga joylashtiriladi. Shundan keyin uni to‘liq quritish uchun orasiga parafin qog‘oz yoki karton qo‘yib, yana pressga qo‘yiladi.

Restavratsiya ishlarida odatda un kleysteridan foydalaniladi. Sahifa yirtilgan bo‘lsa, yirtilgan joylarning cheti nam tampon bilan to‘g‘rilanadi, so‘ngra yelim surtib, yirtiq bo‘ylab o‘ng va chap tomonidan shaffof qog‘oz chiziqsi (papiros, kondensator qogozi) qo‘yiladi. Agarda yirtilgan joy tekstga tegmasa, uni qalin qog‘oz bilan sahifaning chap tomonidan yelimlash mumkin.

Kitob sahifalarining buralib ketgan, ammo hali pishiq bo‘lgan uchlari nam tampon bilan to‘g‘rilanadi va so‘ngra presslanadi, siyqalanib ketgan burchaklar ikkala tomondan mustahkamlanadi.

Sahifaning yetishmagan qismi yamoq solib to‘ldiriladi. Buning uchun kitob sahifasini oynaga qo‘yib konturi chizib olinadi. Zararlangan sahifadagi pirtik, joyning chetlari nam tampon bilan tekislanadi, 10-15 mm kenglikda yelimlanadi, yamoq uchun tanlangan qog‘ozni tampon bilan bir oz namlab, tolalarining yo‘nalishiga ko‘ra yirtilgan joyga bosiladi, qog‘oznnng ortiqcha qismi qirqib tashlanadi, yamoq sahifaning 10 mm dan ortiq joyini egallamasligi kerak.

Agarda forzats blokdan yelimi ko‘chib ajralib qolgan bo‘lsa, taxlangan forzats ustiga qog‘oz qo‘yib, forzats bukilgan joydan 3-4 mm qoldirib ochiq joyga ehtiyotlik bilan kraxmal kleysteri surtiladi. So‘ngra qog‘oz olib, kitob yopiladi va yelim qurigunchа bir necha soat ustiga narsa bostirib qo‘yiladi. Agarda kitobning yumshoq muqovasi chiqib ketsa, kitobdan skrepka olinadi. Kitobni boshqa muqovaga qo‘yib, metall bilan mustahkamlanadi. Agarda qalin muqova chiqib ketsa, yangi forzats yelimlash, so‘ngra koreshokka ikki tomondan 2 sm chiqib turadigan doka

yopishtirish kerak. Shundan keyin blokni muqova ichiga qo‘yib, muqova yopiladi va blokning joylashishi tekshiriladi. Blokning ustki va pastki qismi chetlari teng oraliqda, taxminan 3 mm muqova ichiga kirib turishi kerak. Muqovani old tomonini pastga qilib qo‘yib ochiladi va orqa tomondagi forzatsga yelim surtiladi va muqova yopiladi, bu operatsiya old tomondagi farzatsda ham takrorlanadi. Kitob press ostida quritiladi.

Kitob blokini tikish. Ishni blokni komplektlash, ya’ni daftarlarni kolonsifr va signatura izchilligida to‘plashdan boshlash kerak. Komplektlangan kitob bloki press ostiga qo‘yiladi.

Kitob blokini tikishdan oldin uning birinchi va so‘nggi sahifalari uchun forzats tayyorlash va joylashtirish kerak. Forzats kitob blokini muqovaga biriktirishga xizmat qiladi. Forzats ikkiga bo‘klangan qogoz bo‘lib, uning bir tomoni muqovaga yelimlanadi, ikkinchi tomoni kitobning birinchi sahifalarini ifloslanishdan saqlaydi.

Forsaz qalin rangsiz, rangli va dekorativ qog‘ozdan tayyorlanadi. Forzatslar tayyorlanishi va o‘rnatilish usuliga ko‘ra yopishtirilgan, hoshiyalangan va tikilgan bo‘ladi.

Tikiladigan forzats unchalik pishiq emas, bundan tashqari u kitobni ochishni qiyinlashtiradi. Kitob o‘lchamidagi ikki buklangan qog‘oz falsovka qilinadi, uning koreshogi varaq tolalari bo‘ylab joylashishi kerak. Forzatsning bir tomoni fals bo‘ylab yaxliticha yelimlanadi va muqovaga yopishtiriladi, qog‘ozning ikkinchi yarmiga fals bo‘ylab faqat 5 sm cha yelim surtiladi va daftarning birinchi varag‘iga yopishtiriladi, ikkinchi forzats oxirgi daftarga ana shunday yopishtiriladi. Eng pishiqrog‘i hoshiyalangan forzats bo‘lib, u ham yopishtiriladigan forzats siggari tayyorlanadi. Biroq keyin daftarning koreshogi listda uzunasiga q.irqilgan bo‘z yoki kolenkor chiziqsi forzatsi bilan hoshiyalanadi. Gazlama forzatsga 1 sm, daftarga esa 0,5 sm chizig‘da kirishi kerak, u kleyster bilan yopishtiriladi.

Tikiladigan forzatslar birinchi va so‘nggi daftarlarga blokni tikishda biriktiriladi. Eng oddiy yaxlit qog‘ozli tikiladigan forzats bir bukib qalin varaqdan falsovka qilingan, kitob blokining enidan 5-6 mm chiqib turadigan forzatsdir.

Forzatsning koreshok qismi mana shu miqdorga buklanib, blokni tikish jarayonida birinchi daftar koreshogi ustidan o‘tkaziladi va qog‘oz bilan birga dokaga tikiladi, tikilgandan so‘ng yelimlanadi, ikkinchisida ham shu jarayon takrorlanadi.

Daftarlarni tikish juda muhim va mas’uliyatli jarayondir. Tikishdan oldin blokni tashkil etuvchi presslangan daftarlar boshi va koreshogidan tekislanadi, ikkita taxta orasiga koreshogi 1 sm chiqib turadigan qilib qo‘yiladi va tisk bilan siqiladi. Qalam bilan kitobning tepasi hamda pastidan 2 sm qoldirib ikkita ko‘ndalang belgi qo‘yiladi va shu belgilar bo‘yicha ip uchun kichikroq, kanop uchun kattaroq teshik qilinadi. Tikish stanokda bajariladi. Nina uzunroq va unchalik yo‘g‘on bo‘lmasligi kerak. Tikkanda bir ip bilan tikiladi, ipning uchiga tugun solinmaydi.

Stolga yon bilan o‘tiriladi, chap qo‘l stolning ustida daftar bir oz qiyalanib ushlanadi. Stanok old tomonda, kitob bloki chap tomonda bo‘lishi kerak. Ninani tashqi tomondan daftar chetidan 3-4 sm qoldirib tikiladi, ipning uchi daftardan 5-7 sm chiqib turadi. So‘ngra ninani daftarning bukilgan tomonidan teshiklar qilingan joydan tikib shnur ustidan aylantiramiz va ninani ana shu bukikdan ichkariga tiqamiz. Har bir shnur atrofi ana shunday tikib chiqiladi. Shundan so‘ng ipni ikki uchidan, ikki tomonga tortamiz. Shundan keyin ikkinchi daftar, teskari tortib, uchinchisi esa birinchiga o‘xshatib tikiladin daftarlar shnurda qimirlamasligi uchun koreshok va ayni bir vaqtda daftarning falslari 1-2 sm chuqurlikda yelimlanadi. So‘ngra blokni koreshokka tiqib tepa va past uchlariga yetkazmay yelimlanadi. Quritilgandan keyin kitob tikilgan uchlari yelim surtilgan qog‘ozga yelpig‘ichsimon qilib yopishtiriladi. Koreshokka biriktirilgan blok yana presslanadi va so‘ngra qirqiladi. Qirqishdan oldin eng tor sahifa eniga ko‘ra belgi qo‘yiladi. Qirqishda pichoq yoki obrezgobeldan foydalaniladi. Qirqishga tayyorlangan kitob ikki taxtacha orasiga siqiladi. Blokni muqova ichiga qo‘yishdan oldin muqovani bi-ror yumshoqroq narsa ustiga qo‘yib, koreshok bir oz dumaloqlanadi. So‘ngra blokni qo‘yib forzatsga yelim surtiladi, yelim koreshok yaqiniga ko‘proq surtiladi, kitobni orkr muqova tomon bir oz bukib, orqa forzats yopishtiriladi. Bunda uch tomondan qoladigan hoshiya bir xil o‘lchamga ega bo‘lishi kerak. Shundan so‘ng oldingi forzats yelimlanadi va kitob press ostiga qo‘yiladi.

Kartonga rangli qog‘oz yopishtirilganda rangli qog‘oz chizig‘i kartaning chetlarini qamrab qarama-qarshi tomonga buklanadi. Amaliyot ko‘rsatishicha, kartonga yopishtiriladigan rangli qog‘ozning o‘lchami kartonning o‘lchamidan 30-40 mm katta, bukilgan chiziqlarning eni hamma tomondan 25-20 mm ga teng bo‘lishi kerak.

Buyumning ich tomoniga yelimlanadigan texnik qog‘oz bilan karton cheti qirrasi orasida 5 mm oraliq bo‘lishi kerak. Ana shunda qog‘oz karton chetlariga chiqmaydi va tor hoshiya qoladi. Ana shunday yelimlangan papka yoki muqovadan foydalanilganda ichki qog‘oz uzoq muddat saqlanadi. Burchaklar gazlama yoki qog‘oz parchalari bilan yelimlanadi. Koreshok doimo karton muqovadan 40 mm uzun bo‘lishi kerak, eniga esa kartonning qalinligiga va muqovaga tikish uchun 60 mm ni qo‘shib hnsoblanadi.

Savol va topshiriqlar:

1. Kitob ishlab chiqarish texnologik jarayonini aytib bering.
2. Muqovalash jarayonida nimalarga e’tibor berish kerak?
3. Muqovasozlik ishlarida kerak asbob va moslamalar qanday?

Foydalanilgan asosiy adabiyotlar:

1. R.A.Mavlonova., Satbayeva M.T. O‘quv ustaxonasida amaliy mashg‘ulot. Toshkent «ILM ZIYO» 2010-y.

2. R.A.Mavlonova., Satbayeva M.T. O‘quv ustaxonasida amaliy mashg‘ulot. Toshkent «ILM ZIYO» 2011-y. II-nashr.

3. Н.Васина «Чудесный картон» Москва, Айрис-Пресс 2013г.

MAVZU: QOG‘OZDAN TO‘QISH USULLARI. XATCHO‘P, GILAMCHA VA SAVATCHA

Reja:

1. Kitoblar uchun xatcho‘p tayyorlash.
2. 2-sinfdagi darsning taxminiy rejasi.

Tayanch so‘z va iboralar: Xatcho‘p, to‘qish, rangli qog‘oz, kitob, malaka, ko‘nikma, ikki rangdagi qog‘oz, kleyster, qalam, chizg‘ich, qaychi, burchak, tekislagich, shotka.

To‘qish bu yer kurrasining barcha halqlarida qo‘l hunarining eng ko‘p tarqalgan qadimiy turidir. To‘qishni ibtidoiy odam o‘tlar va daraxt po‘stlaridan turmush predmetlarinn to‘qib san’atga aylantirdi. Ming yillar davomida to‘qish vositasida naqshlar yaratildi va ular murakkablashib bordi va uning asosida, nihoyat oqibatda, to‘qimachilik dunyoga keldi. Har qanday gazlama ham o‘zaro to‘qilgan iplardan tarkib topadi.

Qog‘ozdan to‘qish qog‘ozga ishlov berishning eng qiziqarli badiiy usullaridan biridir. To‘g‘ri tashkil etilgan qog‘ozdan to‘qish tarbiyaviy va ta’limiy ahamiyatga egadir. Bu ishning asosiy maqsadi chamalash, aniqlik, tartiblilikni o‘stirish, to‘qish usullarini o‘rgatishdir. To‘qish amaliy san’atda muhim o‘rinni egallaydi, ornamentlar to‘qimachilik tarkibiga kiradi va u estetik tarbiyaning vositalaridan biri hisoblanadi.

Texnologiya darsi o‘quvchilarning aqliy va jismoniy kuchlarini rivojlantirish, ularning onglarini bilim, malaka va ko‘nikmalar mavzusi bilan boyitish, o‘quvchilarning o‘qish, turmush, o‘yinda foydalanadigan narsalarni yasashlaridagi yosh xususiyatlarini, imkoniyatlarini nazarda tutgan holda puxta o‘ylab chiqilishi kerak. To‘qish namunalarida o‘quvchilar o‘rish va arqon iplar tushunchalarini egallaydilar, naqshlar o‘yishni, naqsh gullarini uyg‘unlashtirishni o‘rganadilar, ular turlash texnikasi bilan tanishadilar, bular o‘quvchilarning ijodiy o‘sishlariga maqsadga muvofiq ta’sir ko‘rsatadi. Bunday ishda har qanday qog‘ozdan foydalanish mumkin.

To‘qishda quyidagilar hisobga olinishi zarur.

Turli detallarga mo‘ljallangan qog‘ozlarning qalinligi bir xil bo‘lishi kerak, aks holda naqsh yoki buyumlarni yasash murakkabgina bo‘lmay, balki ular notekis ham chiqadi.

Naqshni tanlab, to‘qiladigan chiziqlar yuqori qatordan boshlab qanday izchillikda borishini, ular bilan qaysi kataklarni bekitish lozimligini ko‘rib chiqing. Naqshlarda ko‘pincha bir xil to‘qilgan chiziqlar takrorlanadi. Ularning qayerda takrorlanishini mustaqil belgilab oling, shunda ish ancha osonlashadi va tezlashadi, chunki kataklarni sanashga hojat qolmaydi.

Naqsh bir tekis chiqishi uchun har bir to‘qilayotgan chiziqni oldingisiga to‘g‘ri va zich qilib taqash lozim. Buni ishning orqa tomonidan qilish kerak, aks holda chiziqning old chetlari ezilishi mumkin. Agarda naqsh ko‘p chizig‘lardan to‘qiladigan bo‘lsa, vaqti-vaqti bilan arqoq chiziqni ko‘tarish, unga ozgina yelim surib to‘qilayotgan chiziqga yopishtirib qo‘yish lozim.

To‘qishda rangsiz universal yelimdan foydalangan ma’qul. yelimni gugurt cho‘pi bilan yopishtiriladigan chiziqning koq o‘rtasiga nuqta tarzida surib, tayyor yupqa karton yoki qalin qog‘ozga yoki bezalishi lozim bo‘lgan narsaga yopishtirib qo‘yish kerak.

To‘qishda barcha barmoqlarni ishlatishga harakat qiling.

Tasvirni tanlab va uning nimaga mo‘ljallanganligini aniqlab, kerakli qog‘oz olinadi va razmetka qilishga kirishiladi.

Kerakli o‘lchamdagi varaq ikkiga buklanadi, chetidan talab qilinayotgan kenglik o‘lchanadi, so‘ngra govori va o‘ng chetdan bu chiziqlar ramka tarzida chiziladi. Ishning keyingi bosqichi chizilgan chetning chap tomonidan rasm uchun kerak bo‘lgan kenglikdagi chizig‘ o‘lchanadi. Chiziqlar o‘rtasidagi oraliqni o‘lchab bukish chizig‘idan yuqorida belgilangan milk qirrasigacha kesiklar qilinadi. Varaq ochilganda u tekis chizig‘larga qirqilgan bo‘ladi. Boshqa rangdagi keyingi varaq kerakli kenglikdagi chiziqlarga o‘lchab chiziladi.

To‘qishda o‘rish (asos) birmuncha qisqaradi, shuning uchun u doimo bir necha mm uzun bo‘lishi kerak. Razmetka qog‘ozning chap tomonidan qilinishini unutmang. Chiziqlarni tandashda ranglarning o‘zaro uyg‘un bo‘lishiga harakat qilish, bir necha variantda sinab ko‘rib, eng qulayini topish kerak.

Avval oddiy naqsh to‘qiladi. Chizig‘dagi kesiklar shaxmat tartibida to‘qiladi. Kesiklarni qiya tarzida ham qilish mumkin.

Qiya kesikli xatcho‘p

Rangli yoki oq qog‘oz olinib, uzunasiga ikkiga buklanadi.

Tayyor mahsulot razmetka qilinadi. Kesiklar chizig‘i bukilish tomonidan bir biriga teng oraliqda qilinadi. Rangli oq qog‘oz chizig‘si olinib, chetlari bukiladi va o‘rishning ters tomoniga tikiladi.

Kesikli asosni aylantirib naqsh chizig‘ bilan to‘qiladi.

4. Xatcho‘pning yon tomonlari ters tomonga bukib yelimlanadi, narsa pressda quritiladi.

Qiyshiq kesikli xatcho‘p.

Rangli qog‘oz olib, uzunasiga ikkiga buklanadi.

Tayyor mahsulot razmetkasini chiziqning bo‘sh chetlaridan 20 mm oraliqda o‘tkazib tayyorlash. Kesiklar chizig‘ini bukish chizig‘iga 45° burchakda og‘dirib belgilash va qirqish.

Boshqa rangdagi qog‘ozni olish.

Qirqilgan asos arqoqni olib, chiziqni kesiklar orqali to‘qish, xatcho‘p chetlarini yelimlash.

II variant. Bu variant ayrim qog‘oz chiziqlarini emas, balki kesik arqoqlarni to‘qib bajariladi. Bir tomoni bo‘yalgan qog‘ozdan foydalangan yaxshi, bunda buyumning rang gammasida qog‘ozning ters tomonidagi rang ham ish beradi.



Ishning borishi

1. 60^{X}90 mm o‘lchamda rangli qog‘oz chizig‘i tayyorlanadi.

2. Astar uchun boshqa rangdagi qog‘oz tayyorlanadi. Qog‘ozning rangi va toni asosning o‘ng va ters tomoni rangi bilan yaxshi uyg‘unlashishi kerak.

3. Asos razmetka qilinadi. Kesiklar chizig‘ini 45° burchakda qilib 7 mm oraliqda qirqiladi.

Naqshni to‘qish. Buning uchun tayyor mahsulotni pastga qaratib, yuqori chiziq burchaklarini bittadan qoldirib yuqoriga qayriladi. Burchaklar razmetka chizig‘idan buklanadi, buklangan burchaklar yaqin turganining tagiga tiqiladi.

4. To‘qilgan asosga yelim surib, astarga yelimlanadi. Sumkachalar va shu kabilarni to‘qishni II-III sinflar o‘quvchilari bajara oladilar. Namunani analiz qilishda detalni buyumga biriktirishga alohida e’tibor beriladi. Tayyor mahsulot razmetkasi operatsion chizma bo‘yicha qilinadi.

Savat, gilamchalar to‘qish. Geometrik ornamentli gilamchalar (yuqorida aytib o‘tilganidek) chiziqlar soniga ko‘ra to‘qiladi. Krest usulida to‘qishni namuna sifatida olib, naqsh uchun turli kenglikdagi chiziqlardan foydalanish mumkin.

2-sinfdagi darsning taxminiy rejasi

Tubi to‘qilgan savat. Topshiriq ikki soat darsga mo‘ljallangan. Darsning maqsadi: o‘quvchilarni ishni namuna asosida rejalashtirish, doskadagi sxematik tasvir bo‘yicha ishlashga o‘rgatish; chizg‘ich va burchak bilan razmetka qilish;

chizig‘larni to‘qishni mashq qilish.

Dars jihozi: ikki rangdagi qog‘oz, kleyster, qalam, chizg‘ich, qaychi, burchak, tekislagich, chutka. Savat namunasi, sxematik chizma.

Darsning borishi. “To‘qish halq dekorativ amaliy san’ati” haqidagi suhbat.

Namuna tahlili: buyumning shakli qanday, uning detallari qancha? Bezagi qanday qilingan, savat qanday qismlardan tarkib topgan? Savat qismlari qanday biriktirilgan? Buyumni tayyorlash uchun qanday material va asboblar kerak bo‘ladi.

III. Ish joyi tayyorligini tekshirish.

IV. Ish jarayonini rejalashtirish.

1. Savat uchun asos tayyorlash.
2. Asosni razmetka qilib unda kesiklar qilish.
3. Chiziqlar tayyorlash.
4. Naqsh to‘qish.
5. Savatni yelimlash.
6. Dastak uchun asos tayyorlash.
7. Chiziqlarni qirqish.

V.Topshiriqni bajarishga kirishish.

VI.Razmetkanibajarish, kesiklar qilish.

O‘quvchilar to‘qish usullarini xotirlab, ishga kirishadilar.

Savol va topshiriqlar:

1. Savatcha to‘qishda ish jarayoni qanday rejalashtiriladi?
2. Geometrik ornamentli gilamchalarni to‘qish necha bosqichli bo‘ladi?

Foydalanilgan asosiy adabiyotlar:

1. R.A.Mavlonova., Satbayeva M.T. O‘quv ustaxonasida amaliy mashg‘ulot. Toshkent «ILM ZIYO» 2010-y.

2. R.A.Mavlonova., Satbayeva M.T. O‘quv ustaxonasida amaliy mashg‘ulot. Toshkent «ILM ZIYO» 2011-y. II nashr.

3. А.Зайцева «Бумажное кружево» Москва, ЭКСМО 2010 г.

MAVZU: TEXNIKA HAVFSIZLIGI QOIDALARI

Reja:

1. Ish xonalarida ishlash va asboblardan foydalanish bo‘yicha qoidalari.
2. Texnologiya darslarining sanitariya - gigiyena qoidalari.

Tayanch so‘z va iboralar: Ish xonasi, asboblar, gigiyena, texnologiya, ish quroli,

Qo‘l texnologiyai darslarida odatda bir yoki ikki asbobdan foydalaniladi. Kerakli moslamalarni navbatchilar tarqatadi. Ish joyining ustida diqqatni chalg‘itadigan narsalar bo‘lmasligi kerak. Barcha asboblar javonda saqlanadi. Asboblar saqlanadigan moslamalarni, asboblarni o‘quvchilar tozalab, yuvib, artib navbatchi o‘quvchilarga topshiradilar. Ish xonasida o‘quvchilarga asboblarni ishlatish va saqlash qoidalarini eslatib turuvchi plakat, eslatmalar osig‘lik bo‘lishi kerak. Xavsizlik texnikasi qoidalariga rioya qilish baxtsiz hodisalarning oldini oluvchi ishonchli garovdir. Ish xonalarida ishlash va asboblardan foydalanish bo‘yicha qoidalarni quyidagicha umumlashtirish mumkin:

1) Ish xonasiga faqat o‘qituvchining ruxsati bilan kiriladi;

2) Har bir o‘quvchi faqat o‘z ish joyida ishlaydi;

3) Ish faqat o‘qituvchining ruxsati bilan boshlanadi;

4) Ishni boshlashdan oldin ish joyini to‘g‘rilab, asboblarni to‘g‘ri va qulay joylashtirish lozim;

5) Ish vaqtida ish joyini tartibli saqlash;

6) O‘tmas va buzuq asboblar bilan ishlamaslik;

7) Asboblarni asrash va ularni ishlatgandan so‘ng tozalab, yuviladiganlarini yuvib, artib qo‘yish;

8) Yasayotgan narsani oldingi safargisidan chiroyliroq, tartibliroq bajarish;

9) Ishni tugatgandan song ish joyini tozalab, tartibli qilib qo‘yish;

10) Asboblardan foydalanayotganda o‘qituvchi ko‘rsatgandek ishlatish lozim.

Texnologiya darslarining sanitariya - gigiyena qoidalari.

1. Ish joyini ozoda tuting!

2. Ish joyining ozadaligiga va shaxsiy gigiyena qoidalariga rioya qiling.

3. Ishlab bo‘lgach ish joyini yig‘ishtiring.

4. Ishni tugatgach qo‘lingizni sovunlab yuving!

Tejamkorlik haqida ma’lumot.

Barcha ish turlari bilan ishlash jarayonida tozalik, ozodalik va tejamkorlikka ham rioya qilish zarur:

1) qog‘oz va karton bilan ishlaganda kerakli shakllarni qog‘ozning chetidan kesib olish;

2) qog‘ozning qolgan qismini mozaika ishlarini bajarish uchun saqlash lozim;

3) ishning boshqa bo‘limlarida ish qurollari va materiallaridan tejab, unumli foydalanish kerak;

Qaychi bilan ishlash qoidalari.

1. Qaychini belgilangan joyda, belgilangan holatda saqlang.

2. Qaychining uchini yuqoriga qaratib ishlatmang.

3. Qaychini ochiq holda qoldirmang.

4. Qaychini yurib turgan holda ishlatmang.

5. Qaychini yopilgan holda uchidan ushlab, o‘rtog‘ingizga uzating.

6. Qaychini ishlatayotganda kesishning yo‘lini va materialni ushlab turgan chap qo‘l barmoqlaringizni kuzatib turing.

7. Yaroqsiz qaychini ishlatmang.

Yelim bilan ishlash qoidalari.

1. Yelimning og‘zini tepaga qaratib qo‘ying.

2. Yelimning og‘zini yopiq holda saqlang.

3. Yelimdan foydalanayotganda maxsus mo‘yqalamdan (kistochka) foydalaning.

4. Yelimlayotgan narsaning chetlariga yelim chiqib ketsa, uni maxsus lattacha bilan arting.

5. Yelim bilan ishlab bo‘lgach qo‘lni sovunlab yuvish kerak.

Igna bilan ishlash qoidalari.

1. Ignani ishlatib bo‘lgach, maxsus igna yostiqchasiga sanch’ib qo‘ying.

2. Ignani og‘zingizga solmang.

3. Ortiqcha ignalarni quruq holda ignadonda saqlang.

4. Ishdan oldin va ishdan keyin ignani sanang, yetishmasa qidirib toping.

5. Kartonda ishlaganda birinchi teshikni bigizda teshib oling.

Pichoq va bigiz bilan ishlash qoidalari.

1. Uchi yumaloq pichoqdan foydalaning.

2. Pichoqni o‘qituvchi ko‘rsatgandek ishlat, qattiq bosma.

3. Bigizni o‘rinsiz ishlatmang.

4. Sirti silliq, sirpanchiq va qattiq predmetlarni bigiz bilan teshmang.

5. Uni ya’ni teshiladigan predmetlarni qo‘lda teshmang uni taglik ustiga qo‘ying.

Foydalanilgan asosiy adabiyotlar:

1. Sanaqulov X.R, Xodieva D.P, Sanaqulova A.R. “Texnologiya” 3-sinf uchun darslik . –T:. Sharq, 2019.

2. X.Sanaqulov, D.Xodieva “Boshlang‘ich sinflarda qog‘ozdan amaliy ishlar” metodik qo‘llanma 2012 yil T:.Ipak yo‘li poligraf, 2012.

3. Sanaqulov X.R, Xodieva D.P “Boshlang‘ich sinflarda tabiiy materiallardan amaliy ishlar” o‘quv-metodik qo‘llanma 2009 yil. TDPU.

4. Nurmatova M.Sh. “Mehnat tarbiyasi” Toshkent. TDPU. 2005-y

MAVZU: QOG‘OZ VA TURLI MATERIALLARDAN ARCHA BEZAKLARINI YASASH

Reja:

1. Archa bezaklari haqida ma’lumot.
2. Qorparchalar qirqish usullari.
3. Turli va tabiiy materiallardan archa o‘yinchoqlari yasash.

Tayanch so‘z va iboralar: Archa o‘yinchoqlari, qorparchalar, naqsh, girlyanda, og‘ozdan qor parchalari, girlyandalar, osma o‘yinchoqlar, yelimsiz archa o‘yinchoqlari, tuxum po‘chog‘i, bigiz, sim, rangli qog‘ozlar, zar qog‘ozlar.

Talabalar yangi yil bayrami haqidagi ko‘pgina ertaklar, multfilmlar, she’rlar, hikoyalarni yaxshi bilishadi.

Bu bayramda archani chiroyli bezash va Qorbobo, Qorqiz mehmon bo‘lib kelishi bolalarni quvontiradi. Archani chiroyli bezatishda bolalarning o‘zlari archa bezaklari va o‘yinchoqlarini yasay bilishlari kerak. Qog‘ozdan qor parchalari, girlyandalar, osma o‘yinchoqlar, yelimsiz archa o‘yinchoqlari, chiroqlar yasaladi.

Bu o‘yinchoqlarni yasash uchun quyidagi: rangii qog‘oz, yelim qaychi, har xil pechenye, konfetlarning zar qog‘ozlari, turli xil gul qog‘ozJar, kalka ishlatiladi. Qor parchalarni yasash uchun zar yoki oq qog‘ozdan kvadrat hosil qilib olamiz va uni 6-8 qirrali qilib buklab chiqamiz.



Hosil bo‘lgan uchburchak shaklga naqsh elementini chizib, qirqib chiqiladi. So‘ngra qog‘ozni ochib, tekis holatga keltiriladi. Qor parchasi tayyor bo‘ldi. Zanjirlarni tayyorlash uchun 5-6 xil rangii qog‘ozdan ingichka tasmalar qirqiladi, Qalinligi 2 sm, uzunligi esa 8 sm qilib olinadi va ular ketma-ket bir-birining orasidan o‘tkazib yelimlanadi. Zanjirning ikkinchi ko‘rinishi yelimsiz bajariladi. Bunda qog‘oz

hajmi kattaroq olinadi va undan har xil shakllar qirqiladi. Bir-biriga kiygizib chiqiladi. Osma o‘yinchoqlar yasash uchun har xil chiroyli o‘yinchoqlar tanlanadi va ularning shakli qog‘ozga tushiriladi. Shakllar qirqib olinadi va yelimlashdan oldin ular orasidan ip yoki sim o‘tkaziladi, shu tariqa chiroq va girlyandalar yasaladi.

Maktabgacha ta’lim muassasalarida archa o‘yinchoqlari va bezaklarini tayyorlashda rangli qog‘oz, zar qog‘ozlar, tashlandiq xomashyo ya’ni tuxum po‘choqlaridan foydalanish mumkin. Quyida rangli qog‘ozdan archa bezaklari, qor parchalarini yasash usullari va namunalar berilgan.

Tuxum po‘chog‘idan archa o‘yinchoqlarini yasash uchun ichi bo‘shatilgan tuxum po‘chog‘i, bigiz, sim, rangli qog‘ozlar, zar qog‘ozlar, rangsiz lak kerak bo‘ladi.

Bajarish usuli: tuxumni asta-sekinlik bilan bigiz yordamida ikki tarafidan teshib, bir teshigidan puflab, ichidagi suyuqlik chiqarib olinadi. Keyin tozalab yuvib quritiladi. So‘ngra unga rangli qog‘ozdan yoki akvarel bo‘yog‘ida ishlov beriladi. Yasab bo‘lgandan so‘ng teshik tomoniga tayyor archa simchalari o‘rnatiladi va PF Ne 283 lak yordamida laklanadi.

O‘quvchilarning estetik didini tarbiyalashda bayramlar o‘rni juda kattadir. Har bir bayramning o‘z bezagi bo‘ladi. Bolalarning eng sevimli bayramlari bu yangi yil bayramidir. Yangi yil bayramida bezatilgan archaga bolalar o‘zlari yasagan o‘yinchoqlarini ilsalar yanada quvonadilar. Buning uchun bolalarga archa o‘yinchoqlarini o‘qituvchi tayyorlashni texnologiya darslarida o‘rgatadi.

Osma o‘yinchoqlar – yassi, hajmli, yarim hajmli bo‘lishi mumkin: geometrik figuralardan, o‘simliklar, hayvonlar tasvirini olish mumkin.

Girlyandalar bilan bayram, tadbirlarni bezash mumkin. Buning uchun turli xildagi girlyandalarni yasay olish zarur.

Maktab o‘quvchilari o‘zlari tayyorlagan girlyandalar bilan tadbirlarini bezasalar bayram quvonchli, qiziqarli bo‘ladi. Shu bilan birga o‘quvchilar o‘z va

o‘zgalar texnologiyaini qadrlashni o‘rganadilar.

Girlyandalar tayyorlash uchun rangli qog‘ozlar, rangli kartonlar, turli rasmlar, arqon kerak bo‘ladi. 1-2 sinflarda oddiy girlyandalar tayyorlanadi: bular zanjir usuli, bayroqchalar, turli meva sabzovotlar tasvirlarini, fonarchalardir. 3-4 sinflarda murakkab girlyandalar yasaladi: bular uzluksiz tasvirli girlyandalar, qanotlari yopishgan qushlar, oynasidan arqon o‘tgan uychalar bo‘lishi mumkin.

Bayram niqoblarini tayyorlash uchun: qalin oq qog‘oz, shablonlar, qaychi, qalam, tesmalar, kley, rangli qog‘oz, folga, porolon, tayyor kornoval niqoblari.

Yangi yil bayramiga tayyorgarlik niqoblarni tayyorlashdan boshlanadi. O‘qituvchi har bir bolani hisobga olgan holda niqob shablonlarini tayyorlaydi. O‘quvchilar bu shablonlardan foydalanib niqoblar tayyorlaydilar va bezaydilar. Bu niqoblar turli hayvonlar, ertak qahramonlari bo‘lishi mumkin. Ularni qalin oq qog‘ozdan qirqib turli yordamchi materiallar bilan bezatiladi.

Niqoblar turli hilda yani hajmli yoki yuza bo‘lishi mumkin. Yuza hajmli niqoblar oddiy holda qirqiladi va bo‘yaladi. Hajmli niqoblar kiyimlari bilan birga ertak qahramonlar tartibida tayyorlanadi.

Savol va topshiriqlar:

1. Archa o‘yinchoqlari va girlyandalarning qanday turlari bor?
2. Qanday materiallardan archa o‘yinchoqlari tayyorlash mumkin?
3. Oq qog‘ozdan qorparchalar ko‘rinishini yasash.

Foydalanilgan asosiy adabiyotlar:

1. R.A.Mavlonova., Satbayeva M.T. O‘quv ustaxonasida amaliy mashg‘ulot. Toshkent «ILM ZIYO» 2010-y.

2. R.A.Mavlonova., Satbayeva M.T. O‘quv ustaxonasida amaliy mashg‘ulot. Toshkent «ILM ZIYO» 2011-y. II nashr.

3. Маргрет Коерсидр. “Большая книга поделок” Фречверлад, Германия, 2010г.

4. Г.Анохина, А.Кацияева “Весёлые фигурки и забавные модели из бумаги” Ростов-наДону, “И.Д.Владис” 2012г.

5. А.Гаврилова “Узоры и орнаменты из бумаги” М., 2012г.

MAVZU: PAPYE-MASHYE USULIDA ISHLASH. IDISHLAR, MEVA SABZAVOTLAR TAYYORLASH

Reja:

1. Papye-mashe haqida.
2. Papye-mashyedan tayyorlangan o‘yinchoqlar.

Tayanch so‘z va iboralar: Ivigan, g‘ijimlangan, qog‘oz, Papye-mashye, o‘yinchoq, tayyorlash.

Papye-mashye “ivigan”, “g‘ijimlangan” qog‘oz demakdir. Bunday qog‘ozdan kleyster bilan loy va plastilindan yasalgan tayyor model bo‘yicha shakl yelimlanadi. Papye-mashyedan tayyorlangan o‘yinchoqlar, har xil mayda-chuyda narsalar yasashning osonligi bilan ajralib turadi. Papye-mashye bilan ishlash jarayoni talabalarda texnologiya malakalarining shakllanishiga, turli asbob va materiallar bilan ishlash ko‘nikmalarining rivojlanishiga yordam beradi. Papye-mashye bilan ishlaganda qalamtarosh, qarmoq ipi, yelim pishirish uchun idish, tayyor mahsulotni bo‘yash uchun bo‘yoq, mo‘yqalamlar kerak bo‘ladi. Ish qog‘ozni tayyorlashdan boshlanadi. Buning uchun gazeta va o‘rash qog‘ozlari zarar. Qog‘oz namlanadi, biroq ivib ketmasligi kerak. Bir idishda gazeta, ikkinchi idishda o‘rash qog‘ozi turadi. Undan keyin yasaladigan shakl tayyorlanadi. Piyola faner ustiga to‘nkarib qo‘yiladi. Unga yupqa qatlam yog‘ (vazelin, o‘simiik yog‘i) surtiladi.

Birinchi ish piyola ustiga faqat suvlangan qog‘ozni yopishtirishdan boshlanadi. Shundan keyin namlangan kesma qog‘ozlarga kleyster surtiladi, uni birin-ketin piyolaga yopishtirib, bittadan oralatib, bir-biriga ko‘ndalang, bir kesma ikkinchiga yetadigan qilib qo‘yib chiqiladi. Poloskalarning eni 1-2 sm, uzunligi esa piyolaning ikkala tomoniga yetib, faner ustiga tushib turadigan bo‘lishi kerak. Bunday qog‘ozlar ikki qatlam qilinib, ochiq joylarni qoldirmay yelimlanadi.

Shundan keyin yana ikki-uch qatlam yopishtiriladi, biroq endi poloskalar emas, balki qog‘oz parchalari yopishtiriladi. Qog‘oz albatta qo‘lda yirtilishi kerak, shunday qilinsa, bir me’yordagi yelimlangan tekis qatlam hosil bo‘ladi. Shunday qilib, piyola ustiga bir necha qatlam (5,6-8) qavat qog‘oz parchalari buyumning kattaligiga ko‘ra yopishtiriladi. Qog‘oz shaklni piyoladan ikki kundan keyin olish kerak. Agarda shakl piyoladan chiqmasa, uni bir oz quritish, pichoq bilan qirqib olish kerak. Chetlarini ohista to‘g‘rilab, qirqilgan joy yelimlanadi va bir-ikki kun davomida quritiladi. Yaxshilab quritilgan papye-mashye shaklning sathi silliq qilib, jilvir qog‘oz bilan tozalanadi. Shundan so‘ng yasalgan buyumga emulsiya bo‘yog‘iga “PVA” yelimi qo‘shib mo‘yqalam yordamida silliqlab jilo beriladi. Emulsiyalangan shakl quritiladi va jilvir qog‘oz bilan tozalanadi. Shundan so‘ng u bo‘yaladi va bezak beriladi. Papye-mashyening qog‘oz massasidan bajariladigan boshqa usuli ham bor. Papye-mashye uchun massa eski qog‘ozga yopishtiruvchi va to‘ldiruvchi moddalar qo‘shib tayyorlanadi.

Tayyorlash usuli oddiy. Qog‘ozni mayda qilib burdalab, bir sutka ivitib qo‘yiladi. So‘ngra uni kiselsimon bir xil massa hosil bo‘lgunga qadar qaynatiladi. Sovigan massa kichik-kichik bo‘laklarga bo‘linib qo‘lda siqiladi, quritiladi. Tamoman qurigan massa mayda qirg‘ichdan o‘tkaziladi. Shundan so‘ng qog‘oz massaga yelimli suv quyib, narsalar yasashga yaroqli hamir holatiga kelguncha aralashtiriladi. Bunday massadan karnavallar niqoblari, o‘quv qo‘llanmalari tayyorlanadi. Papye-mashyedan massa tayyorlash usullari serob, qog‘oz massasi va suyuq duradgorlik yelimini turli to‘ldirgichlar: bo‘r, loy, yog‘och qipiqlari, zig‘ir moyi bilan qo‘shib tayyorlash ham mumkin.

Tayyorlangan hamirdan turli xil narsalar yasaladi. Hamir 1-1,5 mm qalinlikda yoyilib, kerakli mahsulot ustiga yopishtiriladi, so‘ngra quritib gruntlanadi.

Grunt tayyor mahsulotga yupqa qilib surtiladi. U qurigach, uning sathi jilvir bilan sayqallanadi, shundan keyingina moy yoki yelimli bo‘yoq bilan bo‘yab, mahsulotni chiroyli ko‘rinishga kelishi uchun harakat qilish kerak.

Papye-mashye juda qo‘l keladigan ashyo ko‘pgina mamlakatlarda keng foydalanadi. Papye-mashye texnikasi yordamida vazalar, patnislar, qutilar tayyorlanadi. Bu mahsulot oliy darajada mustahkam va uzoq vaqt xizmat qiladi.

Papye-mashyedan mahsulot tayyorlash - juda uzoq vaqt davom etadigan jarayon, biron-bir o‘yinchoqlarni tayyorlash uchun sizning bir kuningiz ketadi. Avval osma kosacha qanday kattalikda bo‘lishini aniqlab va sharsimon shaklga ega bo‘lgan buyumni (koptok) toping. Ish jarayonida koptok dumalab ketaverishi kerak emas, uni yopishqoq lenta bilan mahkamlash kerak. Tayyorlab qo‘yilgan qog‘ozni uchburchaklarga kesib olish lozim. Gazeta qog‘ozini bir idishga solib qo‘yamiz, papirus qog‘ozini esa boshqa idishga solamiz. Qog‘ozning ikki xilini ishlatish tavsiya etiladi. Chunki bunda yopishtirilgan qavatlarini farqlay olish mumkin bo‘lsin. Birinchi qavatiga faqatgina suv ishlatiladi. Bu juda muhimdir, bo‘lmasa, tayyor kosacha koptokka qattiq yopishib qolishi mumkin. Qolgan qog‘oz qavatlariga yaxshilab yelim surtiladi. Qanchalik ko‘p qavat bo‘lsa, shuncha yaxshi bo‘ladi. Keyin tayyor mahsulot quritiladi.

PAPYE-MASHYE USULIDA O‘YINCHOQLAR YASASH

Papye-mashye so‘zi fransuz rassomining ism va familiyasidir. Rassom birinchi bo‘lib hamir va qog‘ozni aralashtirib plastilinga o‘xshash massa hosil qilgan, bu massani qo‘lda g‘ijimlash orqali tayyorlanadi. Tayyorlash usuli quyidagicha: 1 qavat o‘rov qog‘ozi yoki gazetaga oldindan tayyorlangan suyuq hamirni surib chiqamiz va hamir surilgan qog‘ozni qo‘limizda g‘ijimlab maydalab bir xil massa bo‘lguncha ezg‘ilaymiz. Tayyor bo‘lgan massani bo‘Iaklarga bo‘lib xohlagan o‘yinchoqni yasashimiz mumkin.

O‘yinchoq yasash davomida barcha haykaltaroshlik usullaridan foydalanishimiz mumkin bo‘ladi. G‘ijimlash usuli orqali ko‘pincha archa bezaklari yasaladi. Bunda yasalayotgan o‘yinchoq ichiga simdan ilgak joylashtiriladi. Yasalgan o‘yinchoq qurigandan so‘ng qum qog‘oz bilan ishqalanib, silliqlanadi. So‘ngra oq guash yoki tish pastasi bilan bo‘yab olinadi.

Qurigandan so‘ng akvarel bo‘yoq bilan bo‘yaladi va ustidan lak beriladi. Bu usul orqali sabzavotlar, mevalar, hayvon, parrandalar, qushlar, gullar va boshqa narsalarni yasash mumkin.

Savol va topshiriqlar:

1. Pap’ye-mashe qanday turlari bor?
2. Qanday materiallardan Pap’ye-mashe o‘yinchoqlari tayyorlash mumkin?
3. Pap’ye-mashe usulda meva-sabzavotlar ko‘rinishini yasash.

Foydalanilgan asosiy adabiyotlar:

1. R.A.Mavlonova., Satbayeva M.T. O‘quv ustaxonasida amaliy mashg‘ulot. Toshkent «ILM ZIYO» 2010-y.

2. R.A.Mavlonova., Satbayeva M.T. O‘quv ustaxonasida amaliy mashg‘ulot. Toshkent «ILM ZIYO» 2011-y. II nashr.

3. A.Zayseva, A.Dubasova «Pap’e-mashe» Moskva, EKSMO 2010-g.

MAVZU: HARAKATLI O‘YINCHOQLARNI TAYYORLASH USULLARI

Reja:

1. Quvnoq raqqosni tayyorlash.
2. Tabriknoma — maketlar.

Tayanch so‘z va iboralar: Karton, maket, detall, tabriknoma, harakat, fon, kiprik, til, og‘iz, qo‘l.

Quvnoq raqqoslar. Raqqoslar kartondan tayyorlanadi. Oyoq, qo‘llar alohida qirqiladi. Ba’zan oyoq va qo‘llar, harakat ko‘proq bo‘lishi uchun ikki qismdan iborat bo‘ladi, tanani bosh bilan birga qirqib olinadi. So‘ngra unga oyoq va qo‘l o‘rnatiladi, figura orqasidan ingichka, biroq pishiq sim bilan bog‘lanadi. Bu bilan raqqos ushlab turiladi.

Raqqoslar shodligi uchun maxsus sahna — orqa devorida ingichka yotiq teshikli estrada kerak. Sahna kartondan tayyorlanib, stolcha mixtugma bilan mustahkamlanadi. yon tomonlarga keng shchitlar qo‘yiladi. Shchitlar orqasiga figuralar qo‘yilib, teshik orqali sim o‘tkaziladi va raqqosni sahnadagi raqs harakati boshqariladi.

Harakatlanuvchi figuralar — dergulchiklar ham shu prinsipda tayyorlanadi, faqat orqa tomonda qo‘l va oyoqlar juftlab o‘zaro yondosh tarzda tik ip bilan birlashtirilgan, uni pastga tortilganda qo‘l va oyoqlaryuqoriga harakat qiladi, tik ip qo‘yib yuborilganda qo‘l va oyoqlar oldingi holatga qaytadi.

Ayrim detallar o‘zaro, qo‘l va oyoqlar tanaga ikki xil usulda tayyorlanuvchi sharnirlar bilan biriktiriladi. Sharnirlar simdan tayyorlanadi. Bir detalni ikkinchisi bilan ko‘rsatilgan joyda biriktirib, bigiz bilan ingichka sim va nina sig‘adigan teshik teshiladi. Ninaga avval figuraning bir tomonidan, so‘ngra ikkinchi tomonidan sim o‘raladi, natijada prujina hosil bo‘ladi (simni ko‘p o‘ramaslik kerak). Prujina ikki tomondan siqiladi, bunday sharnirdagi detallar yaxshi harakat qiladi. Prujina ustiga qog‘oz yopishtiriladi. Sharnirlarni yo‘g‘on ip va gugurt cho‘pi yordamida ham silish mumkin, biroq uzoq chidamay uzilib ketadi, shuning uchun ularni ma’lum vaqtdan keyin almashtirish kerak bo‘ladi.

Masalan, boyqushni yasashda tananing ikkita bir xil detali qirqiladi. Detal B faqat chetidan, agarda detal S harakat qildirilsa (u qisman to‘q rangga bo‘yalgan) boyqush ko‘zini ochib, yumadi. Shu tarzda boshqa o‘yinchoqlarni ham yasash mumkin. Kiprik, til, og‘izni harakatga keltirish mumkin. Bu holda A asosda kerakli joyda kesiklar qilinadi. S detalda til (qosh va shu kabilar) qirqib, buklanadi va uni asosda qilingan teshikka qo‘yiladi. S detal harakat qildirilganda u ham qimirlaydi.

Tabriknoma — maketlar. Bir varaq albom qog‘ozini olib ikkiga buklaymiz. So‘ngra qalin qog‘ozdan kerakli figuralar qirqiladi. Bu rasmlarni istalgan kitob yoki jurnaldan kalkaga va undan qora qog‘oz orqali karton yoki qalin qog‘ozga tushirish mumkin. Figuralarni eski otkritkalar, jurnallar va boshqa joylardan qirqib olish mumkin. Figura syujetda nazarda tutilgan joyga yopishtiriladi, shundan so‘ng figuraning orqasiga ii yoki qog‘oz chizig‘i yelimlanadi, uning ikkinchi uchi razvyortkaning orqa devoriga yopishtiriladi. Yopishtirilgan qog‘oz yoki ipning uzunligi shunday bo‘lishi kerakki, buklangan qog‘oz ochilganda u figurani ko‘tarsin.

Syujetni o‘ylab, bir varaq olinadi, uni ikkiga buklab, so‘ng ochiladi. Uning oxiriga yirikroq rasm yokifon xizmatini o‘tovchi rasm yopishtiriladi. Pastda chizig‘i buklanib, unda burchak qirqiladi. Endi fonni shunday yelimlash kerakki, burchak

asos varaqlar bukiladigan joyga to‘g‘ri kelsin. Taxlash oson bo‘lishi uchun to‘g‘ri chiziq bo‘ylab emas, bir oz burchak qilib yelimlanadi.

Shundan so‘ng manzara yoki biror harakatni ifodalovchi detallarni qatorma-qator yopishtirish mumkin, biroq asosning old chetiga yaqinlashgan sari yopishtiriladigan figuralar balandligi kamayib borishi kerakligini unutmaslik kerak.

Konusli, silindrli o‘yinchoqlar.

Savol va topshiriqlar:

1. Harakatli o‘yinchoqlarning qanday turlari bor?
2. Harakatli o‘yinchoqlarni tayyorlash bosqichini aytib bering?
3. Karton qog‘ozdan “Raqqos” ko‘rinishini yasash.

Foydalanilgan asosiy adabiyotlar:

1. R.A.Mavlonova., Satbayeva M.T. O‘quv ustaxonasida amaliy mashg‘ulot. Toshkent «ILM ZIYO» 2010-y.

2. R.A.Mavlonova., Satbayeva M.T. O‘quv ustaxonasida amaliy mashg‘ulot. Toshkent «ILM ZIYO» 2011y. II-nashr.

MAVZU: TEXNIK MODELLASHTIRISH HAQIDA UMUMIY MA’LUMOT. ARXITEKTURA INSHOATLARINI VA MEBELLARNI LOYIHALASH

Reja:

1. Texnik modellash darslarining asosiy vazifasi.
2. Arxitektura inshoatlarini va mebellarni loyihalash.

Tayanch so‘z va iboralar: Model, maket, mebel, arxitektura, texnika, burchak, chizgich, jag‘i dumaloq ombir, jag‘i yassi ombir, materiallar: faneradan

tayyor mahsulotlar, bolalar shofyor, traktorchi, uchuvchi.

Texnika bolalikdan hammaga yaxshi tanish. 1936 yildayoq N.K.Krupskaya bunday deb yozgan edi: “Texnika ulkan muvaffaqiyatlarga erishdi... u turmushga borgan sari chuqurroq kirib kelmoqda, bolalarimizni kichik yoshdan o‘ziga jalb qilib turibdi, ularning qiziqishini uyg‘otmoqda, fikrini yo‘lga solmoqda. Bolalarning o‘yinlarida bolalarning texnikaga bo‘lgan bu ulkan qiziqishlari aks etmoqda. Biroq bolalar shofyor, traktorchi, uchuvchi, mashinist va shu kabilar bo‘lib o‘ynashnigina emas, balki o‘yinlari haqiqatga mumkin qadar yaqinroq bo‘lishini istaydilar, ular o‘zlarini qiziqtirgan texnologiya sohasida biror narsani qilishni istaydilar. O‘yin o‘z rivojlanishida texnologiyaga, texnikani amaliy egallashga aylanadi”.

Texnik modellash darslarining asosiy vazifasi bolalarda texnikaga bo‘lgan qiziqishni yanada rivojlantirish, bilimni mustaqil olishga, texnik fikrlashga, paydo bo‘lgan konstruktorlik masalalarini hal etish yo‘llarini topishga o‘rgatish, ularni mustaqil ijodkor texnologiyasiga tayyorlashdir. Bu asosiy masalani hal etish uchun texnik modellash darslarida bolalar turli texnik ob’ektlar, mashina va mexanizmlarning umumiy prinsiplari va ishlashi, texnik qurilmalarga asos qilib olingan asosiy krnuilar bilan, asbob-uskunalar va ularning nomlari bilan tanishadilar. Oddiy yig‘uv jarayonlarini bajarish, ishni rejalashtirish, kerakli materialni tanlashni o‘rganadilar. Boshlang‘ich sinflardagi texnik modellashning asosiy ob’ektlarini eng yangi, bolalarga yaxshi tanish bo‘lgan transport, qurilish, qishloq xo‘jalik, turmush, energetika kabi mashina turlaridan tanlash kerak. Bundan tashqari, modellash uchun ob’ekt tanlashda I-III sinf o‘quvchilarining materialga ishlov berish, montaj operatsnyalari, chizmaning murakkabligiga aloqador yosh xususiyatlarini ham hisobga olish kerak. I-III sinflar o‘quvchilari tayyorlaydigan modellar tasvirlanayotgan predmetlarning aniq nusxasi bo‘lmaydi, bu modellar sxematik, faqat tashqi o‘xshashlikni aks ettiruvchi modellardir.

Eng qiziqarlisi hamda zamonaviy mashina va mexanizmlarning tuzilishi, nimalarga mo‘ljallanishi va asosiy funksiyalari bilan tanishishga yordam beruvchi modellar - harakat qiluvchi modeldir.

Eng muhimi texnik modellashda, boshqa ish turlarida ham barcha modellar yo o‘yinda, yo maket yaratishda, yo o‘qishda (myasalan, ko‘cha harakati qoidalarini o‘rganish uchun tayyorlangan mashina, svetofor modellaridan foydalanish) amaliy qo‘llanishidir.

Texnik modellash mashg‘ulotlarini, darslarda ham, darsdan tashqari vaqtlarda ham shunday tashkil etish kerakki, unda bolalar o‘z tashabbuslarini, ishdagi mustaqillikni namoyish eta olsinlar.

Modelni tayyorlashdan oldin u haqda umumiy tasavvurga ega bo‘lish kifoya qilmaydi. Buning uchun bo‘lajak modelni, har bir qismning o‘lchamini, joylashishining, detallarning bir-biri bilan birikishini, ular razmerlarining

munosabatini aniq tasavvur qilish kerak. Agarda o‘quvchilar ob’ektni naturada kuzatib, ishning qanday qismlardan tarkib topganligini ko‘rib, mumiy tasavvurga kelsalar juda yaxshi bo‘ladi. Biroq, har qanday holatda ham modelni tayyorlashda o‘quvchilar oldida yo maket namuna, yo fotosurat (rasm) turishi kerak.

I-sinfda o‘quvchilar muvofiq tajriba va malakasiz xotira asosida unchalik murakkab bo‘lmagan maket (gugurt qutisidan yelkanli qayiqchalar, plastilindan mashina, samolyot maketlari kabi)larni yasashlari, rasm, model, chizma bo‘yicha o‘zlarining qandaydir ijodiy masalalarini hal etishlari, material tanlashlari, ish tartibini biriktirish usullari kabilarni belgilashlari mumkin.

II-sinf o‘quvchilari namunasiz burchak, chizgich, sirkuldan foydalanib, tayyor chizma bo‘yicha ishlarini bajara oladilar.

III-sinf o‘quvchilari berilgan o‘lcham va texnik shartlar yoki namunalarni o‘lchash asosida murakkab bo‘lmagan chizmalarni mustaqil bajara olishlari kerak.

Texnik modellashning dastlabki darslaridan boshlab, o‘quvchilar texnikada o‘lchovlar millimetrda olib borilishini egallab olishlari kerak.

Texnologiya ta’limi darslarida murakkabroq va maxsus moddiy texnika bazasini (asboblar, jag‘i dumaloq ombir, jag‘i yassi ombir, materiallar: faneradan tayyor mahsulotlar, harakatlantiruvchi dvigatellar uchun rezina va shu kabilarni) talab qiluvchi modellarni tayyorlash uchun vaqt ham, imkoniyat ham yetishmaydi.

Texnik modellash bo‘yicha mashg‘ulotlar “Mohir qo‘llar” to‘garagida davom ettiriladi, bu yerda o‘quvchilar o‘zlari uchun qiziqarli bo‘lgan ishlarni tanlashlari mumkin (kimdir samolyotlar modelini, kimdir kema, qayiqlar modellarini yasashni yaxshi ko‘radi).

Model, maket predmetning natural, kattalashgan yoki kichraytirilgan hajmli tasviri model deyiladi. Modellar faqat turli mexanizmlarnigina emas, balki xilma xil predmetlarni: geometrik jism, yer relefi shakllari, odam va jonivorlar tanasi qismlari, o‘simliklarni ham tasvirlaydi.

Model predmetning barcha o‘ziga xos xususiyatlari uning rangi, sathining fakturasi, o‘lchamlari; qismlar mutanosibligini aniq takrorlashi mumkin. Bunday model tasvirlanayotgan model nusxasi hisoblanadi. Model nusxa detallarini tayyorlashda ko‘pincha predmetning yasalgan materiallaridan foydalaniladi.

Murakkab ob’ektlar model nushalarini tayyorlash juda ko‘p texnologiya hamda bu ishni bajaruvchilarda xilma xil texnologiya malakalari bo‘lishini talab qiladi. Maktabda odatda model nushalar tayyorlanmaydi. Maktabda yasaladigan modellarning asosiy turi predmetam soddalashtirilgan sxematik ko‘rinishda ifodalovchi model sxemadir.

Model sxemada predmetning faqat asosiy xarakterli xususiyatlari saqlanadi va ko‘rsatiladi. Mashina, pribor, turli texnik qurilmalar va shu kabilarning modellari harakat qiluvchi yoki turg‘un bo‘lishi mumkin.

Harakatlanuvchi modellar ishlovchi modellar deyiladi. Bunday modellar faqat inson yaratgan inshoot va qurilmalarnigina emas, balki tabiiy ob’ektlarni ham o‘z ichiga oladi.

Masalan, “Suv” mavzusini o‘tishda “Buloqning paydo bo‘lishi” modeli tayyorlanishi mumkin.

Ko‘pgina modellar hal qilinadigan qilib tayyorlanadi. Bu ularning ichki tuzilishi bilan tanishish imkonini beradi.

Maket mavzutik kompleksning soddalashtirilgan, o‘ta sistemalashtirilgan, asosan ob’ektlarning tashqi ko‘rinishi va ular qismlarining munosabatlarini ko‘rsatuvchi modeldir. Bu hajmi kichraytirilgan hajmli ta’sirdir.

Modellar va maketlarni yasash jarayoni texnologiya malakalari, turli materiallarga ishlov berish, montaj ishlari malakasini mustahkamlash vositalaridan biri bo‘lib xizmat qiladi.

O‘quv modeli — bu eng avvalo laboratoriya pribori bo‘lib, undan u yoki bu programma materialini o‘tishda o‘quv materialini yaxshiroq egallash, uni konkretlashtirish maqsadlarida foydalaniladi. Masalan, elektrlashtirilgan xona, elektrlashtirilgan ko‘paytirish jadvali bolalarni elektrga oid hodisa va jarayonlar bilan tanishtirish imkonini beradi. O‘quvchilarni aerodinamik qonunlar bilan parashyut, mexanika qonunlari bilan mashina, traktor va shu kabilar tanishtiradi.

Mashg‘ulotlar uchun zarur asbob va materiallar. Texnik modellash bo‘yicha ishlarda chizg‘ich, burchak, sirkul, qaychi, pichoq kerak bo‘ladi. Har bir partaga bittadan jag‘i yumaloq ombir, sim bilan ishlash uchun o‘tkir jag‘li ombir, bir nechta bigiz bo‘lishi kerak. Bu asboblar o‘qituvchining asboblar shkafida saqlanadi. Bundan tashqari, qirqish, teshish, yelimlashda tagiga qo‘yiladigan taxtachalar ham kerak.

Dastlabki modellash ishlarida qalin qog‘oz, turli formadagi karton, qutichalar, g‘altaklar, tunuka parchalari, sim, dumaloq aviamodelchalar ishlatiladigan rezina, BF kazein, rezina yelimlari kerak bo‘ladi.

Bolalar qaysi modelni yasashlari haqidagi masalani hal qilishdan oldin darsning material va asboblar bilan qanchalik ta’minlanganligiga e’tibor berish kerak.

O‘qituvchi darsda o‘zini dadilroq tutishi, ish uchun nimalar kerak bo‘lishn, ishlov berish usullarini aniq tasavvur kilishi uchun avval model namunasini, uning chizmasini o‘zi tayyorlab ko‘rishi kerak. O‘quvchilar modelni og‘zaki bayon asosida yasaganlarida ham namuna o‘quvchilar ishini qiyoslash uchun kerak bo‘ladi. Agarda ish uchun qandaydir mayda detallar (vintlar, gaykalar) kerak bo‘ladigan bo‘lsa, ular doimo zapasda bo‘lishi, o‘quvchilarning o‘zlari darslarda yasagan qutichalarda saqlanishi kerak.

Ayrim detallarni o‘quvchilar yog‘ochdan yasashlari yoki muvofiq keluvchi

navdalarni topishlari mumkin. Ba’zi ishlar uchun ayrim detallarning shablonlari kerak bo‘ladi. Masalan, bolalar oldingi mashg‘ulotlarda yuk mashinasini yasashgan, uning detallarini chizishgan, shablonlarini yasashgan. Keyingi mashg‘ulotlarda ekskavator yoki ag‘darma mashina modelini yasashda ayrim detallar uchun mavjud bo‘lgan shablonlardan foydalansa bo‘ladi. Agarda detallar chizilgach, ularning shablonlarini qalin kartondan yasab (turli o‘lchamdagi g‘ildiraklar, motor, kabina va shu kabilar razvyortkasi) o‘qituvchi shkafida saqlasa yaxshi bo‘ladi.

Ayrim detallarni o‘quvchilar yog‘ochdan yasashlari yoki muvofiq keluvchi navdalarni topishlari mumkin. Ba’zi ishlar uchun ayrim detallarning shablonlari kerak bo‘ladi. Masalan, bolalar oldingi mashg‘ulotlarda yuk mashinasini yasashgan, uning detallarini chizishgan, shablonlarini yasashgan. Keyingi mashg‘ulotlarda ekskavator yoki ag‘darma mashina modelini yasashda ayrim detallar uchun mavjud bo‘lgan shablonlardan foydalansa bo‘ladi. Agarda detallar chizilgach, ularning shablonlarini qalin kartondan yasab (turli o‘lchamdagi g‘ildiraklar, motor, kabina va shu kabilar razvyortkasi) o‘qituvchi shkafida saqlasa yaxshi bo‘ladi.



Foydalanilgan asosiy adabiyotlar:

1. R.A.Mavlonova., Satbayeva M.T. O‘quv ustaxonasida amaliy mashg‘ulot. Toshkent «ILM ZIYO» 2010-y.

2. R.A.Mavlonova., Satbayeva M.T. O‘quv ustaxonasida amaliy mashg‘ulot. Toshkent «ILM ZIYO» 2011-y. II nashr.

3. Г.Анохина, А.Кацияева “Весёлые фигурки и забавные модели из

бумаги” Ро 4. А.Зайцева «Модульный оригами» Москва, ЭКСМО 2014 г.
стов-на Дону, “И.Д.Владис” 2012г.
5. Н.М.Конешева “Чудесная мастерская” М., 2000г.

MAVZU: TABIIY NARSALARNI YIG‘ISH, SAQLASH, TAYYORLASH VA ULAR BILAN ISHLASH USULLARI

Reja:

1. Tabiiy materiallar bilan ishlash.
2. O‘simliklarni quritib olish.

Tayanch so‘z va iboralar: Tabiiy resurslar, foydali qazilmalar, o‘simliklar, barg, gullar, material, ishlov berish.

Tabiiy materiallar bilan ishlash. O‘zbekiston tabiiy resurslar, foydali qazilmalar, o‘simliklar. qushlarga boy o‘lkadir. Respublikaning bu tabiiy boyliklari sanoatda, turmushda foydalaniladigan xom ashyo bo‘lishi bilan bir qatorda, texnologiya darslarida bajariladigan ishlar uchun tabiiy material bo‘lib ham xizmat qiladi. Texnologiya darslarida o‘simliklar shohlari, ildizlari, barglari, o‘simlik, sabzavat, meva hamda rezavorlar urug‘lari, qushlarning patlari, paxta chanog‘i, jo‘hori so‘tasi, boshoqlilar somoni, o‘t poyasi, baliq tangalari, qamish va shu kabilardan mahalliy material sifatida foydalaniladi. Boshlang‘ich sinflardagi texnologiya ta’limi programmasi mahalliy tabiiy material bilan ishlashni tashkil etish uchun katta imkoniyatlaryaratadi.



Texnologiya ta’limi darslarida turli mahalliy tabiiy materiallardan foydalanish boshlang‘ich sinflar o‘quvchilarining texnologiya topshiriqlarini bajarish jarayonidagi materialga ehtiyojlarini qondirish imkonini beradi. Bu bo‘limning yana

bir xususiyati shundaki, har bir viloyat, rayon, maktabda o‘qituvchi maktab atrofida ko‘proq tarqalgan materialdan foydalanishi mumkinligidir.

Ilk yoshlikdan boshlab bolalarda ona tabiatga qiziqish va muhabbatni, undagi go‘zalliklarni ko‘ra bilishni tarbiyalash kerak. Tabiiy materiallar bilan ishlash ularni tabiatni kuzatishga majbur qiladi. Kuzatishlar esa badiiy ijodiy qobiliyatlarni, konstruktorlik g‘oyasini, tushunchalarning aniqligini uyg‘otadi.

G‘oyaviy mazmunni izlashda g‘oya, fikr yoki o‘zining formasi, tashqi ko‘rinishi bilan bo‘lajak ishning g‘oyasini, syujetini, formasini, tashqi ifodasini aytib turuvchi materialni topish birinchi o‘rinda turadi. Boshqacha bo‘lishi ham mumkin. G‘oya bor, ammo uni amalga oshirish uchun materialni topish qiyin. Buning aksi, bolalar bir stakan urug‘ni to‘kib yuboradilar, kutilmagan holda ular ajoyib jonivor, qush, odamchalarga aylanib qoladi, ularga nimadir, burun yoki dum qo‘shish kifoyadir.

Ayrim figura va butun kompozitsiyalarni yaratishda g‘oyalar qaerdan olinadi? Bolalar g‘oyalarni qaerdan olishni yaxshi bilishlari kerak. G‘oyalar atrofmuhitdagi obraz va syujetlardan, bolalarga tanish ertak va hikoyalardan, qachonlardir ko‘rilgan rasm, shakllardan va shu kabilardan olinadi.

Turli tabiiy materiallar bilan ishlash, turlicha ishlov berilishini, turli asboblardan foydalanishni talab qiladi va ularni ishlatish bilim, ko‘nikma, malakalarini beradi.

Tabiiy materialni to‘plash o‘qituvchi qo‘ygan maqsadga bog‘liq bo‘ladi. Bolalar ko‘rib chiqilgan va batafsil hal qilingan yoki o‘zlari o‘ylab topgan syujet uchun material to‘playdilar. Va aksincha, avval qandaydir materialni (barglar, gullar, urug‘larni) to‘plab, keyin qanday ishni bajarishni aniqlashlari mumkin.

Tabiiy materialni o‘quvchilar dastlab o‘qituvchi rahbarligida sayr vaqtida to‘playdilar. Tabiiy materialni to‘plash jarayonida o‘quvchilar atrofdagi o‘simlik dunyosi, hasharotlar bilan tanishadilar, daraxtlar, gullar navlarini, nomlarini, shakllarini, tabiiy materialni qachon va qanday to‘plash va qanday saqlash lozimligini bilib oladilar. Tabiatni qo‘riqlash, unga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo‘lish, uni asrash masalalariga alohida e’tibor berish har bir o‘qituvchining burchidir.

Mamlakatimizda ilmiy-texnika taraqqiyotini tezlashtirishni tabiatdan to‘g‘ri foydalanish bilan biriktirish borasida ko‘p ish qilinmoqda. Tabiatni qo‘riqlash umumdavlat tadbirlari qatorida rejali nazarda tutilmoqda hamda realizatsiya qilinmoqda.

Tabiiy materialni butun yil davomida to‘plash lozim, chunki yilning har bir fasli o‘z xususiyatlariga egadir. Erta bahorda lola, gulni quritib olish, terak popugini, daraxt va butalarning yosh navdasini, yezda rezavorlarning donalarini, turli gullarni, kuzda daraxtlarning xilma-xil barglari, mevalarini va shu kabilarni to‘plash mumkin.

Tabiiy materiallarni to‘playotgan har bir kishi tabiiy materiallarni tartibli yig‘ish va tayyorlash lozimligini bilishi, barg to‘plash jarayonida daraxtlar, butalar shoxini qo‘pollik qilib sindirish, gul va shu kabilarni o‘ylamasdan to‘plash tabiatga nisbatan vahshiylik ekanligini yodda tutishi lozim.

Tabiat bilan har qanday uchrashuvdan: yozgi kanikul va turistik poxodlar, texnologiya hamda tabiatshunoslik darslaridagi ekskursiyalardan tabiiy materiallarni to‘plash maqsadida foydalanish lozim.

Tabiiy materiallarni to‘plash va ular bilan ishlash tabiatshunoslik darslari bilan bevosita aloqadordir. Tabiiy materiallarni to‘plash bo‘yicha uyushtirilgan ekskursiyalarda bolalar tabiatni qo‘riqlash qonunlari bilan amalda tanishadilar. Ular tabiatni qo‘riqlash bu tabiiy aloqalarni bilishga asoslangan tadbirlarning butun bir kompleksidan tarkib topishini bilib oladilar. Bolalar atrof-tabiatni shaxsan kuzatishlari, tabiat elementlari va hodisalarini konkret idrok etish asosida, ma’lum bilimlarga ega bo‘ladilar. I-sinf o‘quvchilari tabiiy materiallarni dastlab o‘qituvchi rahbarligida sinf bo‘yicha uyushtirilgan ekskursiyalarda to‘playdilar. II-III sinflarning o‘quvchilari esa bu ishni mustaqil bajara oladilar. Biroq, g sinf o‘quvchilari ham, II-III sinf o‘quvchilari ham materialni izlar ekanlar, undan texnologiya darslarida nimalarni yasashlarini oldindan mo‘ljallab qo‘yishlari kerak. Bu o‘rinda I-sinflarning o‘quvchilariga to‘playdigan tabiiy materiallardan yasash mumkin bo‘lgan narsalarning namunalari albatta ko‘rsatilishi kerak. Respublikaning ilg‘or o‘qituvchilari texnologiya darslarida turli tabiiy materiallar: quritilgan barglar, gullar, poliz ekinlari-qovun, tarvuz, qovoq urug‘lari, mevalar olcha, o‘rik, shaftoli danaklari va shu kabilar; balikning tangalari va qanotlari, jo‘hori va makkajo‘xori so‘talari, paxta chanog‘i, yong‘oq pusti va shu kabilardan keng foydalanadilar.

Respublikamiz tabiati, boy, go‘zal va xilma xildir, shuning uchun ham o‘z ishiga qiziqqan va izlash ko‘nikmasiga ega bo‘lgan o‘qituvchi darslarda narsalar ishlashda qo‘llaniladigan materiallarning hammasini batafsil bayon etib bo‘lmaydi.

O‘simliklarni quritib olish. O‘simliklarni to‘plash va quritib olishda gazeta, gerbariy papkasi, qaychi, paxta bo‘lishi kerak.

O‘simliklarning gullari, barglari, poyasi va shu kabilarni to‘plash maqsadida ekskursiyaga chiqilganda bir juft gazeta, qaychi bo‘lishi shart, Gazeta daftarsimon taxlanib, orasiga materiallar tartib bilan joylanadi. Gullarni qo‘l bilan sindirib olib bo‘lmaydi, aks holda poyasi zararlanishi mumkin.

Quritib olishga mo‘ljallangan o‘simliklar har qanday namlik (yomg‘ir yoki shudring)dan xoli bo‘lishi kerak, aks holda o‘simlik surilganda unda dog‘larning izi qoladi. Quritilayotgan o‘simliklarda tabiiy rangni asrab qolishning eng muhim sharti ularni shamol o‘tib turadigan joyda, yelvizakda, quyosh nurida tez quritib olishdir. O‘simliklarni quritish 3 sutkadan ortiq davom etmasligi kerak. Turli o‘simliklarni to‘plashni o‘z muddatlari bor.

Gerbariy ramkalarida quritish. Gerbariy ramkalarida quritilgan o‘simliklarning ko‘pchiligi o‘zining tabiiy rangini saqlab krladi. Bunda o‘simlik yumshoq qog‘oz yoki gazeta orasiga solib qo‘yiladi. Har bir varaq, qog‘oz va o‘simlik o‘rtasiga yana bir necha qavat qog‘oz yoki gazeta qo‘yiladi, chunki quritilayotgan o‘simlik o‘zidan namlik chiqaradi. Shundan so‘ng papka ikkita to‘rsimon rama o‘rtasiga qo‘yilib, ochiq havoga qo‘yiladi. Agarda havo harorati kechqurun va kechasi juda pasayadigan bo‘lsa, quritilayotgan o‘simlik issiq va quruq joyga olib kiriladi.

Murakkab gullilar quritilganda to‘pgullilar poyasidan ajratilib pastgacha joylashtiriladi, so‘ngra uning ustiga paxtani aylana qilib qo‘yiladi, bunda faqat barglar usti yopilib, gulning o‘rtasi ochiq qoldiriladi.

Yirik to‘pgulli o‘simliklarning gulini quritish murakkab tayyorgarlikni talab qilganligi uchun ham quyi sinflar o‘quvchilari ularni quritish bilan shug‘ullanmaydilar.

O‘simliklarni gerbariylar va applikatsiya ishlari uchun quritishda ishlov berish hamda tayyorlash usullari M. P. Berimchgauzenning “O‘simliklarni tabiiy rangini saqlagan holda quritish”, 3.A.Mamatovaning “O‘simliklarning tabiiy rangi va shaklini saqlagan holda gerbariy qilish” kitoblarida yaxshi bayon etilgai.

Pressda quritish. Orasiga o‘simlik solingan qog‘ozlar gerbariy papkasi o‘rniga ikkita faner listlari o‘rtasiga joylanib, og‘ir narsa bostirib qo‘yiladi. Og‘irlik pressga qancha o‘simlik joylashtirilganiga bog‘liq bo‘ladi. Mayda nozik o‘simliklar kam og‘irlikni va quritish uchun kamroq vaqtni talab qiladi. 2-3 soatdan so‘ng qog‘oz prokladka almashtiriladi. Quritish shu usulda davom ettiriladi.

Issiq dazmol bilan odatdabarglar, poyalar, maysalar quritiladi. Qavatqavat gazeta yoki yumshoq qog‘oz orasida o‘simlikni qo‘yib, ustidan dazmol yurgiziladi. So‘ngra ustki qavatdagi gazetani olib, quritilayotgan narsani shamollatiladi va quruq joyga suriladi, so‘ngra gazetani yopib yana dazmollanadi. O‘simlik 2-3 minutda quriyda va u o‘zining tabiiy rangini yo‘qrtmaydi. Agarda quritilgan narsa ko‘tarilganda o‘z tanasini ushlab tursa, u yaxshi quritilgan hisoblanadi, agarda u sinib, maydalanib ketsa, demak, u ortiqcha quritib yuborilgan hisoblanadi. Quritilgan o‘simliklar, ayniqsa gullar gigroskopik bo‘lib, nam tekkanda ular tezda ildiz otadi, shuning uchun foydalanishga qadar ularni quritilgan joylarida, varaqlar orasida, yopiq papka, quti, shkaflarda saqlagan ma’qul. Bunda ular pechka va shu kabi isitish asboblaridan uzoqroqda bo‘lishi kerak, aks hrlda ular ortiqcha qurib, sinuvchan bo‘lib qoladi. Zarang, jo‘ka, shumtolning urug‘larini kuzda urug‘lar pishib daraxtdan to‘kilganda teriladi. Biroq bu ishni kech kuzga qoldirib bo‘lmaydi, aks holda ular ortiqcha qurib sinuvchan bo‘lib qoladi. To‘planayotgan urug‘lar qutichalarda quruq, ammo issiqlik manbalaridan uzoqroq joyda saqlanadi.

Savol va topshiriqlar:

1. Tabiiy materilallarnig qanday turlari bor?
2. Qanday tabiiy materiallardan o‘yinchoqlar tayyorlash mumkin?
3. Tabiiy materiallarni qachon, qanday va qayerdan olinadi?
4. Tabiiy materiallarni saqlash haqida ma’lumot bering.
5. Tabiiy materiallarni yig‘ish va quritish.

Foydalanilgan asosiy adabiyotlar:

1. R.A.Mavlonova., Satbayeva M.T. O‘quv ustaxonasida amaliy mashg‘ulot. Toshkent «ILM ZIYO» 2010-y.

2. R.A.Mavlonova., Satbayeva M.T. O‘quv ustaxonasida amaliy mashg‘ulot. Toshkent «ILM ZIYO» 2011-y. II nashr.

3. Н.Б.Троицкая «Нестандарние уроки и творческие занятия» ДРОФА 2006 г.

4. С.Гринт, “Природный материал” Москва, АЙРИС-ПРЕСС 2005 г.

5. Н.Белова, “Игрушки к празднику” Москва Эксмо издательство “Домино” 2005г.

6. Э.К.Гулянс, И.Й.Базик “Что можно сделать из природного материала” 2000г.

MAVZU: BARG VA URUG‘LAR BILAN ISHLASH, KOMPOZITSIYA TAYYORLASH. TURLI YONG‘OQLAR BILAN ISHLASH

Reja:

1. Tabiiy material bilan ishlashda darsni tashkil etish va o‘tkazish metodikasi.
2. Turli yong‘oqlardan o‘yinchoqlar tayyorlash.

Tayanch so‘z va iboralar: Tabiiy material, yong‘oq, quritilgan burglar, applikatsiya, eman, zarang, akatsiya daraxtlari, hasharotlar, ninachi, to‘kilgan burglar, barg, urug‘, gul.

Tabiiy narsalar bilan ishlash metodikasi. Tabiiy material bilan ishlashda darsni tashkil etish va o‘tkazish metodikasi bo‘lgan turlardan darsdan oldin tabiiy materialni to‘plash tashkil etilishi bilan farqlanadi.

I-sinfda odatda tabiiy material o‘qituvchi rahbarligida ekskursiyalarda to‘plashadi.

Dars mavzusi: Quritilgan barglardan kapalak applikatsiyasi I-sinfda ekskursiya uyushtirishdan oldin bolalarga bo‘lajak ish namunasi ko‘rsatiladi. Bolalar uni diqqat bilan ko‘rib, unda ishlatilgan barg plastinkalarining shaklini, daraxt navlarini aniqlaydilar. Shundan so‘ng uyushtiriladigan ekskursiya rejasi tuziladi. Ekskursiya

marshruti, alohida e’tibor beriladigan ob’ekt (eman, zarang, akatsiya daraxtlari, hasharotlar, ninachi)lar aniqlanadi. O‘quvchilarning e’tiborlari va aqliy faoliyatlarini kuzatilayotgan ob’ektdan texnologiya darslarida ishlarni bajarish uchun zarur bo‘lgan asosiy muhim belgilari, elementlari va xususiyatlarini ajratishga, to‘planayotgan materialni to‘g‘ri baholashga yo‘llaydigan savollar ro‘yxati tuziladi.

Daraxtzorga kelganda bolalar kayfiyati ko‘tarilib, ular har narsaga qiziqish bilan qaraydilar, barglar, ularning ranglari bolalarni ajablantiradi. Ular kuzning butun go‘zalligini, uning ranglarini, to‘kilgan barglar hidi va ular o‘zining elastiklik xususiyatini yo‘qotganligini, qattiqlashib, sinuvchan bo‘lib qolganligini ko‘radilar. Bolalarning atroftabiat bilan zavqlanishlari kamayib borishiga sarab, ularning e’tibori barglarning shakli, daraxtlar navlariga qaratiladi. Ana shu vaqtda o‘simliklarda sodir bo‘layotgan ichki jarayonlar qisqa va tushunarli formada bayon etib beriladi. O‘simlik yangi sharoitlarga moslashib, qishga tayyorgarlik ko‘ryapti. Barglarni to‘kish bu o‘ziga xos himoya turidir, chunki barglar suvni ko‘p bug‘lantiradi, qishda esa tuproqdan namlik juda kam miqdorda keladi.

Shundan keyin bolalarning e’tibori atrofda uchib yurgan kapalak, ninachilarga, ularning asosiy belgilariga jalb qilinadi. Uchib yurgan hasharotlar, ularning tuzilish formalari texnologiya darslarida hasharotlar applikatsiyasini tayyorlash uchun obraz, to‘planayotgan barglar material xizmatini o‘tashi kerak.

Bolalar barglarni to‘plar ekanlar, ularning ranglari, shakllarini qiyoslashni o‘rganadilar, bu ularning kuzatuvchanligi va e’tiborliligini o‘stirishga yordam beradi. To‘planayotgan barglar oldindan tayyorlab qo‘yilgan daftar varaqlari orasiga qo‘yiladi. Shundan keyin o‘quvchilarga barglarning texnologiya darslarigacha rangini yo‘qotmasligi, buralib ketmasligi uchun qanday ishlov berish kerakligi tushuntiriladi. Har bir ekskursiyada o‘quvchilarning e’tibori insonning yaratuvchilik texnologiyaiga albatta jalb etilishi kerak. Ekskursiya oxirida unga yakun yasaladi, ekskursiyada egallangan bilimlar umumlashtiriladi. Bundan tashqari, o‘quvchilarga uylarida kapalak va ninachilar tasviri tushirilgan rasmlarni ko‘rish, ularning tanasi va qanotlarining shakli, rangi qandayligiga alohida e’tibor berish topshiriladi.

Bunday uyushtirilgan ekskursiyadan keyingi darsda bolalar applikatsiyalarni zo‘r ishtoyoq bilan namoyish qiladilar, agarda applikatsiyani o‘z istaklarnga ko‘ra, o‘zlari to‘plagan materiallardan mustaqil yasash topshirilsa, qiziqishlari yanada ortadi. Bunday dars quyidagi sxemaga ega bo‘lishi mumkin:

Dars mavzusi va maqsadini aytish.

O‘tkazilgan ekskursiya bo‘yicha suhbat:

a) ekskursiyada qayerda bo‘ldik?

b) qanday daraxtlarni ko‘rdik, ularning nomi qanday?

v) ularning barglarining shakli bir xilmi?

g) qanday hasharotlarni ko‘rdik?

3. Namuna hali:

a) kapalak qanday qismlardan tashkil topgan?

b) uning qismlari qanday joylashgan?

v) uni tasvirlashda qaysi daraxtlar barglaridan foydalanilgan?

4. Ishni bajarish tartibini aniqlash:

a) kapalakning ayrim qismlari (tanasi, qanotlari)ning joylashishini grafik tasvirlash;

b) kapalakning tanasi va qanoatlari uchun shakli hamda o‘lchamlari bir xil bo‘lgan barglarni topish;

v) ularni qog‘ozda joylashtirish;

g) ishni amaliy bajarish.

5. O‘qituvchining ishni bajarish usullari haqidagi tushuntirishlari.

6. Applikatsiyani bajarish bo‘yicha mustaqil ish:

a) kapalakning ayrim qismlarini qog‘ozda to‘g‘ri tasvirlash;

b) shakl, o‘lcham va bo‘yoqlarnn to‘g‘ri tanlash;

v) yelimlash ishlarini tartibli bajarish;

g) kapalakning ko‘z va mo‘ylovlarini to‘g‘ri tasvirlash;

d) ish bajarilgan qog‘ozniig orqasida barglaridan foydalanilgan daraxtlarning nomlariniyozish;

Ishni baholash.

Ijodiy xarakterdagi ishlar: Masalan: “Baliqlardan kompozitsiya tuzish”. O‘qituvchi umumiy vazifa beradi, o‘quvchilar esa o‘qituvchi namunasi asosida o‘z variantlarini izlaydilar.

O‘qituvchi kelgusi darsda baliqlardan applikatsiya qilinishini aytib, uyda

baliqlarning rasmlarini ko‘rish va kerakli materiallar (barg, urug‘, gul tojibarglari va shu kabilar)ni to‘lab olib kelishni topshiradi. Darsning sxemasi oldingisi bilan bir xil. Doskaga baliq rasmi tasvirlangan plakatni osib qo‘yib, bolalar bilan birgalikda baliq tanasi, baliqning boshi, qanotlari, dumining shakli hal qilinadi. Baliq turiga ko‘ra baliqiing tanasi, qanot va dumlari har xil bo‘lishi mumkinligi aniqlanadi, shuning uchun bu ishda turli tabiiy materiallardan foydalanish mumkin bo‘ladi.

Shundan so‘ng ishni bajarish tartibi aniqlanadi.

Avval baliq qismlari uchun material tanlash, uning umumiy konturini chizish kerak. Shundan keyin qaysi detalning qanday tartibda yelimlanishini, detallarning joylarini aniqlash va so‘ngra ishga kirishish lozim. Bunday yumushlar bajarilayotgan ishga ijodiy yondashishni o‘stirishga yordam beradi. Darsga yakun yasash va bajarilgan ishni baholashda o‘qituvchi foydalanilgan materiallar nomini so‘raydi.

Bu tabiiy materiallar bilan ishlash darsining taxminiy tuzilishidir. Har bir dars kompozitsiyalar tuzish, tanlash, material, o‘quvchilarning mustaqil ishlashlariga ko‘ra o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘ladi.

Savol va topshiriqlar:

1. Tabiiy materilallardan kompozitsiya qilish bosqichlari qanday?
2. Qanday tabiiy materiallardan archa o‘yinchoqlari tayyorlash mumkin?
3. Tabiiy materiallarni qachon, qanday va qayerdan olinadi?
4. Quritilgan barglardan kompozitsiya qilish.

Foydalanilgan asosiy adabiyotlar:

1. R.A.Mavlonova., Satbayeva M.T. O‘quv ustaxonasida amaliy mashg‘ulot. Toshkent «ILM ZIYO» 2010-y.

2. R.A.Mavlonova., Satbayeva M.T. O‘quv ustaxonasida amaliy mashg‘ulot. Toshkent «ILM ZIYO» 2011-y. II nashr.

3. Н.Б.Троицкая «Нестандарние уроки и творческие занятия» ДРОФА 2006г.

4. С.Гринт, “Природный материал” Москва, АЙРИС-ПРЕСС 2005 г.

5. Н.Белова, “Игрушки к празднику” Москва Эксмо издательство “Домино” 2005г.

6. Э.К.Гулянс, И.Й.Базик “Что можно сделать из природного материала” 2000г.

MABZU: YELIM (PLASTMASSA), PARALON VA PENOPLAST BILAN ISHLASH

Reja:

1. Plastmassa sun’iy olingan massa.

2. Penoplast. Anchagina pishiq, juda yengil, oq rangdagi material.

Tayanch so‘z va iboralar: Plastmassa, penoplast, sun’iy, paralon, maket, o‘yinchoq, ikkilamchi hom-ashyo.

Plastmassalar. Plastmassa sun’iy olingan massa bo‘lib, unda molekulalar sintez yo‘li bilan oldindan belgilangan tuzilishga olib kelinadi. Sun’iy yaratilgan moddalar sintetik ham deyiladi.

Sanoatimiz plastmassadan turli predmetlarni va kapron, neylon, organik oyna, paralon, polietilen kabi hilma xil to‘qimalarni ishlab chiqaradi. Zamonaviy ximoya sanoati shunday materiallarni yaratganki, ulardagi xususiyatlar tabiiy materiallarda uchramaydi. Sintetik materiallar — plastmassalar qimmatli sifatlari bilan ajralib turadi. Plastmassalar juda yengil, bukuluvchan, elastikdir, ayrim plastmassalar mustahkam bo‘lib, issiqlik va elektrni yaxshi izolyatsiya qiladi, kislotalarga bardoshlidir. Plastmassalar tayyor mahsulot holida chiqadi, undan chiqindi chiqmaydi. Plastmassa sof polimerdan yo to‘ldirgichlardan iborat. To‘ldirgichlar pishiqlikni, qattiqlikni oshiradi, ular yog‘och qirindisi, ip-gazlama, oyna tolasi, qog‘ozdan iborat bo‘ladi.

Amaliy mashg‘ulotlarda topilishi oson bo‘lgan plastmassalardan va ishlab chiqarish chiqindilaridan foydalaniladi. Bular: organik shisha, paralon, penoplast, linoleum, ebonit, kapron, tekstolitdir.

Paralon. Sun’iy yo‘l bilan olingan material bo‘lib, g‘ovak strukturaga ega, usti yumshoq, juda yengil, yaxshi bo‘yaladi, suv ta’sir etmaydi. Paralonni gazlamaga, qog‘ozga yopishtirish mumkin. Paralondan mebel sano‘atida: divan matraslari, stul, kreslo o‘tirgichlari uchun foydalaniladi. Tikuvchilik sanoatida paralondan vatin,

paxta, mo‘yna o‘rnida foydalaniladi. U juda yengil va issiqlikni izolyatsiya qilish xsusiyatiga ega bo‘lib, qo‘g‘irchoq fabrikalarida keng qo‘llanadi, undan turli hil qo‘g‘irchoqlar tayyorlanadi, chiqindilari o‘yinchoqlar g‘ovagini to‘ldiradi.

Paralondan narsa yasashdan oldin buyumning chizmasini chiziladi. So‘ng kartondan andoza qilinadi. Uni paralon ustiga qo‘yib chiziladi va qirqiladi. Paralonni oz-ozdan qirqish kerak, chunki paralon siqiladi, shuning uchun uzun qirqilgan joylar notekis chiqishi mumkin. Detallarni mahsulotga biriktirishning boshqa usullari ham mavjud. Unda detallar sim bilan biriktiriladi, o‘quvchilar o‘z fantaziyalarini namoyish qiladilar, figuralar qomatini turlicha ko‘rsatadilar.

Penoplast. Anchagina pishiq, juda yengil, oq rangdagi material. Unda kemasozlik, samalyotsozlik, qurilish va elektronikada foydalaniladi.

O‘quv ustaxonalarida maxsus asboblarsiz o‘yinchoqlar, pastanovkalar uchun butofariyalar, texnik modellash bo‘yicha suvda suzadigan modellarni yasash mumkin. Penoplastni qirqish, qirish va turli materiallarga yelimlash oson, uni topish qiyin emas, ishlab chiqarish chiqindilaridan ham foydalanish mumkin. Rasm yoki chizmani penoplastni tekis sathiga qalam bilan chiziladi va mayda tishli arra, lobzik bilan qirqib olinadi. Arralashda paydo bo‘lgan kirdi-chiqdi joylari egovlab tekkislanadi. Tayyorlangan materiallar turli yelimlar bilan montaj qilinadi.

Savol va topshiriqlar:

1. Ikkilamchi xom-ashyo nima va uning qanday turlari bor?
2. Qanday ikkilamchi materiallardan o‘yinchoqlari tayyorlash mumkin?
3. Suvenirli o‘yinchoqlar ko‘rinishini yasash.

Foydalanilgan asosiy adabiyotlar:

1. R.A.Mavlonova., Satbayeva M.T. O‘quv ustaxonasida amaliy mashg‘ulot. Toshkent «ILM ZIYO» 2010-y.

2. R.A.Mavlonova., Satbayeva M.T. O‘quv ustaxonasida amaliy mashg‘ulot. Toshkent «ILM ZIYO» 2011-y. II-nashr.

3. Т.Просникова “Забавные фигурки модульное оригами” Москва “АСТ-ПРЕСС” 2013-г.

4. Т.О.Скрабцова, Л.А.Данильченко “Объёмные картинки из кожи и ткани” Ростов-на-Дону 2006-г.

5. М.Максимова, М.Кузмина, “Девичьи хлопоты” Москва Эксмо., 2004 г.

MAVZU: METALL VA SIMLAR BILAN ISHLASH. SIM VA KAPRONDAN O‘YINCHOQLAR, GULLAR TAYYORLASH

Reja:

1. Metall va qotishmalar haqida ma’lumot.
2. Metall bilan ishlaganda qo‘llanadigan asboblar.

Tayanch so‘z va iboralar: Metall, qotishma, sim, qotishma, zarb.

Metall va qotishmalar. Metall so‘zi grekcha “yerdan qazib olaman” degan mazmunda bo‘lib, u dastlab kon, qazilma, degan ma’nolarni anglatgan. Qadimgi dunyo halqlari faqat oltin, kumush, mis, qalay, qo‘rg‘oshin, temir, simob kabi 7 metallnigina bilishgan. Keyinchalik ximyaviy tadqiqot metodlari rivojlana borgan sari metallar soni ham ortib bordi.

Metall va qotishmalar halq xo‘jaligida keng qo‘llanadi. Ulardan mashinasozlik, qurilish, qishloq xo‘jaligi, transport va turmushda keng foydalaniladi. Metallar o‘zlarining texnik xususiyatlari: mustahkamligi, qattiqligi, plastikligi, egiluvchanligi, issiqlik, elektr o‘tkazishi, suvsa bardoshliligi, eruvchanligi, cho‘kuvchanligi bilan keng qo‘llanila boshlandi. O‘quvchilar metall rangli va qora metall gruppalariga bo‘linishini bilishlari kerak. Qora metallar temirning uglerod bilan qotishmasi va ozroq miqdordagi kremniy, marganes, fosfor, oltingugurt va boshqa elementlar aralashmasidan iborat bo‘ladi. Tarkibidagi uglevodorodning miqdoriga ko‘ra qora metall cho‘yan va po‘latga bo‘linadi.



Po‘lat bu cho‘yandan turli usullarda ishlab chiqariladpgan tarkibida 2 protsentdan kamroq uglerodli temir qotishmasidir.

Temir agarda uning tarkibida uglerod kam miqdorda (0,04 protsent) bo‘lsa texnik toza temir yoki oddiygnna temir deyiladi.

Amaliy mashg‘ulotlarni o‘tkazish jarayonida o‘quvchilar po‘lat va qotishmaning qora va oq tunuka, folga, staniol, yupqa chiziq qilingan po‘lat, sim

kabi turlari bilan tanishadilar. Shuning uchun ularning ayrim xususiyatlarini bilish kerak.

Tunuka bu yupqa yumshoq po‘lat taxta bo‘lib, tarkibida uglerod kam (0,09-0,15 protsent), shunga ko‘ra u yuqori egiluvchanlikka ega bo‘lsada, unchalik pishiq va qattiq bo‘lmaydi. Ikki tomoniga yupqa qalay qorejagan tunuka – oq tunuka deyiladi. U silliq, yaltiroq, toza sathga ega bo‘ladi.

Qalay qatlami tufayli bunday tunuka zanglamaydi. Bunday himoya qatlami bo‘lmagan tunuka kora tunuka deyilib, u zanglaydi. Amaliy mashg‘ulotlar jarayonida o‘quvchilar mis, alyumin sim, kesimi kichik bo‘lgan yumshoq po‘lat, folga, yupqa temir bilan ishlaydilar, bu materiallarga qo‘l asboblari bilan ishlov berish qiyin emas.

Folga — metallning juda yupqa prokat qilingan listi, qalinligi 0,1 mm dan kam. Staniol folganing tarkibiga ko‘ra qalay va alyuminiyning juda yupqa prokat qilingan qotishmalarining maxsus turidir, Folgadan parfyumeriya uchun turli tyubiklar tayyorlanadi, choy qadoqlashda ham ishlatiladi. Stanioldan shokolad, shokolad konfetlarni o‘rashda foydalaniladi. Staniol folga bilan birgalikda elektr asboblarda keng qo‘llanadi.

Rangli metallarga mis, alyumin, qo‘rg‘oshin, jez, qalay va boshqa metallar, ularning qotishmalari kiradi. O‘quvchilar amaliy mashgulotlar jarayonida duch keladigan ayrim rangli metallarning tafsiloti:

Mis qizg‘ish rangdagi metall, elektr va issiqlikni yaxshi o‘tkazadi. Mis asosan elektr sanoatida elektr simlarini tayyorlashda va tok o‘tkazuvchi detallarni tayyorlashda qo‘llanadi. Eritilgan misning 65 protsentiga yaqinidan mis qotishmalari tayyorlanadi.

Alyuminiy, bu kumushsimon rangdagi yumshoq, yengil, qayishqroq metalldir. Unga qo‘l asboblari bilan ishlov berish oson. Undan sim va listlar tayyorlash, uni cho‘kichlash, shtampovka qilish qulay. Nuqsoni unchalik pishiq emas. Shuning uchun alyumindan ko‘pgina boshqa rangli metallar qotishmasida foydalaniladi.

Qalay — kumushsimon, oq rangdagi, yumshoq metall, 232°S haroratda eriydi, zanglamaydi, yuksak egiluvchanlik xususiyatiga ega. Agarda qalayni kumush, ruh, alyumin, qo‘rg‘oshin va mis bilan qo‘shib eritilsa va yupqa list qilib prokat qilinsa, folga hosil bo‘ladi. Qalaydan kavsharlash va qotishmalar ishlab chiqarishda foydalaniladi.

Texnologiya darslarida odatda boshqa materiallar (qog‘oz, karton, gazlama, yogoch, plastmassa) bilan qo‘shgan holda foydalaniladi. Sim, folga va tunukani ko‘rib chiqish va ulardan narsalar yasashda foydalaniladi, bu materiallarning egiluvchanligi, elastikligi, qog‘oz, karton hamda gazlamadan anchagina pishiqligini ko‘rsatish kerak.

Metall bilan ishlaganda qo‘llanadigan asboblar. Taxta qilingan metallni

qirqishda maxsus tunuka, qaychilari kerak bo‘ladi. Simni jag‘i o‘tkir ombir bilan, folga va staniol oddiy qaychi bilan qirqiladi. Soat siferblati uchun sim o‘q, muqova ishlarida sim iskanja, tabiatshunoslik, rus tili,ona tili darslari uchun yasalgan qo‘llanmalarni mustahkamlovchi detallar va boshqa ishlarda qo‘shimcha bolg‘a, egov kabi asboblar ham kerak bo‘ladi.

Metallga ishlov berish usullari haqida gapirilganda xavfsizlik texnikasi qoidalariga rioya qilish zarurligi albatta takror-takror aytilishi kerak.

Metallga zarb qilish ishlari. Metall taxtaga zarb qilish qadim davrlardan Misr, Gretsiya, Rim va Sharq mamlakatlarida keng tarqalgan amaliy tasviriy san’at usullaridan biridir. Zarb qilish metall listiga maxsus asboblar yordamida bo‘rtma tasvir yoki naqsh tushirish demakdir.

Zarb qilish asbobi chekanlar, turli formadagi po‘lat sterjenlardir. Shuning uchun chekanlar muayyan shaklda nuqta, chiziqcha, panjara, yarim shar shaklidagi doira kabi izlar qoldiradi. Bu ishda chekanlardan tashqari, ishlash uchun qulay maxsus bolg‘a ham kerak bo‘ladi. Chekan uchun elastik, qayishqoq metallar: mis, jez, ba’zan alyumin, uglerodga boy yumshoq po‘lat, tunuka tanlanadi.

Zarb qilish bilan turli predmetlar: qurol-yarog‘, vazalar, idish-tovoqlar bezatiladi, binolarni bezash uchun bo‘rtma tasvirlar qilinadi.

Metallga ishlov berishning boshqa turi prosechka ham mavjud. Bu turdagi naqsh yassi va bo‘rtma bo‘lishi mumkin.

Chekan sifatida sharikli ruchkalar sterjeni, plastmassa, yog‘och uchining formasi va har xil metall tayoqchalardan foydalanish mumkin. Chekan ishlari yumshoq, dirkillama taglik — rezina parchasi, qalin gazlama yoki gazeta qog‘ozi taxlamlari va shu kabilar ustida bajariladi.

Prosechka narsa qirqadigan taxta ustida qilinadi.

Chekan jarayoni oddiy, uni bir necha bosqichlarga bo‘lish mumkin: 1. Materiallarni tayyorlash. 2. Rasmni chizish. 3. Chekan jarayoni. 4. Buyumni jilolash va bezash.

Shunday qilib, tayyorlangan materialning teskari yoki o‘ng tomoniga razmetka (shablon bo‘yicha chizib yoki tasvir tushirib) qilinadi, so‘ngra tasvirning konturini siyohsiz sterjen sharigi bilan chizib chiqish kerak. Bosilgan tasvir relefida yanada ko‘tarilishi, bo‘rtib chiqishi uchun old yoki teskari tomondagi fon nuqtalar bilan chuqurlashtiriladi yoki tayoqchaning yassitomoni bilan bosib chiqariladi. Detallarning ayrim qismini bo‘rtib chiqqan, ayrimini botiq qilinadi.

Yumshoq, yupqa metalldan o‘quvchilar yassi, yarim hajmli buyumlarni yasashlari mumkin. Yassi detallar bilan tabrik, tabriknomalari, albomlar, qutichalarni bezasa bo‘ladi.

O‘quvchilar turli nishonlar, musobaqa g‘oliblari uchun medallarni zarb qilishlari mumkin. Shunday qilib, o‘quvchilar yumshoq metall bilan ishlar ekanlar, metallga ishlov berish usullari, metallarning xususiyatlari, kishining metalldan sanoat va turmushda foydalanish tarixini bilib oladilar.

Savol va topshiriqlar:

1. Metall va qotishmalarhaqida ma’lumot bering.
2. Metall bilan ishlaganda qo‘llanadigan asboblar haqida aytib bering.
3. Sim va kaprondan qanday o‘yinchoqlarni tayyorlash mumkin?
4. Sim va kaprondan gullar ko‘rinishini yasash.

Foydalanilgan asosiy adabiyotlar:

1. R.A.Mavlonova., Satbayeva M.T. O‘quv ustaxonasida amaliy mashg‘ulot. Toshkent «ILM ZIYO» 2010-y.
2. R.A.Mavlonova., Satbayeva M.T. O‘quv ustaxonasida amaliy mashg‘ulot. Toshkent «ILM ZIYO» 2011-y. II nashr.
3. Э.Стольная, “Цветы и деревья из бисера” издательство Мартин 2005 г.
4. О.Гулидова. “Деревья из бисера” Москва «Аст-пресс» 2011г.

MAVZU: SIM VA BISERLAR BILAN XASHORATLAR TO‘QISH USULLARI.

Reja:

1. Sim bilan ishlash va undan o‘yinchoqlar yasash.
2. Sim va munchoqlardan gullar to‘qish.

Tayanch so‘z va iboralar: Sim, nozmunchoq, ijod, to‘qish, elektr, radio, telefon simlari, prujinalar, mixlar, elektrodlar, ingichka parma, muzika asboblar, qog‘oz, gazlama, mo‘yna, mochalka, rangli ip.

Sim bilan ishlash va undan o‘yinchoqlar yasash. Turli mayda-chuyda

narsalarni yasashda xilma xil simlardan foydalanish mumkin. Xlorvinil izolyatsiyasi yoki usiz yumshoq sim to‘qish va o‘rib ishlash uchun yaroqlidir. Qattiq po‘lat yoki alyumin simdan texnik modellashda bir qator detallarni yasashda foydalaniladi. Bu simdan arava, avtomobil o‘qlari, suv parragi, yumshoq o‘yinchoqlar va shu kabilarni tayyorlashda foydalaniladi.

Ishlab chiqarilayotgan simlarning ayrim xususiyatlari haqida ma’lumotlar. Chiqarilayotgan simlarning diametri 0,005 dan 17 mm gacha bo‘ladi. U asosan dumaloq kesimli bo‘ladi. Biroq kvadrat, olti qirrali, trapetsiyasimon yoki oval shakldagi simlar ham bo‘ladi. Simlardan turli maqsadlarda: elektr, radio, telefon simlari, prujinalar, mixlar, elektrodlar, ingichka parma, muzika asboblari uchun torlar yasash va shu kabplardan foydalaniladi.

Simdan tayyorlanadigan narsalardan turli maqsadlarda foydalanish mumkin. Masalan, yengil archa o‘yinchoqlari (har xil to‘qilgan gullar, barglar va ustiga rangli ip o‘ralgan), turli o‘yinchoq suvenirlarni yasash, agarda ma’lum mavzu bo‘yicha 2-3 figura birlashtirilsa, syujet kompozitsiya (masalan, “balet”, “zoopark”, “muzikantlar” kabi)larni yaratish mumkin. Bu o‘yinchoqlarda o‘quvchilar o‘z ijodiy qobiliyatlarini namoyish etadilar. Karkaslarga rangli iplar, yumshoq, sim, gazlama o‘ralishi mumkin. Simdan yasaladigan xar qanday o‘yinchoq bir bo‘lakdan hech qanday qirqishlarsiz, ulashlarsiz yasalishi kerak. Ayrim bo‘laklardan faqat bezash maqsadlarida foydalaniladi. Ishni oddiy narsalarni yasashdan boshlagan ma’qul.

Xo‘tik, echki va shu kabilarni yumshoq simdan tanasini yasashdan boshlab, keyin oyoqlari, boshi, quloqlari qilinadi. Uni kiyintirish ham mumkin, buning uchun unga rangli ip o‘rab chiqiladi. Ip, gazlamadan koki dum yasaladi, umuman figurani o‘z istagiga ko‘ra bezash mumkin.

Turli xil ajoyib odamchalarni yasash uchun 400 sim, har xil rangdagi qog‘oz, gazlama, mo‘yna, mochalka, rangli ip, shablon uchun qog‘oz kerak bo‘ladi. Avval narsa yasaladigan barcha detallar tayyorlanadi. Oyoqqo‘llar, gavda burab yasaladi,

so‘ngra hamma detallarni biriktirib odamcha yasaladi. Bu odamchaning gavdasi karton taglikka o‘ratiladi, kartondan bosh andazasi olinadi (ikki bo‘lak) va ularni bo‘yin, bosh hamda bosh bo‘laklari birbiriga muvofiq keltirib yelimlanadi. Shundan so‘ng uni o‘z istagiga ko‘ra bezaladi.

Yumshoq simdan xilma xil o‘yinchoqlarni yasash mumkin. Taklif etilayotgan rasmlar o‘quvchida ijod va fantaziya cheksizligini oshiradi.

Simlardan jumboqlar yasash. Sim jumboqlar bir-biriga birikkan sim figuralardan iborat bo‘lib, ularni butunligi va tashqi ko‘rinishini buzmay, ya’ni simlarni sindirmay va egmay bir-biridan ajratish kerak. Jumboqlarni yasashda o‘rtacha qattiqlikdagi 1,5-3 mm simlardan foydalaniladi. Sim jumboqlarning o‘lchami cheklanmaydi, biroq ularni haddan tashqari mayda yoki kattalashtirib yubormaslik kerak.

Har bir sim jumboqni yasashga kirishishdan oldin natural kattaligida chizib ko‘rish kerak. Bunda sim jumboqlarning turli detallari o‘z mo‘ljallangan joyiga qat’iy muvofiq kelishiga rioya qilish kerak.

Sim jumboqlarni yasashda bolg‘a, jag‘i o‘tkir, jagi yassi va jag‘i yumaloq ombirlar kerak bo‘ladi. Simni barcha konturlar bo‘yicha rasmga aniq muvofiq keladigan qilib qirqish qiyin.

Har bir sim jumboqda faqat figuralarni qanday ajratish yo‘linigina emas, balki keyin ularni biriktira bilish ham muhimdir.

Savol va topshiriqlar:

1. Metall va qotishmalarhaqida ma’lumot bering.
2. Metall bilan ishlaganda qo‘llanadigan asboblar haqida aytib bering.
3. Sim va biserdan qanday o‘yinchoqlarni tayyorlash mumkin?
4. Sim va biserdan hashorotlar ko‘rinishini to‘qish.

Foydalanilgan asosiy adabiyotlar:

1. R.A.Mavlonova., Satbayeva M.T. O‘quv ustaxonasida amaliy mashg‘ulot. Toshkent «ILM ZIYO» 2010-y.

2. R.A.Mavlonova., Satbayeva M.T. O‘quv ustaxonasida amaliy mashg‘ulot. Toshkent «ILM ZIYO» 2011-y. II-nashr.

3. Э.Стольная, “Цветы и деревья из бисера” издательство Мартин 2005г.

4. О.Гулидова. “Деревья из бисера” Москва «Аст-пресс» 2011г.

5. О.Белякова, А.Найдёнова, Э.Салкова, “Бисер и стильные вещи своими руками” Ростов на Дону 2009г.

MAVZU: PLASTILIN VA LOY BILAN ISHLASH DARSLARINI TASHKIL ETISH METODIKASI

Reja:

1. Plastilin va loy haqida ma’lumot.
2. Plastilin turlari, xususiyatlari.
3. Plastilin va loy tayyorlash va undan narsa yasash usullari.

Tayanch so‘z va iboralar: Loy, plastilin, yasash, hunarmandchilik, mum, loy, plastilin, pape mashe, sirkul, sirkulpantograf, merka, chizg‘ich.

Texnologiya darslarida loy, plastilin, mum kabi materiallardan foydalanib, ulardan turli o‘yinchoqlar, jonivorlar, qushlar, ertaklar qahramonlari yasaladi.

O‘yinchoq dekorativ amaliy san’atning eng qadimiy turlaridan biri bo‘lib, qadim asrlarda loydan yasalgan narsalar bizgacha yetib kelgan.

Mamlakatimizda sanoat va madaniyatning rivojlanib borishiga ko‘ra o‘yinchoqlarning assortimenti, ularning obrazlari yildan yilga boyib bormoqda. O‘yinchoqlar yasaladigan materiallar o‘ta xilma xildir. Biroq afzallik loyga beriladi. Loy narsalar yasashda asosiy material xisoblanadi, chunki u istalgan joyda topiladi, arzon va qayishqoqdir narsalar yasaladigan materialda chet predmetlar, tosh, qum va shu kabilar bo‘lmasligi kerak. Chunki ish qo‘lda bajariladi. Shuning uchun ish boshlashdan oldin loyni tayyorlash kerak. Topilgan loyni narsalar yasashga yaroqli yoki yo‘qligini oldindan tekshirish kerak. Loy shirali va shirasiz bo‘ladi. Shirasiz loyning tarkibida ko‘p qum bo‘lib, unda yopishqoqlik xususiyati yomon bo‘ladi.

Loyni aralashmalardan tozalab, ustiga suv qo‘yib, 5-6 soat saqlanadi, so‘ngra suvini to‘kib, qo‘lga yopishmaydigan quyuqroq hamir holatiga kelguncha yaxshilab ishlanadi. Tayyor loy selofan yoki kleyonka qopchalarda saqlanadi va darsga foydalanishga tayyor loy sifatida keltiriladi.

Plastilin narsalar yasashda qo‘llanadigan boshqa materialdir. Undan asosan kichik modellarni yasashda foydalaniladi. U sun’iy plastik massa bo‘lib, loydan

hech qachon qurimasligi va doimo ishlatilishga tayyorligi bilan farqlanadi.

Plastilinning har xil oddiy va murakkab turlari bo‘lib, uni tayyorlashning bir necha retseptlari bor.

Birinchi variant toza quyuq loyga glitserin qo‘shib bir turli massa hosil bo‘lguncha aralashtiriladi. Glitserin tayyorlanayotgan massa qo‘lga yopishmaydigan holatga kelgunicha qo‘shiladi.

Ikkinchi variant quritilgan toza loy mayda qilib tuyuladi va unga vazelin qo‘shib, qo‘lga yopishmaydigan quyuq massa hosil bo‘lguncha aralashtiriladi. Plastilinga kerakli rangdagi quruq bo‘yoq massasini qo‘shib va puxta aralashtirib bo‘yash mumkin.

Uchinchi variant 1 kiyim loy tuprog‘iga 1G‘5 qism ilitilgan mum hamda plastilin qo‘lga yopishmaydigan darajaga yetguncha glitserin qo‘shib aralashtiriladi.

Plastilin va loydan narsalar yasashni u yaxshilab qo‘lda ezilganidan keyin boshlash kerak. Plastilin va loydan tashqari narsalar yasashda mumdan foydalaniladi.

Mumning tabiiy va sun’iy (neftdan olingan) turlari mavjud. Mum ancha qimmat turadi va undan mayda narsalar yasaladi. Mum bilan ishlash qulay, u qurimaydi, suv bilan namlanishni talab qilmaydi, darz ketmaydi va undan yasalgan narsalar uzoq saqlanadi.

Texnologiya darslari uchun magazinlarda ochiqdan toko‘k, ranggacha bo‘lgan rangli mum tayyoqchalari sotiladi.

Mumni quyidagi retsept bo‘yicha ham tayyorlash mumkin. 1000 g mumga 65-70 g eritilgan cho‘chqa yog‘i, 130-140 g skipidar, 720-750 g quruq temir suriki solinadi.

Tayyorlash metodikasi: mum va cho‘chqa yog‘i past olovda eritiladi, so‘ngra unga skipidar qo‘shib aralashtiriladi, keyin surikni qo‘shib tayyor bo‘lgunga qadar aralashtiriladi. So‘ng aralashmani suvli tog‘oraga solib, massa qo‘lga yopishmaydigan va qayishqoq darajaga kelguncha qoriladi. Tayyor massa suvdan olinib, yarim tayyor mahsulotlar qilinadi va ular qopchalar, shkaflarda saqlanadi.

Narsalar yasashda ishlatiladigan asbob va moslamalar. Loy bilan ishlaganda asosan oddiy asboblar: pichoq, oddiy konstruksiyadagi yog‘och va metall uchli stekalardan foydalaniladi. Plastilin va mum bilan ishlaganda metall stekalardan foydalaniladi. Ularni qizitish hamda yo‘g‘on mis, alyumin yoki temir simdan tayyorlash mumkin. Sirkul, sirkulpantograf, merka, chizg‘ich va burchaklar kabi o‘lchov asboblari modellarni chizish va o‘lchash ishlarida kerak bo‘ladi.

Malbert bu oddiy yog‘och taglikni ustaxonada bemalol yasash mumkin. O‘lchami 20 X 30 yoki 25 X 25 sm bo‘lgan fanera. Organik shisha yoki boshqa materiallardan tayyorlangan tagliklardan ham foydalanish mumkin.

Tayyor narsalardagi changlarnn yo‘qotish, loy parchalarini supurib tashlash, narsani solish va unga narsalar surtish jarayonida har xil mo‘yqalamlar kerak bo‘ladi. Diametri 2 sm va 1,5 sm li mo‘yqalamlar bo‘lishi maqsadga muvofiqdir.

Sprinsovka loydan yasalgan narsalarga suv purkash va formalash vaqtida loyni yuvib tashlash uchun kerak. Sprinsovka aptekalarda sotiladi.

Haykaltaroshlik haqida qisqacha ma’lumot. **Haykaltaroshlik** — tasviriy san’at turlaridan biridir. San’atning bu turining xususiyati — tasvirning hajmli — plastik formasidir. Mo‘ljallanishiga ko‘ra haykaltaroshlik monumental, monumentaldekorativ hamda stanokli turlarga bo‘linadi.

Monumental haykaltaroshlik asarlari haykallar, monumentlar va byustmonumentlardir. Ular jamoat joylarida va asosan ochiq havoga o‘rnatiladn.

Monumentaldekorativ haykaltaroshlik shaharlar, istirohat bog‘lari arxitekturasini, turar joy va idora binolari inter’erini bezaydi. Xotira taxtalari, xotira komplekslari hamda istirohat bog‘i haykallari: statuylar, byustlar, favvoralar, dekorativ guldon kabilar ham shu bo‘limga taalluqlidir.

Stanok haykaltaroshligida — odatda interernibezaydigan cho‘yan, yog‘och, bronza, chinnidan yasalgan kichikstatuetkalar yasaladi. Material asarning nimaga mo‘ljallanganligi hamda yaratilayotgan obrazga ko‘ra tanlanadi.

Plastik tasvirlar orasida aylana haykaltaroshlik yolg‘iz tur emas. Undan tashqari, barelef va gorelef ham mavjud. Relef aylana haykaltaroshlikdan farq qilib, yassi sathda aks etadi. Barelef o‘z hajmining yarmidan kamrog‘iga, gorelef esa yarmidan ko‘prog‘iga bo‘rtib chiqadi. Bu haykaltaroshlik formalaridan idishtovoq sathini, binolarning old tomoni, intereri va shu kabilarni bezashda foydalaniladi.

Loydan narsalar yasash usullari. Loy va plastilin bilan ishlashda kerak bo‘ladigan qoidalar:

Yumaloqlash — bu bir parcha loydan shar yasash, unga olcha, olma kabilar shaklini berishdir.

Bir bo‘lak loydan kaftda aylana harakatlar bilan shar yasaladi.

Shar yasash, so‘ngra uzunasiga harakatlar bilan uni tuxum, ustun kabilarga aylantirish.

Yassilash — sharikdan yassi non yasaladi, qo‘lning holati doimo o‘zgarib turadi.

Cho‘zish — shariqninig bir qismi cho‘ziladi.

Surish (yamash) buyumning ayrim qismlarini o‘zaro biriktirish.

Shuni qayd etish lozimki, O‘zbekiston issiq iqlim sharoitida narsalar yasash bo‘yicha amaliy mashg‘ulotlarni loydan bajargan ma’qul, chunki plastilindan yasalgan narsalar issiqda o‘z shaklini tez yo‘qotadi.

Ishni oddiy, predmetlar: sabzavotmevalarni yasashdan boshlash kerak. Tayyor namuna yoki rasm bo‘yicha ishlashni taklif etish mumkin. O‘quvchilar narsalar yasash usullarini egallab olganlaridan so‘ng o‘yinchoqlar, badiiy bezakli dekorativ idishlarni yasashga o‘tishlari mumkin.

Plastilin – narsalar yasashda qo‘llaniladigan materialdir. U sun’iy plastik massa bo‘lib, loydan hech qachon qurimasligi va doimo ishlatishga tayyorligi bilan farqlanadi. Plastilinning har xil – oddiy va murakkab turlari bo‘lib uni tayyorlashni bir nechta usullari bor.

Birinchi variant – toza quyuq loyga glitserin qo‘shib bir turli massa hosil bo‘lguncha aralashtiriladi. Glitserin tayyorlanadigan massa qo‘lga yopishmaydigan holatga kelguncha qo‘shiladi.

Ikkinchi variant – quritilgan toza loy mayda qilib tuyuladi va unga vazelin qo‘shib, qo‘lga yopishmadigan quyuq massa hosil bo‘lgancha aralashtiriladi. Plastilinga kerakli rangdagi quruq bo‘yoq massasini qo‘shib va puxta aralashtirib bo‘yash mumkin.

Uchinchi variant -1 qism tuprog‘iga 1/5 qism ilitilgan mum hamda plastilin qo‘lga yopishmaydigan darajaga yetguncha glitserin qo‘shib aralashtiriladi.

Loy va plastilin bilan ishlashda kerak bo‘ladigan qoidalar.

1. Plastillin bilan ishlashda ayrim qonun-qoidalarga rioya qilishga to‘g‘ri keladi.

2. Plastilin sovuq bo‘lganda ancha qattiqlashib qoladi.

3. Ish boshlashdan oldin esa uni bir oz yumshatish kerak bo‘ladi.

4. Buning uchun plastilin solingan quticha mashg‘ulot boshlanishidan oldinroq issiqlik manbaiga yaqinroq joyga qo‘yiladi yoki salgina namlangan qo‘lning kaftida tutib turiladi.

5. Natijada plastilin yumshab, ishga tayyor bo‘ladi.

6. Plastilinni qo‘lda uzoq vaqt ushlab turish yaramaydi.

7. Chunki plastilin haddan tashqari yumshab, yopishqoq bo‘lib qoladi.

Savol va topshiriqlar:

1. Loy va plastilin qanday tayyorlanadi?

2. Loy va plastilindan qanday o‘yinchoqlar tayyorlanadi?

3. Loy va plastilindan milliy o‘yinchoqlar ko‘rinishini yasash.

Foydalanilgan asosiy adabiyotlar:

1. R.A.Mavlonova., Satbayeva M.T. O‘quv ustaxonasida amaliy mashg‘ulot. Toshkent «ILM ZIYO» 2010-y.

2. R.A.Mavlonova., Satbayeva M.T. O‘quv ustaxonasida amaliy mashg‘ulot. Toshkent «ILM ZIYO» 2011-y. II nashr.

3. Р.Орени, “Секреты пластилина” Москва., “Махаон” 2015-г.

4. Э.Гребенникова, “Полимерная глина” Москва “АСТ-ПРЕСС” 2013-г.

5. А.Зайцева, А.Дубасова «Чудесный пластилин» Москва, ЭКСМО 2011г.

MAVZU: DURADGORLIK KASBI BILAN TANISHTIRISH. YOG‘OCH BILAN ISHLASH

Reja:

1. Yog‘och bilan ishlash. Yog‘och eng ko‘p tarqalgan material.
2. Yog‘ochdan halq xo‘jaligida foydalanish.

Tayanch so‘z va iboralar: Yog‘och, mozaika, kuydirish, duradgorlik, yog‘och bilan ishlash, taxta, reyka, fanera, lo‘nda, dekorativ tasvirli.

Yog‘och eng ko‘p tarqalgan materiallardan bo‘lib, o‘quvchilar mashg‘ulotlarda ko‘p tarqalgan daraxt turlari bilan tanishib chiqishlari kerak.

Qarag‘ay ko‘p tarqalgan va ishlov berilishi oson daraxtdir. U unchalik qattiq emas, ammo pishiq, yorish, arralash oson, tolalari bo‘ylab randalanadi. Qarag‘ay yo‘gochning rangi bir oz qizg‘ish ottenkali ochiqroqdir.

Qoraqarag‘ay yaxshi ishlanadi, uning yog‘ochi oq rang, ba’zan sarg‘ish ottenkali bo‘ladi. Qoraqarag‘ay strukturasiga ko‘ra qarag‘aydan yumshoq va yengil. Biroq qoraqarag‘ayda butoqlar ko‘p, quriganda yorilib ketadi, bu uning nuqsonidir.

Qayin qarag‘ayga nisbatan pishiqroq va og‘irroq, biroq oson arralanadi va randalanadi, qayin yoqimli qizg‘ish tovlanuvchi ochsariq tasvirga egadir.

Jo‘ka yog‘ochi yumshoq, arralash oson, stameska, pichoq, bilan oson ishlanadi, chetlari uqalanmaydi. darz ketmaydi. Jo‘kani yorish qiyin. Jo‘ka qarag‘ay va qora-qarag‘aydan yengil, sarg‘ishtasvirli oq rangga ega.

Tog‘terak asosan mayda buyumlar yasashda foydalaniladi. yog‘ochi yumshoq, anchagina yengil.

Eman yog‘ochi qattiq, u pishiq va zich hamda og‘ir, chiroyli jigar rangga ega.

Ustaxonalardagi amaliy mashg‘ulotlarda o‘quvchilar asosan qarag‘ay, qora-qarag‘ay, qayin, jo‘ka, tog‘terak bilan ishlashlari kerak. Qarag‘ay va qora-qarag‘ay oson ishlanadi, yaxshi yelimlanadi, yumshoq, yengil jo‘ka dekorativ o‘ymakorlik uchun yaroqlidir.

Texnologiya bo‘yicha mashg‘ulotlarda daraxt va butalarning shoxbargi, shuningdek yog‘ochdan tayyorlangan yupqa taxta, reyka, fanera, DSP va DVP plitalari kabi yarim tayyor mahsulotlardan foydalaniladi. Yog‘och uch yo‘nalishda: tolalari bo‘ylab, ko‘ndalang va tolalarga burchak yo‘nalishda qirqiladi. Yog‘ochga ishlov berishda mayda narsalar yasashda pichoq, qo‘larra, lobzik, parmacha, shtixel (o‘ymakor qalami)dan foydalaniladi.

Pichoq bilan yog‘och maydalanadi, tolalari bo‘ylab yo‘naladi, ko‘ndalangiga kesiladi. Faqat to‘g‘riqatlamli yog‘ochni maydalashda chopqi ishlatiladi.

Yog‘ochni ko‘ndalangiga faqat arralanadi. Kichik teshiklar qilishda parmacha ishlatiladi. Yog‘ochdan qilinadigan ko‘pgina boshqa narsalar lobzik bilan arralanadi.

Yog‘ochdan halq xo‘jaligida foydalanish. Shunday qilib, daraxt hamma yerda bor, unga ishlov berish oson, undan tayyorlangan mahsulotlardan turli maqsadlarda foydalaniladi. Yog‘ochdan uylar, ko‘priklar, deraza romlari, eshiklar deyarli ko‘p narsa yasaladi.

Daraxt va boshqa o‘simlik tolalaridan tayyorlangan plitalar bilan binolarni issiqroq qilish va tashqi tovushlarni o‘tkazmaslik maqsadida ularning devorlari, shiplari qoplanadi. Bundan tashqari. plitalar shtukaturkaning o‘rnini ham bosadi.

Yog‘och shpallarga temiryo‘l izlari yotqiziladi, yog‘och ustunlarga elektr, telefon, radio simlari tortiladi. Chuqur yer ostida yog‘och ustunlar bilan taxtalardagi o‘tish va kavlash joylari himoya qilinadi. Yog‘ochdan temir yo‘l vagonlari, kema, qayiqlar yasaladi. Yog‘och qism mashinalarda, qishloq xo‘jalik mashinalarida, dastgohlar kabilarda mavjud.

Yog‘ochga ximyaviy ishlov berish yo‘li bilan yog‘och smolasi — skipidar, yog‘och sirkasi, turli kislotalar, moy olinadi. Bu moddalardan doridarmon tayyorlashda, teriga ishlov berishda va boshqa maqsadlarda foydalaniladi.

Yog‘och qulay va arzon materialdir. Og‘irligiga ko‘ra u ko‘pgina materiallardan yengil, pishiq, oson va yaxshi ishlanadi, bo‘yaladi, yelim, mix, bolt, shurup yordamida birikadi. Yog‘och qurilmalar issiqni saqlaydi, kuchli tovushlarni o‘tkazmaydi.

Yog‘ochning o‘z nuqsonlari bor. Asosiylari, u tez yonadi, chiriydi, namda o‘z razmeri va formasini o‘zgartiradi.

Yog‘och materiallarining turlari. Yog‘och bu qirqilgan, butoqlari va po‘stlog‘i tozalangan daraxtdan olingan matirialdir. O‘sib turgan daraxtning ildizi, tanasi, po‘stlog‘i shoxlari va barglari bo‘ladi. Duradgorlikda asosan daraxt tanasidan foydalaniladi.

O‘rmon materiallari ikki gruppaga dumaloq yog‘och va arralangan yog‘ochlarga bo‘linadi. Piloramalarda xodalarni uzunasiga kesib taxta va shu kabi materiallar yasaladi.

O‘quv qo‘llanmalarini tayyorlashda odatda reyka, kichik brusok va taxta bo‘laklari ishlatiladi.

Yog‘ochdan shponlar qilinadi, fanerani mana shu shponlar, og‘ochning payraha qilingan yupqa qatlamlarnni yelimlab yasaladi.

Shpon tayyorlash uchun qayin, tog‘terak, olxa, qora-qarag‘ay yoki qarag‘ay g‘o‘lalari bug‘lanadi va maxsus payrahalovchi stanoklarda ulardan uzun pichoqlar yordamida payrahalar olinib, mana shular shpon deyiladi. Stanokdagi g‘o‘la beto‘xtov aylanib turadi, payrahasi esa aylanayotgan qog‘oz rulonidan olinayotgandek olinadi.

Ma’lum o‘lchamdagi shponlar kuchli bosim ostida bir-biri bilan yelimlanadi. Ular ikki qo‘shni qatlamning tolalari o‘zaro tik qilib joylanadi.

Fanera uch, besh, yetti va undan ortiq shponlar qatlamidan oqsil yelimi yoki sun’iy smolalar bilan yelimlanadi. FSB markali alyuminli yelim yoki kazein bilan yopishtirylgan fanera namga bardosh berolmaydi. Nam joyda uning yelimlari ko‘chadi, buziladi. FSB markali smola yelimi bilan yopishtirilgan fanera yelimlanishining pishiqligi va namga bardoshliligi bilan ajralib turadi.

Bir qavatli fanera qimmatli daraxtlar: yong‘oq, eman va shu kabilardan olinadi.

Fanera sanoatda keng qo‘llanadi. Yaxshi qoplama materialdir. Faneradan yasalgan narsalar yaxshi tozalanadi va polirovka qilinadi.

Yog‘ochsozlik sanoati faneraning maxsus sirtlari: suvga chidamli, armirovanniy o‘ta pishiq, ustki qatlami qimmatli daraxt navlaridan qilingan qoplama, ko‘p qavatli qilib ishlab chiqariladi.

Sifatiga ko‘ra fanera sortlarga bo‘linib, u harflar bilan ifoda qilinadi. Eng yaxshi navlar A va AV markalariga ega. Sortlar 2 dan 12 mm gacha qalinlikda ishlab chiqariladi.

O‘quv ustaxonalarida faneradan lobzik yordamida turli dekorativ detallarni, archa bezaklari, harakatli o‘yinchoqlar. modellar detallari kabilarni qirqish mumkin. Tayyorlangan narsalarga lak, politura va mum korejaadi.

Amaliy mashg‘ulotlar jarayonida o‘quvchilar o‘quv jarayonida va dam olish vaqtida kerak bo‘ladigan ko‘pgina, narsalarni yasashlari mumkin. Yog‘ochdan narsalar yasashda boshqa yordamchi materiallar (g‘altak, sim, paralon, penoplast va shu kabilar)dan ham foydalanish mumkin. Yog‘ochning mayda bo‘laklari, shoxlardan jonivorlar, qushlarning ajoyib shakllarini yaratish, turli kompozitsiyalarni tuzish mumkin.

O‘ymakorlik — gravyura qiziqarli ishdir.

Jo‘ka va tog‘terakning yupqa taxtachalari va qayin fanera o‘ymakorlik uchun yaxshi material bo‘la oladi. Kerakli shakl va o‘lchamdagi taxtacha mayda qumli jilvir bilan sayqallanadi, so‘ngra unga qora tush beriladi. Tush qurigandan keyin lak surtiladi. Rangli nusxa ko‘chiradigan qog‘oz yordamida rasm tushiriladi va keyin uni o‘ymakor qalami yordamida o‘yiladi. Rasmni kompanovka qilishda shtrixlarning asosiy massasini yogoch tolalari bo‘ylab tushirish kerak. 0,5 mm dan ortiq o‘ymaslik, o‘ymakorlik qalamining og‘ishi minimal bo‘lishi lozim. Ish jarayonida xavfsizlik texnikasi qoidalariga rioya qilish, chap qo‘lni jarohatlamaslik uchun u qalam tig‘ining orqasida bo‘lishi kerak.

Mozaika (koshin, naqsh). Keyingi yillarda

yog‘ochning turli navlaridan mozaika qilish keng tarqaldi. Bu ish unchalik murakkab emas, uni ustaxona sharoitlarida ham amalga oshirish mumkin. Buning uchun yupqa yog‘och plastinkalar (bir qavatli fanera)dan tasvir yig‘iladi va keyin ularni asosga yelimlab, ustidan lak yoki politura beriladi.

Yog‘och mozaika nabori juda qiziqarli va ishning zamonaviy turidir. Hozirgi kunda u keng tarqalgan. Uning aniq, lo‘nda, dekorativ tasvirli yaltiroq polirovka qilingan sathi kvartiralarning zamonaviy planirovkasiga, devorlar rangi, mebellarning qat’iy qatoriga juda mosdir.

Mozaika bilan mebellarni, jurnal stollari, yodgorliklar va ko‘pchilik shu kabi narsalarni bezash mumkin.

Yog‘ochga qo‘l asboblari bilan ishlov berganda xavfsizlik texnikasining ma’lum qoidalarga rioya qilinishini talab qiladi. Asboblar va moslamalarni ishlatish qoidalarinn bilish, uni ishlatayotgan har bir kishi uchun majburiydir.

Ish jarayonidagi xavfsizlikning qat’iy qoidalari:

Ishni hech qachon o‘qituvchining ruxsatisiz boshlama!

Asboblarni faqat o‘z o‘rnida ishlat!

Yaroqsiz asbob bilan ishlama!

Ishni chet ishlarga chalg‘imay bajar!

Asbob-uskunalarni o‘zi uchun belgilangan joyda saqla!

Uzun kiyimda bo‘lma, yengingni shimar, choklarini yig‘!

Osilib turganda kesma!

Pichoq bilan o‘zing, o‘rtog‘ing tomonga qarab yo‘nma!

Kesilgan, tilingan, shilingan joylarni yuvib,yod surtib, toza bint bilan bog‘la.

Savol va topshiriqlar:

1. Yog‘ochga kuydirib tasvir qanday tayyorlanadi?
2. Yog‘och turlarini va ish jarayoniga tayyorlash usullarini aytib bering?
3. Yog‘ochga bo‘yoqlar yordamida tasvir ishlash..

Foydalanilgan asosiy adabiyotlar:

1. R.A.Mavlonova., Satbayeva M.T. O‘quv ustaxonasida amaliy mashg‘ulot. Toshkent «ILM ZIYO» 2010 .

2. R.A.Mavlonova., Satbayeva M.T. O‘quv ustaxonasida amaliy mashg‘ulot. Toshkent «ILM ZIYO» 2011y. II nashr.

3. Н.Белова, “Игрушки к празднику” Москва Эксмо издательство “Домино” 2005г.

4. Н.М.Конешева “Чудесная мастерская” М., 2000.

MAVZU: BOSHLANG‘ICH SINFLARDA KIYIMLARNI TA’MIRLASH. CHOK TURLARI

Reja:

1. Kiyim ta’mirlash.
2. Tugma qadash.
3. Chok turlari.

Tayanch so‘z va iboralar: Ta’mirlash, tugma, ilgak, tikish.

Kiyimingiz biror joyga ilinib yirtilishi mumkin. Shuning uchun siz albatta kiyimlarni tikish-chatishni, yirtilgan joylarni yamash, yamashni bilib olishingiz mumkin.





Tugma qadash.

Agar tugma tushib qolgan va unga to‘g‘ri keladigan (bor bo‘lsa, o‘zini) bo‘lmasa, hamma tugmalarni olib tashlab, yangi bir xil tugmalarni qadab olish kerak. Tugmalar yengil kiyimlar uchun bir tomonlama, palto, kostumlar uchun ikki tomonlama qadaladi. (ustiga katta tugma, tagiga mayda tugma); rasmda ko‘rsatilgan.

Knopka ilgaklar tikish.

Qadab tikilgan joy kiyimda xunuk ko‘rinmasligi, yaxshi jipslashishi uchun knopkalar ikki qavat matoga tikiladi. Buning uchun raato chetidan tasmasimon astar qo‘yib tikish, knopkaning pzvstki va ustki qismlari tckis jipslashishini ta’minlash uchun knopkalar bir tekis o‘rnatilishi (oldin knopkaning ostki qismni, keyin ustki qismi qadalishi) kerak.

Ilmoqlar tikish.

Ilmoqlarning har xil turlari bor. Ilmoqlar ochilib ketmasligi uchun biriaiag halqachasi chap tomonga, ikkinchisiniki esa o‘ng tomonga tikilgani ma’qul

(masalan, yubkaning yuqori belbog‘ qismida) Ilmoq va uning halqasi mustahkam bo‘lishi uchun ularni ikki qavat matoga qadab tikish lozim. Buning uchun qadaladigan joy aniq belgilanib teshiladi, ilmoqning halqaga tikiladigan qismi sirtga chiqariladi, orqada qolgan qismi teshigiga kamarcha yoki jiyak o‘tkazilib, matoga tikiladi. Ilmoq uch joyidan: teshiklari va ilinadigan qismi tagidan tikiladi. Bunda, 20, 30-nomerli, matoning rangidagi ipdan foydalanish kerak. Ilmoqning metall halqasi bo‘rtgan qismi ko‘zga xunuk ko‘rinmasligiuchun ilinadigan qismigina qoldirilib, olgan qismi matogatekis qadab tikib chiqiladi. Ustidan jiyak tikiladi. Shim ilmog‘iqadalayolganda orqa qismidan mato jiyak, kamarcha o‘tkazilib, shimning kamar qismi astariga tikiladi, ilmoqning ilinadigan qismi chiqarilib, uqori va pastki ikki teshigidan tikiladi.

Ilgak tikish.

Ilgak so‘kilgan bo‘lsa, yana qayta o‘rniga mahkamlab (4-5 marta) chatib qo‘yiladi, agar uzilib ketgan bo‘lsa, o‘ziga to‘g‘ri leladigan gazlamadan bichib olib, yangidan tikiladi. Buning uchun uni 2 sm, bo‘yi 6 sm gazlamani to‘rtga buklab, ochiq tomonini yo‘rmab qiyiq chokda tikiladi. Tayyor ilgakni eski ilgakning o‘rnini tozalab, kiyimning tegishli joyiga qo‘yib qayriladi va avval bir tomonini, keyin ikkinchi tomonini tikib chiqiladi. Mashinada buklangan qirqimlari ustidan bir qator tikiladi.

So‘kilgan chokni tikish. Agar kiyimning choki so‘kilgan bo‘lsa, o‘z yo‘li bilan mashina chokida, yoki qo‘l chokida kiyimga mos rangli ip bilan tikiladi va dazmollanadi.

Yamoq solib tikish. Kiyimning yirtilgan, teshilgan, kuygan, sitilgan joylari bo‘lsa, yamoq ochiladi. Yamoq solish kiyimning turiga qarab, masalan, oddiy yamoq solish kiyimning ustidan yoki tagidan yamoq qo‘yib bostiriladi.

Yirtilgan joyi mo‘ljallab, rangni moslab yamoq qirqib olinadi, hammasini yaxshilab, tekis qilib dazmollanadi. Yamoqni kiyim tagiga yirtiq joyning tagiga qo‘yib ko‘klab chiqiladi. Yirtiqning atrofini qaychi bilan to‘g‘irlab qirqib chiqiladi va ichiga qayirib ostidan yoki yashirin chok bilan tikiladi va ko‘klash choki olib tashlanadi, keyin chok dazmollanadi.

Ust qurma yamoq kiyimlarning simmetriyasiga qarab bajariladi. Masalan, shimning tizzasi yirtilgan bo‘lsa, ko‘ylak yoqasi, tirsagi yoki bitta cho‘ntak yirtilgan bo‘lsa, yamoq har ikkala tizzaga, ikkala tirsakka, ikkala cho‘ntakkabir xil qilib solinadi, bunday yamoqni bezak yamoq deyiladi. Yamab bo‘lingandan keyin bostirib dazmollanadi. Kiyimlarni tuzatishda ish o‘rnini tashkil qillsh bajariladigan ishga qarab ish o‘rni tayyorlanadi. Bajariladigan ushlar qo‘lda tikish, tugma qadash, petlya tikish yamoq solish, ilgak chatishdan iborat bo‘lsa, stol va stulni yomoq yaxshi tushadigan joyga qo‘yiladi. Ish qutichasi va kerakli asboblar tayyorlanadi. Mashina, dazmol ishlari shu

moslamalar turgan joyda bajariladi.

Sanitariya ya gigiyena qoidalari.

Tuzatiladigan kiyimlar yuvilgan, toza, dazmollangan bo‘lishi kerak. Ishni bajarishdan oldin, ish o‘rnini ko‘rib, ortiqcha narsalar bo‘lsa, yig‘ishtirib so‘ngra ishni boshlash maqsadga muvofiqdir. Ish tugagach, yana hamma narsalarni, asboblarni joy-joyiga qo‘yish kerak.

Xavfsizlik qoidalari.

1. Kiyimlarni tuzatishda tikuv mashinasidan, igna to‘g‘nog‘ich, qaychi, angishvonalardan foydalaniladi. Ular bilan ishlaganda ehtiyot bo‘lish kerak.

Qaychining og‘zi ochiq qolmasligi, biror kishiga uzatganda uning uchidan ushlab uzatish lozim.

Ignani og‘izga olib borish, ko‘ylakka qadab qo‘yishhar qayerga tashlash, ipsiz qoldirish eng yomon odat. Ninani biror ip bilan yostiqchaga qadab qo‘yish kerak.

QO‘LDA TIKILADIGAN CHOKLARNING TURLARI

Tepchima chok. Bu chok qanday vazifada ishlatilishiga qarab, 1,5 mm dan to 3 sm gacha uzunlikdagi qaviq bilan tikiladi. Bunda igna bitta yo‘nalishda - buyumga nisbatan o‘ngdan chapga qarab harakatlantiriladi. Bu chok bilan ko‘pincha buyummng

ikkita qismi vaqtincha ko‘klab qo‘yiladi va undan keyin shu chok izidan pishiq tikiladi. Tepchima chok turlari rangdagi iplar bilan mayda qilib tikilsa, bezash choki vazifasini ham bajarishi mumkin. Tepchima chok qaviqlarini bir necha qator qilib bir-biriga parallel holda tikish mumkin. Bunda quyidagi qoidaga rioya qilish lozim: qaviqni tortib tikmaslik va ignaga ipni bir me’yorda o‘tkazish kerak.

Tepchima chok bilan oralatib tikishning ahamiyati shundaki, buyumning ikki bo‘lagi ancha pishiq ulanadi. Bu chok ikki marta tikiladi. Awal buyum mayda qaviqli “tepchima chok” bilan tikilib, keyin buyumni 180° ga aylantirib olinadi va ana shu chok bilan orqa tomonga qarab tikib chiqiladi. Yangi qaviqlar awalgi chok qaviqlari orasiga solinadi; igna esa awalgi qaviq qadalgan joyga sanchiladi. O‘ngidan ham, teskarisidan ham bahya chokning chap tomoniga o‘xshash chok hosil bo‘ladi.

Tepchima chok bilan jimjima tikishchoki. Bu ikki yo‘l tikiladigan elementlar bezak hisoblanadi. Awal buyum o‘ngidan “tepchima chok” tikiladi. So‘ngra igna bilan har

bir qaviq ilib chiqiladi. Agar igna ilon izi qilib harakatlantirilsa, spiralsimon bo‘ladi.

Bosma chok. Bu chok o‘ng tomonidan tepchima chokka o‘xshaydi. U quyidagicha tikiladi. Igna gazlamaning teskarisidan qadab, o‘ng tomonidan tortib olinadi. Orqadan ip qalinligini bir necha hissasi qadar joy tashlab, igna sanchiladi va uch hissa joy tashlab, igna o‘ngiga tortib chiqariladi. Keyingi qadash yana orqadan bo‘ladi. Uni birinchi va oxirgi ipga qadalgan joy orasiga qadaladi. Chokning teskari tomonida uchlari ayqash katta-katta qaviq hosil bo‘ladi. Bu chok qalin gazlamalarni pishiq qilib ulovchi chokdir.

Chetlarni yo‘rmash choki. Buyumning qirqilgan joylari chetlarini yo‘rmash uchun xizmat qiladi. U iplarni titilib ketishdan saqlaydi. Chokni chapdan o‘ngga qarab yoki o‘ngdan chapga qarab tikish mumkin. Ip o‘ramga o‘xshab turadi, buyum cheti qancha zich yo‘rmalansa, chok shuncha pishiq bo‘ladi. Ignani buyum chetidan va bir-birining orasidan baravar masofada olish kerak. Bu chok bilan buyum chetlarini milki bo‘ylab ulash to‘rlarini tikish mumkin. Chetlarni yo‘rmash chokidan faqat buyum chetlarini teskarisidan yo‘rmash uchungina foydalanilmaydi. “Chetlarni yo‘rmash” choki bilan narsalarning, masalan, dastro‘molchaning chetlarini chiroyli va pishiq qilib yo‘rmab chiqish mumkin, bunda chok ikki yo‘l tikiladi. Narsalarning chetlari ikki qavat qilib ingichka qayiriladi va chetlarini awal bir tomonga qarab, keyin ikkinchi tomonga qarab yo‘rmab chiqiladi. Ip chulg‘ami bir-biridan bir xil masofada bo‘lishi kerak.

Halqa choki. Bu chok bilan chetlari yo‘rmab chiqiladi. Shuningdek, bu chok bilan buyum chetlarini zich va pishiq qilib ulash ham mumkin. Chok qanday tikilishiga qarab, bir necha variantda bo‘ladi. Chapdan o‘ngga qarab tikiladigan chokni ko‘rib chiqaylik. O‘ngdan chapga qarab tikiladigan halqa choki bir oz boshqacharoq tikiladi.

Vertikal qaviqlar bir-biriga qancha yaqin bo‘lsa, chok shuncha pishiq bo‘ladi. Igna buyum chetidan va bir-biridan bir xil masofada qadalishiga rioya qilib borish kerak. Ikkiqavat halqa choki buyumlarni bezash uchun ishlatiladi. U ikki yo‘l tikiladi. Awal bir xil rangdagi ip bilan buyum cheti tikib chiqiladi. Vertikal qaviqlar orasidagi masofaning bir xil bo‘lishiga diqqat qilish kerak. Qaviqlarning bo‘yi bir xil bo‘lishi kerak. Keyin boshqa rangdagi ip bilan shu chetning o‘zi yana bir marta halqa choki bilan tikib chiqiladi. Vertikal qaviqlar birinchi qatorning qaviqlari orasiga joylashadi. Farq shundaki, bu qaviqlar yuqoriroqda joylashadi, ya’ni igna material chetidan yuqoriroqqa sanchiladi.

Oddiy buklab tikish. Buyumning chetini buklab tikishdan oldin gazlama chetini teskarisiga qarab ikki marta buklab olish kerak. Qayirmaning eni tikiladigan buyumga bog‘liqdir. Qayirma “Tepchima chok” bilan yo‘rmab chiqiladi. Oddiy qayirishda igna spiralga o‘xshash harakatlantiriladi. Igna bilan buyum asosidan bitta ip, qayirmaning buklangan joyidan esa 2-3 ta ip ilib tikiladi.

Ko‘rinmas chok bilan buklash. Ko‘rinmas chok bilan qaytarishda buyum

cheti buklanadi. Ip ilon izi bo‘lib turadi. Ignaga buyumning asosiy qismidan bitta ip, qayirma chetidan esa 2-3 ta ip ilinadi.

Suv tortish choki. Bu chok tashqi ko‘rinishdan shnurning buralmasiga o‘xshaydi. Bu chokni tikishda ignaning uchi hamma vaqt tikuvchi tomonga qaragan bo‘ladi. Igna gazlama teskarisidan qadaladi va gazlamaning bir nechta ipini tashlab o‘ngidan chiqariladi. Igna pastga qaratiladi va birinchi qaviqning o‘rtasidan tortib chiqariladi. Ikkinchi qaviq birinchi qaviqning oxiridan yarmicha joy tashlab tikiladi. Igna gazlama teskarisidan o‘ngiga birinchi qaviq tugagan joydan chiqariladi va shu kabi. Ip har doim ignaning bir tomonida bo‘ladi. Agar qaviq o‘ng tomondan mayda olinsa, chok chiroyli va bejirim bo‘ladi. Katta-katta qaviq chokni ancha uzun qiladi. Buyum bunday chok bilan tikilsa, ish tez bitadi, lekin uning ko‘rinishi unchalik chiroyli bolmaydi.

Archasimon chok. Bu chokning tekis bo‘lishi uchun qalam yoki ip bilan uchta parallel chiziq belgilab olish kerak. Ip gazlamaning teskari tomonidan o‘ngiga o‘rtadagi chiziqdan chiqariladi. O‘rtadagi chiziq bilan ikki yon tomondagi chiziqlar orasi bir xil bo‘lishi kerak. Igna gazlamaning chap yon chizig‘iga o‘ng tomonidan qadaladi, bunda orqadagi ip qancha bolsa, o‘ngdagi ip ham shuncha olinadi. Dastlab igna qadalgan joydan bir nechta ip tashlab, igna yana o‘rta chiziqqa qadaladi, keyingi safar igna o‘ng tomonga qadaladi. Bunda ip to‘g‘ri qavishdagi kabi bo‘lmay, bir-biriga ilinib, burchak shaklida bo‘ladi.

Ayri chokbuyumlarni hoshiya qilib bezash va buyum chetlarini qayirish uchun ishlatiladi. Chok ikkita parallel chiziq orasiga joylashtiriladi. Qaviqlar bir-biri bilan ayqashadi. Qaviqni har doim o‘ziga qaratib pastdan yuqoriga tikish mumkin.

Zanjir yoki popop choki. Bu chok ko‘pincha kashtaning chetini yoki kashta ichini to‘ldirish uchun ishlatiladi. Chok tikish ipli ignani teskaridan o‘ngga chiqarishdan boshlanadi. Igna bilan chiqqan ip gazlamaning o‘ng tomoniga halqa qilib tikiladi.

Halqa chap qo‘lning bosh barmog‘i bilan ushlab turiladi va igna ip chiqqan teshikka sanchiladi. Igna chiqqan teshik halqa ichida qolishi lozim. Igna ustiga tortiladi. Shunday qilib, ketma-ket zanjirlar hosil bo‘la boradi. Zanjirlar o‘lchami bir xil yoki turlicha bo‘lishi mumkin, bu esa tikiladigan kashtaning o‘lchamiga bog‘liqdir. Talabalar tanishi lozim bo‘lgan asosiy chok turlari shulardan iborat. Ko‘rinib turibdiki, bitta chok bir nechta vazifani bajarar ekan. Masalan, halqa choki bezak choki ham, ulash choki ham, mustahkamlash choki ham bo‘lmoqda. Eng oddiy chok — “tepchima chok” — ham ulash, ham bezash choki bo‘lishi mumkin.

Quyidagi choklarga e’tibor qiling:

— Zanjir chok



— Oddiy tepchima chok.

— Bahya chok.

— Sirtmoqsimon chok.

— Xoch chok.

— Poyasimon bahya chok.

— Halqa chok.

— Archasimon chok.

Savol va topshiriqlar:

1. Kiyim ta’mirlash usullarini ayting.

2. Qanday chok turlarini bilasiz?

3. Tikish ishlarida sanitariya va texnika xavsizlik qoidalariga rioya qilish haqida ma’lumot bering.

Foydalanilgan asosiy adabiyotlar:

1. R.A.Mavlonova., Satbayeva M.T. O‘quv ustaxonasida amaliy mashg‘ulot. Toshkent «ILM ZIYO» 2010-y.

2. R.A.Mavlonova., Satbayeva M.T. O‘quv ustaxonasida amaliy mashg‘ulot. Toshkent «ILM ZIYO» 201-y. II nashr.

3. Q.M.Abdullayeva, M.A.Maxsumova, M.X.Raximjonova, “Gazlama badiiy ishlov berish” 2006-y.

4. К.Матицелло “Аппликация из ткани” Москва 2007г.

5. Э.Глинская, “Азбука вышивания” Т., “Мехнат” 2000г.

MAVZU: YUMSHOQ O‘YINCHOQ TIKISH. IGNA QADAGICH VA USHLAGICH TIKISH

Reja:

1. Yumshoq o‘yinchoqlar haqida ma’lumot.
2. Yumshoq o‘yinchoqlar tikish texnologiyasi.

Tayanch so‘z va iboralar: Yumshoq o‘yinchoq, igna, ip, yelim, bezash, qiyqimlar, paxta, suniy paxta, sun’iy iplar, viskoza.

Hozirgi paytda yumshoq o‘yinchoqlarga bo‘lgan talab kundan-kunga ortib bormoqda.

Shunga ko‘ra o‘quvchilar o‘z qo‘llari bilan yumshoq o‘yinchoqlarni tikishni zavqli mashg‘ulotga aylantirish va foydali texnologiyaga aylantirish mumkin. Tayyor o‘yinchoqlarning andoza chizmasi olinadi va o‘yinchoqlarni berilgan katakchalar yordamida 2, 3, 4 va bir necha marta kattalashtirib andozani unga ko‘ra tayyorlash qulaydir. Tikish usullarini esa, yaxshi bilasiz. Har bir o‘yinchoqning qismlari bir-biriga tikilgach, ichki qismlarini tashqariga ag‘darishni unutmang. Lekin uning ichiga esa gazlama bo‘laklari, qiyqimlar, paxta, suniy paxta (sentifon) tiqilishi mumkin. Ayrim o‘yinchoqlarning old va orqa oyoqlari mahkam turishi uchun simdan karkas sifatida foydalaniladi. Ko‘z, shoxchalarni yog‘ochdan ham tayyorlash mumkin. Ba’zan ko‘z sifatida chiroyli tugmachalardan ham foydalanish tavsiya etiladi. Mazkur detallar kartondan yasaladigan bo‘lsa, guash, akvarelda bo‘yalib, ustidan lak qoplanadi.

Kerakli asboblar:

Ignalarning turli katta-kichiklari.

G‘altakli turli rangdagi iplar.

Rangli mulina iplari.

Turli rangdagi ipakli iplar.

1 dona qaychi.

Bigiz.

1 dona omburi.

Dazmol.

Yog‘ochli, temirli tayoqcha (paxta to‘ldirish uchun)

Tikuv mashinasi.

Oddiy qalamlar.

Loy yasashda ishlatiladigan tayoqcha.

Rasm chizish uchun mo‘yqalamlar.

2 dona doiraviy ombur.

Har xil kattalikdagi igna.

Har xil rangdagi turli qalinlikdagi 10, 40, 50, 60 iplar.

Har xil rangdagi ipak ip.

Dag‘al iplar.

Yumshoq jag‘li ombur.

O‘tkir jag‘li ombur.

Angishvona.

Dumaloq yog‘och (paxta tikish uchun).

Qalam.

Kerakli ashyolar:

Yumshoqo‘yinchoquchun: iloji boricha yangi mato yoki avvaldan yuvib, dazmollangan satin, duxoba, shtapil, pahmoq, chit, junli matolar tanlanadi.

O‘yinchoq hayvonlarni tayyorlash uchun: sun’iy va tabiiy jun matolaridan foydalaniladi. Tana, yuz ko‘rinishlarini tasvirlovchi qo‘g‘irchoq o‘yinchoqlar uchun: shifon, shoyi matolar. Yuz uchun: och pushti, och jigarrang matodan olinadi.

Kiyimlari uchun: rangli matolar. Soch uchun: sun’iy iplar, viskoza, qismlarni biriktirishda 1-2 mm yumshoq simlardan o‘yinchoqlarni jihozlashda, har xil tugmacha, marjon, lentachalar, shnurlar hamda qoralama tayyorlash uchun plastilin zarur. O‘yin’choq ichini paxta, sintefon, trikotaj chiqindilari, averlo tikishda chiqqan qirindilar, yog‘ochdan chiqqan qipiq bilan to‘ldirish mumkin.

Yumshoq o‘yinchoq tayyorlashga o‘rgatishni nimadan boshlash kerak?

Dastlab, bolalarni igna ushlashga, igna to‘g‘nog‘ichdan o‘rinli foydalanishga, texnika vavfsizligini ta’minlash, so‘ng eng oddiy chok turlarini tikishga o‘rgatish zarur. Chok turlarini o‘rgatish uchun amaliy bir necha ish tavsiya etiladi (ro‘molcha tikish, haltacha, kitob uchun xatcho‘p). Bu esa bolalar chok turlarini tikish malakasini egallashlariga sharoit yaratadi. Bolalarda igna bilan ishlash malakasi hosil bo‘lgandan so‘ng, oddiy model tayyorlashga o‘tiladi. Kichik bolalar qo‘lda tikadilar, kattaroq bolalar tikuv mashinada tikishlari mumkin.

Yumshoq o‘yinchoq tayyorlash jarayoni quyidagi ishlardan iborat: mato tanlash, g‘ijim bo‘lak matoni dazmollash, matoga andozani chizish, qismlarni bichish, tikish, ichini to‘ldirish, ustini jihozlash.

Andoza qanday tayyorlanadi? Andoza kartondan tayyorlanadi. Bichishda mato ikkiga buklanadi, uning chap tomoniga andoza qo‘yib, uchi yaxshi ochilgan qalam bilan tayyorlanayotgan bo‘lsa, andoza har bir bo‘lak mato ustiga ipni qiyalab yo‘nalgan tomoniga qo‘yiladi. To‘q mato bo‘lsa, andoza oq yoki sariq rangli qalam bilan, och rangli mato bo‘lsa qora rangli uchi yaxshi ochilgan qalamdan foydalaniladi.

Chizib olingan matoning har tomonidan 0,5 sm chok uchun qoldirib, qirqiladi, so‘ng qo‘lda yoki mashinada tikiladi. Burchaklari o‘ng tomonidan chiqariladi. Tayyor tikilgan shakl metall tayoqcha yordamida o‘tmas tomoni bilan o‘ngiga ag‘dariladi.

Agar o‘yinchoq tabiiy jundan tayyorlanayotgan bo‘lsa, chok haqi qoldiriladi, chetlari qalin ipda tikiladi. O‘yinchoq titiluvchan matodan bo‘lsa chok haqi qodirilmaydi, o‘yinchoq bichib bo‘lgandan so‘ng, ustki qismdan halqa choki bilan

tikiladi.

Hayvon va qushlarni tikish quyidagi qoida bo‘yicha: avval tana va qorin qismlar bir-biriga tikiladi. Shaklning ikki yarmi tayyor bo‘lgandan so‘ng ularni birga tikiladi. Shakl o‘ngiga ag‘darilib, ochiq qoldirilgan joydan ichi to‘ldiriladi, qismlar bir-biriga ko‘rinmas chok bilan birlashtirib tikiladi. O‘yinchoqning ichi paxta yoki mayda mato qiyqimlari bilan to‘ldiriladi, oyoq qismlarini tayoqcha yordamida to‘ldiriladi.

Bolalar texnik jarayon bilan tanishtirilgandan so‘ng o‘yinchoq tayyorlashga o‘tiladi.

O‘yinchoq tayyorlash murakkabligiga qarab ikki guruhga ajratiladi:

1-guruh (kichik bolalar) yengil to‘ldiriladigan o‘yinchoqlar (tovuq, matreshka qo‘g‘irchog‘i, pingvin, o‘rdakcha, kuchukcha, filcha, quyoncha, ayiqcha, xo‘tikcha, jirafa, pastki qismi tikilgan qo‘g‘irchoq).

2-guruh qo‘g‘irchoq teatri uchun qo‘g‘irchoq personajlari (ayiqcha, maymuncha, qo‘g‘irchoq, mushuk, sim sinch o‘rnatilgan o‘yinchoq).

Eslatma: berilgan andoza qanday kattalikda bo‘lsa, shundayligicha tikilishi kerak. Kattalashtirishga berilgan, kattalashtirishi kerak bo‘lgan o‘yinchoq katak ichida chiziladi.

O‘yinchoqlar tayyorlashni kattalar ham, bolalar ham yaxshi ko‘radilar. Bular bolalar uchun bir ermak o‘yin bo‘lsa, kattalar uchun bolalar qalbiga yo‘l topishdir. O‘yinchoqlar yasash bolalarning fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi, saviyasini kengaytiradi, ijodiyotga qiziqishni tarbiyalaydi. O‘yinchoqlarni bolalar bilan birga yasash va texnologiya qilish bo‘lib qolmasdan, balki ijod qilish, fikrlash hamdir. Ular o‘zlari yasagan o‘yinchoqlarida o‘zlarining ajoyib-g‘aroyib istaklarini, orzularini ko‘radilar. Shuning uchun ularning texnologiyalarini qadrlash va texnologiya qilishga qiziqtirish lozim. Bu esa ularda maqsadga intiluvchanlik, tashabbuskorlik, tirishqoqlik,

o‘zaro yordam berish, texnologiyasevarlik, e’tiborlilik, batartiblikni tarbiyalaydi.

O‘yinchoqlarni tikishda chok, yo‘rma chok, qoviq chok, bosma chok, sirtmoqsimon choklardan foydalaniladi. O‘yinchoq tayyorlashda, eng avvalo, kartondan andoza tayyorlanadi. Berilgan chizmalarni kattalashtirish lozim bo‘lsa, kerakli o‘lchamda katakchalar chizib olib, ular va chizmadagi katakchalar bir xil sonlar bilan belgilanadi. So‘ng har bir katakning ichidagi chizma chizib chiqiladi. Shunda chizma kerakli o‘lchamda kattalashtiriladi. Andoza gazmolga qo‘yib bichiladi. Bichishda gazmoldan 8 mm tikish uchun qoldirib so‘ng qirqiladi. Tikish tayyorlangan o‘yinchoqning ichi har xil paxta, parolon va trikotaj qiyqimlari bilan to‘ldirilib, tayyorlanadi. Bosh qismini bezatish uchun tugmacha, munchoq, yaltiroq charm yoki kleyonka ishlatiladi.)

Sichqoncha o‘yinchog‘ini tikish. Sichqonchani och havo rang yoki kul rang sidirg‘a matodan tikish mumkin. Mato ustiga tana andozasini qo‘yib ikki marotaba chizib oling, keyin qorin andozasini ham xuddi shunday qiling. Hamma andozalarni chizib olganingizdan keyin matodan qirqib olib, tananing bir tomoniga qorinning bir tomonini halqa choki bilan tikasiz. Tikishda ko‘rsatilgan harflarga e’tibor bering. Avval 4 ta quloq detalidan ikkitasini alohida tikasiz. Andozaning bosh peshonasi, bosh qismining ikki tomoniga quloqlari tikiladi. Tayyor bo‘lgandan so‘ng ichiga paxta solib ko‘zini ko‘zmunchoq donasidan tikamiz.

Savol va topshiriqlar:

1. Yumshoq o‘yinchoqlarning qanday turlari bor?
2. Qanday materiallardan yumshoq o‘yinchoqlarni tayyorlash mumkin?
3. Gazlamadan yumshoq o‘yinchoqlar tikish.

Foydalanilgan asosiy adabiyotlar:

1. R.A.Mavlonova., Satbayeva M.T. O‘quv ustaxonasida amaliy mashg‘ulot. Toshkent «ILM ZIYO» 2010-y.

2. R.A.Mavlonova., Satbayeva M.T. O‘quv ustaxonasida amaliy mashg‘ulot.

Toshkent «ILM ZIYO» 201-y. II nashr.
3. Н.Денисова. “Пушистикиимохнатики.” Москва «Айрис пресс» 2006-г.
4. А.Столярова, “Игрушки подушки” Культура и традиция 2003-г.

MAVZU: BOSHLANG‘ICH SINFLARDA TIZIMCHA BILAN ISHLASH VA TO‘QISH USULLARI

Reja:

1. Tizimcha va arqonlar bilan ishlash.
2. Tizimcha bilan ishlash texnologiyasi.

Tayanch so‘z va iboralar: yelim, bezash, qiyqimlar, paxta, suniy paxta, sun’iy iplar, viskoza, tizimcha, to‘qish, tikish, lentalar.

Tizimcha va arqonlar bilan ishlash. Tizimcha va arqonlar bilan ishlashda turli xil ko‘rinishdagi sovg‘alarni tayyorlash mumkin.

1-sinfda shablonlar tarqatiladi. Bolalar esa ularni chizib oladilar va faqat chi/ilgan joyning ustiga tesmalarni yopishtirib chiqiiadi.

2-sinfda shablonlar tarqatiladi va shablonlarning cheti va ichlari tikib yoki yopishtirib chiqiladi.

3-sinfda hajmli buyumlarga aplekatsiya ishlanadi. Ya’ni biror bir hajmli buyumning ustiga lentalar bilan aplekatsiya ishlanadi.

4-sinfda lenta bilan ishlanadi

Sovunli va tizimchali sovg‘alarga quyidagi narsalar kerak bo‘ladi:

1. sovun.
2. 60-70 tagacha bulavka.
3. 4-5 metr lenta
4. ruchkaning tugagan pastasi yoki sim kerak bo‘ladi.

Bunda asosan sovunni ikki tomonda bulavka qadaladi. Ularning qarama-qarshiligiga e’tibor berish kerak. So‘ngra tizimchalar ustki va pastki qisimlari bo‘ylab aylantirib o‘raladi. Boshi va oxirgi tomoni chiqib ketmasligi uchun bulavka bilan sovunga qadab qo‘yiladi. So‘ngra boshqa rangdagi tizimcha bilan bir marotaba

ustidan aylantirib chiqiladi. Tizimchaning o‘zidan turli xil gullar yasab bulavkalar yordamida qadab qo‘yiladi. Bundan tashqari uy dekori uchun ham tizimchalardan turli gullar tayyorlash mumkin. Panno va yostiqchalarni bezash uchun tizimchadan unumli foydalanish mumkin.

Savol va topshiriqlar:

1. Tesmalardan to‘qish usulida nimalarni bezash mumkin?
2. Qanday materiallardan va tesmadan o‘yinchoqlar tayyorlash mumkin?
3. Tesmalardan gullar yasab yostiqni bezash yoki panno yaratish.

Foydalanilgan asosiy adabiyotlar:

1. R.A.Mavlonova., Satbayeva M.T. O‘quv ustaxonasida amaliy mashg‘ulot. Toshkent «ILM ZIYO» 2010-y.

2. R.A.Mavlonova., Satbayeva M.T. O‘quv ustaxonasida amaliy mashg‘ulot. Toshkent «ILM ZIYO» 2011-y. II-nashr.

3. А.Г.Чернова. “Вышивка из тесьмы” Ростов-на-Дону «Феникс» 2006-г.

4. С.В.Офицерова, “Вязанные игрушки” Москва “АСТ-ПРЕСС” 2013-г.

ASOSIY ADABIYOTLAR:

1. R.A.Mavlonova., Satbayeva M.T. O‘quv ustaxonasida amaliy mashg‘ulot. Toshkent «ILM ZIYO» 2010-y.

2. R.A.Mavlonova., Satbayeva M.T. O‘quv ustaxonasida amaliy mashg‘ulot. Toshkent «ILM ZIYO» 2011-y. II nashr.

3. Sanaqulov X.R., Xodiyeva D.P. Satbayeva «Texnologiya va uni o‘qitish metodikasi». Darslik. T.: TDPU. 2015 yil.

4. Mavlonova R.A., Sanaqulov X.R., Xodiyeva D.P. Texnologiya va uni o‘qitish metodikasi. O‘quv qo‘llanma. T.: TDPU. 2007 yil.

5. Sanaqulov X.R., Xodiyeva D.P. Boshlang‘ich sinflarda qo g‘ozdan amaliy ishlar. O‘quv-metodik qo‘llanma. T.:Navro‘z. 2013 yil.

QO‘SHIMCHA ADABIYOTLAR:

6. Sanaqulov X.R., Xodiyeva D.P., Sanaqulova A.K. “Texnologiya” 2-sinf darsligi. T.: “Sharq”. 2018 yil

7. Sanaqulov X.R., Xodiyeva D.P., Sanaqulova A.K. Texnologiya ta’limi 3-sinf darsligi. T.: “Sharq”. 2016 yil

8. The Exquisite Book of Paper Flowers: A Guide to Making Unbelievably Realistic Paper Blooms. USA, 2014. PaperbackNew York, Boston.

9. О.Гулидова. “Деревья из бисера” Москва «Аст-пресс» 2011 г.

10. А.Зайцева «Бумажное кружево» Москва, ЭКСМО 2010 г.

11. Н.Васина «Чудесный картон» Москва, Айрис-Пресс 2013 г.

12. Б.Б.Гончар «Модульный оригами» Москва, Айрис-Пресс 2009 г.

13. Н.Б.Троицкая «Нестандарние уроки и творческие занятия» ДРОФА 2006 г.

14. А.Зайцева, А.Дубасова «Чудесный пластилин» Москва, ЭКСМО 2011 г.

15. А.Зайцева, А.Дубасова «Папъе-маше» Москва, ЭКСМО 2010 г.

16. Й.Румянцева, «Простые поделки из пластилина» Москва, Айрис-Пресс 2013 г.

17. Т.Б.Сержантова «Оригами базовые формы» Москва, Айрис-Пресс 2009 г.

18. Т.Б.Сержантова «Оригами лучшие модели» Москва, Айрис-Пресс 2010 г.

19. Н.Б.Троицкая, Г.А.Королёва. «Праздники в школе» ДРОФА Москва 2005 г.

20. И.Хананова, “Саленное тесто” Москва “АСТ-ПРЕСС” 2012 г.

21. Э.Гребенникова, “Полимерная глина” Москва “АСТ-ПРЕСС” 2013 г.

22. Р.Орени, “Секреты пластилина” Москва., “Махаон” 2015 г.

23. М.Третьякова, “Цвети из гофрированной бумаги” СКИФ г. Пермь 2013 г.

24. О.Белякова, А.Найдёнова, Э.Салкова, “Бисер и стильные вещи своими руками” Ростов на Дону 2009 г.

25. Галанова Т.В., “Оригами из ткани” Москва “АСТ-ПРЕСС” 2015 г.

26. С.В.Офицерова, “Вязанные игрушки” Москва “АСТ-ПРЕСС” 2013 г.

27. С.Гринт, “Природный материал” Москва, АЙРИС-ПРЕСС 2005 г.

28. И.Богатова, “Квиллинг 70 моделей” Мартин Москва 2011 г.

29. К.Матицелло “Аппликация из ткани” Москва 2007 г.

30. О.Черибрикова “Забавные подарки по поводу и без” Москва Эксмо., 2006г.

31. Э.Глинская, “Азбука вышивания” Т., “Мехнат” 2000 г.

32. Л.Рогачевская, “Ажурный квиллинг” Москва “АСТ-ПРЕСС” 2014 г.

33. Г.Анохина, А.Кацияева “Весёлые фигурки и забавные модели из бумаги” Ростов-наДону, “ИД.Владис” 2012 г.

34. Н.Белова, “Игрушки к празднику” Москва Эксмо издательство “Домино” 2005 г.

35. Э.Стольная, “Цветы и деревья из бисера” издательство Мартин 2005 г.

36. Э.К.Гулянс, И.Й.Базик “Что можно сделать из природного материала” 2000 г.

37. А.Зайцева «Модульный оригами» Москва, ЭКСМО 2014 г.

38. Т.Б.Сержантова “Оригами лучшие модели” М., АЙРИС-ПРЕСС 2010 г.

39. М.О.Синеглазова “Удивительное солёное тесто” Москва МСП 2005 г.

40. С.Й.Афонкин, Э.Й.Афонкина “Все об оригами” УАБ “Бециари” 2014 г.

41. А.Сеглова “Лучшая книга по оригами” Ростов-на-Дону 2010 г.

42. Т.Просникова “Забавные фигурки модульное оригами” Москва “АСТ-ПРЕСС” 2013 г.

43. А.Юртакова, Л.Юртакова “Квиллинг создаём композитную из бумажных лент” Москва Эксмо., 2014 г.

44. Л.Г.Куликова, Л.Й.Короткова “Цветы из бисера” Москва Эксмо., 2005 г.

45. И.Богатова “Оригами цветы” Мартин Москва 2015 г.

46. О.О.Пянникова, А.Б.Ярошевич “Секреты оригами шаг за шагом” Москва, ЭКСМО 2014 г.

47. Т.О.Скрабцова, Л.А.Данильченко “Объёмные картинки из кожи и ткани” Ростов-на-Дону 2006 г.

48. Н.М.Конешева “Чудесная мастерская” М., 2000 г.

49. А.Гаврилова “Узоры и орнаменты из бумаги” М., 2012 г.

50. R.Ishmuhamedov, A.Abduqodirov, A.Pardayev. Tarbiyada innovatsion texnologiyalar. Toshkent 2010-y.

51. R.Ishmuhamedov, A.Abduqodirov, A.Pardayev. Ta’limda innovatsion texnologiyalar. Toshkent 2008-y.

52.A.X.Qosimov, F.A.Holiqova. Pedagogik mahorat va pedagogik texnologiyalar. Fanidan ma’ruzalar matni. Toshkent 2004 y. (internet)

53.Q.M.Abdullayeva, M.A.Maxsumova, M.X.Raximjonova, “Gazlama badiiy ishlov berish” 2006-y.

USA, 2014

Internet saytlar

7. www. tdpu.uz

8. www. pedagog.uz

9. www. ziyonet.uz

10.www.lex.uz;

11.www.bilim.uz;

12.www.gov.uz;

MUNDARIJA

KIRISH.....3
I BOB. TEXNOLOGIYA VA UNI O‘QITISH METODIKASINING UMUMIY MASALALARI
1.1.TEXNOLOGIYA TA’LIMI VA TARBIYASINING MAQSAD VA VAZIFALARI…….....4-12
2. TEXNOLOGIYA VA UNI O‘QITISH METODIKASI FANINING NAZARIY VA AMALIY ASOSLARI…….....13-22
3. 1-9-SINFLARDA TEXNOLOGIYA FANI MAZMUNI VA KASBIY TAYYORGARLIK…….....23-28
4. BOSHLANG‘ICH SINF TEXNOLOGIYA DARSLARIGA KOMPETENSION YONDASHUV…….....29-31
5. TEXNOLOGIYA TA’LIMINING SHAKL VA METODLARI…….....31-46
6. TEXNOLOGIYA FANI DARSLARIGA INTEGRATSION YONDASHUV…….....47-51
7. O‘QUVCHILARNING MEHNAT TARBIYASIDA MEHNAT AN’ANALARINING O‘RNI…….....52-55
8. MUTAFAKKIRLAR MEROSIDA MEHNAT TARBIYASI 56-64
9. TEXNOLOGIYAGA OID SINFDAN TASHQARI MASHG‘ULOTLAR VA TO‘GARAK ISHLARINI TASHKIL QILISH…….....65-71
10. BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA MEHNAT TARBIYASI VA KASB-HUNAR TURLARI…….....71-84
11. TEXNOLOGIYA DARSLARIDA O‘QUVCHILARNI KASB-HUNARGA YO‘NLTIRISH TEXNOLOGIYALARI…….....84-86
12. BOSHLANG‘ICH SINFLARDA TEXNOLOGIYA TA’LIMIDAN AMALIY ISHLAR …….....87-94
13. TEXNOLOGIYA DARSLARIDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH…….....91-108
14. INTERFAOL USULLARNI TEXNOLOGIYA DARSLARIDA FOYDALANISH USULLARI…….....108-116
15. TEXNOLOGIYA TA’LIMI VA TARBIYASINING UZVIYLIGI.....108-116
II-MODUL. TEXNOLOGIYA DARSLARINI TASHKIL ETISH METODIKASI
16. APPLIKATSIYA VA MOZAIKA BILAN ISHLASH DARSLARINI TASHKIL ETISH METODIKASI…….....134-143
17. MOZAIKA (NAQSH) HAQIDA MA’LUMOT…….144-147
18. TUXUM PO‘CHOG‘IDAN O‘YINCHOQLAR TAYYORLASH VA MOZAIKA…….....148-150
19. SOMONDAN KOMPOZITSIYA TAYYORLASH…….150-153
20. QOG‘OZ VA KARTON BILAN ISHLASH DARSLARINING

MAZMUNINI TASHKIL ETISH METODIKASI…….....153-156
21. QOG‘OZNI O‘LCHASH, BUKLASH VA TAXLASH ORQAlI TO‘G‘RI TO‘RTBURCHAK QOG‘OZDAN BUYUMLAR YASASH. (ORIGAMI).....157-160
22. KARTON QOG‘OZLARDAN DARSLAR UCHUN SHABLON. TRAFARET YASASH. BUKLET VA SOVG‘A YON DAFTARCHA….....161-163
23. QOG‘OZNI QIRQIB YOPISHTIRISH USULLARI. SIMMETRIK, ASSIMMETRIK, NAQSH QIRQISH…….....164-166
24. KARTON QOG‘OZLAR BILAN ISHLASH USULLARI……...166-172
25. QOG‘OZDAN TO‘QISH USULLARI. XATCHO‘P, GILAMCHA VA SAVATCHA……...…….....173-176
26. TEXNIKA HAVFSIZLIGI QOIDALARI……...176-178
27. QOG‘OZ VA TURLI MATERIALLARDAN ARCHA BEZAKLARINI YASASH.....179-181
28. PAPYE-MASHYE USULIDA ISHLASH. IDISHLAR, MEVA SABZAVOTLAR TAYYORLASH…….....182-184
29. HARAKATLI O‘YINCHOQLARNI TAYYORLASH USULLARI……...184-186
30. TEXNIK MODELLASHTIRISH HAQIDA UMUMIY MA’LUMOT ARXITEKTURA INSHOATLARINI VA MEBELLARNI LOYIHALASH.....187-190
31. TABIIY NARSALARNI YIG‘ISH, SAQLASH, TAYYORLASH VA ULAR BILAN ISHLASH USULLARI…….....191-195
32. BARG VA URUG‘LAR BILAN ISHLASH, KOMPOZITSIYA TAYYORLASH. TURLI YONG‘OQLAR BILAN ISHLASH…….....195-198
33. YELIM (PLASTMASSA), PARALON VA PENOPLAST BILAN ISHLASH…….....299-200
34. METALL VA SIMLAR BILAN ISHLASH. SIM VA KAPRONDAN O‘YINCHOQLAR, GULLAR TAYYORLASH…….....201-204
35. SIM VA BISERLAR BILAN XASHORATLAR TO‘QISH USULLARI…....204-206
36. PLASTILIN VA LOY BILAN ISHLASH DARSLARINI TASHKIL ETISH METODIKASI …….....206-211
37. DURADGORLIK KASBI BILAN TANISHTIRISH. YOG‘OCH BILAN ISHLASH…….....212-215
38. BOSHLANG‘ICH SINFLARDA KIYIMLARNI TA’MIRLASH. CHOK TURLARI…….....216-221
39. YUMSHOQ O‘YINCHOQ TIKISH. IGNA QADAGICH VA USHLAGICH TIKISH…….....226-227
40. BOSHLANG‘ICH SINFLARDA TIZIMCHA BILAN ISHLASH VA TO‘QISH USULLARI…….....230

KUTTIBEKOVA GULJAN TULEPBAYEVNA

TEXNOLOGIYA VA UNI O‘QITISH METODIKASI

nomli o‘quv qo‘llanmasi
Boshlang‘ich ta’lim bakalavriat ta`limiy yo`nalishlari uchun

O‘quv qo‘llanma

O‘zbekiston Matbuot va axborot agentligining «Fan ziyosi» nashriyotiga
2021 yil 14 fevralda berilgan 308197041-sonli litsenziyasi
Nashriyot manzili: Toshkent shahri, A.Navoiy ko‘chasi, 30 uy.

Ofset qog‘ozi. Bichimi 60x84/16
Times garniturasida ofset usuli. Shartli bosma tabog‘i 13,75
Buyurtma № 51.11.12.2022. Adadi 100 nusxada
«Munis design group» MChJ bosmaxonasida chop etildi.
100000 Toshkent sh., Buz-2 mavze, 17-A uy.